



# SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O'RGNATISH MILLIY MARKAZI

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA INTEGRATSİYALASHTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI

MAVZUSIDA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



8-APREL



SAMARQAND-2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYAT PEDAGOGLARINI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**"MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO  
BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA INTEGRATSIYALASHTIRILGAN  
TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI"**

Rspublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari  
Samarqand 2023-yil 8-aprel

**Tahrir hay'ati:**

- |                   |   |   |
|-------------------|---|---|
| A.A.Ibragimov     | - | Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, bosh muharrir         |
| M.B.Raximqulova   | - | Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, tahrir hay'ati a'zosi                  |
| G.Sh.Fayzullayeva | - | - Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, tahrir hay'ati a'zosi                |
| Z.Sh.Qarshiyeva   | - | Pedagogika fanlari nomzodi, tahrir hay'ati a'zosi konferensiya koordinatori |
| D.T.Rabbonayeva   | - | Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zosi konferensiya koordinatori           |
| D.J.Jurayeva      | - | Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zosi konferensiya koordinatori           |
| M.Z.Nigmatova     | - | Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo                                       |
| J.X.Shodiyeva     | - | O'qituvchi, tahrir hay'ati a'zosi konferensiya koordinatori                 |
| G.A.Ergasheva     | - | Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo                                       |
| T.K.Tolipova      | - | Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo                                       |
| O.X.Tuxtayev      | - | Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo                                       |
| H.K.Qoraboyev     | - | Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo                                       |
| D.A.Nurmanova     | - | O'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo   |
| U.I.Suvankulov    | - | o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo   |

# MUNDARIJA

## 1-YO'NALISH

### XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING MILLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

*N.T. Muxiddinova*

Xalqaro baholash dasturlarining - ta'lism sifatini oshirishdagi roli

5

*N.R.Xo'jamqulova*

Xalqaro tadqiqotlar doirasida boshlang'ich sinflar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishslash texnikasi (xalq og'zaki ijodi asosida)

7

## 2-YO'NALISH

### BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) GA TAYYORLASH

*G.Raxmatova*

O'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda PIRLS tadqiqotining o'rni

11

*I.X.Narzikulova*

TIMSS dasturi asosida topshiriqlar yaratish va kreativ ishslash texnologiyasi

14

*M.Sh.Jo'rayeva*

PIRLS: Adabiy xarita orqali matnni tahlil qilish

18

*M.I.Mingboyeva*

Boshlang'ich sinflarda maqollarni PIRLS tadqiqoti bo'yicha tahlil qilish

22

## 3-YO'NALISH

### MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMIDA STEAM YONDASHUVI ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*G.A.Abdukarimova*

STEAM ta'lism texnologiyalari

25

*M.Islomova*

Ta'lism tizimida steam yondashuvi orqali o'quvchilarda xxi asr ko'nikmalarini rivojlantirish Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida TRIZ topshiriqlaridan foydalanish

27

*F.A.Nazarova*

Maktabgacha va maktab ta'limalda steam yondashuvi orqali ta'lism samaradorligini oshirish

31

*Z.M. Nasimova*

O'quvchilar ijodkorlik faoliyatida ТРИЗ (IMEN) metodikasidan foydalanishning afzalligi

35

*L.E.Bobomurodova,*

Ta'lism sifatiga erishish "Umumiy pedagogika"

39

*O.O.Yusupov*

fani taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari sifatida

41

*M.S. Abduvoxidova*

Pedagogik texnikani shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari - pedagogik muammo sifatida

46

*Mavlonov M.O*

**5-YO‘NALISH**  
**BOSHLANG‘ICH TA’LIM YANGI AVLOD DARSLIKHLARI**  
**BILAN ISHLASHDAGI MUAMMOLAR**

<b>M.I. Нуриддинова, М. Расулова</b>	Методические особенности обучения интегрированных уроков по природоведению в начальных классах	51
<b>Д.Т. Болтаева</b>	Особенности работы со сказкой на уроках литературного чтения в начальной школе	53
<b>B.Xusenova</b>	Boshlang‘ich sinfda geometrik tushunchalarni hayot bilan bog‘lashning ayrim jihatlari	56
<b>O‘B.Xidirova</b>	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil etishda o‘qituvchining kreativ yondashuvini rivojlantirish	61
<b>S.Shayimova</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni matematika faniga qiziqishini oshirish usullari, “matematik fokuslar” haqida tushuncha	65
<b>M.S.Ro‘ziqu洛va</b>	Boshlang‘ch sinf o‘quvchilarini ijodiy matn yaratishga o‘rgatish	67
<b>N.A. Abduhakimova</b>	Ona tiliva o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlardan foydalanish	68
<b>S. S. To‘rayeva</b>	Boshlang‘ich ta’lim yangi darsliklarining belgilangan talablarga mosligi	72
<b>M.Sh.Djangazova</b>	Mantiqiy masalalar ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi omil sifatida	74

**6-YO‘NALISH**  
**FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR**

<b>Z.A. Eshbekova</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirish	79
<b>U.A.Urolova</b>	Boshlang‘ich sinf darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish	80
<b>N.A.Berdiyeva</b>	O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan foydalanish	84
<b>G.Amirova</b>	Strategies of teaching english in multi-level classes	86
<b>G.M. Atakulova</b>	Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy darslarni tashkillashtirish	92
<b>G. Davirova</b>	Darslarda qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlar	94
<b>M.B. Dusmanova</b>	Fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar	100
<b>O.A. Исаева</b>	Решение открытых задач (исследовательских, изобретательских (триз))	103

<i>D.Ko'chiyeva</i>	O'quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik ta'lif texnologiyasining o'rni	106
<i>D.Komilova</i>	Hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	109
<i>M. A.Kosimova</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini erkin fikrlashga o'rgatishda interfaol o'yinlardan foydalanish	113
<i>G. T. Mavlanova</i>	2-sinflarda matematika darslarida ko'paytirish jadvalini o'rgatishda "Lego" metodidan foydalanish	117
<i>E.I. Mahmudova</i>	Aktivizatsiya pознавательной деятельности учащихся начальной школы	119
<i>S. X.Mahmudova</i>	Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini interfaol usullar yordamida tashkil qilish	124
<i>O.Sh.Mustafoqulova</i>	Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish	127
<i>S.S.To'rayeva</i>	Ona tilini o'qitishda ta'limiyo o'yinlardan samarali foydalanish usullari	130
<i>S.Tirkasheva</i>	Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	135
<i>D.O'Himmatova</i>	Hamkorlikdagi ta'lif trening mashg'ulotlarini o'tishda o'qituvchining o'nta qoidasi	137
<i>Sh.Yakubova</i>	Interfaol ta'lif metodlari	140
<i>Ш.Ф.Агзамова</i>	Формирование функциональной грамотности в начальных классах	142
<i>Д. В.Асанова</i>	Важность использования интерактивных образовательных технологий в начальных классах	145
<i>L.A. Abdurasulova</i>	Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida didaktik o'yinlearning o'rni	150
<i>М. И. Нуриддинова</i> <i>Ф.Худойбердиева</i>	Методические особенности организация и проведение дидактических игр на уроках «естествознание» в начальных классах	153
<i>L.E.Bobomurodova,</i> <i>F.J.Berdimurodova</i>	Texnologiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning Xalq hunarmandchiligi bo'yicha kompetensiyalarini	156

## 7-YO'NALISH BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<i>M.Mamadaminova</i>	O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanish	159
<i>H.R.Norboyeva</i>	Matematikada darslarida o'quvchilarga funksiya tushunchasi haqida ma'lumotlar berish	162

<i>N.Safarova</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatishda mantiqiy topshiriqlardan foydalanish	166
<i>Z.A.Safarova</i>	O‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatishning nazariy hamda amaliy ahamiyati	171
<i>D.B.Shavxiyeva</i>	Boshlang‘ich sinfda mantiqiy topshiriqlar, ularning o‘ziga xosligi	173
<i>Sh.Z.Soibnazarova</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga geometrik tushunchalarni shakllantirish yo‘llari	176
<i>D.X.Tuksanova</i>	Boshlang‘ich sinf darslarida axborot texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi	178
<i>O.C.Старцева</i>	Развитие коммуникативной компетенции на уроках в начальной школе	180
<i>K.Ilamcieveva</i>	Внеурочная работа в начальных классах	183
<i>M.A.Abdurasulova</i>	Kichik mакtab yoshidagi bolalarni didaktik o‘yinlar orqali tarbiyalashning pedagogik asoslari	185
<i>I.D.Abduraxmonova</i>	O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va kasb tanlashga o‘rgatish	190
<i>H.Ibragimova</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida odob madaniyatini shakllantirish	193
<i>I.D.Abduraxmonova</i>	Bolalar tarbiyasida ertaklarning ma’naviy ahamiyati	195
<i>F.B.Kattayeva</i>	Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va kitob mahsulotlarini chop etish tendensiyalari	199
<i>G.A.Pirnazarova</i>	Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmunini modernizasiyalash	204
<i>M.R.Vaisova</i>	Xalq pedagogikasida oila tarbiyasining ifodalanishiga oid innovatsiyalar	208
<i>Sh.B.Yunusova</i>	Xalq pedagogikasida oila tarbiyasi masalalarining ustuvor yo‘nalushlari	211
<i>Ф.М.Гулямова</i>	Развитие читательской грамотности учащихся	215
<i>Q.H.Rahmatova</i>	Barkamol shaxs tarbiyasida bag‘rikenglik tamoillaridan foydalanish yo‘llari	218
<i>R.U.Xasanova</i>	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni aqliy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	221
<i>K.I.Bashirova</i>	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar	225
<i>F.Qudratova</i>	Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik	228
<i>F.I.Qudratova</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik treninglardan foydalanish	233
<i>I.Xolmurodova</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	236
<i>A.M.Karimova, M.E.Ma’rufova</i>	STEAM texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tizimida foydalanish	239

<i>A.M.Karimova,</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida	242
<i>M.O.Mamayusupova</i>	ranglarni o'rgatishning ahamiyati	
<i>M.F. O'rinooyeva</i>	Tayyorlov guruhlari bolalarida axloqiy sifatlarni	245
<i>S.R.Muxtarova</i>	diagnostika qilishning nazariy va amaliy ahamiyati	
<i>M.A.Sindarova</i>	Maktabgacha ta'lism tashkilotining oila va jamoat	247
<i>Z.Karimova</i>	birlashmalari bilan o'zaro aloqasi	
<i>E.B.Chimmirzayeva</i>	Ertaklar vositasida namunaviy mashg'ulotlarni	250
<i>J.Qayumova</i>	tashkil etish va uning samaradorligini tahlil qilish	
<i>I.F. Saypullayeva</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lism-tarbiya	252
<i>M. A.Sindarova</i>	jarayoning samaradorligini oshiruvchi psixologik	
<i>F.Abdug'aniyeva</i>	mexanizimlar	
	Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik	255
	o'yinlarning shakllari va amalga oshirish metodlari	
	Maktabgacha ta'lism tashkilotining oila bilan	258
	ishlashdagi hamkorligining ish shakllari va uning	
	mazmuni	
	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar faoliyatida	262
	o'yin metodining ahamiyati	
	Tayyorlov guruhlar tarbiyalanuvchilarining lug'at	
	boyligini hayvonlar haqidagi ertaklar vositasida	267
	oshirish yo'llari	
	Maktabdagi yoshdagi bolalarni kitobxonlikka	270
	o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish	

## KIRISH SO‘ZI

Zamonaviy taraqqiyotga erishayotgan mamlakatlarning bosib o‘tayotgan qadamlariga diqqat qilinsa, ilmiy-tadqiqot va boshqa turdagи ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, uni integratsiyalash orqali takomillashtirib borish pedagogik faoliyatda strategik rivojlanishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ta’lim sohasida innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirish va tarqatish asosida ochiq, moslashuvchan, individuallashgan, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar kirib kelmoqda. Bunday jarayonning jadallashuvida maktabgacha va maktab ta’limining o‘rnı juda muhim.

Keyingi paytlarda Respublikamizda maktab ta’limi va umuman, ta’limga doir olib borilayotgan qator islohotlar diqqatga sazovor. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, keng joriylanishi muhim ahamiyat kasb etishi prezidentimiz tomonidan ham bot-bot ta’kidlanmoqda, bu borada aniq talab hamda vazifalar belgilanmoqda. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan maktabgacha va maktab ta’limi sohasini rivojlantirishga doir maqsadlarni amalga oshirishda Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi (Pedagogika markazi) tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash ta’limning dolzarb muammosi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan, yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi” deb takidlangan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilar bo‘lmish yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalarini bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu tadqiqotlarda O‘zbekiston farzandlarining qatnashishlari ham muhim ahamiyat kasab etadi. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rnı to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

Mazkur “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlari asosida integratsiyalashtirilgan ta’limni tashkil etish masalalari” mavzusida o‘tkazilayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti va umumta’lim maktablari pedagog

xodimlari uchun ilmiy-amaliy konferensiya ham mактабгача va boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash masalalarining dolzARB pedagogik muammolarini tadqiq qilishga qaratilgan.

Ushbu ilmiy-amaliy anjumanda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim sohalaridagi muammolar yuzasidan taklif va xulosalar berilishiga ishonaman hamda konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

**A.A.Ibragimov**

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori,  
pedagogika fanlari doktori, dotsent*

# 1-YO‘NALISH

## XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING MILLIY TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

### XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING - TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI

*N.T. Muxiddinova  
Oqdaryo tumani 39-maktab o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada: Bugun mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanayotganligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** milliy ta’lim, xalqaro baholash, dastur, talab, tajriba, fan, tadqiqot, tizim.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O‘zbekistonga nima beradi?

- Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi.

- Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

- Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalg qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

- Milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Bugun mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Eng muhimi, 2018- yil 12 -noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o‘rtasida Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturida (Agreement for participation programme for international student assessment (PISA) 2021) ishtirok etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

Bundan tashqari mamlakatimizda TIMSS xalqaro monitoring tadqiqtiga bosqichma-bosqich qadam qo‘ymoqda. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan o‘tkazilayotgan tashqi monitoring jarayonida ushbu xalqaro baholash materiallaridan qisman foydalanish orqali o‘quvchilar xalqaro talab darajasiga o‘rgatib borilmoqda.

Joriy yilning may oyida Xalq ta’limi vazirligi va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida “O‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash” mavzusida tadqiqot o‘tkazildi. Unda respublika bo‘yicha tanlab olingan 255 ta maktabda tahsil olayotgan 4-sinf o‘quvchilarining matematika, o‘qish va tabiatshunoslik fanidan bilimi tajriba tariqasida sinovdan o‘tkazildi. Monitoring uchun TIMSS tadqiqtasi materiallari mazmuni, talabidan kelib chiqib, test savollari tayyorlandi. Test sinovi materiallari YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda umumlashtirilib, tahlil qilinmoqda.

Shuningdek, vazirlik YUNISEF bilan hamkorlikda PISA talabi asosida umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish ustida ham ishlamoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. 56 b.
2. Bikbayeva N.U., Yangabayeva E., Girfanova K.M. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 4 sinflari uchun darslik. T.: O‘qituvchi nashriyoti, 2017.-208 b.
3. Burxonov S. v.b. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 3 sinflari uchun darslik. T.: Sharq nashriyoti, 2019.-208 b.
4. Пентин П.А., Ковалева Г.С “Состояние естественнонаучного образования в российской школе по результатам международных исследований TIMSS и PISA”, –М.: 2018.

**XALQARO TADQIQOTLAR DOIRASIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR  
UCHUN TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH VA ULAR USTIDA ISHLASH  
TEXNIKASI (xalq og‘zaki ijodi asosida)**

*N.R.Xo‘jamqulova*

*O‘zbekiston–Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqlada PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta’lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlar 4-sinf bitiruvchilarining o‘qish sifati va xalq og‘zaki ijodi asosida topshiriqlar bilan ishlash, tushunish darjasasi o‘rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e’tiborlici, aynan o‘qishning to‘rtinchi yilida o‘quvchilar o‘qishning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, ularning keyingi hayotida milliy qadriyatlar anglash kabi bilimlar oshiriladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish savodxonligi, PIRLS tadqiqoti, xalq og‘zaki ijodi.

Bugungi kunda badiiy matnlarni tushunish o‘quvchilarga qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Shuning uchun ham PIRLS asosida dars mobaynida ishlash, ta’lim jarayonini olib borishga qaratamiz. Buning uchun 4-sinf “O‘qish kitobidagi” xalq og‘zaki ijodi bo‘limidan izlanish olib boramiz. [2]

PIRLS topshiriqlari bilan ishlash namunalarini ko‘rib o‘tamiz:

**Xo‘p hayda**

Xo‘p hayda-yo, xo‘p hayda,  
Qalqon qulog‘im hayda,  
Temir tuyog‘im hayda,  
Xirmonni qilgin mayda.  
Ostingda bosgan donni,

Tuyog‘ing qilsin mayda.  
Sen po‘stidan judo qil,  
Somoni senga foyda.  
Chuv, hey jonivorim, hayda,  
Xirmonni qilgin mayda.  
Ishni tamom qilmasang,  
Joningga tinim qayda...  
Chuv, hey jonivorim, hayda,  
Xirmonni qilgin mayda.  
Donni yig‘ib olmasak,  
Bizlarga tinim qayda.

Topshiriqlar:

- 1-topshiriq. Xalq og‘zaki ijodi haqida bilganlaringizni yozing.
- 2-topshiriq. Marosim qo‘shiqlari so‘zining ma’nosi tushuntiring?
- 3-topshiriq. Milliy o‘yinlar haqida nimalarni bilasiz?
- 4-topshiriq. Bahor faslidagi qanday bayramlarni bilasiz?
- 5-topshiriq. Yoz fasli haqidagi tabiat o‘zgarishlari haqida so‘zlab bering?
- 6-topshiriq. Tabiat haqida maqollar aytинг.
- 7-topshiriq. Qalqon qulog‘im hayda,  
Temir tuyog‘im hayda,  
Ushbu bayt nimaga qarata xitob qilingan?
- 8-topshiriq. She’riy parchadan nimani tushundingiz mazmunini so‘zlab bering:  
Ostingda bosgan donni,  
Tuyog‘ing qilsin mayda.  
Sen po‘stidan judo qil,  
Somoni senga foyda.  
Chuv, hey jonivorim, hayda,  
Xirmonni qilgin mayda.  
Ishni tamom qilmasang,  
Joningga tinim qayda...

9-topshiriq. “Zanjir” o‘yini. O‘qituvchi boshlab bir so‘z aytadi.  
O‘quvchilar bu so‘z xalq og‘zaki ijodiga oid bo‘lsa, shu so‘zni topib aytadilar.  
So‘z o‘yini shu tarzda davom etadi.

1-variant: Maqol, alla, topishmoq.

2-variant: \_\_\_\_\_

3-variant: \_\_\_\_\_

10 -topshiriq. Satrlarini tahlil qiling.

Chuv, hey jonivorim, hayda,  
Xirmonni qilgin mayda.

Ishni tamom qilmasang,  
Joningga tinim qayda...  
Chuv, hey jonivorim, hayda,  
Xirmonni qilgin mayda.  
Donni yig‘ib olmasak,  
Bizlarga tinim qayda.

11 -topshiriq. Mavsumiy qo‘shiqni matnini o‘qiyotganingizda ko‘z oldingizda nimalar namoyon bo‘ladi?

12-topshiriq. “Non- ulug‘ ne’mat ” deganda nimani tushunasiz Non tayyorlanish jaraninini ayting.

13-topshiriq. Test

1. Xirmon so‘zining ma’nosi nima?

A) hosil to‘ planadigan joy B) o‘ choq D) tutun

14. Matn tarkibida nechta so‘z qatnashgan?

Bolalar folklori – kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o‘ zaro uyg‘ unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o‘yinlar, qo‘shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og‘zaki ijodiyotining o‘ziga xos tarmog‘idir.[8] Shunga qaramay, o‘zbek bolalar folklori namunalarini to‘plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o‘rganishga uzoq zamонлар e’tibor berilmay kelindi. XX asrning dastlabki choragi oxirlarida bu ishga kirishilgan esa-da, u uzlusiz jarayonga aylanmadı. Elbek to‘plab, tartib berib 1937-yilda chop ettirgan “Bolalar qo‘shig‘i” to‘plamidan O. Safarov tartib bergen “O‘zbek xalq ijodi” seriyasida 1984-yilda bosilib chiqqan “Boychechak” to‘plamigacha kechgan salkam yarim asrlik uzilish ana shu fikr dalili bo‘la oladi. O‘zbek bolalar folklorini o‘rganish 60 yillardan e’tiboran izchillasha bordi. Z.Husainovaning “O‘zbek topishmoqlari” (1966), G‘.Jahongirovning “O‘zbek bolalar folklori” (1975), shuningdek, O.Safarovning “Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari” (1983), “O‘zbek bolalar poetik folklori” (1985), “Alla-yo alla” (1999), “Chittigul” (2004), Sh.Galievning “O‘zbek bolalar o‘yin folklori” (1998) singari tadqiqotlar tufayli bu izlanishlarning samaralari ko‘zga tashlanadigan bo‘ldi. Shuni ham aytish kerakki, folklorshunoslar orasida mavsum va marosim qo‘shiqlariga munosabatda ularning ijodkori har qachon kattalar bo‘lganini e’tirof etish bilan bolalarning bu sohadagi qo‘shiqchilagini yo cheklash, yo tamoman inkor etish hollari ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi bilan mukammal tanishish, yosh avlodda milliy qadriyatlarimizni yanada chuqurroq anglashga milliy qadriyatlar bilan qadrlashga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gaynazarova G.A. Mashg‘ulotlarda interfaol muhitni yaratish omillari. Zamonaviy uzlusiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferentsiya. – Toshkent: – 2018. B.225.
2. Davletshin M.G. Boshlang‘ich ta’limning psixologik omillari // Xalq ta’limi tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1996. -B. 132-134.
3. Rabbonayeva D.T. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni ‘zlashtirish darajasini takomillashtirish usullari”. Umumta’lim mакtablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma. – Samarqand, 2020-yil.
4. WWW. uzedu.uz

## **2-YO‘NALISH**

### **BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARНИ XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) GA TAYYORLASH**

#### **O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PIRLS TADQIQOTINING O‘RNI**

*G.Raxmatova*

*Navoiy viloyati Xatirchi tuman 84-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqlolada jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga bo‘lgan yondoshuv va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda PIRLS tadqiqotining o‘rni haqida fikr bildirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** PIRLS, xalqaro, tadqiqot, kitob, baholash, boshlang‘ich ta’lim, sifat, topshiriq.

Kitob – insonning yaqin do‘sti, suhbatdoshi, sirdoshi. U kishining dunyoqarashi, so‘z boyligini oshiradi. Amerikalik olim, yozuvchi Nil Geyman olib borgan tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, kitob mutolaa qilmaydigan bolalar kelajakda bezori bo‘lib ulg‘ayishi ehtimoli yuqori ekan. Shu bilan birga, kitob o‘qish odamlarni empatiyaga – faqat o‘z xohish-istiklari va manfaatlarini o‘ylashdan voz kechib, umumiy maqsad yo‘lida birlashishga undaydi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O‘qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

“Mutolaa” so‘zi arabcha “o‘qish” degan ma’noga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda.

O‘qish – axborot olish madaniyati bo‘lib, badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdag‘i resurslar bilan ishslash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdag‘i axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ola bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning bir qancha usullari, yo‘llari mavjud bo‘lib, shu kunlarda O‘zbekiston yoshlari,

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk bor qatnashayotgan PIRLS tadqiqotining o‘rni beqiyosdir.

**PIRLS** - (*inglizcha –Progressin International Reading Literacy Study*) matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo‘lib, maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi mutaxassislar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega.

PIRLS dunyoning turli mamlakatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlarining o‘qish savodxonligi o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi.

Tadqiqotning xalqaro lug‘atiga ko‘ra, “o‘qish savodxonligi” - o‘quvchining matn shaklida berilgan ma‘lumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, o‘qigan ma‘lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqatidir.

PIRLSda o‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishslash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma‘lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma’lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhslash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarga ikki turdagি matn taqdim etiladi, badiiy matn va axborotli matn. Shuning uchun o‘quvchilar bilimi quyidagi ikki mezon asosida baholanadi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o‘qish.
2. Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadida o‘qish.

***Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:***

- matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish;
- voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish;
- matnning umumiyl g‘oyasini aniqlash;
- matn tarkibining elementlarini ochib berish;
- qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish;
- asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his –tuyg‘ularini taqqoslash va qiyoslash;
- matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish;

- matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish;

- matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash orqali javob berish;

- matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

***Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadidagi o‘qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:***

- matnda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash;

- kerakli axborotni o‘zida mujassamlashtirgan gapni ajratish;

- xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish;

- matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish;

- matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish;

- matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash;

- matndagi alohida gaplar o‘rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash;

- matn mazmunini izohlab berish;

- turli tipdagisi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash;

- matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni anglash va asoslash;

- matndagi ma’lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elementlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish;

- matnlar, xaritalar, illuystrasiyalar,diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma’lumotlarni umumlashtirish.

PIRLS tadqiqotida belgilangan mahorat tavsiflaridan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar matnni nafaqat tushunishadi balki, matnda berilgan ma’lumotlarni tushuna olish va ularga o‘zining shaxsiy munosabatini bildira olish ko‘nikmasi, olgan ma’lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Kitobxonlik – bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborishi, ongida ma’lum tuyg‘ularni, e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o‘ylashga, hayotda qanday yashashga o‘rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma’naviy o‘gitlarini ilg‘ab olish va bular asosida o‘z hayot yo‘li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o‘qigan kitobidan yangilik topish, ma’naviy dunyosini boyitishdan iborat ekan, bu borada PIRLS va uning matnlari uchun tuzilgan topshiriqlari, belgilangan mahorat tavsiflari o‘qituvchiga o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda yaqindan yordam beradi.

Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo‘llasa, kitob o‘qimaslik johillikka, ma’rifatsizlikka olib kelib, natijada bolada ma’naviy qashshoqlik yuzaga

keladi. Maktabda, bolalar bog‘chasida, oilada muhim vazifa, bu kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iboratdir. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e’tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish mumkin emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr kuni qabul qilgan “*Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to ‘g ‘risida*”gi 997-sonli qarori.
2. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «Изучение качества чтения и понимания текста» -Москва, 2007, 3-4 ст.
3. M.Mirqosimova. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –Toshkent. “Fan” . 2006.

## TIMSS DASTURI ASOSIDA TOPSHIRIQLAR YARATISH VA KREATIV ISHLASH TEXNOLOGIYASI

*I.X.Narzikulova*

*Samarqand shahar 42-umumta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifati bo‘yicha tashkil etilayotgan xalqaro monitoring TIMSS dasturi asosida topshiriqlar yaratish va kreativ ishslash texnologiyasi haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** TIMSS, matematik savodxonlik, xalqaro baholash, ijodiy tafakkur, muammoli vaziyat.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4, 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash tizimi.

TIMSS – maktabda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoringi bo‘lib, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo‘sishmcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasasi imkoniyati, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarining oilalari bilan bog‘liq omillar o‘rganiladi. Ushbu ma’lumotlar belgilangan fanlarni o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishda asos bo‘ladi.

TIMSS tadqiqotlari ta’lim yutuqlarini baholash Xalqaro assotsiatsiyasi tashabbusi bilan 1990 - yilda tuzilgan. Tadqiqot doirasida matematik va tabiiy bilimlar sifati baholanadi. 1995-2011 yillar mobaynida ushbu tadqiqotning 5 sikli o’tkazilgan. Unda 50 dan ortiq mamlakatlar ishtirok etgan.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4, 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

TIMSS – mактабда математика ва табииy фанларни о‘qитиш сифатининг xalqaro monitoringi bo‘lib, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4- ва 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo‘sishimcha ravishda maktablarda математика ва табииy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasasi imkoniyati, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillar o‘rganiladi. Ushbu ma’lumotlar belgilangan fanlarni o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishda asos bo‘ladi.

Tadqiqot 4 yilda bir marta dunyoning ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta’lim sohasidagi test xizmatlari, Kanadaning statistik markazi, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining Sekritariati ishtirokida o’tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qumitalari tashkil etiladi.


TIMSS xalqaro tadqiqoti doirasida o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan bilimini baholashga mo‘ljallangan topshiriqlar namunalari bilan tanishish hamda shu kabi topshiriqlarni ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida boshlang‘ich sinf oquvchilari uchun mashq daftari va axborotnama ham ishlab chiqildi.

Mazkur mashq daftari TIMSS dasturining математика ва табииy fanlardan o‘quvchilaini baholashga qaratilgan savollari asosida tuzilgan bo‘lib, undan o‘quvchilar, математика ва табииy fanlaridan olgan bilimlarini sinab ko‘rish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, mashq daftari o‘quvchilar tomonidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanishda foydali manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Matematik savodxonlik bo‘yicha topshirqilar  
1-topshiriq.

Kvadratlarga bo‘lingan doskada o‘yin o‘ynamoqda. Uning toshi D5 kvadratida joylashgan. Quyidagi qaysi bir harakatlar natijasida uning toshi G7 kvadratida joylashadi?



- A) o‘ngga 2 kvadrat va yuqoriga 3 kvadrat  
 B) chapga 2 kvadrat va yuqoriga 3 kvadrat  
**C) o‘ngga 3 kvadrat va yuqoriga 2 kvadrat**  
 D) chapga 3 kvadrat va yuqoriga 2 kvadrat

2-topshiriq.

600 ta kitobni har bir qutiga 15 tadan joylashtirish kerak. Nechta quti kerak bo‘lishini aniqlash uchun quyida keltirilgan qaysi amaldan foydalanish mumkin?

- A) 15 ga 600 ni qo‘shish  
 B) 600 ni 15 ga ko‘paytirish  
 C) 600 dan 15 ayirish  
**D) 600 ni 15 ga bo‘lish**


3-topshiriq.

To‘rtta dugona Malohat, Sabohat, Dilobar va Saodat ko‘rpachada o‘tirishbi. Boshida Malohat Dilobar bilan joylarini almashtirishdi. So‘ngra Dilobar Saodat bilan joylarini almashtirishdi. Shundan so‘ng 4 ta dugona chapdan o‘ngga qarab quyidagi tartib bilan joylashib qolishdi: Malohat, Sabohat, Dilobar, Saodat. Savol: dugonalar o‘yin boshida chapdan o‘ngga qarab qanday tartibda o‘tirishgan edi?

- A) Malohat, Sabohat, Dilobar, Saodat  
 B) Malohat, Dilobar, Saodat, Sabohat  
 C) Dilobar, Sabohat, Saodat, Malohat  
**D) Saodat, Malohat, Sabohat, Dilobar**

4-topshiriq.

Oysha kiyimilgichga sochiqlarni ilmoqda. U qisqichlarni iloji boricha kamroq ishlatmoqchi. Shu sababli, u 3 ta sochiq uchun 4 ta qisqichdan quyidagicha foydalandi.



Agar Oysha shunday davom ettirsa 11 ta sochiq uchun nechta qisqich kerak bo‘ladi?

- A) 9ta      B) 10ta      C) **12ta**      D) 16ta      E) 18ta

Xalqaro tadqiqotlar barchasi, jumladan TIMSS ham ta’limning holati va uning o‘zgarishi tendentsiyalari to‘g‘risida ma’lumot beradi, rejalashtirilgan va erishilgan natijalarini o‘zaro bog‘lash, ta’lim sifatini dunyoning boshqa mamlakatlari bilan taqqoslash va shu asosda hal qilinishi kerak bo‘lgan eng muhim muammolarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlar natijalari amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘nalishini o‘zgartirish va kelgusi yillarda ta’lim holatini prognoz qilish uchun ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘quvchilarni matematika fanidan baholash bo‘yicha TIMSS mashq daftari.3-daftar.Milliy markaz.2021-yil.

2.Bekbayeva, N.U. va Sidelnikova R.I. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” O‘qituvchi”. 2010.

## **PIRLS: ADABIY XARITA ORQALI MATNNI TAHLIL QILISH**

*M.Sh.Jo‘rayeva*

*Samarqand shahar 42-umumta’lim maktabboshlanch‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqotida qanday matnlar tanlab olinishi, va bu matnlarning matn xaritasi haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** PIRLS, o‘quvchi, xalqaro, matn, xarita, asar, **baholash**, ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarining ta’lim oluvchi yoshlari 2021-yildan boshlab xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishmoqda.

O‘quvchilarning PISA, TIMSS, PIRLS, rahbar va pedagog kadrlarning umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganuvchi TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minalash, o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda ona tili, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog-kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha ta’lim sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

PIRLSda matn xaritasi.

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi mavjud bo‘lib, u matnning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, masalan: u matnning yetarlicha mazmunli va tushunarligini aniqlaydi, matndagi muhim g‘oyalarni va ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadi, asosiy g‘oyalarni, ularning munosabatlarini va matnni yaratish bo‘yicha vazifalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratadi.

Matn xaritasi quyidagi turlardan iborat:

**Adabiy xarita** – badiiy asarlarning strukturasini belgilaydi.

Janr – masalan: ertak, realistik adabiyot, fantastika va x.k.;

Mavzular, syujet, vaziyat, qahramonlar, mualliflik mahorati.

**Axborot xaritasi** – syujetsiz matnlardagi ma’lumotlarni qayd qiladi.

Turlar – masalan: ekspozitsiya, dalil, jarayon va x.k.

Asosiy g‘oyalarni, asosiy g‘oyalarning isboti, tashkiliy shakllar, mualliflik mahorati.

**Adabiy xarita.** O‘qish savodxonligini tekshirish bo‘yicha vazifalar adabiy xarita yordamida beriladi. Bunday vazifalar quyidagi qadamlarda belgilanadi:

1-qadam. Matn haqidagi asosiy ma’lumotni sanab berish (sarlavha, so‘zlar soni, o‘qish darajasi va janri).

2-qadam. Matnning mavzusini aniqlash va tasvirlab berish.

3-qadam. Vaziyatni aniqlash va ta’riflab berish, asosiy qahramonlarni sanash, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoritish.

4-qadam. Asosiy syujet elementlarini aniqlash, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini topish.

5-qadam. Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab berish.

6-qadam. Yozuvchi tomonidan qo’llanilgan tayanch iboralar va lug‘atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlash va sanab berish.

Ushbu ishimizda 3-sinf o‘qish darsligidan Aziza Ahmedovaning “Qish ertagi” matni uchun adabiy xarita tuzib ko‘ramiz.

*1-qadam.* Matn haqidagi asosiy ma’lumotni sanab berish (sarlavha, so‘zlar soni, o‘qish darajasi va janri).

“Qish ertagi”, 402 ta so‘z, murakkab, ertak.

*2-qadam.* Matnning mavzusini aniqlash va tasvirlab berish.

Matnda hayvonlarning bir-biriga bo‘lgan mehribonligi, hamjihatligi, oqilona ish yuritishi tasvirlab berilgan.

*3-qadam.* Vaziyatni aniqlash va ta’riflab berish, asosiy qahramonlarni sanash, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoritish.

Asosiy qahramonar: Tipratikan, Qizilishton, Quyon, Tulkilar.

Tipratikan – aqli, dono, mehribon.

Qizilishton – dono, mehribon, sezgir.

Quyon – dono, jahldor.

Tulki – ayyor, shoshqaloq.

*4-qadam.* Asosiy syujet elementlarini aniqlash, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini topish.

Asosiy syujet – qish faslida hayvonlar boshpana topish, tulkilardan qutilish yo‘lini izlash va topish.

Muammo va ziddiyatlar – Tulkilarning niyati quyonlarni aldab, ularni yeish, tulkilar va quyonlar o‘rtasidagi ziddiyat, quyonlar tulkilar uchun emish ekanligi.

Yechimi – hayvonlarning hamjihatligi.

*5-qadam.* Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab berish.

1. Havo sovishi bilan Tipratikan, Qizilishton, Quyon bir joyga yig‘ilishib, boshpana topishni o‘ylashadi.

2. Tulki ham ayyor do‘sstlari bilan kelib, qo‘silib olishadi va birgalikda boshpana qidira boshlaydilar.

3. Boshqa hayvonlar tulkilar bilan birga yashashni istamaydilar va o‘zlaringga boshqa joy topinglar deyishadi.

4. Tulkilar rozi bo‘lishadi, lekin ular in topib kirib olgach, birdan hujum qilib, hammasini emish qilishni maslahatlashadi.

5. Tulkilarning gapini Qizilishton eshitib qoladi va Tipratikanni xabardor qiladi.

6. Tipratikan quyonlarga tulkilarning niyatini aytib beradi.

7. Tipratikan, Qizilishton va Quyon masalahtlashib, tulkilardan qutilish chorasiini topishadi.

8. Hayvonlar orqasida tuynigi bo‘lgan g‘or topishadi va quyonlar o‘sha g‘orga kirgan kishi bo‘lib, tuynukdan chiqib ketishadi.

9. Quyonlar g‘orga kirdi, endi kirib mazza qilib, yeymiz deb o‘ylagan tulkilar bostirib g‘orga kirishadi va o‘zlarining aldanganliklarini bilishadi.

10. Xullas, ayyor baroqduum va do‘stlarining maqsadi amalga oshmaydi, do‘stlik g‘alaba qozonadi.

*6-qadam.* Yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan tayanch iboralar va lug‘atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlash va sanab berish.

Tayanch iboralar: Qish, sovuq, do‘stlik, Tipratikan, Qizilishton, Quyon, Tulki, g‘or, tuynuk, taklif, chora, g‘alaba, hiyla.

O‘qish savodxonligining asosi adabiy xarita orqali matnlar bilan to‘liq ishslash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma’lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma’lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o‘quv dasturlari va yosh o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLSga qatnashish O‘zbekistonga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘qish qobiliyatları darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta’limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yilning 29-aprel.

2. Ubayxo‘jayeva R. A. O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish. T., 2008.

3. Rabbonayeva D. **PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishslash texnologiyasi.** O‘quv-uslubiy qo‘llanma - Samarqand XTXQTMOHM, 2020.

# **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MAQOLLARNI PIRLS TADQIQOTI BO‘YICHA TAHLIL QILISH**

*M.I.Mingboyeva*

*Kattaqo‘rg‘on tuman 26-umumta’lim maktab Oliy toifali,  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqtida qo‘llaniladigan o‘qishning ikki turi va boshlang‘ich sinf darsliklaridagi maqollar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, darsliklaridagi maqollarning mazmuni tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** PIRLS, o‘quvchi, xalqaro, matn, ta’lim, maqol, tahlil.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro PIRLS tadqiqtolarida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim oluvchi yoshlarning ishtirok etishi juda ham mas’uliyatli va quvonarli jarayon va bu masala ta’lim sohasidagi bugungi kunning eng dolzarb masalasidir.

O‘zbekiston Respublikasining kelajak ravnaqi o‘sib kelayotgan barkamol avlodning intellektual ongini shakllanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bolaning ongiga kichik yoshidan boshlab, Vatanga muhabbat, g‘urur, milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglashni singdirib borish lozim. Bola qalbi go‘yo yozilmagan oq qog‘oz kabitdir. Unga nimalarni yozish, qanday to‘ldirish biz kattalarga bog‘liqdir. Kattalar, o‘qituvchilar ushbu ma’suliyatni his qilishlari bilan bir qatorda, yosh bolaga ta’lim-tarbiya berishda bolaning oq qog‘oz kabi pok qalbini yaralab qo‘ymaslikka ma’suldirlar.

Bizga ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim, umumiyl o‘rtta ta’lim uchun asos, tayanch vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinfda o‘zlashtiriladigan barcha materiallar bosqichma-bosqich takomillashib va murakkablashib boradi. Bu davr uchun mo‘ljallab kiritilgan manbalar har tomonlama puxta o‘ylangan, kichik yoshdagil o‘quvchilarining psixologik, fiziologik, pedagogik va boshqa jihatlarini qamrab oladi. Mana shu jihatdan olib qaraganda, darsliklarni o‘rganish faqatgina o‘quvchi tomonidan amalga oshirilmasdan, har bir mavzu o‘qituvchi rahbarligida o‘qib o‘rgatiladi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchi va tarbiyachilardan juda katta ilmiy salohiyat, yuksak ma’naviyat talab etadi. Shu bilan birgalikda muntazam ravishda yoshlar ongi va qalbida milliy va ma’naviy qadriyatlarimizni anglab yetish, hurmat qilish hissini uyg‘otish, o‘zlikni anglashni shakllantirish vazifasi turadi.

PIRLS tadqiqtida darsda o‘quvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning quyidagi ikki turi o‘rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qish.

Xalq og‘zaki ijodi janridan biri bo‘lgan maqollarni o‘rgatish ikkinchi tur ya’ni matn mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qishni takomillashtirishga asos bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarga o‘rgatib boriladi. Boshlang‘ich sinfning deyarli barcha darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalari berilgan. Ona tili darsliklarida ko‘proq xalq maqollar mashqlar tarkibiga singdirilgan. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holda darsliklarga kiritilgan maqollar tushunilishi oson va komillikka da’vat etuvchidir. Mavzu o‘rganilayotganda o‘qituvchining vazifasi mavzuni o‘rgatish bilan birga xalq og‘zaki ijodi, shu jumladan, maqol janri haqida boshlang‘ich ma’lumot berib borishdir. Berilgan maqollar o‘qituvchi rahbarligida avval ifodali qilib o‘qiladi va o‘quvchilar bilan birgalikda ushbu maqollarning ma’nosi o‘rganiladi.

Maqollarni o‘rgatish o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g‘oyaga mos maqol ustida ishslash va uni o‘quvchilarga qanday tushuntirishni rejalashtirib olish lozim.

O‘quvchilar savod o‘rgatish davridayoq maqollarni o‘rganib boradilar. “Alifbe” darsligida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, ular mavzu g‘oyasini o‘quvchilarga lo‘nda va aniq yetkazish uchun xizmat qiladi. Amaldagi R.Safarova boshchiligidagi mualliflar tomonidan tayyorlagngan “Alifbe” darsligidan “Bola odobi bilan ko‘rkam”, “Bilim boylik kaliti”, “Oltin olma, duo ol”, ‘Elda bori – senda bor”, “Hunar – hunardan unar”, “Har kim ekanin o‘rar”, “Elga hurmat, oliv himmat”, “Mehnat – mehnatning tagi rohat”, “Oldin o‘yla, keyin so‘yla” kabi maqollar o‘rin olgan bo‘lib, bu kabi maqollar o‘quvchilarni maktabga kelgan ilk kunlaridanoq mehnatsevarlikka, ma’naviyatga, odob-axloqqa chorlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda asosan maqolni ifodali o‘qish va yod olishga ahamiyat beriladi.

1-sinf, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining “Men tabiatni asrayman” bo‘limida “Yomg‘ir – ekinning joni”, “Toza havo – ming dardga davo”, “Yoz mevasi – qish xazinasi”, “G‘oz kelgani – yoz kelgani” kabi maqollar keltirilgan. Bu maqollar o‘quvchilarni nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, hayotiy ko‘nikmalarini ham boyitib boradi. Masalan: o‘quvchi yomg‘irni, mevalarni, g‘ozni hayotida ko‘rgan va ular haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Natijada ushbu maqollarni qiyinchiliksiz tushunib olishadi.

2-sinfdan boshlab maqolning mazmunini o‘rganish va yod olishdan tashqari, matndagi izohtalab so‘zlar, birikmalar ustida lug‘at ishi o‘tkazish, badiiy til vositalari, ko‘chma ma’noli, qarama-qarshi ma’no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so‘zlar ma’nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi.

2- sinf, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining 1-bo‘limida “Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim, Orlanib so‘ramagan o‘ziga – zolim”, “Ilmsiz bir yashar, Ilmli ming yashar, “Bilagi zo‘r bir yiqar, Bilimi zo‘r – mingni”, “Ilmli uy charag‘on, Ilmsiz uy – zimiston” kabi maqollar berilgan. Mana shu maqollar matni ustida ishlaganda: “Ilm” so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin?, “Maqolda ilm olish nimaga tenglashtirilayapti?”, “Zimiston uy deganda nimani tushundigiz?” kabi savollar berish yo‘li bilan o‘quvchilarining lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish ustida ishlanadi. Shuning bilan birga, o‘quvchilarni kitob o‘qish, ilm olishga, bo‘lgan qiziqishlarni xalq og‘zaki ijodi orqali rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Darslikdagi mavzulardan kelib chiqib, maqollar guruhlab o‘rgatilishi ham mumkin. Masalan: 4-sinflarda “Ona yurting – oltin beshiging”, “Eldan ayrilguncha, jondan ayril”, ”Mehnat – baxt keltirar”, “Odobing – zebu ziynating”, ”Olim bo‘lsang, olam seniki” kabi mavzular asosida birlashtirilib berilgan. O‘quvchilarga maqollarni mavzu bo‘yicha guruhlab o‘rgatishda darsliklardagi mavzularga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun-g‘oyasini asar bilan bog‘lash kerak. Bu jarayonda o‘quvchilarining hayotiy tajribalari asosida maqollar keltirish bilan maqollarni izohlash yoki o‘quvchilarga maqol g‘oyasiga mos birorta hikoya tuzish mustaqil ish sifatida berilishi ham mumkin.

4-sinflarda maqol janri bo‘yicha tahliliy ishlar o‘quv yili davomida izchil uyuştirilib boriladi, ya’ni “Asar g‘oyasiga oid maqol ayting”, “Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating” kabi topshiriqlar beriladi, “Maqollar aytish musobaqasi”, “Maqollar mushoirasi” kabilar tashkil qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga maqollarni o‘rgatishda shunchaki o‘qish, yod olish bilan chegaralanibgina qolmay, PIRLS tadqiqotlaridagi topshiriqlarning asl mazmuni ya’ni, puxta tahlil qilish, hayotiy hodisalarda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish, bu xulosalar orqali atrofimizdagি olamni va insonlarni tushunish, inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish va asoslab bera olish ko‘nikmasini rivojlantirish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimova I. va b.“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi. 1-sinf uchun darslik. T: RTM.2021
2. Mavlonova K. va b.“Ona tili va o‘qish savodxonligi” 2-sinf uchun darslik.T.: RTM. 2021.
3. Matchonov S. va b. O‘qish. 4- sinf uchun darslik: - T.: „O‘qituvchi” 2020
4. Mirzayev T., Musaqulov A. “O‘zbek xalq maqollari” - T.: 2005.
5. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand XTXQTMOHM. -2020
6. Safarova R. va b. “Alifbe” darsligi. - T.: „O‘qituvchi” 2020 .

# **3-YO‘NALISH**

## **MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMIDA STEAM YONDASHUVI ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

### **STEAM TA’LIM TEKNOLOGIYALARI**

***G.A.Abdukarimova**  
**Bulung‘ur tumani 50-maktab o‘qituvchisi***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada STEAM texnologiyasining o‘quvchi shaxsini tarbiyalashda tutgan o‘rni, ta’lim jarayonida turli modullardan foydalangan holda darslarni tashkil etish usullari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** STEAM texnologiyalari, tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatları, elektron muhandislik, rasm, arxitektura, haykaltaroshlik, musiqa.

Bugungi kunda ta’lim sohasiga STEAM texnologiyalari jadallik bilan kirib kelmoqda. STEAM o‘zi nima? **S** – ta’lim yoki fan. **T** – texnologiya. Ingliz tilida muhandislikni anglatadigan **E** – elektron muhandislik. **M** – matematik, fanlar malikasi matematika. San’at ostida **A** – qisqartmasining yangi tarkibiy qismi butunlay boshqa yo‘nalishlarni – rasm, arxitektura, haykaltaroshlik, musiqa va she’riyatni tushunish mumkin.

**STEAM** - bu tanqidiy fikrlash, tadqiqot qibiliyatları va guruhda ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan sohalarini birlashtirgan yangi o‘quv texnologiyasi.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi.

Ta’lim jarayonida turli modullardan foydalangan holda darslarni tashkil etish mumkin. Jumladan, “**Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o‘tkazish**” o‘quv moduli. Ushbu modulni tashkil etishda o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

- dunyoviy ob’ektlar bilan tajriba o‘tkazish;
- geometrik jismlar va raqamlar yordamida harakatlar orqali matematik voqelikni o‘zlashtirish;

- fazoviy munosabatlarni o‘zlashtirish;
- har xil burchak va proektsiyalardagi dizaynni shakllantirish;
- eksperimental faoliyatda dunyo haqidagi g‘oyalarni shakllantirish;
- vizual-sezgi idrok qilish jarayonida butun hayotning birligini anglash;
- ekologik ongni shakllantirish.

**“Matematik rivojlanish”** o‘quv moduli. Ushbu modulni tashkil etishda o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

- quyidagi yo‘nalishlarda bolalarining yoshini va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik rivojlanish muammolarini kompleks hal qilish;
- hajmi, shakli, maydoni, vaqt, miqdori va soni tushunchalarini bilish.

**“Robototexnika”** o‘quv moduli. Ushbu modulni tashkil etishda o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

- mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish;
- dasturlash asoslarini shakllantirish;
- rejalahtirish, modellashtirish qobiliyatini rivojlantirish;
- ma’lumotlarni qayta ishslash;
- mavhumlashtirish va qonuniyatlarni topa olish qobiliyatini rivojlantirish;
- amaliy muammolarni tezda hal qilish qobiliyati;
- ta’kidlash, sxemalashtirish, tipiklashtirish qobiliyatları;
- universal belgilar tizimlaridan (belgilaridan) foydalanishni bilish va ulardan foydalanish qobiliyati;
- jarayonni va o‘z faoliyati natijalarini baholash qobiliyatini rivojlantirish.

Har bir modul aniq muammolarni yechishga qaratilgan bo‘lib, ular to‘liq hal etilganda STEAM ta’limining maqsadlari amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bunday ta’lim, shubhasiz, faqat ijodiy bo‘lishi mumkin, bu bola uchun o‘ziga qiziq bo‘lgan narsaga muvofiq rivojlanish yo‘lini izlashiga sharoit yaratadi. Yuqori texnologiyali dunyoda yashashga majbur bo‘lgan har bir bolaning shaxsiy rivojlanishiga erishish uchun nimani o‘rganish va o‘rgatish kerak. Har bir bola vaqt o‘tishi bilan u qaysi yo‘nalishga qiziqishini, uni mакtabda olib borishini va shu yo‘nalishda rivojlanishda davom etishini tushunishi juda muhimdir. Shuning uchun zamonaviy dunyoda o‘qituvchi oldida katta vazifa turibdi: bolalarini sezgi qobiliyatini rivojlanishiga o‘rgatish. Munosabatlarning aloqasini o‘rnatish, qonuniyatlarni topish, ochiq muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. АТЛАС НОВЫХ ПРОФЕССИЙ Москва 2015 Вторая редакция.
2. atlas@refuture.me. www .russianrobotics .ru

## TA'LIM TIZIMIDA STEAM YONDASHUVI ORQALI O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*M.Islomova  
Samarqand shahar 16-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lism Shakllari va ularning dunyo ta'lism tizimidagi ahamiyati haqida fikr yuritilib zamonaviy ta'lism Shakllaridan hisoblangan STEAM ta'limga rivojlanishi, nazariy asoslari, imkoniyatlari, yutuqlari haqida keng molohaza yuritilgan. Maktabgacha ta'lism tizimida STEAM ta'lmidan foydalanish afzaliklari va bu ta'lism Shaklining fan sifatida ta'lism muassasalarida o'qitilayotganligi asoslab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, fan, texnologiya, , matematika, masofaviy ta'lism.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lism tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lism sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lism sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lism tizimi yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lism tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lism xizmatlari ko'rsatish tizimi isloq qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lism tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lism - uzluksiz ta'lism tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha hartomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, ushbu tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni hartomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lism sifatini oshirish, maktabgacha ta'lism muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lism-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lism dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lism muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va

malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganlik darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyojkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang‘ich ta’lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish zarur.

Mashg‘ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o‘quv rejalarini va ta’lim dasturlarini optimallashtirish zarur.

Bolalarni sog‘lom turmush tarzini yuritishga o‘rgatish, gimnastika va faol o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va sportga qiziqish uyg‘otishni shakllantirish, jismonan sog‘lom o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash muhim vazifamiz hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish zarur.

Bolaning kelgusida o‘zini o‘zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta’lim xizmatlari turlari: pullik ta’lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish zarur hisoblanadi.

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasi fanining vazifasi - bolalarga STEAM ta’lim texnologiyasidan foydalanish usullarini o‘rgatish, STEAM ta’lim texnologiyasini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashda turli xil faoliyatlarini integratsiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash vazifalarini bajaradi. STEAM bolalarda muammolarni tushunish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bu esa, keljakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM - ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. STEAM texnologiyasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu o'quvchilarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Globallashuv davridagi texnologik o'zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun'iy aql kabi trend texnologiyalarni bilih, ularga muvofiq ta'lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda [1-35]. STEM bizning kundalik hayotimizdagi innovatsiyalarni ta'lim tizimiga kiritib beradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, STEM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyati shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida STEM ta'lim tizimini davlat ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha o'tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin xususiy maktablarda buning imkoni osonroq bo'lsa, umumiy ta'lim tizimiga STEM ta'lim tizimini kiritishda bir qator muammolar borligi ta'kidlanmoqda. 2019-yilning dekabr oyida Xalq ta'limi vazirligi Xitoyda bo'lib o'tgan Shanghai International STEM Education Expo (STEAMEX) ko'rgazmasida ishtirok etdi. O'zbekistonda STEM ta'lim tizimini umumiy xalq ta'limiga tadbiq etish borasida AQSH mutaxassisini jalb qilindi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtizmida tashkil etilgan prezident maktablarida STEM ta'lim tizimi orqali ta'lim beriladi. Zamонавиy tadqiqotlar STEM tizimi maktab ta'lim tizimiga oid bo'lgani bilan, uni eng kichik yoshdan, maktabgacha davrdan boshlab tadbiq etish muhim ekanligini ta'kidlamoqda. Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEM tizimiga olib kirishning

ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir. Aslida STEM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog‘liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag‘batlantirilishi lozim. Maktabgacha ta’lim tizimida STEM tizimi bo‘yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi mumkin. STEM ta’lim tamoyillarga asoslanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish va amalga tadbiq etish muhim hisoblanadi.

STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodni, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o‘yin orqali yuzaga keltiradi. Bugungi kunda STEAM-ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunda ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga quyidagilar Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - can’at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuvdir. Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSh, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.A. Mavlonova, N. H. Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M. K. Shirinov S. Hafizov ”Umumiy pedagogika” « Fan va texnologiya» nashriyoti T.: 2018
2. N.N.Azizzoxjayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. «O‘zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg‘armasi» nashriyoti T.: 2006
3. S.T.Turg‘unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva “Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari” «O‘zbekiston Respublikasi O‘zPFTI » nashriyoti, T.:2014
4. J.G‘.Yo‘ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov “Pedagogik diagnostika” o‘quv metodik qo‘llanma T.:2014
5. O‘tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘ziyeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” «Toshkent innovatsiya-ziyo» T.: 2019

# BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TRIZ TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

*F.A.Nazarova*

*Samarqand shahar 14- IDUMning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada dars jarayonida TRIZ topshiriqlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Ona tili va o‘qish savosxonligi darslarida TRIZ topshiriqlaridan foydalanishning shakllari tahlil qilingan. Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, topshiriq, TRIZ topshiriqlari, hamkorlik, samarali natija.

Boshlang‘ich ta’limning rang barangligi o‘qituvchining ta’lim berish va o‘quvchining ta’lim olish bilan bog‘liq faoliyatining serqirraligi boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli o‘qituvchi ta’lim jarayonida didaktik o‘yin yoki interfaol metodlarga tayanib qolmasdan turli pedagogik texnologiyalar asosida ham ta’limni tashkil etishga e’tibor berishi kerak. Mana shunday texnologiyalardan biri sifatida TRIZ (Теория решения изобретательских задач) texnologiyasini tavsiya etishimiz mumkin.

Ixtiroga oid masalalarni yechish nazariyasi yoki TRIZ - texnik muammolarni yechish va texnik tizimlarni takomillashtirish usullarining to‘plamidir. 1946 yilda muhandis, olim va fantast yozuvchi Geynrix Altshuller Bokuda ixtirochilar tomonidan eng ko‘p ishlatiladigan muammolarni yechish usullarini o‘rganishni boshladi. Hammasi bo‘lib, u 40 ta texnikani ajratib ko‘rsatdi, ularni ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi deb atadi.

U texnik masalani hal qilish savolga hali ham javob bo‘lmagan paytga olib keladi degan xulosaga keldi, ammo ko‘plab variantlar mavjud. Har bir ixtirochi o‘zini shu vaziyatda topadi. Altshuller shuningdek, muammoning eng samarali yechimi sizda mavjud bo‘lgan resurslar (moddiy, vaqtinchalik, fazoviy, insoniy va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi, degan xulosaga keldi. Shunda javob aniq bo‘ladi.

1980-yillarda ushbu nazariya sovet maktablarida o‘qitish metodikasi uchun asos bo‘lib olingan va fabrikalarda qo‘llanilgan. Ammo keyinchalik bu amaliyot unutildi.

1989 yilda xalqaro TRIZ assotsiatsiyasi tashkil etildi.

TRIZ yoki ixtirochi muammolarni yechish nazariyasi - bu ijodiy yondashuvga asoslangan muammolarni yechish va tizimlarni takomillashtirish usullari to‘plami. Ya’ni, bu ijodkorlikni o‘qitishning deyarli yagona tizimli nazariyasi, shuning uchun TRIZ-da muammolarni hal qilishda baholash va yagona to‘g‘ri javob yo‘q.

TRIZning maqsadi: moslashuvchan fikrlash va xayolotni rivojlantirish, murakkab masalalarni nafis va samarali tarzda hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

TRIZ pedagogikasining g‘oyasi- boy moslashuvchan tizimga ega bo‘lgan ijodiy va ijodiy ixtirochilik muammolarini hal qilishning kuchli quroq-yarog‘iga ega bo‘lgan va munosib hayotiy maqsadga ega bo‘lgan tasavvur.

TRIZ pedagogikasining shiori - “Hamma narsada ijodkorlik!”.

TRIZ dasturining mohiyatini quyidagicha shakllantirish mumkin: qaramaqarshilikni hal qilishga asoslangan ideal natijaga intilish. va turli xil resurslardan foydalangan holda, atrofdagi dunyoning barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi, u mashg‘ulotlar o‘tkazish.

TRIZ asosida ijodkorlikni rivojlantirishda o‘quvchining kognitiv faoliyatini soddadan murakkabga qarab yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Masalan:

1- Topshiriq. Menda bitta olma, Dilshodda bitta olma bor. Men olmamni Javohirga berdim, u menga olmasini berdi. Har bir bolada nechtadan olma bor?

2- Topshiriq. Menda bitta g‘oya bor va Dilshodda bitta g‘oya bor. Men unga o‘z g‘oyamni aytdim, u ham menga o‘z g‘oyasini aytdi. Har kimning boshida qanchadan g‘oya bor? Ikkalamizda nechta g‘oya bor?

TRIZ texnologiyasidan pedagogik vaziyatlar orqali ham foydalanish mumkin. Masalan: Kapalak va yomg‘ir matni orqali ko‘rib chiqamiz.

Bir kunlik kapalak erta tongda uyg‘onib, hayotda juda baxtsizligini anglatdi: butun osmonni bulutlar qoplagan, ezib yomg‘ir yog‘ardi. Ko‘rinib turibdiki, butun kun yomg‘ir yog‘adi, uning butun hayoti! Lekin u juda ham uchishni, dunyonni ko‘rishni, hayotining yorqin va quvnoq o‘tishini xohlaydi! Nima qilish kerak?

Ushbu ajoyib muammoni 2-3-sinf o‘quvchilari TRIZ texnologiyasi asosida hal qilishadi. Qo‘yilayotgan muammo:

1-topshiriq: Nima uchun kapalak yomg‘irda ucha olmaydi?

O‘quvchilar tomonidan berilgan javoblar:

1. Qanotlari namlanib, og‘irlashib ketishi va uni silkitishga kuchi yetmagani uchun.

2. Qanotlardi chiroyli naqshni yomg‘ir yuvib tashlaydi.

2- topshiriq. Kapalakni o‘rab turgan narsalarni eslang? Yer, havo, shamol, bulutlar, yomg‘ir tomchilari, o‘tlar, barglar, gullar, daraxtlar, hayvonlar, odamlar. Shusozlardan foydalanib: kapalakni dunyo go‘zalliklarini ko‘rishiga, yordam berish yo‘llarini o‘ylab toping. Qisqa matn tuzing.

3- topshiriq O‘ylab ko‘ring. Yomg‘ir yog‘ishdan to‘xtamasa kapalakka dunyoni ko‘rishi, dunyo go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishi uchun qanday yordam berish mumkin. O‘quvchilar tomonidan quydagи fikrlar bildiril:

1. Qanotlarni yog‘lasin, shunda tomchilar toyib tushib ketadi.

2. Qanotlarini selofan plyonka yoki nozik barg bilan yopsin.

3. Bulutdan yomg‘ir kamida bir soat to‘xtab turishini so‘rash kerak.
4. Soyabon ostida yoki parashyutda uchish kerak.
5. Gullar tagidan uchib o‘tsin.
6. Qanotlarini ochmay, faqat oyoqlari yordamida yursin.

1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi mavzular asosida ham TRIZ texnologiyasidan foydalangan holda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, eruditsiya, intellektual rivojlanish va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining 2- qismida “Ixtiolar sarguzashti” kitobidan olingan “Gugurtga qadar” matni keltirilgan. Matn yuzasidan o‘ituvchi kitobida ham bir qator topshiriqlar keltirilgan.

### GUGURTGA QADAR

Eng qadimgi odamlar olov yoqishni bilishmagan. Ularga olovni tabiatning o‘zi sovg‘a qilgan. Yashin tushgan vaqtida daraxtlarga o‘t ketadi. Odamlar esa yonayotgan daraxt shoxini olib qochishgan. Keyin gulxan yoqishgan. Bir odam gulxanni tun-u kun qo‘riqlab, o‘chib qolmasligiga javob bergan. Shu tariqa gulxan oylar, yillar davomida o‘chmagan. Keyinchalik, odamlar gugurtni ixtiro qilishdi. Hozir olov yoqish juda oson ish. Biroq xavfsizlik qoidalarini hamma ham bilarmikan?!



Mazkur matn yuzasidan ham “Robinson usuli” dan foydalanib TRIZ texnologiyasi asosida o‘quvchilarda nazariy bilimlarini amaliyatga tadbiq etish, mantiqiy fikrlab to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. “Robinson usuli”ning tavsifi. Tasavvur qiling siz kimsasiz orolda yolg‘izsiz. Yashash uchun kurashishingiz kerak. Orolda mavjud shart- sharoitlar o‘qituvchi tomonidan tasvirlab beriladi. O‘quvchilarga mana shunday sharoitda qanday qilib yashab qolish, inson hayotida olivning o‘rni, qanday qilib gugurtsiz olov hosil qilish mumkinligi vazifasi haqida fikr yuritish vazifasi topshiriladi. Vazifani bajarishni juftlikda va kichik guruhlarda tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

O‘qituvchi o‘quvchiga zamon talablariga mos bilimlarni berishi uchun, avvalo, o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi yutuqlarining asosi bolalar bilan o‘tkaziladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. Bunda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va uning mazmunini yanada boyitishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar katta ahamiyatga ega:

1. Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarining mustahkam

nazariy bilim, faoliyat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta’minlash maqsadida o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

2. Yangi pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llashda interfaol metodlar singari zamonaviy o‘qitish metodlari yanada qo‘l keladi.Ta’lim-tarbiyada zamonaviy o‘qitish metodlari deganda yangi interfaol metodlar nazarda tutiladi.

3. Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact”, (rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug‘aviy ma’nosi “inter”-o‘zaro, ikki taraflama, “act-harakat qilmoq” kabi ma’nolarni anglatadi, ular dars samaradorligini oshirishga yordam beradi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda juda yaxshi natija beradi.

4. Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etib ushbu jarayonda interfaol metodlardan foydalanar ekanmiz. O‘quvchilarning yosh va individual-psixologik o‘ziga xos xususiyatlari albatta inobatga olinishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qiziquvchan, boshqarishga moyil bo‘ladilar. O‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe’l-atvori har xil bo‘lishiga qaramay o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatishi lozim.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari -T.: 2001.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar: o‘quv qo‘llanmasi. Qarshi, Nasaf. 2000.-80b.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 1-sinf uchun/ I.Asimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.
- 4 Ona tili va o‘qish savodxonligi 1 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
- 5.Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
- 6.Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.

# **MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMIDA STEAM YONDASHUVI ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**Z.M. Nasimova**

*Samarqand shahar 37-umumiy o'rta ta'lism maktabi  
oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada STEAM yondashuv orqali ta'lism sifat-samaradorligini oshirishda bu texnologiya-yondashuvdan foydalanish, uni iloji boricha ko'proq dars va mashg'ulotlarda qo'llash orqali o'qituvchi va tarbiyachilar ko'proq samaradorlikka erishishi xususida fikrlar keltirilgan. Bunda, har bir mavzuni bola uchun yangilikni tasavvur etib, chizib, bo'yab, yasab uni bola aynan his etishi, qo'li bilan ushlab, ko'zi bilan ko'rib aks etishi, shu mavzuni hayot bilan bog'lab, hayotiy misollar bilan tasavvur etib, unga kerakli ma'lumotni eslab qolishiga erishishda STEAM ning ahamiyati tushuntirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, technology, science, art, mathematics, engineering, integrasiya, STEARM, modellashtirish, yaratish

Ta'lism-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalgalashish imkoniyatlarini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalar-yondashuvlarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lism sohasida ham yangi texnologiyalar amal qila boshladi. O'qituvchi va tarbiyachining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ularning ixtiyorida bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh-sinf sharoitiga – bilimdarajasiga qarab tanlanadi. STEAM - bu ta'lismni haqiqiy hayot bilan bog'lovchi yondashuv- texnologiya.

STEAM - yondashuvining asosiy g'oyasi: amaliyot nazariy bilim kabi juda muhimdir. Bunda S – tabiiy fan, T – texnologiya, E – muhandislik, A – art-san'at, M – matematika, demak bir mavzuni turli yo'nalishlar-fanlar orqali keng tushuntirish.

STEAM – Amerikada ishlab chiqilgan. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusets Texnologiya Instituti (MIT)da ishlab chiqarilgan. Bu mashhur universitetning shiori “Mens et Manus” –“Aql va qo'l” dir, aqlini ishlatib, tasavvurini ishlatib, qurish, chizish, aks etish, qo'li bilan idroki birga, qo'l mehnati orqali, qo'liga olib shuni his etish, yaratish va tushunishdir.

STEAM – o'quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlarda, quyidagi muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuvi, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash, dizayn asoslarini tushunishni aks etadi.

STEAM –ta’limining 10 ta afzallik tomoni bor.

1. Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki, “mavzu”lar bo‘yicha integrasiyalab olib borish. STEAM –ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga, san’atga va matematikaga integrasiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash. STEAM – ta’limda amaliy mahg‘ulotlar yordamida, bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

3. Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish STEAM – dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar Yerning quyosh atrofida aylanishiga doir maketini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar. Birinchi sinovdan so‘ng, kutilgan natijaga erishilmasa, uning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar. Balkim, yorug‘lik beradigan fonar kattaligi yoki kichikligi, yorug‘lik tushadigan fonarning baland – past o‘rnatilganligi to‘g‘ri kelmagandir. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar. Shu muammolarni bartaraf etish bilan ular mavzuni yanada tushunib boradilar va albatta eslab qoladilar.

4. O‘z kuchiga ishonish hissini ortishi. O‘quvchi har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib, maqsadga erishadilar. Bu ular uchun ruhlanish, g‘alaba, quvonch va o‘ziga ishonchdir. Har bir g‘alabadan keyin ular o‘zlariga, bilimlariga yanada ishonadilar

5. Faol kommunikatsiya va komandada ishslash. Demak, kichik guruhlarda ishslash samarasi. STEAM – dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishslash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi, bir-birining fikrini tinglsh, o‘zaro hurmat, erkin fikr bildirishdan qo‘rmaslikni o‘rgatadi. Ular gapirishga va taqdimot qilishga o‘rganadilar.

6. Texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish. O‘quvchilarning tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yo‘nalishda bola zerikmaydi, aksincha qiziqishlari oshadi.

7. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv. STEAM – ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol(vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi.

8. Ta’lim va karyera orasidagi ko‘prik. Turli xil baholashlarga ko‘ra hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan mutaxassislarga STEAM juda zarur. Bunday kasblardan muhandis-kimyogar, neft bo‘yicha mutaxassislar, muhandis-

kompyuterchi, muhandis-quruvchi, muhandis-mexanik, robototexniklar, yadro-medisinasи va albatta o'qituvchi kiradi.

9. Bolalarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash. STEAM – ta'limi bolalarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. To'g'ri kerakli ma'lumotlarni olib, ulardan o'rinali foydalanish davr talabi.

10. STEAM maktab dasturlariga qo'shimcha sifatida qo'llaniladi, darsliklar ichida shunday vazifalar berilgan. STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarining muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini oshiradi. Masalan, tabiiy fan darslarida formulalar yozib tushuntirguncha, samolyot modelini, parashyutlar modelini qurib, ishga tushirib ko'rsatilganda o'quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunadi, bilimi mustahkamlanadi. O'quvchilar o'zлari ko'rmagan yoki eshitmagan atamalarni har doim tez anglab yetmaydilar, shuning uchun bunday yondashuv yuqori samara beradi. STEAM mashg'ulotlarida ular qiziqarli eksperimentlar o'tkazganlarida bu atamalar yoki qoidalarni osongina tushunib olishlari mumkin.

Maktabgacha ta'lrim va boshlang'ich ta'limga ham STEAM juda ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir mashg'ulot, darslarni tashkil etishda bunga alohida e'tibor qaratish kerak. S –science, T-technology, E-engineering, A-art, R-reding, M-mathematics fanlarining mavzularda o'zaro bog'lanishi-integrasiyalashuvidir. Bolalarni STEAM ga jalb qilish, ushbu yondashuvni maktabgacha yoshdan boshlab qo'llash, ularni maktabga, keyinchalik katta hayotga tayyorlab borish demakdir. Bu juda qiziq va juda samaralidir. Ming marta eshitishdandan, bir marta ko'rish afzaldir. Har qanday mavzuni shu STEARM orqali o'tib, tushuntirib bersak, juda samarali bo'ladi, bunda STEARM R-reding ham qo'shilgani, bu ona tili va o'qish savodxonligi bilan bog'lash, mavzuga mos maqollar aytish, tez aytish, topishmoqlar bilan boyitish, kalit so'zlarni bo'g'inga bo'lish, shu kalit so'zlarni fonetik tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, 2- sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanidan "Kutubxonadagi suhbat" mavzusida kutubxonaga sayohat uyushtirib, kimning uyida shaxsiy oilaviy kutubxona bor?, unda qanday kitoblar bor?, uni kimlar o'qiydi?, degan savollar orqali oiladagi kitobga e'tiborni bilish, kitoblar olami bilan tanishtirish jarayonida yangi ma'lumotlar berish, audiokitoblar, shoir va yozuvchilarining audiodisklardagi asarlari haqida ko'rsatib, eshittirib tushuntirish bilan birga kitobcha yasash, "Mening tasavvurimdagи kutubxonam" mavzusidagi rasm chizish, kitobcha yasash va bu jarayonlarda yasagan kitobchangizning nechta sahifasi bor?, necha betdan iborat?, u qanday shaklda?, to'g'ri to'rtburchakning perimetri qanday topiladi?, bolalar siz matodan tikilgan kitobni, o'zi o'qib beradigan kitobni, suratlari ko'tariladigan kitobni ko'rganmisiz?, degan savollarga javob berib, qadimda qanday kitoblar bo'lganligi xususida ma'lumot berib, duyoqarashini boyitish, kitobcha faqat to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lmasligiga ahamiyat berish,

3D kitobchalardan namunalar ko‘rsatish demak, matematika va “art” - san’at bilan bog‘ladik. Kitobchaning ichiga qaraymiz, bu nimaning rasmi?, nima yozding?, ertak, she’r, topishmoqlar, maqollar, o‘qib berasanmi?, bu kimning she’rlari?, o‘zing mualliflik qilgan she’r ham bormi?, kitob haqida maqol, topishmoq ayting-chi, deb, “reading” - o‘qish - bu ona tili va o‘qish savodxonligiga qiziqtirish mumkin. Endi technology va science bilan bog‘laymiz, kitob – umuman, qog‘oz nimadan tayyorlanadi? (tabiiy fan), kitobcha yasash jarayonini so‘zlab bering – qanday g‘oyaga asoslandingiz?, qanday shakllarni kesib, uni qanday birlashtirdingiz?, uni yana qanday sahifalarini taxlab yasash mumkin deb o‘ylaysiz?, yana qanday xomashyolardan kitob yasasa bo‘ladi deb o‘ylaysiz?, (technology) degan savollar bilan murojaat qilib, o‘quvchilar dunyoqarashi, tasavvuri, kitoblarga bo‘lgan munosabati – mehrini boyitish mumkin. Reding bo‘yicha esa kitob, kutubxona so‘zini fonetik tahlil qilish, kitob haqida, bilim haqida maqollar ayting, topishmoqlar ayting kabi topshiriqlarni bajarihimiz ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

Demak, biz hozir bitta ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi “Kutubxonadagi suhbat” mavzusini 6 ta fan bilan mavzudan chiqmagan holda savollar bilan tushuntirdik, ularni kitob o‘qishga bo‘lgan mehrini oshirdik, muhimi bu tushuntirishda o‘quvchilarning o‘zlari ishtirok etishlariga erishdik. Maqsad o‘quvchini fanga qiziqtirish, ta’lim sifatini oshirish, sinfdagi barcha o‘quvchining qatnashishiga erishish, bular hammasi STEARM yondashuvi yordamida, o‘quvchilarning bilimi sifat samaradorligini oshirish uchun juda qulay.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Habibova G.Y. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali 10-son maqola “Ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari va yosh avlodni fanga qiziqtirishga yangicha yondashuvlar” 20.08.2022-yil.

2. ”STEAM-ta’lim tizimi nima?” <https://www.integer.uz/steam>

# **O'QUVCHILAR IJODKORLIK FAOLIYATIDA ТРИЗ (IMEN) METODIKASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI**

*L.E.Bobomurodova  
Sharof Rashidov nomidagi SamDU, (PhD),  
O.O.Yusupov  
SamDU talabasi*

**Annotatsiya.** Texnologiya darslarida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini shakllanthurishda ТРИЗ (IMEN) metodikasidan foydalanishning afzalligi bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so'zları:** texnologiya, IMEN, soha, ishlab chiqarish, faoliyat, kompetensiya.

Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunning maqsadi ta'lif tizimini takomillashtirish va jahon andozalari talablari darajasida tashkil qilish, davlat ta'lif standarti talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh, yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Zamonaviy jamiyatda ilm-fan va texnikaning ko'plab sohalarida tobora jadal va tez sur'atlar bilan o'ziga yuklangan vazifani sidqidildan hal etishga yondasha oladigan ijodkor va har tomonlama rivojlangan shaxsga ehtiyoj sezilmoqda. Shuning uchun pedagogikaning bu rivojlanish bosqichida innovation ta'lif texnologiyalariga e'tibor qaratiladi. Texnologiya o'qituvchilarining o'quv faoliyati uchun foydalanadigan texnologiyalardan biri ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi (IMEN (Теория решения изобретательских задач (ТРИЗ))) bo'lib, bunda o'qituvchining asosiy e'tibori o'quvchi-yoshlarning ijodkorlik faoliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Bu metod ijodga moyillik inson o'zini namoyon etishining yuqori faolligi, yangilikni yaratish qobiliyati, inson faoliyatining har qanday ko'rinishida o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ijodkorlik masalalariga insonlar har qadamda duch keladilar, biroq ularni har doim ham ijodiy yo'l bilan hal etishga intilmaydilar. Jumladan, ta'lifni tashkil qilishning asosiy shakllari bo'lgan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish muammosi o'zining to'laqonli yechimini topmay kelmoqda. Mazkur muammoni darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida hal etish muayayn yechimlari taklif etilgan bo'lsa-da, dars mashg'ulotlarida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish muammosi yetarlicha tadqiq qilingan emas.

Qisqa qilib aytganda, ijodkorlikni murakkab ko'ringan masalani hal etishning sodda yechimini topish deb ta'riflash mumkin. Odatda, uni oqilona yechim yoki

ixtiro deb atashadi. Ushbu fikrni ko‘proq moddiy shaklga ega bo‘lgan texnik ijodkorlik misolida izohlash mumkin.

Biz foydalanadigan fikrlash metodlarining ko‘pchiligi IMEN (TRIZ) tizimining bir qismi – “Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi” bo‘lib, ulardan yangi g‘oya va yangiliklarni yaratish, muammolarni hal qilish jarayonini tartibga soluvchi ko‘plab tushuncha va usullarni o‘z ichiga oladi.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi (IMEN (TRIZ)) - tizimlarni rivojlantirish va umuman, ijodning har qanday sohasida samarali fikrlash haqidagi metodika. IMEN (TRIZ) tafakkur va uning turlari o‘rtasidagi asosiy farq fikrlash jarayonini ongli boshqarishdir (bu algoritmlarga ko‘ra fikrlashdir, bu qonun va qoidalarga ko‘ra fikrlashdir).

IMEN (TRIZ) muammolarni hal qilish uchun ishlatiladigan boshqa usullardan muhim afzalligi bilan ajralib turadi. Ya’ni, biz ijodkorlikda ishlatadigan «aqliy hujum», «amal va xato», «sinektika», «morfologik tahlil» va hokazo metodlarimiz muammolarni hal qilish yoki to‘g‘ri yechimlarni ta’kidlash yo‘llarini aniqlash ko‘rsatmaydi. Bu usullar odatda muammoni va uning tub sababini aniqlash qobiliyatiga ega, lekin aslida bu muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega emas. Boshqa tomondan, IMEN (TRIZ) tizimli innovasiyalarni etkazib berishni, muammolarni ijodiy yo‘llar bilan hal qilishni tezlashtirishni, yangi echimlarning barcha imkoniyatlari qoplanganligini va innovation ixtirochilik muammolarini hal qilishda ruhiy ingibitor (tashqi kuzatuvchilarning mavjudligi natijasida inson mehnatining faolligi va samaradorligining pasayishi) larni buzadi.

IMEN(TRIZ)ga asoslangan pedagogik texnologiyalarning maqsadi ijodiy metodlarni o‘rgatishdir.

Qo‘llashdan maqsad:

- g‘oyalarni qidirish;
- ko‘plab ijodiy muammolarni aniqlash va hal qilish;
- istiqbolli echimlarni tanlash,
- ijodiy tafakkurni rivojlantirish,
- ijodiy shaxsni shakllantirish.

IMEN (TRIZ) metodikasi ushbu maqsadlarga javob topishga yordam beradi. IMEN(TRIZ)dan foydalanadigan darslarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish amaliy harakatlarda ko‘rinadi.

Ijodkorlik o‘zini namoyon qilish, yaratish, yangisini olishga intilish imkoniyatini beradi, bilimga bo‘lgan ehtiyojni rivojlantiradi. Bu istiqbolli texnologik, zamonaviy standartlarga mos keluvchi yo‘nalishlarni tadqiq qilish va joriy etish, talaba shaxsida tizimli fikrlash, muloqotchanlik, o‘z-o‘zini tashkil etish, talabalarning ijodkorlik qobiliyatini, loyihalash-texnologik va tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishga imkon beradi.

IMEN (TRIZ) metodikasi turli xil faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi: frontal, individual, guruhlar o‘qituvchining rahbarligi ostida barcha o‘quvchilarning birgalikdagi harakatlarini o‘z ichiga oladi.

Ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishning mazkur usullarini turli yoshdagi o‘quvchilarga nisbatan samarali qo‘llash mumkin, faqat buning uchun tegishli dasturlar hamda o‘quv qo‘llanmalarining tizimlashtirilgan majmuasi mavjud bo‘lishi talab qilinadi. Demak, navbatdagi dolzarb vazifa sifatida maqolada keltirilgan usullarni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi o‘quv-metodik majmuani yaratish masalasi hal etilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. L.E.Bobomurodova. Texnik ijodkorlik va dizayn. O‘quv qollanma. – Samarqnd, 2022.
2. Sharipov Shavkat Safarovich. Muslimov Narzulla Alixanovich "texnik ijodkorlik va dizayn" -T.: 2007 y.
3. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Diss. ... ped. fan. dok. (DSc). -Toshkent, 2019.

## **TA’LIM SIFATIGA ERISHISH “UMUMIY PEDAGOGIKA” FANI TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI SIFATIDA**

*SamDU talabasi: M.S. Abduvoxidova*

*Ilmiy rahbar: N.S. Kiyamov*

**Annotasiya:** Maqolada ta’lim sifatiga erishishda Umumiy pedagogika fani taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari ochib berilgan. Darhaqiqat o‘qitish tizimining sifati va samaradorlik holatini ta’minlashda yetakchi asos sifatida o‘qituvchi shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, tafakkuri, va kasbiy mahoratini ochib bergen. Maqolada o‘qituvchilik kasb ekanligi bilan ahamiyatli ekanligi yoritilgan va ta’lim sifati, oliv ta’limning sifati, sifat va samaradorlik darajalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, fan, ustuvorlik, saviya, kasbiy tayyorgarlik, fidoiylik, kasb, sifat, ta’lim sifati, samaradorlik va boshqalar.

Zamonaviy sharoitda har bir jamiyatning taraqqiyotida ijtimoiy omillardan biri ta’lim tizimining rivoji deb e’tirof etilgan. Binobarin, yosh avlodning kamoloti bevosita ta’lim tizimining mazmuni va uning o‘zida qay darajada aks etishiga bog‘liq. O‘qitish tizimining sifat va samaradorlik holatini ta’minlashda esa yetakchi asos o‘qituvchi shaxsining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, tafakkuri va kasbiy mahorat sanaladi.

O‘qituvchining ma’naviyati va mahorati kishilik jamiyatining pedagogik soha

shakllangan deyarli barcha bosqichlarida shaxs kamolotini belgilovchi yetakchi mezon sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Darhaqiqat, o'qituvchining bilimdonligi, boy madaniyati, hissiy yetukligi, ta'lim oluvchilarga nisbatan ijobiy yondashuvi va albatta, ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat bilan tashkil eta olishi yosh avlodni har tomonlama kamol topishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Axborotning katta oqimi, shaxslararo munosabatlarda axborot almashinuvining tezkorligi o'z-o'zidan bugungi kun o'qituvchi zimmasiga turli ijtimoiy to'siqlarga nisbatan bardoshli, immunitetga ega yoshlarni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Ta'lim maqsadlariga erishish, ta'lim oluvchilarning turli (bilish, tadqiqotchilik, ijtimoiy va b.) faoliyatlarini uyshtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol shaxs etib tarbiyalash o'qituvchilar zimmasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Yosh avlod kamoloti timsolida jamiyat ravnaqi, yurt istiqboli ta'minlanadi. Shunday ekan, jamiyatning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, kasbiy tayyorgarligi, fidoyiligi, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashdan iborat faoliyatiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'kituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariya asoslarinigina o'zlashtirishning o'zi yetarli emas. Zero, pedagogik nazariya shaxsni o'qitish va tarbiyalashning umumiyligi qoidalari, qonuniyatları, tamoyillari, metodik g'oyalarini nazariy jihatdan yoritib beradi. Ta'lim jarayonini tashkil etish esa amaliy xarakter kasb etadi. Bu jarayonda kutilmagan tasodif tufayli ba'zan nazariy jihatdan asoslangan g'oyalar bo'yicha ish ko'rish ijobiy natijani kafolatlay olmaydi. Ta'lim amaliyotida har bir voqyea, hodisa, jarayonga uning mohiyatidan kelib chiqqan holda individual yondashish talab etiladi. Bu esa o'z-o'zidan o'qituvchining bilimdon, mahoratli, tadbirli bo'lishini zarurligini taqozo etadi.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli, samarali olib borish uchun o'qituvchi o'z kasbining ustasi bo'la olishi zarur, qolaversa, u soha muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladigan sifatlar, pedagogik qobiliyat, jismoniy, ruhiy va amaliy tayyorgarlikka ham ega bo'la olishi zarur.

Kishilik tarixi taraqqiyotidan yaxshi ma'lumki, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi hamda keng ko'lamga ega bo'lib borishi bilan birga yosh avlod ta'limi va tarbiyasini tashkil etish, bu borada yuqori natijalarni qo'lga kiritishga alohida e'tibor qaratila boshlagan. Yosh avlod kamolotini ta'minlashda muhim rol o'ynovchi subyektlar sirasida o'qituvchi va uning roli behad qadrlangan. Asrlar davomida o'qituvchi shaxsiga nisbatan alohida hurmat ko'rsatilib qolmasdan, o'z navbatida uning ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan va yuksak talablar qo'yilgan. Ana shunday talablar mohiyati ilk yozma manba sanaluvchi «Avesto», Islom dinining muqaddas manbalaridan biri bo'lgan «Hadis», shuningdek, ulug' mutafakkirlar – Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino,

Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoni, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar tomonidan yaratilgan asarlar mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib maqolamizning mavzusini “Ta’lim sifatiga erishish “Umumiy pedagogika” fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari sifatida” deb nomladik.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo‘ylab “sifat inqilobi” sodir bo‘ldi. Dunyoninng yetakchi ishlab chiqarish korxonalari asosiy e’tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Sifat – umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo‘lib, ularni qo‘yilgan talablar va o‘z vazifalariga to‘liq mos kelishi bilan baholanadi.

Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste’molchilarning talablari bilan aniqlanadi.

Sifatga e’tibor va uning rivojlanish bosqichlarini mantiqan quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

1. XX asrning 60-yillari: Bozor raqobatbardoshligi sharoitida asosiy omil – mahsulot sifati.
2. XX asrning 70-yillari: mahsulot sifatidan texnologiya va ishlab chiqarish sifatiga o‘tish bosqichi.
3. XX asrning 80-yillari: texnologiya va ishlab chiqarish sifatidan “sifatni boshqarish tizimi” bosqichiga o‘tish davri.
4. XX asrning 90-yillaridan boshlab: ta’lim sifati, bevosita intellektual resurslar sifati, inson hayoti darajasi va uning sifati – asosiy omil sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Bu holat ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarga ta’lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim mazmuni, o‘qitish shakli va uslublari, material-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilalar kiradi. Qolaversa, ta’lim sifati shaxsning hayotiy faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo‘ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmui sifatida ham talqin etiladi.

Hozirgi vaqtida ta’lim-tarbiya sifati o‘ta muhim, muammoli va dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, boshqa barcha ijtimoiy masalalar, siyosiy muammolar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar aynan ta’lim sifati darajasiga bog‘liq holda rivojlanadi. Shuningdek, ta’lim sifati davlat va jamiyat istiqbolini, butun insoniyat taqdirini

belgilab beradi. Shu sababli ta’lim sifatini “hayot sifati” deya izohlash xato bo‘lmaydi.

Talabalarning bilimlari sifati odatda ta’lim muddati yakuniga yetgach, ular tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliy ahamiyat, qiymatga egaligi, yuqori darajadaligi va kasbiy faoliyatda qo‘l kelishi bilan belgilanadi.

“Ta’lim sifati” tushunchasi mohiyatida quyidagi omillar birligi namoyon bo‘ladi: oliy ta’lim ishtirokchilarining manfaatlari; kirish ma’lumotlari, ta’lim-tarbiya jarayonlari, chiqish ma’lumotlari, maqsad va vazifalar kabi tushunchalarning o‘zaro nisbati; baholanadigan akademik sohaning xususiyatlari yoki tavsifi; oliy ta’limning tarixiy rivojlanish davri.

Tushunchaning o‘zi turli bir necha holatlarga berilgan baho, munosabat tarzida aks etadi. Ya’ni, sifat – 1) eng yuqori ko‘rsatkich; 2) maqsadga to‘liq erishilgan faoliyat; 3) yanada takomillashtirilgan faoliyat.

O‘qitish amaliyotida “ta’lim sifati” absolyut va nisbiy tushuncha sifatida talqin etiladi.

Absolyut tushuncha tarzida u ta’lim muassasasining maqomi, mavqyei va ustunligini aks ettirishni nazarda tutadi. Bu vaziyatda u ta’lim muassasasi imidjining yuksalishi, rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Absolyut ko‘rsatkich tarzida u ta’lim sifati bo‘yicha eng yuqori darajadagi ta’lim standartiga yetishishni ifodalandaydi.

Tushuncha nisbiy tarzda ham ifodalanadi. Unga ko‘ra sifat ta’lim xizmatning asosiy atributi (ajralmas qismi, asosiy xususiyati) deb hisoblanmaydi va ta’lim jarayonini davlat ta’lim standartiga mos kelishi bilan baholanadi. Ana shu holatga ko‘ra tushuncha ikki xil talqin etiladi:

- 1) sifat ko‘rsatkichining ta’lim standartiga mos kelishi;
- 2) sifat ko‘rsatkichining ta’lim xizmati iste’molchilarining rasmiy talablariga mos kelishi.

Tushuncha birinchi holatda ishlab chiqaruvchi (ta’lim muassasasi) nuqtai nazaridan sifatni belgilasa, ikkinchi holda iste’molchi, ya’ni, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mutaxassis kasbiy tayyorgarligining e’tirof etilishini anglatadi.

Ayni o‘rinda shuni ham aytib o‘tish kerak, ko‘pincha ta’lim xizmati sohasi va iste’molchilarning manfaatlari sifat nuqtai nazaridan bir-biriga to‘liq mos kelmaydi. Shu sababli barcha oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifati muammosiga ikki xil yondashuv kuzatiladi:

- ta’lim muassasasining yondashuvi (bunda marketing tadqiqotlari ta’lim jarayoni mavjud holatining davlat ta’lim standartiga mosligini o‘rganatdi);
- ta’lim xizmati iste’molchilarining yondashuvi (marketing tadqiqotlari ta’lim xizmati iste’molchilari talablarining qondirilganlik darajasiga ko‘ra baholanadi).

Ta’lim sifatiga baho berishda “ta’lim samaradorligi” tushunchasi ham e’tiborga olinishi zarur. Binobarin, ular bir-birini taqozo etadi. Biroq, ko‘p holatlarda sifat va samaradorlik negizida aynan bir xususiyat e’tirof etiladi. Ular o’rtasida keskin farq mavjud.

Xo‘sish, ta’lim sifati va samaradorligi tushunchalarini aniqlovchi mezonlar bir-biridan qanday farq qiladi?

Ta’lim sifati va ta’lim samaradorligi jamiyatda ijtimoiy subyektlarning tur mush darajasini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiyligi va kasbiy ta’limga qanchalik ko‘p mablag‘ sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Ta’lim samaradorligini belgilashda eng optimal xarajatlar hisobida yuqori ta’lim sifatiga erishish talab etiladi.

Ta’lim sifatini belgilashda muayyan omillar inobatga olinadi hamda mezonlarga tayangan holda ish ko‘riladi.

Ta’lim sifatini baholashda quyidagi ketma-ketlikdagi tashkil etuvchilar hisobga olinishi talab etiladi:

- bilim sohibi, tarqatuvchisi;
- bilimni uzatish texnik vositalari;
- bilimni uzatish texnologiyasi;
- bilim oluvchi;
- bilimni mustahkamlik darajasi;
- olingan bilimlarni zarurligi, kerakligi;
- yangi bilimlar olish zarurligi va imkoniyati.

Shunday qilib, “ta’lim sifati” ham ta’lim muassasasi faoliyatining, ham bitiruvchining kasbiy tayyorgarlik, kompetentlik darajasini ifodalashga xizmat qiladi. Ta’lim sifatiga erishish kuchli raqobat mavjud sharoitda jahon ta’limi darajasiga yetish hamda talabalarning mutaxassis sifatida yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikni namoyon eta olishi uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ham belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish, turli sohalarda ro‘y berayotgan keskin, inqilobiy o‘zgarishlar ta’lim sifatida erishishda ilg‘or pedagogik va innovasion xarakterga ega axborot texnologiyalarini o‘qitish amaliyotiga tatbiq etishni taqozo etmoqda. Bitiruvchilarning ta’lim davrida qanday kasbiy tayyorgarlikka ega ekanliklarini izchil nazorat, tahlil qilib borish har bir o‘qituvchidan o‘z faoliyatida ilg‘or pedagogik va innovasion axborot texnologiyalarini samarali qo’llay olishni taqozo etmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurasulov G‘.R. “Pedagogik mahorat” fanidan oraliq va yakuniy nazorat savollari bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma. – Jizzax: Jizzax, 2010.

2. Axmedjanov M.M., Xo‘jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat / Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2008.
3. Karimjonov A. Pedagogik tizimni boshqarish asoslari / O‘quv qo‘ll. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
4. Mirzaxmedova Sh.A. “Pedagogik mahorat” fanidan ma’ruzalar matni. – T.: Toshkent avtomobil-yo‘llar instituti, 2010.
5. Muloqot psixologiyasi / Tuzuv.: X.G‘.Sharafutdinova. – Termez: Termez DU, 2008.
6. Pedagogika / Darslik / Prof. M..Toxtaxodjayevaning umumiy ta’riri ostida. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.

## **PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*SamDU talabasi: Mavlonov M.O.  
Ilmiy rahbar: Kiyamov N.S*

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishishi, o‘z navbatida barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim va tarbiya sohasida yosh avlodni jahon ta’limi andozalariga binoan bilim berish, pedagogik texnika, nutq madaniyati kabi ustuvor vazifalar ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, siyosiy, ta’lim, tarbiya, Ilm, bilim, pedagogika, pedagogik texnika, nutq.

Pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri – ta’limning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, uning maqsad va vazifalari, ta’lim darajalari, ta’lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari, uzlusiz ta’lim tizimi komponentlari, ta’lim jarayonining mazmuni, ta’lim natijasiga qo‘yiladigan talablarning shaxs, Davlat hamda jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan yondashilgan holda ishlab chiqilishida namoyon bo‘ladi.

Ta’limning maqsad va vazifalari, uning mazmunini aniqlaganda, pedagogika fani, birinchi navbatdagi masalaga shaxsni rivojlantirish, uning manfaatlarini Davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish, shaxs faoliyati, dunyoqarashini Davlat va jamiyatni rivojlantiruvchi omil darajasiga ko‘tarishga erishishni nazarda tutmog‘i lozim. Bunda ta’limni shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi mexanizm darajasida asoslash nazarda tutiladi.

Pedagogik faoliyatda muloqot ta’lim oluvchilarga zamon talablari asosida ta’lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta’minlash tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida pedagogik va

nutqiy texnika, madaniyat sohibi bo‘lishga undaladi, o‘qituvchi esa bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

Nutq madaniyati, so‘zlashish odobi haqida buyuk allomalar, mutafakkirlarimizning fikr-mulohazalari, asarlari bizgacha yetib kelgan va tarbiyaviy ahamiyatini hanuzgacha saqlagan. Shuningdek, ma’rifatparvar yozuvchi-shoirlarimiz, arboblarimiz ham bu borada katta meros qoldirganlar. Zamondoshlar ichida ham ushbu mavzu ustida qator ilmiy ishlar, izlanishlar olib borilgan. T.Qudratovning “Nutq madaniyati asoslari”, S.Mo‘minovning “So‘zlashish san’ati”, E.Begmatov, A.Boboyevalarning “O‘zbek nutqi madaniyat “ ocherklari, N.Maxmudovning “Ma’rifat manzillari” risolasi, A.Xoliqovning “Pedagogik mahorat”, X. Ibragimov, Sh.Abdullayevalarning “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmalari shular jumlasidandir.

Pedagogik texnika – o‘qituvchining nafaqat ta’lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiyligini pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o‘qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalarini hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlarga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali o‘quvchilar ongiga va tafakkuriga ta’sir o’tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabilardir.

O‘qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko‘nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika o‘qituvchining ta’lim muassasalarida ta’lim–tarbiyaviy faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishida, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishida qanday rol o‘ynaydi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o‘qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim–tarbiya jarayonida o‘z–o‘zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo‘ladi:

- ta’lim–tarbiya jarayonida o‘z habbi-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta’lim–tarbiya jarayonida o‘z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojona ta’sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perceptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o‘rnida qo‘llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o‘qituvchining shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu guruh ta’lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o‘qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma’lum bir reja asosida o‘z oldiga qo‘yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- o‘quvchilar jamoasida ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o‘quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O‘qituvchining tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o‘z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san’atiga xos bo‘lgan xususiyatlari, ya’ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o‘ynaydi. Aktyor bir obrazni ma’lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko‘rinishda sahnada namoyish etsa, o‘qituvchi butun o‘quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o‘tilgan mavzular bilan bog‘lab, zamonaviy integrasion usullarda o‘quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko‘radi, sinf jamoasidagi o‘ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olib pedagogik faoliyat ko‘rsatishga majbur. Bunday ulkan mas’uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o‘qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo‘lish talab etiladi.

Hozirgi zamон o‘qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o‘qituvchiga o‘z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuyg‘ularini (emosiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o‘quv faoliyatida, o‘qishdan tashqari ta’lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo‘llash yo‘llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o‘qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig‘indisiki, u o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiladi.

Olimlarning fikriga ko‘ra o‘qituvchi professiogrammasi o‘qituvchiga qo‘yiladigan maxsus talablarni o‘z ichiga oladi hamda har bir fan o‘qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular umumta’lim maktablarida pedagogik faoliyat olib boradigan “O‘qituvchi-murabbiy professiogrammasi”da quyidagi hislatlar, ya’ni “Pedagogik texnika” malakalari mujassamlashgan bo‘lishini ta’kidlaydilar:

1) O‘qituvchining shaxsiy hislatlari: bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.

2) Kasbiga xos bilimi: ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta’sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.

3) Kasbiga xos hislatlari: milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an’ana va urf-odatlarning asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi,o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini anglay olishi, pedagogik takt, nutqiy madaniyati.

4) Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg‘ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta’lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o‘quvchilar jamosini boshqara olishi.

5) Tashkilotchilik malakalari: o‘quvchilar jamoasini uyuشتира bilishi, turli vaziyatlarda ham o‘quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.

6) Kommunikativ malakalari: o‘quvchilarni o‘ziga jalb etishni bilishi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o‘quvchilarning jamoada o‘zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.

7) Gnostik malakalari: o‘quvchilarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olishi, o‘z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o‘qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to‘g‘ri foydalana bilishi, o‘quvchilar xulq-atvorini mukammal o‘rganishi.

8) Ijodiy hislatlari: o‘z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o‘quvchilarni tarbiyalashda o‘z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o‘quvchilar nazari bilan voqyelikni tahlil qilish qobiliyati, o‘quvchilarga pedagogik ta’siri natijalarini oldindan ko‘ra olishga intilishi shular jumlasidandir.

Shunday qilib pedagogik mahorat mazmunida pedagogik texnika muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, u ta’lim-tarbiya uchun zarur bo‘lgan umumpedagogik malakalar yig‘indisidan iborat. Uning tarkibida o‘qituvchining nutq texnikasi, o‘z fikri, his-tuyg‘ularini so‘zda aniq ifoda etish, mimik, pantimimik ifodalar mohiyat mazmunini chuqur egallash, aktyorlik, rejissyorlik malakalariga ega bo‘lish, o‘z hissiyotini boshqara olish kabi muhim kasbiy mahoratning tarkibiy qismlari yotadiki, ularni bilmasdan turib, o‘quvchi yoshlarga ta’sir ko‘rsatish, o‘qitish, tarbiyalash ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas. Pedagogik texnika elementlari bilan qurollanish o‘qituvchi o‘z kuchini, vaqtini tejab ijodiy ishlash uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Shuni ham alohida qayd etib o‘tmoq joizki, qayd qilingan pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari kompleks amalga oshirilsa, kutilgan muddaoga erishiladi.

#### Foydalaniman adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020 yil 23 sentabr // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari -T.: 2001.
- 3.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar: o‘quv qo‘llanmasi. Qarshi, Nasaf. 2000.-80b.

**5-YO‘NALISH**  
**BOSHLANG‘ICH TA’LIM YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN**  
**ISHLASHDAGI MUAMMOLAR**

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ  
ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ ПО ПРИРОДОВЕДЕНИЮ В  
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

*M. И. Нуридинова, М. Расулова  
СамГУ имени Шарофа Рашидова,  
Факультет: Дошкольного и начального образования*

**Аннотация:** Данная статья посвящена актуальной проблеме, т.е. методическим особенностям обучении интегрированных уроков по природоведению в начальных классах. Прилагаются материалы по проведению и разработке интегрированных уроков в начальной школе.

**Ключевые слова:** природоведение, интеграция , интегрированное обучение, начальная школа.

Следует отметить, что интеграция в начальном обучении позволяет формировать у младших школьников системность знаний как средство целостного восприятия мира и условия дальнейшего образования и самообразования. Интегрированное обучение позволяет показать учащимся мир во всём его многообразии с привлечением научных знаний литературы, музыки, живописи, что способствует эмоциональному развитию личности ребенка и формированию его творческого мышления. Применительно к системе обучения понятие «интеграция» может принимать два значения: во-первых интеграция может рассматриваться как цель обучения – «создание у школьника целостного представления об окружающем мире». Как цель обучения она даёт младшим школьникам те знания, которые научат его представлять мир как единое целое, в котором эти элементы взаимосвязаны.

Во-вторых, интеграция может рассматриваться как средство обучения – «нахождение общей платформы сближения предметных знаний». Тогда интеграция направлена на развитие эрудиции, расширение и обновление знаний. При этом, однако, интеграция должна лишь соединить получаемые знания в единую систему, а не заменить обучение традиционным учебным предметам.

Интеграция в современной школе идёт по нескольким направлениям и на разных уровнях. Различают три уровня интеграции содержания учебного материала: *внутрипредметная* – интеграция понятий, знаний, умений и т.п. внутри отдельных учебных предметов, *межпредметная* – синтез фактов,

понятий, принципов и т.д. двух и более дисциплин и *транс-(кросс) – предметная* – является разновидностью межпредметной и означает сквозную связь (или синтез) конкретно данного предмета с другими предметами. Например: изучение иностранного языка на музыкально-изобразительной основе.

Методической основой интегрированного подхода в начальном образовании становятся внутри предметные и межпредметные связи, которые являются "зоной ближайшего развития" для постепенного перехода к интеграции учебных предметов, более глубоко осуществляющей в старшем звене. В начальной школе интегрированные уроки целесообразно строить на объединении достаточно близких областей знаний. Например, природоведение включает сведения из географии, биологии, ботаники, физики и т.д. Поэтому, для успешной реализации интегрированного обучения необходимо понимать функции интегрированных уроков. К ним относятся:

1. Методологическая функция – формирование у учащихся современных представлений изучаемых дисциплин.
2. Образовательная функция – формирование системности, связанности отдельных частей как системы, глубины, гибкости осознанность познания.
3. Развивающая функция – формирование познавательной активности, преодоление инертности мышления, расширения кругозора.
4. Воспитывающая функция – отражает политехническую направленность.
5. Конструктивная функция – совершенствование содержания учебного материала, методов и форм организации обучения.

На интегрированных уроках дети работают легко и с интересом усваивают обширный по объему материал. Важно и то, что приобретенные знания и навыки применяются младшими школьниками в их практической деятельности не только в стандартных учебных ситуациях, но и дают выход для проявления творчества, для проявления интеллектуальных способностей. Введение интегрированной системы может с большей степенью, чем традиционное предметное обучение, способствовать развитию широко эрудированного человека, обладающего целостным мировоззрением, способностью самостоятельно систематизировать имеющиеся у него знания и нетрадиционно подходить к решению различных проблем.

Надо отметить, что интегрированные уроки следует проводить с широким использованием современных педагогических технологий и даже по возможности проведения бинарных уроков (то есть уроков, на которых одновременно присутствует два учителя). Также при планировании

интегрированных уроков в начальной школе нужно обязательно обратить внимание на санитарно-гигиенические требования к данным урокам:

-во-первых непрерывные занятия делятся не более 60 минут с 1 – 2 физминутками и 1 минипеременой;

- во-вторых если после 60 минут интегрированный урок продолжается, то обязаны либо динамический час, либо прогулка на свежем воздухе;

- в-третьих интегрированный урок по временным рамкам не равен сумме временных отрезков данных предметов, а является уменьшенным временными отрезком, но более насыщенным и концентрированным.

Таким образом, процесс интеграции – это перспективный шаг на пути модернизации образования, ведущий к созданию предпосылок в формировании современного целостного представления об окружающей действительности. Этот метод обучения очень привлекателен для учителей: помогает им лучше оценить способности и знания ребенка, понять его, побуждает искать новые, нетрадиционные формы и методы обучения. Это большая область для проявления творческих способностей для многих: учителей, методистов, психологов, всех, кто хочет и умеет работать, кто может понять сегодняшних детей, их запросы и интересы.

Из всего вышеуказанного следует вывод о том, что интегрированные уроки представляют собой достаточно сложную систему. И для того, чтобы эффективно, удачно, профессионально использовать их на практике к учителю предъявляется очень много требований. Интегрированный урок требует от учителя дополнительной подготовки, большой эрудиции, высокого профессионализма.

#### **Список использованной литературы:**

1. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasining nazariy asoslari (uslubiy qullanma). – Samarqand, 2019.

2. Нуриддинова М.И. Организация уроков на интегрированной основе в начальном обучении и их особенности. Материалы научно-практического семинара “Конституция Республики Узбекистан: наука, образование и воспитание молодёжи”, 13 декабря 2016 год, том 1, часть 1, Ташкент, 2016.

# **ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ СО СКАЗКОЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

**Д.Т.Болтаева**

**Учитель начальных классов школы № 10 Самаркандского района**

**Аннотация:** в статье описываются особенности работы с детьми начальной школы посредством сказок как одного из литературных жанров. Подчеркивается роль и место сказки в образовательном процессе начальной школы.

**Ключевые слова:** начальное образование, общеобразовательная школа, сказка, литературное чтение.

Одними из самых первых литературных произведений, с которыми знакомится младший школьник, являются сказки, мир которых прекрасен и увлекательен. Читая и рассказывая сказки, мы развиваем внутренний мир ребёнка. Дети, которым с раннего детства читались сказки, быстрее начинают говорить правильно выражаясь. Сказка помогает формировать основы поведения и общения. Роль детских сказок развивать фантазию и воображение ребёнка, а также его творческий потенциал. Она - универсальный учитель. Благодаря сказке ребёнок познаёт мир не только умом, но и сердцем. И не только познаёт, но и откликается на события и явления окружающего мира, выражает своё отношение к добру и злу.

Сказка - это самый любимый учащимися начальных классов литературный жанр. Их привлекает занимательный сюжет сказок, яркость образов героев, выразительность характеров персонажей. Из сказок дети черпают множество познаний: первые представления о времени и пространстве, о связи человека с природой, предметным миром. Сказки позволяют детям впервые испытать храбрость и стойкость, увидеть добро и зло, быть чутким к чужим бедам и радостям. Ведь сказка для ребёнка - это не просто вымысел, фантазия, это особая реальность мира чувств. Слушая сказки, дети глубоко сочувствуют персонажам, у них появляется внутренний импульс к содействию, к помощи, к защите. Кроме ожидания необычайного, чудесного, волшебного детскому возрасту присуща еще одна особенность — желание подражать именно положительным героям сказки: добрым феям, храбрым принцам и т. д. В настоящее время наблюдается значительное снижение интереса к чтению в начальной школе. Одним из путей решения этой проблемы, является создание условий, способствующих формированию полноценного восприятия литературной сказки младшими школьниками. Так как мир литературных сказок прекрасен и увлекательен не только по

содержанию, включающему необычность сюжета, героев, явлений, отражающих как мир прошлого, так и современные явления действительности с одной стороны, но и по форме, с другой стороны, используя весь богатый арсенал изобразительно-выразительных средств, что дает писателю возможность выразить собственную авторскую позицию.

В настоящее время не все учителя владеют специальной подготовкой и не могут на достаточно высоком уровне осуществлять обучение школьников по современным программам литературного чтения. Для решения этой серьезной задачи учителю необходимо создавать специальные условия для формирования полноценного восприятия произведения. Существуют основные условия работы со сказкой на уроках в начальной школе. При определении способов работы с литературным произведением, необходимо учитывать его жанровое своеобразие. Рассмотрим особенности жанра сказки:

1. Сказка — древнейший жанр устного народного творчества, содержащий в себе общечеловеческие темы и идеи: торжества добра над злом, лжи над правдой, жизни над смертью, милосердия над жестокосердием, ума над хитростью и т. д.

2. Признаки сказки: занимательность, установка на вымысел, повествовательность сюжета, особая форма построения, воспитательная функция;

#### Методические особенности работы над сказкой

Программные задачи по работе со сказкой, с детьми младшего школьного возраста требуют неоднократного их рассказывания или чтения в течение года на занятиях, во время самостоятельной деятельности, на прогулках и в режимных моментах. При этом детям предоставляется возможность договаривать слова и небольшие фразы. Они приучаются слушать внимательно небольшие по объему сказки.

#### Воспитательно-образовательные задачи:

- Формировать у детей умение слушать, сопереживать, анализировать поступки героев;

- Соблюдать принцип от «простого к сложному»;

- Активизировать словарь через диалоговую речь;

- Формировать умение правильно строить и формулировать ответ на вопрос

по содержанию прочитанного;

- Формировать у детей умение выполнять задание в соответствии с сюжетом сказки;

- Приобщать детей к работе парами, малыми группами, командами;

- Активизировать творческие способности детей через развивающие и интеллектуальные задания;
- Развивать у детей творческое воображение, желание создать собственное художественное произведение по известному материалу;
- Формировать у детей эмоциональный отклик к совместной групповой работе;
- Формировать у детей эмоциональную реакцию на прочитанное;
- Дать представление о многообразии выразительных средств, видов и форм театрализованной деятельности;
- Формировать речевую активность.

Формы организации детской деятельности с использованием сказок:

- игровые занятия;
- комплексные занятия;
- самостоятельная игровая деятельность детей;
- самостоятельная продуктивная деятельность детей;
- экскурсии;
- праздники.

Можно рассмотреть каковы особенности понимания сказки младшими школьниками в зависимости от их уровня восприятия литературного произведения. Находясь на фрагментарном уровне (соответствует учащимся 1 класса), младший школьник может испытывать определенные чувства к сказке, например, понравилась она или нет. Дети не могут найти вымысел, не могут воссоздать внешний образ и качества характера героев, а высказывают лишь впечатления по отношению к герою (жалость, переживание, волнение). Переходя на констатирующий уровень (соответствует учащимся 2 класса), восприятие литературной сказки приобретает некую целостность. Ребенок может пересказать основное содержание сказки, воссоздать портреты основных героев сказки (их внешность, характер, действия), запоминаются повторяющиеся конструкции сказки. Дети уже могут выявить элемент чуда в сказке. На уровне героя (соответствует учащимся 3 класса), восприятие литературной сказки становится более целостным. Ребенок не только запоминает образы и действия героев, их психологические портреты, но и обращает внимание на отдельные детали, которые меняются на протяжении сказки. Дети начинают анализировать поступки героев, стараются предугадать их, выявляет какие условия (перемещения, волшебные предметы, действия других персонажей сказки) повлияли на совершение того или иного поступка героем. Появляется оценка героя.

Завершающим в восприятии является уровень идеи (соответствует учащимся 4 класса). На этом этапе можно сказать о полноценном восприятии

ребенком литературной сказки. Юные читатели обращают внимание на особенности трехступенчатого строения сюжета. На данном уровне могут выявить идею литературной сказки, проанализировав композицию, речевой стиль автора сказки и раскрыть авторскую позицию с помощью учителя. Особенности сказок и её восприятия младшими школьниками требуют особого подхода к изучению на уроке. Разнообразие сказок, а также специфика возрастного периода учащихся диктует педагогу использование разнообразных, занимательных, продуктивных видов работ на уроке чтения сказки. Для решения этой задачи предлагается использовать на уроках: использование музыкальных и визуальных эффектов, сравнение сказок, анализ художественного текста по схеме, наблюдение за своеобразием языка сказки, стилистический эксперимент, эксперимент с художественным образом, творческий пересказ, драматизация.

Литература:

1. Арзамасцева И. Н., Николаева С. А. Детская литература: Учебник 2-е изд. / Арзамасцева И. Н., Николаева С. А. — М. — «Академия», Высшая школа, 2001—280 с.
2. Аарне-Томсон. Сравнительный указатель восточнославянской сказки / Аарне-Томсон — Л., 1979—890 с.
3. Белянин В. П. Психолингвистические аспекты художественного текста / Белянин В. П. — М. Издательство МГУ, 1988—120с.

## **BOSHLANG‘ICH SINFDA GEOMETRIK TUSHUNCHALARINI HAYOT BILAN BOG‘LASHNING AYRIM JIHALTLARI**

*B.Xusenova  
Samarqand tumani 24-maktab o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinflar matematik darslarida geometrik tushunchalarni o‘qitishning hayotiy tajriba va faoliyat sohalari bilan bog‘lash metodikasini o‘rganish va shu asosda zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish haqida ma’lumotlar berilgan

**Kalit so‘zlar:** shakl, jism, shar, kub, kesma, uchburchak, to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadratlar, beshburchak, aylana

Boshlang‘ich sinfda geometrik tushunchalarni hayot bilan bog‘lanish asosida son va shakl orasida munosabatlarni o‘rnatish imkoniyati yotadi. Bu shakllarni son tushunchasi sonlar xossalari, ular ustida amallarni shakllantirish va aksincha

sonlarning geometrik shakllarning xossalarini o‘rganish uchun foydalanishga imkon beradi.

Geometrik tushunchalarni hosil qilish iva keyin shakllantirish o‘qituvchi tomonidan ko‘p yo‘l qo‘yadigan o‘zgartiruvchi va o‘quvchilar o‘quv faoliyatini mazmunini tashkil etuvchi predmet amallar asosida ro‘y beradi. Bu faoliyat o‘quvchiga tushuncha kelib chiqishini ko‘rishga ta’rifni ifoda qilishga, tushunchalar bilan bog‘lanishlarni o‘rnatishga imkon beradi.

O‘quvchi tomonidan geometrik figura modelini, geometrik vaziyat modelini yasash ko‘rgazmalikka ega bo‘lishini talab etadi.

Geometrik obyekt chizmada slayd va umuman modelda shunday tasvirlanishi lozimki, imkoni boricha mustaqil bu ob’yektning muhim xossalarini kashf qilish lozim. Boshqa hollarda o‘quv ko‘rgazmalilik quroq o‘quvchiga yoki bu o‘quv amalarining bajarishga majbur etadi. Berilgan modelni ma’lum tushunchaga o‘zgartirib qaralayotgan tushuncha modelini yaratishga imkon beradi. Bu bilan o‘quvchi obyektning konkret xossalarini ajratadi, uning muhim bo‘lmaganlarini tahlil etadi.

4-sinf matematikasi 1-2-3 sinf matematikasiga qaraganda ancha murakkabroq tuzilgan. O‘quvchilar geometrik bilimlarni o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan quyidagicha bilim, ko‘nikma va malakalarini bilishlari kerak:

Geometrik shakllar, ularni o‘lhash.

Geometrik jismlar: shar, kub bilan tanishish.

Geometrik jismlar va yassi shakllar haqida bilimlarni umumlashtirish.  
Geometrik shakllar, ularni o‘lhashda o‘quvchilar quyidagilarni bilishlari kerak.

1. Tasavvur eta olishi kerak.

- atrof muhitni har xil geometrik jismlar va ularning ba’zi xossalarini.

2. Bilishi kerak.

- rasmlarda kesma, uchburchak, to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak va kvadratlar, beshburchak va aylanani tanishni;

- geometrik shakllarni tanish va topa olish;

- uzunlik o‘lchov birliklari (mm, dm, m, km)ni ular orasida asosiy munosabatlarni bilish, zarur hollarda ulardan qaysi birini qo‘llash maqsadga muvofiqligini, yuza o‘lchov birliklari (kv, sm, kvdm, kvm)ni tushunish.

3. Ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak.

- kesma uzunligini o‘lhash, berilagn uzunlikdagi kesmani yasash, kesma uzunligini ko‘z bilan chamalab o‘lhash;

- chizg‘ich, go‘niya, sirkuldan foydalanib, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat, uchburchak va aylanalar yasash;

- ko‘pburchakning perimetri, to‘g‘ri to‘rtburchak yuzini va kvadratdan tuzilgan shakllarning yuzini hisoblash;

- masalalar yechishda o‘rganilgan geometrik jismlarning hajmini hisoblash kerak.


4-sinfda o‘quvchilar bir nuqtadan o‘tkazilgan ikki nur tekislikni ikki qismga bo‘lishni tushunishi, burchak-ikki nur bilan shu qismlardan birining birlashmasidan iborat ekanini bilish, burchakning chegaralanmaganligi haqida tasavvurga ega bo‘lish. Burchakni yasay bilish, uni uch harf bilan yoki bir harf bilan belgilashni bilishi;

burchakni simvolik tarzagi yozuvidan foydalanish;

murakkab chizmadan burchakni boshqa figuralar orasidan topa bilish va uni ayta bilish.

O‘quvchilarga burchak-figura ekani tushuntiriladi. Bu tushunchani kiritishda o‘quvchini doskaga bir nuqtadan o‘tkazilgan ikki burchak chizishi va ular tekislikni ikki qismga bo‘lishni ko‘rsatishi lozim.

Ikki nuqta bir nuqtaga tegishli, turli sohaga tegishli degan so‘zning ma’nosini nima ekanligini ko‘rgazmali tarzda tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ikki nurdan tuzilgan chizmada M. P. D va E nuqtalar belgilanadi.




M va P nuqtalarni burchakning tomonlari bilan keshishmaydigan bir chiziq bilan tanishtirish mumkinligini ko‘rsatiladi. Shundan keyin bunday nuqtalarni bir sohaga tegishli deb hisoblash qabul qilinganligi aytildi. D va E nuqtalar tekislikning bitta sohasiga tegishli ekani shunga o‘xshash tushuntiriladi. So‘ngra M va E nuqtalarni burchakning tomonalri bilan kesishmaydigan chiziq bilan birlashtirib bo‘lmasligiga e’tibor beriladi. Bunday nuqtalar tekislikning turli sohalariga tegishli deb hisoblash qabul qilinganligi aytildi.

AB va AC nurlar tekislikning qaralayotgan qismlarining hech biriga tegishli. Faqat shundan keyin burchak deb, ikki nur bilan chegaralangan tekislikning ichki sohasidan tuzilgan figuraga aytilishi tushuntiriladi.


Bu holda “birlashma” terminini ishlatish mumkin deb hisoblash lozim. O‘quvchilar o‘qituvchining tushuntirishlaridan hech bo‘lmaganda “Burchak-bir nuqtadan o‘tkazilgan ikki nur bilan tekislikning shu nurlardan hosil bo‘lgan qismlaridan birining birlashmasidir”, degan jumlanı eshitishlari kerak.

4-sinfda ham asosan shakllarning yuzlari chizmalardan qarab topish turli hil rasmlar keltirilgan. Masalan,

Yassi shakllar mavzusidan quyidagicha shakllar berilgan.



Quyidagilar keltirilgan. Bularning hammasi yassi shakllarga misol bo'ladı.



Bularning hammasiga qisman ta'rif berib o'tiladi. Turli hil savollar beriladi. Masalan. Kubning nechta qirrasi bor? (12 ta) Uning yoqlari nechta? (6 ta) Kubning yoqlari qanday geometrik shakllardan iborat? Kabi savollar beriladi.

Matematika dasturida kichik yoshdagi o'quvchilarda o'lchash ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Bu material mustaqil bo'lim qilib ajratilmaydi, ammo uning bayonida ma'lum mantiq kuzatiladi va darsliklarida o'quvchilarning o'lchash malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ko'pgina mashqlar mavjud.

O'lchashlarga o'rgatishda faqat o'lchash birliklarinigina emas, balki har bir o'quvchining o'lchash mohiyatini o'zini tushunishini ta'minlash zarur. Buning uchun o'lchash jarayonini metr, samtimetr va shu kabilar bilan emas, balki ixtiyoriy o'lchov bilan boshlash maqsadga muvofiq va shu asosda har xil, hamma uchun majburiy bo'lgan, ammo ma'lum uzunlik o'lchovi birliklarini kiritish zarurligini ko'rsatish kerak. Bu ish har bir o'quvchi tomonidan bajarilishi, o'lchashlarni bajarishda hamma bevosita qatnashishi muhim.

O'lchash ko'nikmalarini shakllantirishning har qaysi bosqichning muhimligini tushunish kesmalarni o'lchashni o'rgatish mos metodikani o'ylab topishga yordam berishi kerak.

Bu temani o'rganish jarayonida ishning to'rt bosqichi ajratiladi, har bir bosqich kesmalarni o'lchashning mos usulini qo'llanish bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, geometrik tushunchalarni shakllantirishning har bir bosqichida unga doir hayotiy misol keltirish, uni hal etish yo'llarini o'quvchilar bilan va tajribasidagi samarali foydalanishga o'rgatish maqsadga muvofiq.

Hayot bilan bog‘lab o‘qitishda ko‘rgazmalilik bilan birga mustaqil ish, yasash, tuzish va talqin berish kabi usullardan foydalanish yaxshi natijalar beradi

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ahmedov M. , Abdurahmonova N. , Jumayev M. Matematika 1-sinf Turon-iqbol T. , 2021 yil
2. Abdurahmonova N. O‘rinboyeva L. Matematika 2-sinf Yangiyo‘l Poligraf servis T. , 2022 yil
3. Burxonov S. , Xudoyorov O‘. , Norqulova Q. Matematika 3-sinf Sharq nashriyot Matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi T. , 2018 yil
4. Bikbayeva N. U. , Yangiboyeva E. Matematika 4-sinf O‘qituvchi, 2019 yil

## **BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O‘QITUVCHINING KREATIV YONDASHUVINI RIVOJLANTIRISH**

***O‘B.Xidirova***

***Urgut tumani 44-umumiy maktabi o‘qituvchisi***

**Annotatsiya.** Bo‘lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, kreativlik yo‘l xaritasi, ijodkorlik, ijodiy fikrlash, qobiliyat, madaniyat, pedagogik mahorat, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim va tarbiya.

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlanirish masalalaridir. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi sa’yi-harakatlaridan biri bu – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamohang tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika faniga “kreativlik” degan tushunchani olib kirdi. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar: bolalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu uning o‘zi kreativ sifatlarga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, o‘quvchilarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi.

Boshlang‘ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turidan biri bo‘lib, ta`limning bu bosqichida pedagog- o‘qituvchilarga katta mas`uliyat yuklatiladi. Boshlang‘ich ta`limda taxsil olayotgan bolalarga alohida e’tibor qaratilshi kerak. Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to‘xtab o‘tmoqchimiz. Bu tushuncha so‘nggi yillarda ta`lim-tarbiya jarayonlarida ma`lum darajada qo‘llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma`nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan.

1.Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

2.Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq. Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning quyidagi ikkita komponenti aniqlangan. Bular:

A). Shaxsiy mazmun. Ya`ni har bir insonning shaxsiy hayotining umumiyligi mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog‘liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, u kreativlik, ya`ni yaratuvchanlik munosabatda bo‘ladi va uni iloji boricha chiroyli, insonlarni o‘ziga tortishga yo‘naltiriladi. Bu esa o‘z navbatida insoniyatning madaniyatga yo‘naltirilganligidir.

B). Signifikatsion ko‘nikmalar. Kreativlikni tashxis qilish psixosemiotik tahlil bilan bog‘liq. Kreativlikning darajasini aniqlash quyidagilar bilan belgilanadi: - shaxsiy ma`noning rivojlanish darjasasi; - verballi belgilar sistemasini yaratish Ta`lim olish kengligi ikkinchi semiotik tizimni tashkil etadi. Uning kreativlikni rivojlantirishga ta`siri gomomorfizik madaniyat bilan bog‘liq.

Tarbiyachining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta`lim jarayonida sinab ko‘rishga intilish zarur. Darslarda tarbiyachi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar:

- Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyan etish;
- O‘quvchilarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantruvchi strategiyalardan foydalanish;
- Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
- Kutiladigan natija;

Bo‘lajak pedagoglar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar bo‘lajak pedagoglarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Bo‘lajak pedagoglarda

kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsan Siz nima deb o‘ylaysiz: Bo‘lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga undash jarayonida mazkur yo‘llardan qay tartibda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Bu o‘rinda Patti Drapeau quyidagi maslahatni beradi: “Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan ko‘p yo‘nalishlarni bosib o‘tamiz. Bu fikr quyida biliriladigan ko‘rsatmalarga ham taalluqlidir. O‘qituvchi dars jarayonida bir yoki bir nechta (yuqorida keltirigan) yo‘llardan foydalanishi mumkin. O‘qituvchi kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi fe’lllarni (1- yo‘l) qo‘llashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (3-yo‘l) ustida ish olib borayotgan Bo‘lajak pedagoglarni kreativ fikrlash strategiyalari (2- yo‘l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (4- yo‘l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Kreativ fikrlash jarayonini mohiyatini yorituvchi xarita o‘qituvchilarga dars jarayonida namoyon bo‘ladigan kreativlik darajasi, turini aniqlashga yordam beradi”.

Ko‘p holatlarda o‘qituvchilar hamda bo‘lajak pedagoglarning o‘zлари ham shunday savolga duch kelishadi: kreativ fikrlash jarayonining odat sifatida namoyon bo‘lishiga erishish mumkinmi? Bu o‘rinda Patti Drapeau shunay fikrlarni ilgari suradi: “Miya tadqiqotlari kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish usullari va uni qanday qilib odatga aylantirish mumkinligini tushunish imkonini beradi. Kreativlik miyaning old (g‘oyalar yuzaga keladigan) va chekka (tahlil qilish) sohalarining o‘zaro muvofiqlikda ishlashi va dopamin (kishining o‘zini yaxshi his etishiga yordam beruvchi) moddasining ishlab chiqarilishi natijasida ro‘y beradi. Ta’lim olish miyada kichik burmalarining paydo bo‘lishiga olib keladi hamda miyaning faol ishlashi natijasida bu jarayon kuchayadi. Inson miyasi obraz, bashorat, xis tuyg‘u, emotsiya va ma’no boy ma’lumotlar olishni ma’qul ko‘radi.

Pedagogning kreativlik potensiali ko‘p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1. Kreativlikning yorqin namoyon bo‘lishi;
2. Shaxsning individual xususiyatlari va hayotiya faoliyatda;
2. Individuallikka erishish;
3. Birbutunlik ,izchillik, tizimlilik;
4. Imkoniyatlarni oshirib borish;
5. Ijodiy yo‘naltirilganlik;
6. Muammoli harakterga egalik;

Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: tarbiyachining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, o‘quvchilar ham shunday bo‘la oladi.

Kreativlik (lot. ing. “create”- yaratish, “create – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarini ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatdir.

Kreativlik – bu qaysidir ma’noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo’shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlikdir.

Lekin nega? Chunki XXI asrga kelib, insoniyat o’zi uchun kerakli hammaning hayoliga keladigan deyarli barcha narsani yaratib bo’ldi. E’tibor bering, ayni vaqtda muvaffaqiyatga erishgan juda ko’plab shaxslar, bir necha dekadalar avval insonlar tasavvur ham qila olmagan g‘oyalarini amalga oshirishgani tufayli shu darajaga chiqishgan. Jeff Bezos, online do’kon trendi orqali mashhur bo’ldi. Bu trend O’zbekistonga endi kirib kelmoqda. Umuman online do’kon tushunchasi yaqin 50 yil ichida paydo bo’lgan. Undan avval odamlar buni tasavvur ham qila olmagan.

Demak, bundan shuni anglash mumkinki, kreativlik ayni damda muvaffaqiyatga erishishingiz yo’lida asosiy vositalardan biri.

Yana bir katta o’zgarish. XX asr o’rtalarigacha insonlar ishga kirish uchun asosiy hujjat sifatida o’z diplomlarini taqdim etishar edi. Diplomni esa haqiqiy o‘qigan talaba olardi. Ha, hozir ham ko‘p ish beruvchilar diplom talab qiladi, ammo bu asosiysi va eng muhimi emas, muhimi sizda “creativity” hamda “critical thinking” kabi qobiliyatlar ham bo‘lishi kerak. Hattoki juda ko’plab xorijiy hamda professional bilim talab qilmaydigan kompaniyalar, xodimlarni ishga yollash uchun “aptitude test” nomli tushuncha o‘ylab topishdi. Bu xodimning kreativligi va qiyin vaziyatlardan qanday chiqishini tekshiradigan test ko‘rinishiga keldi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, insonlar bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kreativ o‘ylagan insongina hammadan ajralib tura oladi. Chunki “creativity” bu cheklash mumkin bo‘lgan tushuncha emas. Inson ongingin cheki yo‘q ekan, kreativlik ham cheksizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymonov, F., & Bayzaqov, M.. Matematik mantiq elementlarini erta o‘rgatish va uning ahamiyati. Журнал математики и информатики2021, 1(2).
2. Davletshin M.G. Shark mutafakkirlarining psixologik karashlari. Toshkent 1992 yil.
3. MavlanovaR.A, RaxmonqulovaN.X. “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya” .T., TDPU 2007-y.
4. Киштимова И. Проблема креативности школьников: психосемиотический подход . Автороф. Дисс.Докт псих Avtoref. Diss. Dokt psix н Иркуцк. 2008

# **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI MATEMATIKA FANIGA QIZIQISHINI OSHIRISH USULLARI, “MATEMATIK FOKUSLAR” HAQIDA TUSHUNCHА**

*S.Shayimova*

*Oqdaryo tumani 56-maktab o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada matematika kursini o‘rganish jarayonida har qaysi tushuncha o‘z rivojini topadi. Tushunchalarni o‘rganishga bunday yondashish o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish bo‘yicha tavsiyalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, PISA, matematik fokuslar, o‘yin, boshlang‘ich sinf ,tafakkur.

Respublikamizda ta’limga oid qator qaror, farmon, me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xalq ta’lim tizimiga jadal sur’atlarda texnika, texnologiya va sanoat taraqqiyoti ta’sirida yuz bergen o‘zgarishlar Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ko‘zda tutilgan topshiriqlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimi o‘quvchilar bilimini Xalqaro baholash PISA (Z program for interneshnel student assesment-The Programme for International Student Assessment) dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga bo‘lish maqsad qilingan. 2019-2020-o‘quv yilida 1-sinfga borgan o‘quvchi 2030-yilda bitiruvchi bo‘ladi. O‘quvchilarini xalqaro baholash dasturi talablariga javob bera oladigan qilib tarbiyalashda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi.

Boshlang‘ich matematika kursida o‘quvchilarining hisoblash malakalarini shakllantirishga mo‘ljallangan turli mashqlar sistemasi qaraladi. Quyida matematika faniga qiziqishni oshirish metodlaridan namunalar keltirdim:

O‘quvchilarni “sotuvchi” o‘yini bilan tanishtirish.

- Sotuvchi kim?
- Pul deganda nimani tushunasiz?
- Pul yagona hisob-kitob vositasi hisoblanadi.

O‘quvchilar, sizlarning bilimlaringizni reyting usulda 1, 2, 3, 4, 5 ball bilan baholayman. Eng yuqori baho 5 ball. O‘quvchilardan biri sotuvchi bo‘ladi. Rastada rasmlardan foydalilanadi. Orqasiga topshiriqlar yoziladi. O‘quvchilar tezlik bilan misollarni yechishga kirishadi. Qaysi tartib raqamdagagi o‘quvchi turib javob bersa, javobi uchun reyting oynasidagi tartib raqamiga ball qo‘yiladi.

Bugungi matematika darsimizda hamma ko‘p ball yig‘ishga kirishsin. Reyting oynasi kimning necha ball olishini ko‘rsatib turadi. Dars so‘ngida ballarni so‘mga aylantiramiz.

## **Matematik fokuslar**

O‘yin sharti o‘quvchilar diqqatini tortgan holda tushuntiriladi. Guruhlarda hamda yakka tartibda o‘ynaladi. O‘yin shartiga ko‘ra o‘yin nomi va natija sir saqlanib turiladi. “Sen ichingda hisobla, natijani men aytay” deya boshlanadi. Bu o‘yin istalgan songacha davom ettirish mumkin.

### **„Yana 1”**

Bir son o‘ylang, unga undan keyin keluvchi sonni qo‘sning, 5 ni qo‘sning, o‘ylagan soningizni 4 ga ko‘paytirib qo‘sning. 6 ga bo‘ling. O‘ylagan soningizni ayiring. Javob 1.

O‘ylangan sonni x deb olamiz.

$$(X+X+1+5+4X):6-X=1$$

$$(6X+6):6-X=1 \quad 1=1$$

### **„Yana 2”**

Bir son o‘ylang unga undan oldin keluvchi sonni qo‘sning, 9 ni qo‘sning, o‘ylagan sonningizni 2 ga ko‘paytirib qo‘sning. 4 ga bo‘ling. O‘ylagan soningizni airing. Javob 2.

### **„Fokusning siri”**

Biror songa, masalan, **3** ga fokus tuzmoqchi bo‘lsangiz, bo‘luvchi o‘ylab topasiz, masalan, **5**. Bo‘linuvchini esa o‘ylangan sonlarni **5** ta, natural sonlarning yig‘indisini esa **15** qilib (chunki, yig‘indini **5**ga bo‘lganda **3** qolishi kerak ) tashkil toptirasiz. So‘ng o‘ylagan sonni ayirsangiz **3** qoladi.

### **Algebraik ko‘rinishi**

$$(5X+15):5-X=3$$

Bu kabi fokuslarga o‘zingiz matematik bezaklar va qo‘sishchalar qo‘sishsangiz fokusning sifati oshishiga kafolat beraman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nurmonov A., Ikromov I., Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2007-yil.
2. Abdullayeva S. va boshqalar. Matematika (3-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma) 2016-yil.
3. Abdullayeva B., Sadikova A, Matematika (4-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma) 2019-yil.
4. M.A.Mirzaahmedov. Matematikadan qiziqarli va olimpiada masalalari (o‘quvchilar uchun) Toshkent Turon- Iqbol 2016-yil.

## **BOSHLANG‘CH SINF O‘QUVCHILARINI IJODIY MATN YARATISHGA O‘RGATISH**

*M.S.Ro‘ziqulova  
Samarqand tumani 30-maktabi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy matn yaratishga o‘rgatishda o‘quvchilarni faqat qonun- qoidalarini o‘rgatish emas, balki ularni fikrlashga, o‘z fikrini ma’noli va ifodali. izchil, ravon hamda to ‘g‘ri bayon etishga o‘rgatishdan iboratdir.

**Kalit so‘zlar:** Ijodiy fikriash, manaviy dunyosi boy, to‘g‘ri bayon etish, nutqi ravon, matn yaratish

O‘zbekistonning munnavar kelajagini barpo etishda ma’rifatning, ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun mustaqillikning ilk yillaridanoq ta’lim tizimini tupdan isloh qilish,ta’lim mazmunini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etish va rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu o‘z navbatida davr talablariga javob bera oladigan, yuksak intellektual salohiyatli mustaqil fikrlaydigan, zukko va ma’rifatli yoshlarni tarbiyalashdek ulkan maqsadlarga erishishning asosiy shartidir. Albatta, ana shunday yetuk yosh avlodni tarbiyalashda boshlang‘ich ta’limning o‘rni beqiyosdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tilidan egallagan bilim saviyasi ko‘pdan beri hammamizni tashvishga solayotgani hech kimga sir emas .Ayniqsa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasini keng bilishi asosiy muommolardan biridir.Ta’lim mazmunini talabiga asosan barkamol shaxsning ma’naviy dunyosi boy , fikrlash qobiliyati kuchli, nutqi ravon va go‘zal bo‘lishi kerak. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarga faqat qonun- qoidalarni o‘rgatish emas ,balki ularni fikrlashga o‘z fikrini ma’noli va ifodali izchil ravon ,hamda to‘g‘ri bayon etishga o‘rgatishdan iboratdir .

Bu maqsadni amalga oshirishni o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan boshlab matn tuzishga o‘rgatib borish muhim hisoblayman. Matn tuzishga o‘rgatish o‘z mazmuni va maqsadiga ko‘ra turli xil sinflarda turlicha amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich nutq yani boshlang‘ich sinflarda nutqiy faoliyat, nutq tovushlarni o‘rganish ularni farqlash, imlo savotxonligi tovushdosh so‘zlar ustida ishlash , ular ma’nosini o‘g‘zaki sharxlab berish , yoki izlab topilgan so‘zlar asosida to‘g‘ri ravon jumlalar qurish va ular ishtirokida kichik matnlar yaratish bilan shakllantiriladi,

O‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatib borish ham DTS talablaridan biridir. Matn yaratishga o‘rgatish bir qator ta’limiy vositalarini ishga solishni ta’lab etadi.

Ana shu vositalardan biri rasmlar ustida ishlashdir. Ma'lumki rasm o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim vositadir . Chunki o'quvchi bitta rasmga bir necha sarlovha topish rasmni kuzatib berilgan savollarga javob berish rasm asosida og'zaki suhbat, matnni tuzish, matnni qisqartirib yoki kengaytirib hikoya qilish matnni qismlarga bo'lish matnni asosiy mazmunini aniqlash, matnda qatnashuvchi shaxslarni tabiat manzaralarini tasvirlovchi so'z va iboralani tahlil qilish kabi ijodiy – amaliy ishlarni bajarilishi mumkin .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga shaxsiy kuzatishlari tajribalarini ko'rgan eshitgan voqeа - hodisalari o'qigan ertak va hikoyalardan olgan ta'surotlari asosida kichik hikoyalar tuzish hamda matn yaratish topshirilsa bunday usul ham juda katta samara beradi. O'quvchilar esa tevarak- atrof tabiat va hayotda bo'layorgan voqealarni kuzatish ertak va hikoyalarni doimo o'qib o'rganib borishga odatlanadi, hamisha izlanishda bo'ladi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini kengaytirish maqsadida o'rganilgan materiallar doirasi "Harakatni bildiruvchi so'zlar", "Narsa va shaxs belgisini bildirgan so'zlar", "Sanoq va tartibni bildiradigan so'zlar kabi mavzularga "aloqador bo'lgan matnlar yaratish matnda shu mavzularga ta'luqli bolgan xalq maqollari va iboralaridan foydalanish singari ijodiy ishlar topshiriladi. O'quvchi shu yo'nalishda ijodiy matn yaratishga harakat qiladi, hamda olgan bilimlarini amada sinab ko'radi , chunki mustaqil matn yaratish salohiyati o'quvchilarning olgan bilimlari bo'yicha hosil qilingan ko'nikmalari asosida yuzaga keladi. Matn ona tili mashg'ulotlaridan kuzlanadigan so'ngi natijadir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda asosiy e'tibor o'quvchilarning matn yaratish malakalarini takomillashtirishga qaratilmog'i lozim .

O'zbekiston Respublikasi ilg'or mamlakatlar qatorida yuqori ko'rsatgichni egallash uchun o'quvchilarni erkin va ijodiy fikirlashga, matn yaratishga yo'naltirmog'imiz lozim.

Har bir yuqori cho'qini egallahimiz uchun yaxshi natijalarni qo'lga kiritishimiz uchun bilingki, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek o'zgarishlarni o'zimizdan boshlamog'imiz lozimdir.

### **Adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh . "Erkin vafarovon ,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent – "O'zbekiston , 2016"

2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

# **ONA TILIVA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

*N.A.Abduhakimova*

*Oqdaryo tuman 1- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingabn. Darslarni tashkil etishga zamonaviy yondoshuvlarni tadbiq etish, darslarda interfaol metodlardan foydalanishning metodik xususiyatlari aks ettirilgan. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning metodik jihatlari haqida tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim- tarbiya, kreativ fikrlash, kognitiv faoliyat, tilga oid ko‘nikma, hamkorlik, samarali natija.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 9- moddasi da umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari qo‘yidagicha ko‘rsatilgan:

1. Boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar)
2. Tayanch o‘rta ta’lim (V-IX sinflar)
3. O‘rta ta’lim (X-XI sinflar) dan iborat ekanligi takidlangan.

Ushbu moddada “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi” - deb takidlangan.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgandir”ligi takidlanib boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatlari alohida ko‘rsatilib bolaning samarali ta’lim va tarbiya olishida aynan ushbu bosqichning alohida o‘rni mavjudligini e’tirof etadi.

Kichik maktab yoshidagi bola 6-7 yoshdan boshlab 10-11 yosh atrofida bo‘lib, unga asosan 1-4-sinf o‘quvchilari, ya’ni boshlang‘ich ta’lim davri kiradi. Bu davrda bolalarda:

- maktabgacha davrdagi bola o‘quvchi maqomi darajasiga yetadi;
- barcha tana a’zolari rivojlanish bosqichida bo‘lib, lekin suyaklari xali to‘liq qotib ulgurmagan bo‘ladi;
- psixologik qo‘zg‘olish va tormozlanishi tez o‘zgaruvchan bo‘ladi;
- o‘yin faoliyatidan ko‘proq o‘qish faoliyatiga o‘tishi talab etiladi;
- maktabga borishga doir psixologik yo‘nalish olish ishlari amalga oshiriladi.


Shuningdek, endigina maktabga qadam qo‘ygan bola quyidagi turlardagi qiyinchiliklarga duch keladi:

- maktabga borishi bilan bolaning kun tartibining o‘zgarishi;
- o‘qituvchilar bilan tengdoshlari (sinfdoshlari) bilan muloqotda bo‘lishi;

- egallagan bilimlarini amalda qo'llashi va h.k.

### **Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:**

- o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlaydi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- o'qituvchiga "o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun" xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, "fikrlashni o'rganishlari uchun" xizmat qiladi;



### **1- chizma. Interfaol usullardan foydalanish shakllari.**

**"Ikki qisqli kundalik" metodi.** "Ikki qisqli kundalik" pedagogik uslub bo'lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o'qib chiqilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi.

Ushbu metodni biz 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi Sa'dullo Quronovning "Chumolining jasorati" matnini o'tishimizda qo'llab ko'ramiz. Metoddan darsning mustahkamlash qismida foydalanish tavsiya etiladi.

1. bosqich. O'quvchilar matnni juftlikda navbat bilan past ovozda o'qiydilar.
2. bosqich. Hamma matnni o'qib bo'lganiga ishonch hosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo'lish so'raladi.
3. bosqich. O'quvchilarga daftarning chap tomoniga muallif fikrlarini yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytildi.
4. bosqich. O'ng tomonga o'quvchi mazkur fikrga berilgan o'zining izohini yozadi, ya'ni o'qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.
5. bosqich. Topshiriqning shu qismi tugagandan keyin o'quvchilarga (o'z xohishiga ko'ra) bittadan fikrni va ularga yozilgan izohni o'qish taklif etiladi. Fikrlar va ularning izohlari o'qilayotganda savol berish yoki mazkur fikrga o'z izohini berish ruxsat etiladi.

6. bosqich. O‘quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo‘lib ham ishslashlari mumkin.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki taqdimot orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **Namuna: “Yalqov va qunduz” matni bo‘yicha tavsiya**

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?
O‘rmon	
Mador	
Bardam	
Tabib	
Tanbal	
Dabgasa	
Tobi yo‘q	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga o‘quvchilar tomonidan fikr bildiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 1- sinfdan boshlab kreativlikni rivojlantirish, ularda muammoni tahlil qilish to‘g‘ri va samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 1- sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qila olish, tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. Monografiya. – T.: 2003.B – 48-70.
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. – 144 b.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

## **BOSHLANG‘ICH TA’LIM YANGI DARSLIKLARINING BELGILANGAN TALABLARGA MOSLIGI**

*S. S. To‘rayeva*

*Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Maktab darsliklari ta’lim jarayonining asosiy vositasi hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim fanlari darsliklari qanchalik mukammal tuzilsa, ta’lim sifati ham shu darajada yuqori bo‘ladi. Bugun darsliklarga qo‘yilgan talab soat sayin o‘zgarib bormoqda. Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarni yaratilganiga ikki yildan oshdi. Bu darsliklar mazmuni o‘qituvchilar va o‘quvchilarni qoniqtiradimi? Bu maqolada boshlang‘ich ta’lim darsliklariga qo‘yilgan talablar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Darslik, didaktik, psixologik xususiyatlar, ona tili va o‘qish savodxonligi, belgilangan talablar, ellektizm hodisasi.

Maktab ta’limi tizimi yo‘nalishida fan darsliklariga bo‘lgan e’tirozlar 2021-2023-yillarda juda ham ko‘payib ketdi. Bunga sabab o‘qituvchining yangi darsliklarga moslasha olmasligimi, o‘qitish metodikasining sayozligidami, yoki haqiqatan ham darsliklar belgilangan talablar darajasida ishlab chiqilmaganligidami?

Maktab ta’limi mazmunini boyitish va uni yanada takomillashtirishda zamonaviy darsliklar yetakchi o‘rin egallaydi. Ular bilimlar tizimining asosiy yo‘naltiruvchisigina bo‘lib qolmay, balki butun o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi.

**Darslik** – o‘quv fani dasturiga mos bilimlarning mustahkam bayoniga ega bo‘lgan va rasman tasdiqlangan o‘quv kitobi.

Darsliklarning mazmuni ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi talablariga javob berishi, o‘quvchilarning fan asoslari bo‘yicha chuqur va puxta bilim olishini ta’minlash zarur. Maktablarning milliy darsliklari yosh navqiron avlodda to‘g‘ri va keng dunyoqarashni shakllantirishga, onglilik, vatanparvarlik kabi yuksak ma’naviy xislatlarni tarbiyalashga yo‘naltiradi. Darsliklar o‘quvchilarning bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek o‘quvchilarda o‘z bilimlarini uzluksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishga intilishini tarbiyalashga yordam berishi zarur.

Darsliklar umumiy o‘rta ta’limning asosiy vositasi hisoblanar ekan, vaqt o‘tishi bilan ulani mazmun va mohiyat jihatidan yangilash, qayta tiklash, davlat tomonidan belgilangan talablarga mos holda takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Darsliklarning tarkibiy tuzilishini belgilashda quyidagilarni hosobga olish lozim:

- darslikda o‘quv dasturida belgilangan mavzularning izchil bayon qilinishiga e’tibor berish;
- bayon qilinayotgan tushuncha, qoida, qonunlar zamonaviy ilmiy bilimlarga tayangan bo‘lishiga erishish (yosh xususiyatni inobatga olib);
- o‘quv fani ichida mavzulararo hamda o‘quv fanlariaro aloqadorlik, uyg‘unlikni ta’minlash;
- berilgan materiallarni bob, bo‘lim, mavzularga ajratish;
- har bir bo‘lim alohida o‘rganilishi kerak bo‘lgan va aniq egallangan darajani tashkil etilishi lozim. 76und abo‘lim mazmuni tarix, ilm va amaliyot bilan bog‘lanishi kerak;
- o‘quv materiallari o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikda bayon etilishi zarur;
- bayon nuqtai nazaridan nazariy amaliy materiallar bilan bog‘lanishi hamda xulosalarning asoslanganligi nihoyatda zarurdir;
- o‘quv-biluv faoliyatining bo‘limlar bilan bogliqligi, ya’ni dalillardan namunaga qarab;
- namunadan farazga, farazdan natijaga qarab borish lozim. Xulosa natijalaridan tajribaga, tajribadan amaliyotga o‘tiladi;
- bayon qilinga o‘quv materiallari o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi ta’minlanmog‘i lozim;
- o‘quvchining aqliy taraqqiyoti, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etiladigan tushunchalarni tanlashga erishish, ya’ni har bir darsda o‘quvchini mantiqiy fikrlashga o‘rgatadigan o‘quv materiallarini belgilab berish kerak. [2. 92-94]

Biz yuqorida darsliklarga qo‘yilgan talablarni ko‘rib chiqdik. Xo‘sh, hozirgi boshlang‘ich ta’lim fanlari darsliklari qaysi jihatlari bilan ustun turadi, darslikning qaysi jihatlari oqsaydi. Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra mazkur darsliklar amaliyotdan

nazariyaga qarab borish, o‘quvchida yangicha, mustaqil va mantiqiy fikrlashga yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Darsliklar o‘quvhching darsda zerikib qolishini oldini oladi. Ammo bu yangi darsliklar xato va kamchiliklardan xoli emas.

Odatda dastur mazmuniga mos darsliklar ishlab chiqilishiga o‘rganib qolganmiz, aslida ham o‘zi shunday bo‘lishi kerak: DTS=>o‘quv dasturi=>darslik. Bu tizim buzilsa, ta’lim sifati izdan chiqib ketishi hech gap emas. Ammo keyingi yillarda ishlab chiqilgan dastur va darsliklarda juda ham ko‘p qarama-qarshiliklar, nomutannosibliklar kuzatilmoqda. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni ilg‘or mamlakatlarning ta’lim tizimidan andoza olishga harakat qilsa-da, afsuski bu tizim ayni damda eklektizm holatida. *Eklektizm, eklektika* (*yunoncha: — tanlovchi*) — *turli xil, hatto bir-biriga qarama-qarshi qarash, g‘oya, nazariyalarning “eng yaxshisi”ni tanlab olishga intilish*. Darsliklarning muntazam o‘zgarib turishi, ularlarning belgilangan talablarga javob bermasligi, yangi darsliklarning o‘quv jarayoniga vaqtida yetkazilmasligi o‘z-o‘zidan ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

Yangi darsliklar mazmuniga bir e’tibor qarataylik. Biz yuqorida darsliklar dastur asosida tuzilishi kerakligini qayta-qayta ta’kidladik. Milliy o‘quv dasturining tasdiqlangan nusxasi o‘qituvchilar qo‘lida bormi? Dasturning bir necha nusxasi bo‘lib, ular ayrim jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Boshlang‘ich ta’limning asosiy fanlaridan ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi darslikka mos tuzilganmi o‘zi?

Ona tili va o‘qish savod xonligidagi ayrim mavzularning dasturga, yoki dasturdagi mavzularning darslikka mosligini solishtirib ko‘ramiz:

1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi dasturi, IV bo‘lim, “San’at va madaniyat” (22 soat). Ertakdagi qahramon. Berilgan ertak matnni tarkibidagi ayrim so‘zlarning talaffuzi va imlosi. D-t, b-p, z-s, j-ch, g-k, v-f undoshlarining talaffuzi va imlosi.

1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida shu bo‘limni o‘qitish uchun 18ta sahifa ajratilgan. Darslikda shu bo‘limda o‘tilishi kerak bo‘lgan “d-t, b-p, z-s, j-ch, g-k, v-f undoshlarining talaffuzi va imlosi” mavzusiga oid biror topshiriq ham mavzu ham keltirilmagan. Biror mavzu tarkibida ham jarangli undosh tovushlarning jarangsiz juftini o‘rgatishga oid o‘quv materiali mavjud emas.

Xuddi shu dasturning “Til va dil” (21 soat) V bo‘limida “Tasviriy ifoda, undan foydalanish. Berilgan matn tarkibidagi tasviriy ifodalarni aniqlash, ularning nutqni boyitishdagi ahamiyati haqida suhbatlashish” kabi mavzular beerilgan. Ammo 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida tasviriy ifodaga oid biror topshiriq yoki mavzu umuman mavjud emas.

Bu kabi muammolar o‘qituvchini fanni o‘qitishda aniq metodik rakursni belgilab olishiga katta to‘sqinlik qiladi. Natijada o‘qituvchi oldidagi muammoni yechish masalasi murakkablasha boradi. Ta’lim tizimini sifatli tashkil etishda

muqobil dastur va darslik yaratilmas ekan, samaradorlik darajasi sekin astalik bilan tushib boradi. Faqatgina mahoratlari pedagoggina bunday vaziyatda to‘g‘ri yo‘lni o‘zi uchun belgilab oladi, har qanday vaziyatda ham o‘quvchisining bilim darajasini rivojlantirishg harakat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Respublika ta’lim markazi. Ona tili fani milliy o‘quv dasturi, 2022-2023-o‘quv yili. 216 b.
2. Safarova. R., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R., O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rtta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatdbiq etish yo‘llari. Toshkent, «Fan», 2005-yil. 255 b.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

## **MANTIQIY MASALALAR IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA**

*M.Sh.Djangazova*

*Samarqand viloyat Qo‘shrabot tumani-umum ta’lim maktab  
boshlanguich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlanguich sinflarda matematika o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari, boshlanguich sinf o‘quvchilarining matematika darslari orqali mantiqiy fikrlashga o‘rgatish metodikasi, mantiqiy fikrlash, mantiqiy masalalarni ishslash yo‘llari asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** matematika, boshlanguich ta’lim, ta’lim-tarbiya, mantiqiy fikr, mantiqiy masala, didaktik o‘yin, ta’lim metodi, interfaol metodlar, tafakkur, kichik guruhlarda ishslash, metod, o‘quvchi, o‘qituvchi, hamkorlik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi 5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi“ farmonida maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiya berishda ayrim bo‘shliq va kamchiliklar mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Hozirgi vaqtida jamiyatimizga va davlatimizga xizmat qiladigan yangi avlodni tarbiyalash, maktab boshlanguich sinf o‘quvchilariga ham juda katta ma’suliyat yuklaydi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, boshlanguich sinflarda matematika fanini

o‘qitish jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishdagi bo‘shliqlar mavjud.

Mantiq fikrlash bilim, malaka, ko‘nikmalarni ongli ravishda egallashdir. O‘quvchini mantiqiy masalalarni yechishda mantiqiy fikrlash vosita, shakl va metodlari bilan qurollantirmsandan, biz xohlagan bilim, malaka va ko‘nikmani beraolmaymiz.

Uzoq yillar davomida bolalarni o‘rgangan taniqli psixolog N.S.Leytes bolalarda yaqqol farq qiluvchi qobiliyatlar mavjudligini aniqladi. Bular, birinchidan, mehnatga qobiliyat, ikkinchidan, doimiy ravishda yangi bilimlarni va yangi ma’lumotlarni egallashga bo‘lgan intilishlarida namoyon bo‘ladi. Bu ehtiyoj gumanitar, texnik, matematik, biologiya bo‘yicha turli xarakter va temperamentga ega bo‘lgan iste’dodli bolalarda bir xil kuchda namoyon bo‘ladi. Keyinchalik tadqiqotlar bolaning aynan bilishga intilish, bilish ehtiyojlari uning aqliy qobiliyatlari darajasining rivojlanishiga eng ko‘p aloqador ekanligini ko‘rsatdi.

Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mantiqiy o‘quv topshiriqlaridan foydalanish o‘quvchining o‘quv-biluv va ijodiy faoliyatini oshiradi, bolada mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Mantiqiy masalalarni yechish o‘quvchilarga taqqoslash, kuzatishga doir tajribalarni to‘plashga, murakkab bo‘lmagan matematik qonuniylatlarni aniqlashga, isbot talab etadigan farazlarni o‘rtaga tashlashga imkon beradi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarda deduktiv mulohaza yuritishga ehtiyoj tug‘ilishi uchun sharoit yaratiladi. Bunday masalalar o‘qituvchiga o‘quvchilardagi mehnatsevarlik, maqsadga erishishda tirishqoqlik kabi shaxsiy-axloqiy xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Mantiqiy masalalarni yechish darsda hamda sinfdan tashqari (to‘garak) ishlarda amalga oshirilish mumkin, o‘qituvchi o‘zining faniga qiziqsa va bu qiziqishni o‘z o‘quvchilarida ham tarbiyalay olsa, ularda mehnatsevarlik, masalaga qiziqish, masalani yechishga bo‘lgan xohish, masalaning yechimini topishga ishonch kabi xislatlarni tarkib toptiradi.

Xulosa qilib aytganda, mantiqiy masalalar o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini faollashtiradigan, ijodiy qobiliyatini shakllantiradigan kuchli vositadir.

Quyidagi mantiqiy masalalarni havola qilamiz.

1. Uch dugona Aziza, Iroda va Shahlo turli rangdagi: ko‘k, sariq va oq ko‘ylaklar kiyib olishgan. Azizaning ko‘ylagi oq emas, Irodaniki esa oq ham emas, sariq ham emas, ayting-chi? Har bir qizchaning ko‘ylaklari qanaqa rangda?

Javob: Aziza - sariq, Shahlo - oq, Iroda esa ko‘k rangdagi ko‘ylakda.

2. Sut to‘ldirilgan bidon og‘irligi 34 kg, yarim to‘ldirilgani esa 18 kg. Bo‘sh bidon og‘irligi esa necha kg?

Javob: Bo‘sh bidon og‘irligi 2 kg.

3. Munisaning Nodiraga nisbatan bo‘yi pastroq, Kamolaning esa Nodiraga nisbatan bo‘yi balandroq.

Quyidagi savollarga javob bering?

Kimning bo‘yi balandroq - Kamolanikimi yoki Nodiranikimi?

Qizchalarni bo‘yiga qarab yozib chiqing.

Yechimi: Kamola, Nodira, Munisa.

4. Tarozining bir pallasida katta karam, ikkinchi pallasida esa 2 kilogrammli tosh va kichik karam. Tarozi pallalari muvozanatda. Katta karam massasi kichik karam massasiga nisbatan qancha ko‘p?

Javob: 2 kilogramm

5. Ikki litrlik bankadan va 5 litr suv sig‘adigan choynakdan foydalanib, qaysi yo‘l bilan vodoprovoddan 6 litr suv olish mumkin?

Javob: bankaga 2 litr suv olib, choynakka quyamiz, yana bankaga 2 litr suv olib choynakka quyamiz va bankaga yana 2 litr suv olamiz.

6. 25 ta sportchining maykalarida ularning tartib raqamlari yozilgan. Qanaqa raqamlar ko‘proq-toq parimi yoki juftlari va nechtaga ko‘p?

Javob: juft raqamlar 12 ta, toqlari esa 1 taga ko‘p, ular 13 ta.

7. Sonlar ketma-ketligidan tuzilgan har bir berilgan qatordagi qonuniyatni aniqlang va qaturni davom ettiring.

	3	6	12	24	48				
	1	2	2	2	4	2	8		
	1	5	3	15	5	25			
	40	2	38	2	36	2			
	100	99	97	94	90	85			
	3	10	6	20	9	30	12		

8. To‘tiquoshning tayoqchasi filchaning tayoqchasidan uzunroq, ammo bo‘g‘ma ilonning tayoqchasidan qisqaroq, martishkaning tayoqchasi esa filchaning tayoqchasidan qisqaroq. Tayoqchalarining uzunligi kichrayishi darajasiga qarab tayoqchalar egalarining nomini ayting?

Javob: Bo‘g‘ma ilon, to‘tiquosh, filcha va martishka.

9. Bolada bir nechta nok bor edi. U noklarni ikki opasiga bo‘lib berishga qaror qildi. U kichik opasiga noklarning yarmini va yana bitta nok berdi. Katta opasiga esa qolgan 2 tasini berdi. Bolada nechta nok bor edi?

Javob:

10. Onasining yoshi qizinikidan 3 marta katta, ular birgalikda 48 yoshda. Onasi necha yoshda va qizi necha yoshda?

Javob: Onasi 36 yoshda, qizi esa 12 yoshda

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, bizning ish tajribamiz va ijodiy o‘rganishimizga asoslangan holda quyidagilarni amalga oshirish zarur.

OTM boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida matematika o‘qitish metodikasi dasturlariga mantiqiy masalalarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha bilimlarni kiritish va shu asosda boshlang‘ich sinflar uchun yozilgan darslik va qo‘llanmalarga alohida bob qilib nazariy va amaliy ma’lumotlar berish kerak. O‘quvchilarga ongli bilim, malaka, ko‘nikma o‘quvchilarga mantiqiy masala, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish asosida amalga oshiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. Toshkent -2019

2. Boshlang‘ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar-(metodik qo‘llanma) Toshkent-2016 “Tafakkur “ nashriyoti.

**6-YO‘NALISH**  
**FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA**  
**INNOVATSIYALAR**

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MULOQOT MADANIYATINI**  
**SHAKLLANTIRISH**

*Z.A. Eshbekova  
Samarqand shahar 42-umumta’lim maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarda muloqot madaniyatini, nutqiy kompetensiyani to‘g‘ri shakllantirishda didaktik oyinlardan foydalanish haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘quvchi, muloqot, madaniyat, nutq, tarbiya, didaktik o‘yin.

Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 5-dekabr kuni qabul qilgan 372-sonli buyrug‘ida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki o‘quvchi nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga, axloqiy sifatlariga, o‘quv dasturini o‘zlashtirishda me’yorni bajarilishini ta’minlashga bog‘liqdir. Bu masalalar maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘z yechimini topishi va o‘quvchilar o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur.

O‘quvchilarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o‘stirish zarur. O‘quvchi har bir so‘z ma’nosini tushuna olishi, uni o‘z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo‘lishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan o‘quvchi o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi.

Nutq madaniyatini rivoj topishiga ulkan hissa qo‘sghan Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholar yaratgan asarlarda, shuningdek, Bexbudiy, Fitrat, Qori-Niyoziy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidazizovlarining ijod namunalarida o‘quvchi nutqini o‘stirish haqida qimmatli fikrlarni bildirganlar.

Masalan, Alisher Navoiyning shunday misralari bor:

So‘zdirki, nishon berur o‘likka jondin,  
So‘zdirki, berur jonga xabar jonondin.  
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,  
Bilki, gavhari sharifroq yo‘q ondin.

Nutqni zamonaviy va to‘laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o‘zaro hamkorlik o‘quvchining muloqotga bo‘lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. O‘quvchilar nutqni to‘g‘ri egallab olishlarining sababi ularning

muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o‘zgarganligidadir.

O‘quvchining kattalar bilan muloqot qilishining har bir jihatni uning oldiga kattalar tomonidan qo‘yilayotgan va so‘zdan jamiyatda o‘zarobir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo‘lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko‘rib chiqilayotgan har bir jihatni u yoki bu darajada va o‘z holicha o‘quvchilarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya’ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. O‘quvchining muloqot vazifasini o‘zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘quvchi nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o‘zlashtirishiga olib keladi. O‘quvchining ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o‘rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to‘satdan amalgalashishiga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar nutqini rivojlanishiga oshirishni rag‘batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik sa’y-harakatlarni uyushtirish kalitudir.

Didaktik o‘yinlar yordamida o‘quvchilarda atrof-olam haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, lug‘at boyliklari oshadi va dars jarayonida faollashtiriladi. Didaktik o‘yinlar nutqiy mahorat va ko‘nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so‘zni o‘zgartirish, hikoya to‘qish va h.q.) qo‘llaniladi. O‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishda quyidagi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin.

#### Tanishuv davrasи

Ishtirokchilar davra bo‘lib turadilar. Ishtirokchilardan biri davra o‘rtasiga chiqib, isimini aytadi va o‘ziga xos yoki o‘ylab topilgan harakat yohud imo-ishorani ko‘rsatib, yana joyiga qaytadi. Hamma ishtirokchilar uning harakati, so‘zlash ohangi, imo-ishorasini iloji boricha aynan takrorlaydilar. Shunday qilib, har bir ishtirokchi o‘z ismini aytadi va o‘z harakati yoki imo-ishorasini ko‘rsatadi.

#### Mohir suhandon

O‘quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo‘linadilar.

1-bosqich. Oldindan tayyorlangan mavzular nomi yozilgan kartochkalarni guruhlar tanlab oladilar.

2-bosqich. Guruhlarga mavzuga oid eng ma’noli va ko‘p so‘z topish topshiriladi.

3-bosqich. Topgan so‘zlar ishtirokida kichkina monolog yoki intervyu diologini tayyorlaydilar. Matn mazmuni ko‘rib chiqiladi. Tayyorlangan matn guruhning har bir a’zosi tomonidan talaffuz bilan o‘qib beriladi.

Guruh a'zolarini o'qish talaffuzi va suhandonlik mahoratiga karab baholanadi. O'yin so'ngida ballar umumlashtirilib g'olib o'quvchilar baholanadi.

#### Ismim tarixi

Ishtirokchilar juftliklarga bo'linadilar va bir-birlariga o'z ismlari "tarixi" (ma'nosi, kim qo'ygani, o'z ismiga munosabati va h.k)ni aytib beradilar. Intervyu besh daqiqagacha davom etadi. Suhbatdan so'ng har bir ishtirokchi o'z sherigini tanishtiradi.

Nutq o'stirish bo'yicha ishlarni rejalashtirishda o'quvchilar tomonidan ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlarini hisobga olish zarur. O'quvchilar tomonidan atrofdagilarning nutqini tushunish va uni idrok qilish uning nutq organlari muskullarining mashq qilinganligiga bog'liq bo'lib, bolalarning tovush madaniyati bo'yicha nutqiy faolligini oshirish mashg'ulotlaridagina emas, balki mashg'ulotdan tashqari vaqlarda ham rejalashtirilishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabr kuni 372-sonli buyrug'i.
2. Ubayxo'jayeva R. A. O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. T., 1999. - 40 b.
3. Fayzullaeva M. va b. Nutq o'stirish, savodga tayyorgarlik. Suratlari qo'llanma. – T., 2014.

## **BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH**

***U.A.Urolova***

*Samarqand shahar 49-umumta'lim maktab  
boslang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotasiya.** Maqolada boslang'ich sinf darslari samarali tashkil etishdaa didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan

**Kalit so'zlar:** sinf, dars jarayoni, didaktik o'yin, o'qituvchi, o'quvchi, kichik guruh.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin - boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul hisoblanadi. O'yin vositasida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

O‘yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O‘yin orqali bolalar borliqni o‘rganadi va dunyonи o‘zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o‘yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O‘yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O‘yining eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta’sir etish ehtiyoji paydo bo‘ladi va shakllanadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. U ma’lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o‘qituvchidan o‘yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi.

### **“O‘zim tekshiraman”**

Bunday o‘yinlar o‘tkazishda o‘qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Bunday o‘yinlarni har bir boshlang‘ich sinfda darsning avvalida o‘tkazish mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar yozib bo‘lishgach o‘qituvchi hattaxtaga diktant yozib ko‘rsatadi. Diktant hattaxtaga oldin yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. O‘quvchilar esa o‘qituvchi yozganiga qarab o‘zlarining diktantini tekshiradi.

### **“Kim ko‘p so‘z biladi”**

Bu o‘yin o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirishga yordam beradi. Buning uchun sinf ikki guruhga bo‘linadi va 1-guruh o‘quvchilariga boshlanishi va tugallanishi bir xil unlidan tashkil topgan, ikkinchi guruhga esa xuddi shunday: bir xil undosh bilan boshlanib , shu undosh bilan tugallangan so‘zlarni doskaga yozish topshiriladi.

Masalan: 1-guruh “ikki”, “alla”, “ukki”, 2-guruh esa “qiziq”, “katak” kabi so‘zlarni yozishi mumkin. O‘yin shartiga ko‘ra, guruhlardagi o‘quvchilar navbat bilan shartni bajaradilar. So‘z topolmay yozishdan to‘xtab qolgan guruh yutqazgan hisoblanadi.

### **“Jumlan davom ettiring”**

O‘yin qoidasiga ko‘ra, birinchi o‘quvchi qisqa biror gap aytadi, boshqa biror o‘quvchi aynan shu gapga boshqa biror gap qo‘shib boraveradi.

Masalan:

1- o‘quvchi; Men hikoya qildim.

2-o‘quvchi; Men qiziqarli hikoya o‘qidim.

3-o‘quvchi; Men kecha qiziqarli hikoya o‘qidim va h.k.

So‘z qo‘sha olmagan yoki hatoga yo‘l qo‘ygan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. 6-7 daqiqa mobaynida o‘yin davomiyligini ta’minlab turgan o‘quvchilar g‘olib bo‘ladi va baholanadi.

### **“Kim nima qiladi?”**

O‘quvchilar guruhga bo‘linadi va har bir guruhdan bittadan o‘quvchi doskaga taklif etiladi. Birinchi guruh ishtirokchisi “Kim?” yoki “Nima?” so‘roviga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi “Nima qiladi?” so‘roviga javob bo‘ladigan so‘zlarni qayd etadi. Natijada quyidagi yig‘iq gaplar hosil bo‘ladi.

1-guruhan

O‘qituvchi

O‘quvchilar

Qush

SHamol

Gul

Paxta

Yomg‘ir

Quyosh

2-guruhan

O‘qitadi

O‘qiydilar

Sayraydi

Esadi

O‘sadi

Ochiladi

Yog‘adi

Isitadi

### **“Bo‘lishi mumkin emas”**

Bu o‘yinni o‘tkazishda o‘qituvchi matnni o‘qiydi. O‘quvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim.

Hazil-mutoyiba bilan o‘tadigan bu o‘yin ham o‘quvchilardan ziyraklik, sinovchanlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo‘layotgan voqealarga befarq bo‘lmaslikni ham talab qiladi. Undan tashqari ularning darsdan tashqari bo‘lgan ilmiy va badiiy adabiyotlarga va ilmiy-ommabop filmlarga qiziqishni orttiradi va hikoya tinglash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

1-variant: Dushanba dam olish kuni bo‘lgani uchun Olim mакtabga bormadi. U singlisi Vazira bilan hayvonot bog‘iga bordi. Ular hayvonot bog‘ida suvda suzib yurgan sherni qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko‘rdilar.

2-variant: Ibratjon yozgi ta’til kunlarida buvisinikiga dam olgani bordi. U qishloqda o‘rtoqlari bilan qor bo‘ron o‘ynadi. Buvisiga sigirlarga don berishda yordamlashdi. Buvisi sigir sog‘ayotganda sigirning uloqchasini ushlab turdi.

3-variant: Abdulla juda bilimli bola. U bugun ham topshiriqni juda yaxshi bajardi. O‘qituvchi uni maqtadi va “nol” ball qo‘ydi. Abdulla yaqinda 2-sinfni tugatib, 1-sinfga o‘tdi.

### **“Oltin toj”**

Ushbu o‘yinni oyda bir marta o‘tkazib turish o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga, o‘quvchilar bilimining darajasini aniqlashga, bilim olish ishtiyoqini, intilishini kuchaytirishga yordam beradi. Biroq yil davomida oltin toj

sovindori bo‘lib yurish kichik yoshdagi mактаб o‘quvchilariga ko‘tarinki ruh beradi, ularning darsga, til o‘рганишга bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish samarali natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori//. Toshkent “Sharq”.
2. Abduraimova M. Ona tili ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2020 yil.
3. Nurmonov A, Ikromov I, Boynazarov F. Yangi pedagogik tehnologiya asoslari. Toshkent, 2019 yil.
- 4.

## **O‘QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH**

*N.A.Berdiyeva*

*Kattaqo‘rg‘on tuman 26-umumta’lim mактаб  
1- тоифали, бoshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilar intellektini rivojlantirish va nutqiy kompetensiyasini to‘g‘ri shakllantirishda didaktik oyinlardan foydalanish haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘quvchi, intellekt, kompetensiya, nutq, tarbiya, didaktik o‘yin.

*Hamma hunardan so‘z hunari yaxshiroqdir.  
Qobusnomadan*

O‘quvchi nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga, axloqiy sifatlariga, o‘quv dasturini o‘zlashtirishda me’yorni bajarilishini ta’minlashga bog‘liqdir.

Bu masalalar mакtabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘z yechimini topishi va o‘quvchilar o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur.

O‘quvchilarning intellektini rivojlantirish uchun ularning nutqini o‘stirish zarur. O‘quvchi har bir so‘z ma’nosini tushuna olishi uni o‘z nutqida erkin ifodalashga harakat qilishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan o‘quvchi o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘рганади.

Nutq madaniyatini rivoj topishiga ulkan hissa qo'shgan Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholar yaratgan asarlarda, shuningdek, Bexbudiy, Fitrat, Qori-Niyoziy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidazizovlarining ijod namunalarida o'quvchi nutqini o'stirish haqida qimmatli fikrlar bildirganlar.

Masalan:

So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,  
So'zdirki, berur jonga xabar jonondin.  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilki, gavhari sharifroq yo'q ondin.

*Alisher Navoiy*

Urush so'zlama so'z , biror so'zla oz ,  
Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz.

*Yusuf Xos Hojib*

Nutqni zamnaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik o'quvchining muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. O'quvchilar nutqni to'g'ri egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir.

O'quvchining kattalar bilan muloqot qilishining har bir jihatni uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihatni u yoki bu darajada va o'z holicha o'quvchilarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. O'quvchining muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzbek bog'liq bo'ladi. Bu o'quvchi nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi. O'quvchining ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir.

O'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni o'stirishda didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat va ko'nikmalarni mashq

qilishda (ibora tuzish, so‘zni o‘zgartirish, hikoya to‘qish va h.q.) qo‘llaniladi. Quyida o‘quvchilar nutqini o‘sirishga xizmat qiluvchi didaktik o‘yinlardan namunalar ko‘rib chiqamiz.

### **Tanishuv davrasi**

Ishtirokchilar davra bo‘lib turadilar. Ishtirokchilardan biri davra o‘rtasiga chiqib, isimini aytadi va o‘ziga xos yoki o‘ylab topilgan harakat, yohud imo-ishorani ko‘rsatib, yana joyiga qaytadi. Hamma ishtirokchilar uning harakati, so‘zlash ohangi, imo-ishorasini iloji boricha aynan takrorlaydilar. Shunday qilib, har bir ishtirokchi o‘z ismini aytadi va o‘z harakati yoki imo-ishorasini ko‘rsatadi.

### **Mohir suhandon**

O‘quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo‘linadilar.

1-bosqich. Oldindan tayyorlangan mavzular nomi yozilgan kartochkalarni guruhlar tanlab oladilar.

2-bosqich. Guruhlarga mavzuga oid eng ma’noli va ko‘p so‘z topish topshiriladi.

3-bosqich. Topgan so‘zlar ishtirokida kichkina monolog yoki intervyu diologini tayyorlaydilar. Matn mazmuni ko‘rib chiqiladi. Tayyorlangan matn guruhning har bir a’zosi tomonidan talaffuz bilan o‘qib beriladi.

Guruh a’zolarini o‘qish talaffuzi va suhandonlik mahoratiga qarab baholanadi. O‘yin so‘ngida ballar umumlashtirilib, g‘olib o‘quvchilar baholanadi.

### **Ismim tarixi**

Ishtirokchilar juftliklarga bo‘linadilar va bir-birlariga o‘z ismlari “tarixi” (ma’nosi, kim qo‘ygani, o‘z ismiga munosabati va h.k)ni aytib beradilar. Intervyu besh daqiqagacha davom etadi. Suhbatdan so‘ng har bir ishtirokchi o‘z sherigini tanishtiradi.

### **Shaxsiy varaqa**

Har bir ishtirokchi yonida o‘tirgan shеригидан oldindan tuzilgan tayanch so‘zlar ro‘yxati yoki so‘rovnama savollariga asoslanib, intervyu oladi. Intervyu davomida olingan axborot yozma qayd etiladi. Javob varaqlari yoki so‘rovnama blankalari so‘ralayotganlarning portreti yoki familiyasini anglatuvchi ramz bilan to‘ldirilishi mumkin.

Bunday “Shaxsiy varaqa” yordamida har bir ishtirokchi boshqalarga o‘z shеригини tanishtiradi. Keyin “Shaxsiy varaqalar” ko‘rinadigan joyga ilib qo‘yiladi.

### **Kompliment**

Ishtirokchilar ikkita davra quradilar – ichki va tashqi. Har ikkala davrada ishtirokchilarning soni bir xil bo‘lishi kerak. Qarama - qarshi turgan ishtirokchilar bir - biriga kompliment qiladi. Keyin boshlovchining buyrug‘iga binoan ichki davra a’zolari juftliklarini almashtirib, harakat qila boshlaydilar. Jarayon har bir ichki davra ishtirokchisi tashqi davra ishtirokchisi bilan uchrashmaguncha takrorlanaveradi.

Nutqni rivojlantirish – bolaning ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishiga oid o‘ta murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u yakkama – yakka ruhan rivojlanishda markaziy o‘rin tutadi. Bu pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon bo‘lib, u to‘satdan yuz bermaydi. Bolalarda nutqni rivojlantirishga va boshqa tilga o‘rgatishga oid ishlarni yaxshi nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lgan, o‘zida bolaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantira olgan mutaxassisgina uyushtirishi va amalga oshirishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ubayxo‘jayeva R. A. O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish. – T., 1999.
2. Fayzullaeva M. va b. Nutq o‘stirish, savodga tayyorgarlik. Suratli uslubiy qo‘llanma. – T., 2014.
3. Rabbonayeva D.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Uslubiy ko‘rsatma. – SamXTXQTUMOHM, 2018-yil.

## **STRATEGIES OF TEACHING ENGLISH IN MULTI-LEVEL CLASSES**

*G.Amirova*

*Teacher of English language in 72 school*

*Samarkand city*

**Annotation.** In this paper, an attempt is made to consider and analyze the importance and effectiveness of innovative approaches in the process of learning a foreign language.

**Key words:** multi-level, strategies, skills, glossary of terms, self-studies, schedule.

Multi-level classes are as diverse as the students in them. Often these include students who communicate at different levels of English. They can be considered multi-stage because they cover students with different levels of preparation, such as oral and mostly textbooks. The level of literacy of students in their mother tongue may also vary. A class of several students who are fluent in the Latin alphabet and a class of several students can also be considered multi-level. Finally, the term stage can be used to refer to a group of older students working together.

Advantages and challenges of teaching multi-level classes

Many teachers who face a multi-level class problem don’t know where to start. They fear that the preparation will take too long and that the students will be demanding. Schools with multi-level classrooms often have a limited budget, and teachers may be afraid of not being paid for expensive items. However, only by

taking into account the advantages of a multi-level classroom and applying problem-solving strategies can teachers succeed.

#### Advantages of multi-stage courses

- Students can learn at their own pace
- Students learn to work well in a group
- Students become independent learners
- Students develop strong relationships with their peers
- Students participate in learning

#### Difficulties of multi-level classes

- Find the right training resources and materials
- Organize appropriate groups in the classroom
- Create an effective self-access center in the classroom
- Identify the individual needs of each student
- Ensuring the interest and interest of all students
- Use only English rules when the teacher is busy and students are working in small groups or pairs.

#### Identify the needs of your students

One of the first things to do when assigning a multi-level class is to identify the needs of these individual members. If possible, this should be done before first grade.

There are different ways to assess needs depending on class size, office space, and computer access. Many schools use a standardized test for new students. While this may help teachers determine the language level of students in a multi-level classroom, standardized tests cannot determine the individual needs of individual students. For small classes, it is helpful to invite students to the office to define their goals (e.g., to improve writing skills, learn spoken English, understand rules and grammar). Students may not know the answer to this question, so it's a good idea to create a list that they can choose from. You can choose between primary and secondary causes. Here are some examples that can be added to a list that students can choose from:

- Improving my speaking skills
- Go to college
- Travel
- Become a future teacher
- Learn grammar rules
- To please parents

Also, use this time to explain to your student that there will be other students in the class with different levels of English, and that you will use joint and group exercises and activities to meet everyone's needs. If you don't have access to an office or classroom, or your classroom is large, you can email your students a

question or talk to them on the phone. If none of these options are available, you can always mark your first lesson as an entry day. If possible, reduce the start time to five minutes to talk to everyone individually. Mental attack in a group can be effective even if your class is small. Rotate the words “English is needed / for...” on the board and ask students to answer voluntarily.

Make sure you write down the needs and level of each of your students in a simple way. Create a schedule for yourself and change it as your students’ needs change. Make a conscious effort to monitor the needs of your students on a regular basis. Some students may find it uncomfortable to work as a teacher for their peers, while others may focus too much on a skill they could never use in the real world.

<b>student</b>	<b>from</b>	<b>Level</b>	<b>special needs</b>
Sherzod	3 <sup>rd</sup> grade	Elementary	<b>Elementary</b> means, you can understand basic phrases and can interact in a simple way.
Davlat	3 <sup>rd</sup> grade	Beginner	<b>beginner</b> , it means you haven’t had any contact with the language or have but, passively.

### **Glossary of terms**

**Mutual Ability:** Pairs or groups of students working together at different levels of ability or skill. Advanced learners can gain confidence and improve their skills by helping and teaching their lower level peers.

**Grouping:** Different ways to group students (based on mutual abilities, similarities, special needs, compatibility, etc.).

**Mtudents with similar abilities:** pairs or groups of students with similar abilities or qualifications.

**Multi-level classroom:** a group of students who study and study together in the same room despite different levels of ability and/or literacy.

**Self-Study Resources:** Learning resources (eg, listening exercises, study guides) that contain instructions and answers that can be used by the student on their own. In multi-level classrooms, students often complete small group or individual assignments and assignments at different times, so there are always materials you can use on your own to engage students in the learning process.

**Small group activity:** an exercise or game in which a small group of students can participate and learn from it. Groups can form in many ways (common interests, common levels, different levels) and can change frequently.

**Group activity:** an exercise or game in which all students can participate and learn, regardless of their skill level and language ability.

### **Selection of materials**

If you have multiple students with the same level of English proficiency, finding a basic textbook for your class can help. You may find that you need multiple levels of the same tutorial series. If you need more than two levels, using the basic guide can make life difficult for you, and multi-level guides are hard to come by. Another option is to use a thematic approach. Working with all students on the same thematic activities and lessons is a great way to maintain a classroom environment in a multi-level classroom. Not only will this help your students feel like part of a group, it will save you time preparing and make you feel more organized. Follow-up activities such as games and discussions can be significant. The English club has put together a lot of themed lessons to save teachers' time.

#### Recommended measures

- Warm-up for the whole group: Starting with a warm-up for the whole group is a great way to develop a sense of community in a multi-level classroom.
- Information Space exercise: great for mutual abilities and couples with similar abilities.
- Crosswords: Suitable for gifted couples or small groups. Regardless of their English vocabulary level, each student brings different knowledge to the group to help them complete the puzzle.
- Materials for personal use: make sure everything is well labeled and sorted. The materials should reflect the needs and interests of the students in your class. If you have a shelf full of textbooks, self-help materials can scare students away. It is good to copy multiple copies of worksheets and exercises. If you have students preparing for something like the TOEIC test, tag the file as TOEIC Practice Sheets. If your students need to improve their listening skills, prepare an audio lab with a handy CD/magnet player and prepare the necessary resources (CDs and worksheets). It is better to attach photocopies of stories or articles with appropriate assignments (eg, writing assignments) directly to the reader, rather than sending them. Board games such as Word Up (with 5 different levels of question cards) should be considered an essential tool in every multi-level classroom.
- Folk Tales: It's easy to find common folk tales or fairy tales of different levels. They work well in children's classes and some are even suitable for adults. If you're having trouble finding the right level of fairy tales, you can rewrite them yourself and use them over and over as you learn. Your local children's librarian should direct you to the necessary resources. The exercises for continuing folk tales are endless but include comprehension questions, group discussions, vocabulary, creative writing exercises and role playing, all of which can be done in different groups.

## **Use a simple schedule that is similar each day.**

Here is an example:

1. Start with a warm-up that involves the whole group.
2. Break part of the class off into one type of grouping (i.e. pairs) and work with part of the class on a lesson, grammar point, or activity.
3. Break off the class into another type of grouping (i.e. small groups) and have the other students use self-access materials.
4. Bring the class back together for a whole group activity/game.

## **Identify students who are interested in peer learning in the classroom.**

It does not have to be a student who speaks English at the highest level. Your students among them may be the most valuable to you as they strive to achieve a level of competence comparable to that of the most advanced students. Remind your students that the best way to practice and perfect a new language is to teach it to someone else.

## **Consider hiring a volunteer**

Limited budgets or low enrollment rates are often the reason for tiered classes. Therefore, it can be difficult to convince administrators or managers that you need a paid assistant. If you're feeling overwhelmed, consider hiring a volunteer. Finding someone who is interested in helping you with your education and training may not be as hard as you think. Most English learners who want to teach are willing to volunteer in exchange for a recommendation. With the permission of your supervisor, you may advertise at your local library, college, or teacher training center. You can even offer to advertise on the website of the school where you work.

## **REFERENCE LIST**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Decree. Improvement of The Foreign Language System (2018: 4p)
2. J. Jalolov, G. Makhkamova, Sh. S. Ashurov. English language teaching methodology. Tashkent. 2015
3. J. Jalolov. Foreign language teaching methodology. Tashkent. 2012
4. Mary Dean. 10 effective teaching strategies for every clasroom. 2019
5. Terry Heick. 20 Ways To Get A Noisy Classrooms Attention. 2017
6. The Stephen Perse Foundation. Teaching methods: traditional vs modern. 2017
7. Larry Ferlazzo, Katie Hull Sypnieski. Activating prior knowledge with English language learners. 2018
8. Tracy Morrison, James Brown and Debra Nestel. Benefits and challenges of multi-level learner rural general practices.

## **BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY DARSLARNI TASHKILLASHTIRISH**

*G.M. Atakulova  
Samarqand shahar 53-umumta’lim maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang‘ich ta’limda zamonaviy darslarni tashkillashtirishda ta’lim texnologiyalari va interfaol usullardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan

**Kalit so‘zlar:** ta’lim usullari, zamonaviy ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, dars jarayoni, kichik guruh

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishini ta’minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Zamonaviy ta’limining vazifalari va maqsadlarining o‘zgarishi, hamda kengayib borishi – ta’lim mazmunini va tuzilmasini hamda o‘qitish jarayonini takomillashtirishga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf darslarida o‘qitishning yangi zamonaviy metodlaridan foydalanishjamiyatimiz hayotida yuz bergan ijobiylar o‘zgarishlar ta’limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Buning natijasida o‘quvchi dars jarayonida faol ishtirokchiga aylandi, uning fikrlash doirasi kengaydi, undan ijodkorlik, tashabbuskorlik talab etila boshlandi.

Zamonaviy usullardan foydalanish: sinf muhitini o‘zgartiradi; mavzu qanday o‘rganilishi kerakligini belgilab beradi; har bir o‘quvchini faollashtiradi. Bugungi kunda o‘qituvchi o‘qitish uchun faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olishi va o‘quvchini bevosita mustaqil bilim olishga o‘rgatmog‘i zarur. Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimi, odob-axloqi muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o‘qituvchi mohirlikdan ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta’lim sohasi rivojiga hissa qo‘shtmog‘i talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda noan’anaviy dars

usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda o‘z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun imkon yaratish, sinfdagi o‘quvchilar o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hamkorlik aloqalarini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi.

### **“Rezyume” texnologiyasi**

Texnologiyaning tavsifi: Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yola mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foya va zararlari belgilanadi.

Texnolgiyaning maqsadi: O‘quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullahga, shuningdek, berilgan muammoni yechishga o‘rgatish.

Texnologiyani qo‘llanilishi: Ma’ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo‘lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka (yoki kichik guruuhlar ajratilgan tartibda o‘tkazish, shuningdek uyga vazifa berishda ham qo‘llash mumkin).

Mashg‘ulotda foydalanadigan vositalar: A-4formatdagi qog‘ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

#### **Mashg‘ulotlar o‘tkazish tartibi:**

- o‘qituvchi o‘quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

- o‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga qog‘ozning yuqori qismida yozushi bo‘lgan, ya’ni asosiy muammo, undan ajratilgan o‘quv muammolari va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi;

- har bir guruh a’zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o‘z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar.

- kichik guruh a’zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o‘qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi.

- o‘qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so‘rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so‘ng taqdimot guruhi o‘z xulosasi bilan tanishtiradi;

- o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

### "Blits-so'rov" usuli

Usulning tavsifi: Ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fani asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan keraklisini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan ham fikr bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.

1. O'qituvchi o'quvchilarga ushbu mashg'ulot bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga moljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, o'quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi.

2. Keyin hammaga alohida-alohida tarqatma material beradi va ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi va "o'quvchining ismi va familiyasi" va "sinf" bo'limlarini to'ldirishni aytadi.

- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta'kidlaydi;

- har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdag'i "o'quvchijavobi" bo'limiga berilgan savollardan 3xil variantli javobdan bittasini yozadi, javoblar raqamlar yoki harflar bilan ko'rsatilishi mumkin.

3. Berilgan vaqt ichida yakka tartibdagi ishlar tugagach tarqatma materiallar o'zaro almashinadi.(almashtirishni turlicha tashkil qilish mumkin, masalan yonidagi o'quvchi bilan, kichik guruhlarda yoki orqadagi o'quvch bilan)

4. Tarqatma materiallar almashingach, oqituvchi to'g'ri javoblarni o'qiy boshlaydi, oquvchilar bir-birini ishini tekshira boshlaydi va "to'g'ri javob" bo'limiga "1" balldan, agar noto'g'ri bo'lsa "0" ball qo'yib chiqishadi.

5. O'qituvchi baholash mezonini tushuntirib beradi va tarqatma materiallar qaytadan o'z egalariga almashtirilishi so'raydi, o'z xatolarini ko'rib olishlariga imkon beradi.

6. O'qituvchi tarqatma materiallarni yig'ishtirib olib baholaydi va e'lon qiladi.

Izoh: misol tariqasida "Metallar" mavzusidagi blits-so'rov jadvalini keltirish mumkin(har bir o'qituvchi o'z pretmeti bo'yicha o'tayotgan, avval o'tgan mavzu

yoki umumlashtiruvchi darslarda ushbu jadvaldan foydalanib blits-so‘rov tuzishi mumkin).

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, agar darslar so‘z, tushuntirish orqali olib borilsa, o‘zlashtirish 10% ni, ko‘rsatish, namoyishlar orqali tashkil etilsa, 50% ni, ta’lim jarayoni o‘quvchilarning shaxsiy ishtiroti faolligida kechsa, o‘zlashtirish sifati va samaradorligi 90% ni tashkil etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avlayev O., Jurayeva S.N., Mirzayeva S.R. “Ta’lim metodlari” T. “Navro‘z”. 2017
2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish – T.: “Fan va texnika” 2008 y.

## **DARSLARDA QO‘LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY METODLAR**

*G. Davirova*

*Qo‘schrabot tuman 88-umumta’lim maktab o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, boshlang‘ich ta’limda zamonaviy darslarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan

**Kalit so‘zlar:** Metod, qobiliyat, rag‘bat, savollar, rasm, sirli sandiq, rivojlantirish, ona tili, matematika, o‘qish

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatlari kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim olish (ma’lumot olish) jarayoni- bu ma’naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta’lim oluvchining o‘zi orqali yoki boshqa birov-ta’lim beruvchining ko‘magida amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga ( usullarga ) tayangan holda kechadi.

### **“Yaxmalak otish” metodi:**

Bu metodning qulaylik tomonlari juda ko‘p. Masalan:

- 1.Hamma fanlardandan qo‘llasa bo‘ladi.
- 2.Dam olish daqiqasida ham foydalanish mumkin.
- 3.Jismonan ham foydali tomonlari juda ko‘plab.

Bu metodni qo'llash uchun oddiy qog'ozdan buklab, yumaloq shakl hosil qilinadi. Keyin yaxmalakka o'xshashi uchun ustidan toza meditsinada qo'llaniladigan paxtadan o'rabi, ustidan oq iplar bilan mustahkamlaymiz. Yaxmalagimiz futbol to'pidan salgina kichikroq bo'ladi. Qulaylik tomonlari: yengil, irg'itganimizda o'quvchilar ilib olishlari oson, kattaligi ham o'rtacha. Xavf tug'diradigan tomonlari mavjud emas.

**Qo'llanilishi:** O'tilgan darsni mustahkamlash, yangi mavzuni mustahkamlash, karra jadvalini yod olish, ismlar aytish harflarga, topishmoqlar aytish, sonlarnisanash kabi holatlarda qo'llaniladi.

**Foydalanish:** Yaxmalak savolni aytib bir o'quvchiga irg'itiladi, keyin o'quvchi javob qaytarib, yaxmalakni o'qituvchiga otadi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, o'qituvchi rag'bat sifatida o'quvchiga qutichadan yumshoq shirinlik otadi. Agar o'qituvchi og'zaki savol berib, o'quvchiga yaxmalakni otsa-yu, o'quvchi javob berolmasa, boshqa o'quvchiga, ya'ni javobni biladigan o'quvchiga irg'itadi. U o'quvchi esa, albatta savolning javobini aytib, o'qituvchiga qaytaradi.

Rag'batlantirish uchun nega aynan yumshoq shirinlik tanlangan, chunki u yengil va mazali. Qolaversa, o'quvchilar uni osongina ilib olishlari uchun qulay va xavfsiz. Boshqa narsalar, masalan:ruchka, daftar, o'chirg'ich, qalamdon, chizg'ich, ertak kitob va hokazo narsalardan rag'bat uchun foydalanish qulay emas deb hisoblayman. Daftar, kitobni irg'itish noqulay, ruchka,qalam kabi qattiq jismlar esa o'quvchilar uchun xavfliroq. Shuning uchun ham men aynan shu yumshoq shirinlikni tanladim. Bulardan tashqari, bu metodimiz og'zaki nutqimizni rivojlantiradi, chunki faqat og'zaki savol-javoblarda qo'llaymiz.

### **Dam olish daqiqasida qo'llash:**

#### **Ona tili**

Harflarga ismlar aytish. So'z turkumlariga misollar keltirish va hokazolar.

#### **O'qish**

Topishmoqlar aytish, bobolarimiz nomlarini aytish, maqollar aytish kabilarda

#### **Matematika**

Karra jadvali, sanash, shakllar nomlarini sanash kabilarda foydalaniladi.

#### **"100 da yurmang, 100 ga kiring" metodi.**

Bunda beshta tayoqchaga avtobus, svetofor, burilish belgisi, chorraha va mashinalar aylana bo'lib harakatlanish belgilarini o'rnatib chiqamiz. Keyin sinf xonasining qulayroq joyiga bularning barchasini o'rnatamiz. Faqat svetoforga savol yopishtirmaymiz, qolgan barcha yo'l belgilarining orqa tomoniga savollar yopishtiramiz. O'quvchilar savollarni birma-bir olib, javob berishlari kerak bo'ladi. To'g'ri javob bergen o'quvchining javob kartochkasi

svetoforning yashil chirog'iga yopishtiriladi. Savolning yarmiga javob bergen o'quvchining ya'ni, to'liq javob bera olmagan o'quvchining savol kartochkasi

svetoferning sariq chirog‘iga yopishtiriladi. Savolga umuman javob berolmagan o‘quvchining kartochkasi esa svetoferning qizil chirog‘iga yopishtiriladi.

### **“Sakkiz sayyora” metodi**

Bunda doskaning markaziga quyos rasmi yopishtirilib, sakkizta sayyoraning orqasiga savollar yoziladi. Savollarga o‘quvchilar birma-bir javob berib, quyoshning atrofiga sayyoralarni aylana holatda yopishtiradilar. Agar biror o‘quvchi savolga javob berolmay qolsa, unda sayyoralarning soni kam bo‘lib qoladi. Javobni bilmagan o‘quvchi biladigan o‘quvchiga savolni uzatadi. Bu metodimizni barcha fanlarda qo‘llasak bo‘ladi. Metod orqali nechta sayyora borligi, biz ulardan qaysi birida hayot kechirishimiz, yil, oy, hafta, sutka kabi savollarga ham javoblar o‘z-o‘zidan kelib chiqaveradi.

### **Sayyoralar**

Quyoshning atrofida  
Uchar sakkiz sayyora,  
Singlisiga bir kuni  
Sanab berdi Diyora.  
Birinchisi Merkuriy,  
Eng kichigi ham shu,- der  
Ikkinchisi Venera,  
Uchinchisi bizning Yer!  
Keyingisi Mars bo‘lsa,  
Beshinchisi Yupiter!  
Yupiter sayyorasini  
Eng katta sayyora, der.  
Yana biri ulkandir,  
Uning nomi Saturn.  
Yettinchisi Urandir,  
Eng so‘nggisi bu-Neptun!

### **“Beshlar yomg‘iri” metodi**

Bunda doskaga moviy rangli qog‘ozdan bulut va yomg‘irlar yog‘ayotgani aks ettirilgan qog‘oz ilinadi. Pastidan har-har joyga 6-7 ta tarqatma kartochkalarga shakl berib, bir tomoniga 5 raqamini, ikkinchi tomoniga esa savolni yozamiz va yomg‘ir yog‘ayotgandek qilib yopishtirib chiqamiz. Bu metodni ham barcha fanlardan qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchilar birin-ketin doskaga chiqib, yomg‘irli kartochkalarni oladilar. Agar o‘quvchi savolga to‘g‘ri javob bersa, kartochkadagi 5 baho uniki hisoblanadi. Javob berolmagan o‘quvchi esa kartochkani boshqa o‘quvchiga beradi.

### **“Oftob chiqdi olamga” metodi**

Bunda quyoshning aylana holatini doskaga yopishtiramiz. Quyoshning nurlariga savollar yozib, o‘quvchilarga tarqatamiz. O‘quvchilar savollarga birin-ketin javob berib, quyoshimizning nur sochishiga yordam berishadi. Axir quyosh nur sochmasa bo‘lmaydi-ku.

Quyosh Yerga keng yaqin bo‘lgan, qizib yotgan yulduz olov shardir. Quyosh Yerdagi yorug‘lik va issiqlik manbaidir. Uning atrofida 8 ta sayyora aylanib yuradi. Ular nur sochmaydi, quyoshdan tushgan nurni qaytaradilar xolos.

### **“Tipratikonga yordam” metodi**

Bunda biror narsadan, masalan rangli qog‘ozdan tipratikon yasab, ustiga qo‘ziqorinlarni yasab yopishtiramiz.Qo‘ziqorinlarga savollar yopishtiriladi.O‘quvchilar savollarga javob berib, tipratikonnini yuklardan ozod qilishi kerak. Savolga javob berolmagan o‘quvchining qo‘ziqorini tipratikonga yana yuk bo‘lib qoladi.

### **“Sirli sandiqcha” metodi**

Bunda sandiqcha yasalib, eshigiga qulf ham yasab ilinadi. Sandiqcha go‘yoki qulflangandek ko‘rinishi kerak.Albatta sandiqchaga chiroyli bezaklar berib yasatamiz.Sandiqchaning ichiga o‘quvchilarni rag‘batlantirishga doir bo‘lgan narsalar joylaymiz. So‘ngra “kalit” shakliga ega bo‘lgan tarqatma materiallarni ham yasaymiz va orqa tomoniga savol yoziladi. O‘quvchilar kalitlardagi savollarga javob berishadi. To‘g‘ri javob bergan o‘quvchiga rag‘bat tariqasida “ Sirli sandiqchadan” biror shirinlikmi, yoki o‘quv qurollari, rag‘bat kartochkalarini va hokazolardan birini beramiz.

### **“Tunni yoritamiz” metodi**

Bu metodimizda bitta oy va sakkizta yulduz yasalib, orqasiga savollar yoziladi va tarqatiladi. O‘quvchilar savollarga javob berib, birin-ketin doskaga oy va yulduzlarni yopishtiradilar va tunni yoritadilar. Bu metodimiz orqali o‘quvchilarga osmon jismlari, oy, yulduzlar, Kunduz, kecha, yorug‘, qorong‘ulik haqida bilib oladilar.

Oymomoman oymomo,  
Go‘zal yuzli boymomo.  
Kunduz juda ko‘p ishim,  
Kechga tugar yumushim.  
Shunda chiqib osmonga,  
Nur sochaman har yonga.

Yulduzlar juda ko‘p. Galaktikamizda 200-400 milliard dona yulduz borligini bilib, hayron bo‘lishingiz mumkin. Bizga eng yaqin yulduz quyosh hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bek bobomiz birinchi marotaba aniqlagan. Hatto shahrimiz Samarqandda “Ulug‘bek rasadxonasi” qurdirgan.

### **“Raketada Oyga uchamiz” metodi**

Bunda doskaga raketa yasab yopishtiriladi. Raketaning uchta oynasiga uch-to‘rttadan uchuvchilar yasab yopishtirib chiqiladi. Uchuvchilarni orqa tomoniga esa savollar yoziladi. Raketaning teparog‘idan oy rasmi yasab ilinadi. O‘quvchilar raketadagi uchuvchilarni birin-ketin olib, savollarga javob berishadi. Savolga to‘g‘ri javob bergen o‘quvchining uchuvchisi oyga yopishtiriladi va oyga uchdi deb rag‘batlantiriladi. To‘g‘ri javob bermagan o‘quvchining raketasi oyga ucha olmaydi, raketada qoladi.

### **“Slindrdagi savollar” metodi**

Bunda slindr shakliga o‘xshash quticha yasab olamiz, uni og‘zini yopishga qopqoq ham bo‘lishi kerak. Keyin qutichaning ichiga savollar yozilgan qog‘ozlar buklab solinadi. Har bir o‘quvchiga savolni berishdan oldin, qutichaning qopqog‘ini yopib, qutichani chayqagan holda ichidagi savollarni chalkashtiramiz. Savolga to‘g‘ri javob bergen o‘quvchi savol yozilgan qog‘ozni qutiga qaytarib solidi. Javob berolmagan o‘quvchi esa savolini partaning ustiga qo‘yadi.

### **“Rag‘batlantirish” metodi**

Rag‘bat inson his-tuyg‘ulari, ruhiy holatlari rivoji va barqarorlashuviga yordam beruvchi, uni faollikka undovchi psixik ta’sir. U javob reaksiyasi sifatida shaxsga ta’sir o‘tkazishning vositasi vazifa-sini bajaradi. Shu bois rag‘bat ham sabab, ham oqibat rolini o‘ynaydi.

Rag‘batni motiv ( ichki turtki ) bilan aynanlashtirish mumkin bo‘lmasa-da, ba‘zi holatlarda rag‘bat ichki turtkiga aylanishi ham mumkin. Psixologiyada rag‘bat o‘quvchi ruhiyatiga, bilvosita dunyoqarashiga, hissiyotiga, kayfiyatiga, qiziqishiga, intilishiga ijobiy ta’sir o‘tkazishdir. Rag‘bat moddiy va ma’naviy mazmunga ega bo‘lib, bolaning faoliyati samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘quvchilarga mavzuni yetkazishda zamonaviy metodlarning o‘rni katta ahamiyatga ega, albatta. Chunki bunday metodlar o‘quvchilarda mavzularni tezroq tushunib olish va eslab qolishi uchun yordam beradi. Darslar ham juda qiziqarli, mazmunga boy tarzda o‘tadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari.–T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
2. Matjonov S. va b. 4-sinf o‘qish kitobi.O‘qituvchi Toshkent-2017-yil

3. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 2010-yil

## FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYLAR

*M.B. Dusmanova*

*Samarqand shahar 70-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi*

**Annotasiya.** Maqlada innovatsion ta’lim texnologiyalari muhokama qilinadi, ularning tasnifi berilgan, innovatsion o‘rni asoslanadi ta’lim texnologiyalari umuman o‘quv jarayonida va universitetda sotsiologiyani o‘qitishda, o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni birlashtirishning mumkin bo‘lgan variantlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy, innovatsiya, boshlang‘ich ta’lim, metodika, texnika, o‘quvchi.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo‘ladi.

Ulug‘ donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigani o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o‘quvchilarga o‘qitishda o‘quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ta’limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O‘yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrashi kengayib boradi. Olimlar ta’limga o‘yin orqali yondashuv ta’lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O‘yin tarzidagi darslar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlanishiga

yordam beradi. Birinchi sinf o‘quvchilari rasmlı yoki videoli turli ko‘rishlarni juda yaxshi ko‘rishiadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o‘stirishda o‘yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko‘p so‘z biladi?” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin jarayonida bolalarning so‘zlarni eslab qolishi, to‘g‘ri talaffuz etishiga qarab rag‘batlantirib borish zarur.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo‘lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g‘urur va iftixon, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko‘raylik», - degan fikrlariga javoban ta’lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishishga o‘z hissangizni qo‘sasiz degan umiddamiz.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Biz bilamizki, hozirgi ta’lim jaroyonida o‘quvchi sub’ekt bo‘lishi lozim. Bunda ko‘proq interfaol metodlarga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. Hozirgi davr darslariga qo‘yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Bugungi kunda o‘qituvchilar Xorij pedagoglari tajribasini o‘rganib, innovatsion metodlardan, va yangi pedagogik texnikalardan foydalanishlari lozim. Boshlang‘ich sinf ta’lim usullari odatdagi ta’lim usullaridan biroz farq qiladi, chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda yosh. Ta’lim maydoni turli xil qobiliyatlar va shaxslar bilan birgalikda ishlaydigan o‘quvchilar bir joyga to‘planadigan juda dinamik muhit sifatida ajralib turadi va o‘qituvchilarning vazifasi har biri uchun o‘zlarini ya’ni o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun ijodiy va innovatsion ta’lim strategiyalarini amalga oshirishga qodir samarali o‘qituvchilar bo‘lishi muhimdir.

Samarali o‘qituvchi bo‘lish oson ish emas, chunki har bir o‘quvchi noyobdir, ammo ta’lim strategiyalarining kombinatsiyasidan foydalanib, o‘qituvchilar ta’lim uslublarini hamda o‘quvchilarning bilm salohiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olib, sinfdagi o‘quvchilar uchun dinamik va motivatsion muhitni yaratish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Innovation ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari /O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

## **РЕШЕНИЕ ОТКРЫТЫХ ЗАДАЧ (ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ, ИЗОБРЕТАТЕЛЬСКИХ (ТРИЗ))**

***O.A. Isaeva***

***Учитель начальных классов школы №48 г. Самарканда***

**Аннотация:** в статье рассматриваются различные виды задачи ,которые необходимо научить решать младших школьников. Приведены примеры и приемы решения поставленных перед школьниками задач.

**Ключевые слова:** задача, проблема, поиск, ситуация, проект.

Школа учит решать закрытые задачи. Жизнь требует решения открытых задач, допускающих разные подходы к решению, разную степень углубления в сущность проблемы, разные подходы к решению, разные варианты ответов.

Однажды у А.Эйнштейна спросили, чем его мышление, мышление гения, отличается от мышления обычного человека. Он ответил: Обычный человек, если потеряет иголку в стоге сена, поищет её некоторое время, найдёт и успокоится. Я же продолжаю поиски до тех пор, пока не найду вторую иголку, третью, четвёртую, и, если повезёт, то даже пятую и шестую».

Нет такой области человеческой деятельности, в которой не было бы открытых задач. В технике, в науке, в быту, в искусстве, в отношениях людей.

Для того чтобы дети научились решать открытые задачи, их сначала надо погрузить в мир открытых задач, дать возможность порешать подобные задачи, затем познакомить с разными приёмами решения таких задач, учить находить противоречие, искать ресурсы, видеть идеальное конечное решение, не бояться предлагать и принимать разные варианты решений (иногда очень смелые или даже фантастические).

Примеры таких задач:

1. Реки, впадающие в моря пресные. Почему же морская вода всегда остаётся солёной?
2. Кукушка не высиживает своих птенцов, а подбрасывает свои яйца в другие гнёзда. Почему?
3. Какую пользу могут получать растения от животных, которые их поедают?

### **Ситуационные задачи (Кейс-технология)**

Ситуационные задачи являются важнейшим методическим ресурсом для обучения школьников решению жизненных задач (проблем) с помощью предметных знаний.

Этот тип задач имеет «родословную» от методов кейс-технологий, который существует в образовательной практике в следующих разновидностях:

- как анализ конкретных ситуаций (метод анализа конкретных ситуаций, или «гарвардский метод»);
- как анализ ситуационных задач и упражнений (методы решения ситуационных задач).

В современном образовании, время от времени, принято пользоваться не «сплошными» учебными текстами, а, на первый взгляд, достаточно хаотичным набором разнообразных текстов, состоящих из отрывков художественной и публицистической литературы, информации из СМИ, статистических данных

(в виде таблиц, графиков, диаграмм), описания событий из повседневной жизни и др.

### **Проектные задачи (Метод проектов)**

Проектная задача - задача, в которой через систему или набор заданий целенаправленно стимулируется система действий ребёнка, направленных на получение ещё никогда не существовавшего в практике ребёнка результата (продукта). Принципиально носит групповой характер. Для проектной задачи учитель предлагает детям все необходимые средства и материалы в виде набора заданий и требуемых для их выполнения данных.

### **Моделирование (Метод проектов. Исследовательский метод)**

Моделирование - исследование объектов, процессов или явлений путём построения и изучения моделей для определения или уточнения характеристик оригинала. В основе моделирования лежит принцип замещения реального предмета, явления, факта другим предметом, изображением, знаком, символом. При работе с моделями обучающиеся учатся работать с информацией, извлекать информацию, представленную в разных формах (текст, информационная модель), представлять информацию в виде текста, таблицы, схемы, преобразовывать информацию из одного вида в другой, выбирать наиболее удобный вид.

### **Дидактические игры (Игровой метод)**

Младший школьный возраст называют «вершиной» детства. Несмотря на то, что ведущей становится учебная деятельность, игровая деятельность продолжает оказывать значительное влияние на развитие детей. «Без игры нет и не может быть полноценного умственного развития. Игра - это огромное светлое окно, через которое в духовный мир ребенка вливается живительный поток представлений, понятий. Игра - это искра, зажигающая огонек пытливости и любознательности» - говорил В.А.Сухомлинский.

Игру можно использовать и как приём, и как организационную форму работы. В зависимости от поставленных целей, используют те или иные виды игр: игра-упражнение, игра-эксперимент, игра - соревнование, сюжетно-ролевая игра, игра-путешествие, игра-драматизация и др. При правильном руководстве, состоящем в побуждении детей к активной деятельности, в совместной с ребенком игре формируется умение находить путь решения нестандартной задачи, проявлять инициативу, творчество.

### **Использованная литература**

1. Абасов, З.И. Инновационность в образовании и подготовка учителей / З.И. Абасов // Вестник высшей школы. – 2001. – № 4. – С. 7-
2. Айсмонтас, Б.Б. Теория обучения: схемы и тексты / Б.Б. Айсмонтас. – М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2002. – 208 с.

3. Актуальные проблемы современного образования (теория и методология) монография / Е.Л. Федотова [и др.]; науч. ред. А.А. Иванова; Иркут. гос. пед. ун-т. – Иркутск: ИГПУ, 2006. – 138 с.
4. Амонашвили, Ш.А. Размышления о гуманной педагогике / Ш.А. Амонашвили. – М.: Шалва Амонашвили, 1996. – 494 с.

## O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK TA'LIM TEXNALOGIYASINING O'RNI

*D.Ko'chiyeva  
Samarqand tuman 13- muktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lism jarayonida pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan kunga ortib borayotganligi, umumiy o'rta ta'lism maktablarining asosini tashkil qiluvchi boshlang'ich ta'limga har bir fanni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarining fanlarni chuqur o'zlashtirishlariga zamin yaratish usullari haqida uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktab, ta'lism jarayoni, davlat ta'lism standarti, ta'lism tizimi, kichik guruhsalar, pedagogik texnologiya, muloqot, mustaqil, noan'aviy, o'zlashtirish, davra suhbati.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lism tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta'lism tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lism samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ma'lumki, uzlusiz va uzviylik ta'lism tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu nuqtai-nazardan ham hozirgi kunda ta'lism jarayonida pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan talab ortib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limga o'quvchilarini faqat tayyor bilimlar asosida ko'nikma va maiakaiar hosil qilingan bo'lsa, ta'lism texnologiyalari ularni egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto, xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan,yuksak inellektual va ma’navi salohiyatga ega bo‘lib,dunyo miqyosida o‘z tingdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi,baxthi bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz “ - deb ta’kidlashi boshlang‘ich ta’lim oldiga mamlakatimiz yoshlarini o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda erkin va savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi.

Noan’aviy darslardan ko‘zlangan maqsad muayyan bir o‘qiv predmetini o‘qitishda, ma’ruza yoki amaliy mashg‘ulotlarini yanada mazmunli, qiziqarli va tushunarli o‘tkazishda interfaol metodlardan foydalangan holda o‘qituvchi – o‘quvchi faoliyatiga yangilik kiritish hamda o‘quvcilar bilimini tez va samarali baholashga erishishdir.Bunday darslarda o‘quvchi mustaqil fikrlashga, izlanishga, mavzuga ijodiy yondashib tahlil etishga, xulosa chiqarishga, o‘z – o‘zini baholashga o‘rganadi.

Jamiyat taraqqiyoti o‘qituvchilar oldiga o‘ta mas`uliyatli vazifalar yuklamoqda. O‘qituvchi har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi va bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o‘quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Kichik guruhlarda ishslash – dars jarayonida ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqni yechish yo‘llarini ishlab chiqshni taqozo etuvchi jarayondir. Ushbu usul qo‘llanilganda o‘quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kichik guruhlarda ishslash bolalarda jamoaviylikni his etish, intizomli va qiyinchiliklarni hamkorlikda yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi. Kichik guruhlarda ishslash jarayonida o‘qituvchi boshqa noan'anaviy usullarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholash imkoni bo‘ladi.

Kichik guruhlarda ishslash usulining afzalligi:

O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

Muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

Vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

Barcha o‘quvchilar jalb etiladi;

O‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

### **«Davra suhbati» metodi:**

Davra suhbati - o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

«Davra suhbati» metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o‘quvchining bir-biri bilan «ko‘z aloqasi»ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbati og‘zaki va yozma shakllari mavjud. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab, o‘quvchidan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadi. So‘zlayotgan o‘quvchini barcha tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o‘quvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir o‘quvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi.

Konvertni olgan o‘quvchi o‘z javobini qog‘ozga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbati metodining afzalliklari:

O‘tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi; «barcha o‘quvchilar o‘zaro muloqotda bo‘ladilar;

Har bir o‘quvchi o‘zining ishtirok etish mas’uliyatini his etadi;

O‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

Davra suhbati metodining kamchiliklari:

Ko‘p vaqt talab etiladi;

O‘qituvchi o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;

O‘quvchilar bilim darajasiga mos va qiziqarli mavzu tanlash talab etiladi.

Xullas, hozirgi zamon ilm-fan, texnika rivojlanib borayotgan bir paytda, ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishi tabiiydir. Shunday ekan, yosh avlodga bilim berishda qo‘llanilayotgan o‘qitish usullari ham o‘qituvchi mahoratiga, sinflardagi muhitga moslab o‘zgarib, yangilanib borishi va o‘quvchilarni bilim olishga qiziqishini orttirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bu ta’limda sifat va samaradorlikka erishishning bosh omilidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh.M. “ Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018- yil

2. Tolipov O'. Ta'lim:O'qituvchi va o'quvchi faoliyati "Sog'lom avlod uchun" jurnal. 2000y.7-8 betlar.
3. Saidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. Toshkent: PTM.2000 y.
4. Гальперин П.Я. Методы обучения и умственное развитие ребенка. - М.: 1985. -45 с

## **HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*D.Komilova*

*Samarqand tuman 49-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada o'quvchilarning bilish va ijodiy faolliklarini oshirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kelib chiqish tarixi va pedadodik tamoyillari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik, kollaboratsiya, o'qitish, faoliyat, maqsad, yutuq, texnologiya, fikr.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan.

Shulardan biri hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalangan holda darslarni loyihalashtirish haqida fikr yuritamiz.

Hamkorlik yoki kollaboratsiya -umumiylar maqsadlarga erishish uchun ikki yoki undan ortiq shaxs yoki tashkilotning har qanday sohasidagi birligida faoliyat jarayoni, bunda bilim almashish, o'qitish va kelishuvga erishish (konsensus) kabilalar amalga oshiriladi.

Qoida tariqasida, bu jarayon boshqaruvin organining mavjudligini talab qiladi, shu bilan birga boshqaruvin shakli markazlashtirilmagan jamiyatning teng huquqli a'zolari hamkorligida ham jamoat bo'lishi mumkin. Hamkorlik ishtirokchilar cheklangan resurslar uchun raqobat sharoitida muvaffaqiyatga erishish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin deb o'yashadi. Hamkorlik maqsadlar qarama-qarshi bo'lgan taqdirda ham mavjud bo'lishi mumkin, ammo bu kontekstda bu tushuncha kamdan kam qo'llaniladi.

Hamkorlik, shuningdek, hamkorlik jarayonidagi ishtirokchilar to'plami deb ataladi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slatin (1990), Minnesot universiteti professori

– R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – Sh.Sharon (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o‘qitish, asosan o‘quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o‘qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko‘proq o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o‘quv bahsi va munozaralar o‘tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g‘oyalar bir-birini to‘ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo‘lgan. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta`lim muassasalarida keng qo‘llanila boshlagan.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – o‘quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish o‘rganishdir.

Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas`uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi har bir o‘quvchining tahlil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini to‘liq va sifatli bajarishga o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishga, o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam uyshtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasida o‘quvchilarini hamkorlikda o‘qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. *Komandada o‘qitish* (R.Slatin) da o‘quvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqn ni bajaradi. Komanda a`zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e`tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slatinning ta`kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi etarli emas. O‘quvchilar tom ma`nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan

taqqoslanadi. Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas`uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga intiladi.

## 2. *Kichik guruhlarda hamkorlikda hamkorlikda o‘qitish* (R.Slavin, 1986).

Bu yondashuvda kichik guruhlар 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma`lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a`zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiyl xulosa chiqariladi.

O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e`tibor o‘zaro munosabatning rivojlanishini o‘rganishga qaratiladi, o‘qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

O‘zaro hamkorlikning muhim omili va o‘quvchilarning o‘zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o‘quv faoliyati o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o‘zlashtirish ob`ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta`minlaydi.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi;

O‘quvchilarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

Milliy o‘quv markazi (AQSh, Merilend shtati) tomonidan 80-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv usullar materialni qabul qilish foizini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari "o‘quv piramidasи" deb nomlangan jadvalda o‘z aksini topgan: passiv usullar:

- ma’ruza – 5%,
- o‘qish - 10%

interaktiv usullari:

- guruhiy munozaralar - 50%,
- xatti-harakat orqali amaliy tajriba olish - 75%,
- boshqalarni o‘qitish yoki ma’lumotni darhol ishlatib ko‘rish - 90%

Albatta, juda yaxshi o'qituvchilar, ma'ruzachilar bo'lган va bor, va ularning ma'ruzalari deyarli so'zma-so'z tinglovchilar tomonidan esga olinadi. O'qish paytida materialni mukammal o'rganadigan talabalar ham bor (vizual xotirani rivojlantirgan). Biroq o'rtacha hisobda "piramida" ifodalagan namunani deyarli barcha o'qituvchilar ishlatsi mumkin.

Hamkorlikda o'rganish hamma o'quvchi uchun bir xil foydalimi?

- Darsslarni birgalikda o'rganish metodi o'quvchilarning hamma ishtirok etishini ta'minlash uchun yetarlicha kichik guruh faoliyatini yo'lga qo'yish yoki o'quv vazifalari ustida birgalikda ishslashini o'z ichiga oladi. Guruhdagi o'quvchilar umumiyl natijaga hissa qo'shadigan alohida topshiriqlar ustida ishslashlari yoki umumiyl vazifa ustida birgalikda ishslashlari mumkin. Bu alohida bo'lib o'rganishdan tubdan farq qiladi.

Ko'p hollarda birgalikda o'rganish metodi samaraliroq hamkorlikni rivojlantirish uchun guruhlarni yoki aralash guruhlarni bir-birilari bilan raqobatlashadigan muhit yaratiladi. Har xil turdag'i topshiriqlar va vazifalarni o'z ichiga olgan bu hamkorlikda o'rganish metodi ayni muddaodir.

Hamkorlikda o'rganishning asosiy qonuniyatları:

1. Hamkorlikdagi ta'lif metodi o'rtacha ijobiy ta'sir ko'rsatadi va yutuqlarni oshirish orqali bu metodning ahamiyati yanada samarali bo'lishi mumkin.
2. O'quvchilar birgalikda ishslash uchun qo'llab-quvvatlash va amaliyotga muhtoj; bu o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Kasbiy rivojlanish hamkorlikdagi ta'lif faoliyatini samarali boshqarishga yordam berishi mumkin.
3. Vazifalar va tadbirlar birgalikda ishslash samarali bo'lishi uchun ehtiyojkorlik bilan ishlab chiqilishi kerak, aks holda ba'zi o'quvchilar ishtirok etishda qiyinalishi yoki mustaqil ravishda ishslashga harakat qilishi mumkin. To'liq foyda olishlari uchun barcha o'quvchilarning hamkorlikdagi vazifalarda gaplashishi va o'z fikrlarini ifoda etishini ta'minlash muhimdir.
4. Guruhlar o'rtasidagi raqobat o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini yanada samaraliroq qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin. Biroq, raqobatga haddan tashqari e'tibor berish o'quvchilarni o'rganishda muvaffaqiyatga emas, balki g'alaba qozonishga qaratishi mumkin.
5. Eng istiqbolli hamkorlikdagi ta'lif metodi odatda 3 dan 5 gacha o'quvchilar guruhiga ega bo'lib, umumiyl natija yoki maqsadga ega.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalari va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Og‘ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. Xalq ta’limi jurnali, 2001, №3, 69-71 b.
2. Smirnova S.A.. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii.– M.: Akademiya, 2004.
3. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1999.

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI ERKIN FIKRLASHGA O‘RGATISHDA INTERFAOL O‘YINLARDAN FOYDALANISH**

*M. A. Kosimova*

*Samarqand shahar 39-umumta’lim maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotasiya.** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini erkin fikrlashga o‘rgatishda interfaol o‘yinlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan

**Kalit so‘zlar:** Interfaol metod, interfaollik, dars jarayoni, didaktik o‘yin, o‘qituvchi, o‘quvchi, kichik guruh

Interfaol metod - ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati ta’sir ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs - munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarni tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu – o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida yoki o‘qituvchi – o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi – o‘qituvchi, o‘quvchi – o‘quvchi suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritishi, uni ehtiyoji, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarni ishga solishga muhit yaratishdir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har

bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlagan bo‘lar edi.

Interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqli) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi .

Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof –muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘sislarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi .

Ta’lim – tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularni turli yo‘nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlanadiradi.

Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘ynlarga ajratiladi.

Interfaol o‘yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi.

- ishtirokchilarni tarkibi bo‘yicha, ya’ni o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o‘yinlar :

- ishtirokchilarning soni bo‘yicha –yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o‘yinlar :

- o‘yin jarayoni bo‘yicha fikrlash, o‘ylash, topa g‘g‘onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan;

- vaqt me’yori bo‘yicha - dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan o‘yinlar.

Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;
2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;

3. O‘z-o‘zini fikrlashga majbur etish;
4. Faollashtirish;
5. O‘quvchilarни tashkilotchilik va yo‘naltiruvchanlikka undash;
6. Do‘stona munosabatlarni shakllantirish;

Interfaol metodlarni qo‘llashda foydalaniladigan vositalar:

1. Darsliklar, qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar.
2. Texnika vositalari.
3. Tarqatma materiallar.
4. Multimediyalar.
5. Slaydlar.
6. Ko‘rgazmali qurollar.
7. Didaktik o‘yinlar.

O‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta’lim, o‘quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta’min etish, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarni ishga solish, o‘z qiziqishlari orqali qo‘shimcha ta’lim olishga yo‘llash, o‘z- o‘zini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

#### **Ayrim didaktik o‘yinli dars shakllari:**

##### **«O‘zim tekshiraman» o‘yini**

Bunday o‘yinlarni o‘tkazishda o‘qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Boshlang‘ich sinflarning har bir sinfida darsning boshlanishida qo‘llash mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar diktantni yozib bo‘lishgach, o‘qituvchi doskaga diktantni yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar esa o‘qituvchining yozganiga qarab, o‘zлари yozgan diktantlarini tekshiradilar. Diktant oldindan doskada yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. Bunday diktantlarni hatto alifbe davrida ham qo‘llash mumkin bo‘lib, o‘qituvchi avval faqat harflardan, so‘ng (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo‘g‘inlardan iborat diktant yozdirishi mumkin.

**1-variant:** Oo, Ii, Uu, Aa, O‘o‘

**2-variant:** -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in

**3-variant:** Bola, lola, ona, zar, par

**4-variant:** Bugun havo issiq.

##### **«So‘zning boshiga bir tovush qo‘shib yangi s o‘z hosil qilsh» o‘yini .**

Bu o‘yining talabiga asosan o‘quvchi ma‘lum bir olingan so‘zning boshidan bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qiladi. Ba`zi undosh bilan boshlangan so‘zdan avval unli tovushni qo‘shish yoki unli bilan boshlangan so‘zdan oldin undosh tovush qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilinadi.

*Son - o +son*

*o ‘lka- yo ‘lka*

*ola - lola*

*ota -bota - nota*

<i>ayiq-</i>	<i>qayiq</i>	<i>or-</i>	<i>bor - tor</i>
<i>o'roq - so'roq</i>		<i>osh - qosh-</i>	<i>mosh.</i>

Ushbu o'yinda ayrim so'zlarga tovush qo'shish orqali bitta so'z hosil qilish mumkin bo'lsa (son- oson) , ba'zi so'zlardan bir qator so'zlar tuzish mumkin. O'yinni butun sinf bilan ham, o'quvchilar guruhlari tuzib musobaqa tarzida ham o'tqazish mumkin.

### **«So'z top» o'yini**

Omon , makaron , momiq kabi so'zlarni o'qituvchi aytadi. O'quvchilar kesma bo'g'inlardan berilgan so'z tarkibidagi m harfi qatnashgan bo'g'inni topadilar. ma-, -mon, -mo, -ma, -mo'. Shu bo'g'inlar asosida yangi so'zlar tuzish topshiriladi.

O'quvchilar topish mumkin bo'lgan so'zlar.

<i>-ma</i>	<i>-mon</i>	<i>-ma</i>	<i>-mo</i>
<i><u>mana</u></i>	<i><u>omon</u></i>	<i><u>nima</u></i>	<i><u>omonat</u></i>
<i><u>mashina</u></i>	<i><u>tomon</u></i>	<i><u>naima</u></i>	<i><u>momo</u></i>
<i><u>Malika</u></i>	<i><u>kamon</u></i>	<i><u>olma</u></i>	<i><u>xurmo</u></i>

Mazkur didaktik o'yinlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga, bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. – 164 b.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limdi zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007.
3. G'ulomov A., Qobilov B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. – T.: «O'qituvchi», 1995 yil.
4. Zaynidinova M. O'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish omillari. Xalq ta'limi. 2004. №4

## **2-SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA KO'PAYTIRISH JADVALINI O'RGAJATISHDA “LEGO” METODIDAN FOYDALANISH**

**G. T. Mavlanova**

*Samarqand viloyati, Payariq tumani*

*73-umumta lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 2-sinflarda matematika darslarida ko'paytirish jadvalini o'rjatishda “Lego” metodidan foydalanish usuli keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Ko'paytirish jadvali, konstruksiya elementlari, lego, integratsiya, fan-texnika, kompetensiya, bo'lish jadvali, o'nlik, birlik, ko'paytuvchi, ko'paytma.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatigi integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivolanishi o‘zgaruvchan dunyoda o‘z fikriga ega, dunyoqarashi keng yoshlarni tarbiyalashni taqozo etmoqda. O‘zbekistondagi yangi ta`lim jarayoni yangi O‘zbekiston, yangi taroqiyat zaminida ta`lim tizimiga qaratilgan e’tibor yosh avlod bilim darajasini zamonaviy texnika va zamon talabiga mos keladigan metodlarni dars jaroyonida qo‘llay olish, AKT savodxonligini oshirish o‘qituvchidan katta mehnat va tajriba talab etadi. Bugungi ta`lim kompetensiyaviv yondashuv eskirib qolgan “bilim, ko‘nikma va malakani o‘zlashtirish” konsepsiyasiga qarshi o‘laroq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalarini o‘quvchilar tamonidan egallashi zarur ekanligi ko‘zda tutiladi

O‘quvchi hayotida ko‘paytirish jadvalini puxta bilishi va uni hayotda qo‘llay olishi muhim sanaladi. Dars jarayonini tashkil etishda ko‘rsatmalilik asosida bajarish va topshiriqlarni amaliy savol-javob metodidan, suhbat, izlanish metodi orqali olib borish kerak. O‘quvchilar ko‘paytirish va bo‘lishga mактабгача davr ichida predmetlar yordamida kam ko‘p tushunchalari orqali bilimlarni o‘zi bilmagan holda o‘рганадилар. Maktab davriga kelib amaliy tarzda 1-sinfda 10 ichida qo‘shish ayirish, 21dan 100 gacha bo‘lgan sonlarni qo‘shib ayirganlarida kam ko‘p, ortiq, marta kam, marta ko‘p tushunchalari orqali amaliy misol va masalalar yechib ko‘paytirish va bo‘lishga o‘quvchilar tayyorlanib boradilar.

Boshlang‘ich sinflarda 100 ichida ko‘paytirish va bo‘lish 4 bosqichda olib boriladi.

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Ko‘paytirish va bo‘lishning jadval usilini ongli o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladigan nazariy metodlarni qarash.
3. Ko‘paytirish va bo‘lishning jadval hollari.
4. Ko‘paytirish va bo‘lishning jadvaldan tashqari hollari.

Men 2-sinfda dars o‘tish jarayonida matematikadan yangi metod qo‘lladim. Bu metodni nafaqat ko‘paytirish va bo‘lishni o‘рганиш dars jaroyonida, balki barcha fanlarda bilimlarni mustahkamlash uchun qo‘llash mumkin. Dastlab doira, uchburchak, to‘rtburchak, kvadrat, rom shakllari qirqib olinib, oq listga har biridan beshtadan yopishtirilib chiqiladi va 25 ta shakl tayyorlanadi. Keyin kapalak tayyorlash bosqichiga o‘tamiz kapalakning ichiga lego ya’ni konstruksiya elemenlariga ajratilgan holda yasaladi va ajratilgan legoning ust tarafiga misollarning javobi yoziladi, kapalakning ichiga esa misollar yoziladi.

**Dars jarayonida metodni qo‘llash.** 2-sinfdagи “bir xonali sonlarni 10 ga ko‘paytirish” mavzusida ko‘paytirishga doir misollar ishlanadi.

O‘quvchilar bilan tashkiliy qismda dars jarayoniga tayyorlanadi. Uyga vazifa mustahkamlanib, yangi mavzu tushuntiriladi. O‘nlik, birlik, ko‘paytuvchi ko‘paytma,

bo‘linma tushunchalari shakllantirilib yangi mavzu bayon qilinadi. O‘quvchilar bilimini mustahkamlash uchun misollar lego shakliga keltirilgan bo‘laklarga joylashtiriladi.

$10 \times 2 = 20$ ,  $10 \times 3 = 30$ ,  $10 \times 4 = 40$ ,  $10 \times 5 = 50$ ,  $10 \times 6 = 60$ ,  $10 \times 7 = 70$ ,  $10 \times 8 = 80$ ,  $10 \times 9 = 90$ ,  
 $10 \times 10 = 100$ ,  $9 \times 5 = 45$ ,  $6 \times 8 = 48$ ,  $8 \times 3 = 24$ ,  $18 : 2 = 9$   $40 : 10 = 4$ ,  $50 : 5 = 10$ ;

Yerga yoyilgan shakllar ustidan o‘tib legolarni terishi kerak. Agar o‘quvchilar aytilgan shakillarni ajratib, aynan aytilgan shakl ustidan yurib o‘tolmasalar, savollarga javob bera olmaydilar va o‘z-o‘zidan joylariga o‘tirishadi.

Bu metod bolaga, birinchidan, diqqatni jamlashga, ikkinchidan, xotirani mustahkamlashga, shakl, ranglarning farqini ajrata olish qobilyatini shakllanishiga, ko‘paytirish yoki bo‘lish jadvali bilim darajasini tekshirishni ta’minlaydi. Metodni qo‘lash jaroyonida o‘quvchilarning bilim darajasi ham tekshiriladi, fanga bo‘lgan qiziqishi shakillanadi. Metod haqidagi bilim, ko‘nikma, malakar o‘quvchilarda savol-javob metodi orqali mustahakamlanadi. Dars mustahkamlanib o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Bu metod 2023-2024-yillarda ta‘limga kirib kelayotgan Fin ta‘limiga ham mos tushadi. Chet el ta‘limida ham qo‘llansa ijobiy natijaga erishiladi. Bu orqali o‘quvchini ijodiy fikrlash va mustaqil o‘z ustida ishlashga o‘rgatiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bu metodni boshlang‘ich ta‘limda qo‘llash ijobiy natija beradi. Shuningdek, barcha fanlar tizimida qo‘llash mumkinligini ko‘rishimiz mumkin. Fanlarning integratsiya, bog‘langanlik darajasini oshiradi. O‘quvchini ijobiy fikr doirasining kengayishini ta‘minlab beradi. Shu bilan birgalikda, o‘quvchilarning kognitiv xususiyatlarini oshirishga, topqirlilik, ziyraklik, chaqqonlikni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Kognitiv xususiyatning rivojlanishi o‘quvchining ko‘paytirish amali javobini xayoliga keltirishida, o‘ylashida hamda fikrlashida ko‘rinsa, topqirlilik va chaqqonlik xususiyatlari mos shakllarni izlab topishida namoyon bo‘ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Karimova V.M. Sunnatova R va boshqalar. “Mustaqil fikrlash”. Akademikletseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T: Sharq nashriyoti.
2. Xalq so‘zi gazetasi 2022-yil.
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldoshova, Sharoljon Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi”.
- 4 . M.E.Jumayev, Z.G.Tadjiyeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”.

# **АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

**E.I. Махмудова**  
**учитель начальных классов №13 г. Самарканда**

**Аннотация:** Активизация познавательной деятельности посредством дидактической игры осуществляется через избирательную направленность личности ребёнка на предметы и явления окружающие действительность. Эта направленность характеризуется постоянным стремлением к познанию, к новым, более полным и глубоким знаниям, т.е. возникает познавательный интерес. Систематически укрепляясь и развиваясь, познавательный интерес становится основой положительного отношения к учению, повышения уровня успеваемости.

Познавательный интерес положительно влияет не только на процесс и результат деятельности, но и на протекание психических процессов - мышления, воображения, памяти, внимания, которые под влиянием познавательного интереса приобретают особую активность и направленность.

**Ключевые слова:** познавательная, активность, классификация, специфика, повторение, слово, методический подход, аудирование, говорение, чтение, письмо.

*Воспитание и развитие – это две стороны единого процесса. Ребёнок не обучается и развивается, но развивается, воспитываясь и обучаясь.*  
Рубинштейн С.Я.

Что такое познавательная активность? Учёные определяют познавательную активность, как качество деятельности ученика, которое проявляется в его отношении к содержанию и процессу учения, в стремлении к эффективному овладению знаниями и способами деятельности за оптимальное время, в мобилизации нравственно- волевых усилий на достижение учебно-познавательной цели.

Мы все думаем о том, что, если ребёнок хорошо учится, значит это является высоким уровнем его познавательной активности. Но существует несколько видов и признаков познавательной активности, а учёба является лишь одним из них. Бывают случаи, когда учащийся учится только на хорошие оценки, но проведя обследование, видим, что уровень познавательной активности его не высок. Поэтому необходимо знать признаки проявления познавательной активности.

Существует два вида активности — это *внешняя* (моторная) и *внутренняя*. *Внешняя активность* не всегда свидетельствует о направлении мысли ребёнка. Она часто проявляется в желании постоянно отвечать, выкрикивании с места, во вмешательстве в ответы других учащихся, и т.д. *Внутренняя*, т.е. мыслительная активность, нами относится к пассивному состоянию учащегося, но ведь ребёнок может, не совершая внешних действий, активно мыслить. Следовательно, многое зависит от того, какие внутренние мотивы побуждают ребёнка к познанию — стремление узнать, что-то новое, интерес к чему-то. В процессе обучения присутствует и внешний, и внутренний вид активности.

Учителя должны учитывать, что в младшем школьном возрасте детям свойственен высокий уровень подвижности, импульсивность, заражение чужим поведением, весёлость, преобладает пока ещё непроизвольность внимания, преобладание процесса возбуждения над торможением...

Рассмотрим конкретные признаки познавательной активности учащихся начальных классов: В первую очередь — это отношение к учению, в чём дети видят смысл учения, регулярно ли выполняют домашнее задание.

Качество знаний учащихся - знание материала программы и самое главное – умение применять эти знания на практике.

Особенности учебной деятельности - сосредоточенность, устойчивость внимания, мыслительная активность, общий тонус в работе, эмоционально-волевые проявления, внешняя активность ребёнка.

Отношение к внеучебной познавательной деятельности - на сколько увлечён и системность этой деятельности.

Исследование особенностей познавательной активности младших школьников позволяет условно разделить их по уровню развития этого качества на три группы:

*Первая группа.* Дети творчески активные. Детей, относящихся к первой группе, учение увлекает, и они постоянно совершенствуют свои знания. Они хорошо владеют учебным материалом не только в пределах программы, но и сверх её. Они владеют глубокими знаниями, способны уточнить, дополнить ответы других. На уроках они сосредоточены, внимательны, с радостью и оживлением воспринимают новый материал и это всё проявляется во внешней активности. Они полностью загружены — занимаются в кружках, секциях, занимаются творчеством; систематически и с определённой целью читают книги, смотрят телевизор, занимаются на компьютере.

*Вторая группа* — хорошо успевающие дети. Они с интересом ходят в школу, быстро и хорошо усваивают новый материал, но только предусмотренный программой. Эти дети так же внешне с высокой

активностью, часто задают вопросы. Они тоже занимаются в кружках, секциях, но просто так – нецеленаправленно. Могут менять интерес к виду деятельности и сам вид деятельности.

*И третья группа* детей, которые учатся по принуждению. У таких детей нет системы в учёбе. Они могут хорошо отвечать сегодня, а завтра совсем ничего не делать. Новый материал их мало интересует и увлекает. Они учатся потому, что надо, вопросы задают редко или вообще не по теме. Задания выполняют, но в основном по образцу. Внимание у них неустойчивое и только очень интересный материал может вызвать у них оживление. Читают они мало (по принуждению), не занимаются ни в каких кружках, занятия творчеством их не интересует.

В каком бы возрасте не был ребёнок, его активность формируется на всех этапах психического развития именно в деятельности.

Если деятельность для ребёнка значима, отсюда и будет её эффективность. А от способов организации и от содержания зависят развивающие возможности каждого вида деятельности. Именно взрослый в процессе обучения ребёнка, используя разные методы, приёмы, способствует усвоению у учащихся новых знаний, умений, навыков.

Детям присуща непосредственность, открытость, наивность, и т.д., поэтому большую роль в развитии активности у ребёнка играет взрослый.

Учитель не должен требовать послушного, тихого поведения, это может привести к ЗПР.

Если преподаватель будет поощрять и руководить активностью учащихся, то ученик постоянно будет развиваться.

*Вывод:* Учащиеся начальной школы видят себя в зеркале слов учителей. И здесь важно подчёркивать достоинства учащихся, повышать их самооценку. Успех активности – это источник детской радости, вдохновляющий на новые успехи, без которых дети теряют веру в себя.

*Дисциплинарная установка* блокирует активность учащихся, подавляет его инициативу;

Снижение активности ведёт: к потере интереса;

Сила переживаний (радость, страх, ...)

Для активизации познавательной деятельности учащихся необходимы:

Свободный выбор деятельности ребёнком (игра – пока интересна, значима для ребёнка, т.к. это залог активности ребёнка);

*Положительная мотивация.* Для того чтобы сложилась положительная мотивация у ребёнка необходимы:

☞ объективные успехи в деятельности;

☞ субъективное восприятие детьми этих успехов;

☞ уверенность, что они хорошо и правильно действуют, что они умные, сообразительные.

☞ Любой ребёнок должен постоянно получать информацию, подтверждающую, что у него всё идёт хорошо, получается всё и получится ещё лучше.

В ходе обучения дети должны осознавать то, что подлежит усвоению.

Учебный материал в начальной школе обязательно должен быть эмоционально окрашен, т.е. внешний интерес должен перерастать во внутренний – познавательный.

На уроке учитель должен:

- ☞ как можно меньше говорить и делать сам;
- ☞ как можно больше говорить и делать должны учащиеся.

*Вывод:* успех обучения зависит от того, обеспечили ли рассуждения и демонстрации учителя успешность собственной работы учащихся с подлежащим усвоению материалом.

Таким образом, учитель должен развивать и поддерживать у учащихся познавательный интерес, активизировать познавательную деятельность, за счёт *использования разнообразных методов, форм, приёмов*. Для этого необходимо строить занятия, учитывая возрастные особенности младших школьников, *использовать игровые методы работы*. Помнить, что главное преподносить новый материал *живо, эмоционально, используя иллюстрированную красочную наглядность*.

#### **Список использованной литературы:**

1. Педагогика и практическая психология. Басова Н.В. Ростов-на-Дону. 1999.

Занков Л.В. Развитие школьников в процессе обучения. М., 1967.

2. Давыдов В.В. Проблемы развивающегося обучения. - М., 1986.

3. Баранова Э.А. Диагностика познавательного интереса у младших школьников и дошкольников. Речь. 2005.

4. Волков Б.С., Волкова Н.В. Детская психология.- М., ВЛАДОС,2003.

Психическое развитие в младшем школьном возрасте. Под ред. Давыдова. М., 1990

# **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH**

**S. X.Mahmudova**

***Samarqand shahar 55-umumiy o‘rta maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi***

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarda matematik savodxonlikni shakllantirishda matematik masalalarini innovatsion usulda yechish ko‘nikmalarini hosil qilish yo‘llari haqida fikr boradi.

**Kalit so‘zlar:** matnli masalar, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, sodda masalalar, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati.

Matnli masalalar yechish bolalarda avvalo, mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish hamda dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarini o‘zlashtirish bilan birga o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Masalan: Agar biz o‘quvchilarda qo‘sish haqida to‘g‘ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar yig‘indisini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarini deyarli har gal to‘plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechishlari zarur. Masalan: quyidagi masala berilgan: Karimda 6 ta rangli va uchta oddiy qalam bor. Karimda hammasi bo‘lib nechta qalam bor?

Bu masalani yechish uchun oldin 6 ta cho‘p oladilar va buning yoniga yana 3 ta cho‘pni surib qo‘yadilar va hammasi bo‘lib nechta cho‘p bo‘lganini sanaydilar. So‘ngra masalani yechish uchun 6 ga 3 ni qo‘sish kerakligi va hosil bo‘lgan 9 son bu ikki sonning yig‘indini bo‘lishni tushuntiradi.

Shunga o‘xhash masalalarini ko‘plab yechish orqali o‘quvchilar qo‘sish amali haqidagi tushunchalarni asta sekin egallab boradilar va uni umumlashtrish asosida qo‘sish uchun ularni birga sanash kerakligini tushunadilar. Masalan: amalning noma‘lum komponentini topishga doir masalani yechayotib, o‘quvchilar arifmetik amallarning komponentlari va natijalar orasidagi bog‘lanishni ajratish va uni masalalar yechishga qo‘llashga harakat qiladilar.

Masalalarda aniq material bo‘lib ular yordamida o‘quvchilarda yangi bilimlar vujudga keladi hamda uni yechish jarayonida fikrlash ko‘nikmalari shakllanib boradi. Bunga 4-sinf matematika darsligi 120-betdagি bir masalani misol qilib olamiz. Do‘konda 360 m gazlama bor edi.1-kun gazlamaning 4\1 qismi, ikkinchi kun qolgan gazlamaning beshdan bir qismi sotildi. Ikkinchi kun gazlamaning necha metri sotildi?

Bor edi	- 360 m gazlama
Sotildi: 1-kun	-? 4/1 qismi
2-kun	-? 5/1 qismi

Yechish:

$$360:4=90$$

$$90:5=18$$

Javob: 2-kun 18 metr gazlama sotildi.

2.Harakatga doir masalalar.

4-sinf matematika 122-betdagi 1-masala.

Velosipedchi 48 km masofani soatiga bir xil tezlik bilan yurib, 4 soatda bosib o'tdi. Velosipedchi bir soatda necha kilometr yo'l bosgan?

Masofa - S

Vaqt - t

Tezlik- V

Yechish:

$$S=48 \text{ km}$$

$$t=4 \text{ h}$$

$$V=? \text{ km/h} \quad V=S:t \quad 48:4=12$$

Javob:  $V=12 \text{ km/h}$

Bu masalani yechishda interfaol usullardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda biz PAZL metodidan foydalanshimiz mumkin. Pazl so'zi inglizcha "boshqotirma" degan ma'noni bildiradi. Bunda biz yuqoridagi masalaning qisqa shartlarini A-4 formatdagi oq qog'ozga tuzib olamiz. Ularni qirqib konvertlarga solamiz, guruhlarga bittadan konvert tarqatamiz. O'quvchilar 1-masalaga mos keluvchi masala qisqa shartini va yechimini tartib bilan taxlashi kerak bo'ladi.

Masalan S-masofa,  $t=vaqt$ , V-tezlik formulasidan foydalanamiz deb yozilgan jumla bor. Bu jumla 1-masala shartiga to'g'ri kelmaydi. Demak o'quvchi bu jumlanı chiqarib tashlashi kerak bo'ladi. Masala shartiga mos jumlalarni tartib bilan taxlab chiqadi.

Bu metodni o'qish darslarida ham qo'llash mumkin. PIRLS xalqaro dasturi asosida o'tilgan mavzuni mustahkamlashda yaxshi natija beradi.O'quvchilar o'qib o'rganib kelgan hikoy yoki she'r tarkibidagi asosiy mazmunlar yozilgan kartochka yoki qirqilgan qog'ozlar aralsh holda beriladi. Ularni o'quvchilar tartib bilan ketma-ketlikda taxlab chiqishlari kerak bo'ladi.

Interfaol metod o'quvchilarga jamoa bo'lib ishlashni, o'ziga ishonchni o'rgatadi.Interaktiv jarayonda dars o'tish ba'zi o'qituvchilarni biroz cho'chitadi. Sinf

shovqinli bo‘ladi, bolalar shovqini ko‘p vaqt ni oladi deb an`anviy usulda dars o‘tishni ma`qul ko‘rishiadi. Darslarni interfaol usulda o‘tishda qo‘rqish kerak emas.

Masalan o‘zimizni olaylik. Oddiy ovqatni- oshni 1-marta pishirganimizda unchalik o‘xshamaydi. Lekin biz uni qayta-qayta pishirib, ajoyib oshpaz bo‘lishimiz mumkin. Xuddi shunday interaktiv metodlarni ham o‘quvchilar bilan ko‘proq amalda qo‘llasak, o‘quvchilarda ko‘nikma hosil boladi va tez, unumli ishslashga o‘rganadi.

Masalalarni shakllantirishda aniq material bo‘lgan holda nazariyani amaliyot bilan o‘qitishni turmush bilan bog‘lab olib borish imkonini beradi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta‘lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media – ta‘lim metodlaridan iborat.

Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi turli xil metodlar keng qo‘llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta‘minlagan bo‘lar edi. Bunday holatni faqat tabaqlashtirgan ta‘lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta‘lim jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlii) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan matematika darslarida turli xil masalarga keng joy ajratilgan. Sababi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyati uning tushunchalarni tezda anglab olish ko‘nikmasini shakllantirishda masalalarning o‘rni beqiyos sanaladi. O‘qituvchi esa dars jarayonida o‘tiladigan masalarni o‘quvchiga to‘g‘ri va aniq yetkazib berishda yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lmog‘i hamda darslarni qiziqarli o‘yinli texnologiyalar orqali tashkil etib o‘quvchilarni darsga qiziqtira olishi muhim omil sanaladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘afforova T. “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent – 2012.
2. Tolipov O‘.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. “Fan”. Toshkent - 2005.

## **DARS JARAYONIDA AXBOROT TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*O.Sh.Mustafoqulova  
Nurobod tuman 10-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Kompyuter yordamida tabaqlashtirilgan yondoshuv shu jihat bilan mumkinki, orfografiya bo'yicha dasturiy-pedagogik vositalar kuch yetadigan qiyinlik va maksimal bilish faolligi tamoillarini hisobga olinib tuzilgan, ya'ni menyuda o'quv materialini tushuntirish-illyustrativ va izlanish (muammoli) metod asosida berish ko'zda tutilgan haqida uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, psixolog, shaxs, kognitiv, axborot, o'quvchi, texnologiya, kompyuter, audiovisual.

Pedagoglar va psixologlar shaxsiyatning kognitiv strukturasini pedagogik texnalogiyalarni qo'llash doirasida ularning shakllanishiga ta'sir etish maqsadida o'rganib, individual ongning axborotni samarali idrok qilish va ishlab chiqishini oshirish usullari to'g'risidagi masalalarni hal etadilar.

Axborot odamga bir necha kanallar: sezgi organlari, tasavvur va genetik yo'l bilan keladi. Axborotni saqlash usuli ikki yurug'lik nurining interferensiyasiga asoslangan hajmiy tasvirni olish metodi, ya'ni golorafiya bilan qiyoslanishi mumkin.

Har qanday metodiklar yoki pedagogik texnalogiyalar axborot o'quvchilar tomonidan eng yaxshi tarzda o'zlashtirilishi uchun uni qanday ishlab chiqish va uzatishni tavsiflaydi, ya'ni har qanday pedagogik texnalogiya- bu axborot texnalogiyasidir.

"O'qitishning yangi axborot texnologiyasi" atamasi ta'limda kompyuterlardan keng foydalanila boshlash bilan paydo bo'ldi. O'qitish jarayonida uzoq vaqtlardan beri foydalanib kelinayotgan o'qitishning axborot texnalogiyalarini va kompyuterli texnalogiyalarni farqlash zaruriyati yuzaga keldi.

YAT da asosiy narsa- bu tegishli texnik va dasturiy ta'minotga ega bo'lgan kompyuterdir. Shuning uchun axborot texnalogiyalari ko'pincha axborotni tayyorlash va o'quvchiga uzatish jarayoni va uni amalga oshirish vositasi kompyuter deb ta'riflanadi.

V.M.Monaxov "o'qitishda kompyuter va audiovizual vositalardan foydalanish " yangi axborot texnalogiyalari" atamasi bilan belgilanadi deb hisoblaydi". Bunday yondoshuv pedagogik texnalogiyani o'qitishda texnik vositalarni qo'llash kabi dastlabki tushunishni aks ettiradi.

Shunday qilib, "yangi axborot texnalogiyalari" tushunchasi kompyuterlarning paydo bo'lishi va ta'limga keng joriy qilinishi bilan bog'liqdir.

Axborot texnalogiyalarining eng muhum xarakteristikalari quyidagilardan iborat: kompyuterli o‘rgatuvchi tizimlarning turlari, ular o‘z ichiga o‘rgatuvchi, nazorat qiluvchi va mashq qildiruvchi DPT larni oladi: ma’lum didaktik materialni dasturlashtirish; foydalanuvchi uchun qo‘llanma; intelektual rivojlantirish uchun ma’lumotlar bazasi; ma’lum texnik sinfdagi mashinalar; virtual olamlar, gipermatn, multimedia vositalaridan keng foydalanishni nazarda tutadigan o‘qitish vositalari; asbobiy tizimlar (dasturlash tizimlari, o‘qitish qurorollari mualliflik tizimlari, guruhli o‘qitish qurorollari).

O‘quv maqsadlari va o‘quv vaziyatlariga bog‘liq ravishda(bir xil hollarda o‘quvchi ehtiyojini chuqurroq tushunish kerak bo‘ladi, ikkinchi holda predmet sohasida bilimlarni tahlil qilish kerak bo‘ladi, uchinchi bir hollarda esa o‘qitishning psixologik tamoillari hisobga olinishi lozim bo‘ladi) axborot texnalogiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi: tavsiflash funksiyasi(uning yordamida amaliy o‘qitishning muhim aspektlari oolib beriladi); tushuntirish funksiyasi (o‘qitish metodlari, usullari va boshqa komponentalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi); loyihalash funksiyasi(uni amalga oshirmasdan turib, birinchi ikkita funksiya amalga oshirilishi mumkin emas).

Tizimli yondoshuvning ta’siri pedagogik texnalogiyani qo‘llash bo‘yicha sekin-asta ushbu umumiy qoidaning o‘rnatalishiga olib keldi: didaktik muammolar oldindan aniq belgilangan maqsadlari va ularga erishilishi aniq tavsiflanishi va aniqlanishi mumkin bo‘ladigan o‘qitish jarayonini boshqarish jarayonida hal etilishi lozim.

Pedagogik texnalogiya keng ma’noda- bu shunchaki o‘qitishning texnik vositalari va kompyuterlardan foydalanish emas, balki ta’lim samaradorligini oshiradigan omillarni tahlil qilish yo‘li bilan, material bilan ishlashning yangi usullarini yaratish va qo‘llash yo‘li bilan, shuningdek, qo‘llanilayotgan metodlarni baholash vositasi bilan ta’lim jarayonini optimallashtirish tamoillarini aniqlash va usullarini ishlab chiqishdir.

Shunday qilib, o‘qitish jarayoni o‘z xususiyatlari bilan birinci o‘ringa chiqadi, kompyuter esa didaktikada yangi, ilgari hal etilmagan vazifalarni yechishga imkon beradigan kuchli qurol sifatida qaraladi. Yuqorida qayd etilganidek, “pedagogik texnalogiyalar”, “axborot texnalogiyalari”- bu ma’lum ma’noda sinonimlardir. Biroq hozirgi zamon o‘rgatuvchi vositalaridan foydalanib, ajoyib tarzda taxt qilingan, lekin o‘qitish nazariyasining rivojiga hech narsa bermaydigan dasturiy mahsulotlarni ham yaratish mumkin. Bu holda faqat o‘qitish jarayonining u yoki bu tomonini avtomatlashtirilishi to‘g‘risidagina, axborotni qog‘ozli tushuvchilardan elektron tushuvchilarga ko‘chirilishi haqidagina gapirilishi mumkin.

O‘qitishning yangi texnalogiyasi deb quyidagi sifatlarga ega bo‘lgan texnalogiyani hisoblash mumkin: pedagogik texnalogiyaning asosiy tamoillarini

(oldindan loyihalash, qaytariluvchanlik, maqsadni hosil qilish, yaxlitlik) qanoatlantiradi; metodika oldin nazariy jihatdan ham va amaliy jihatdan ham hal etilmagan masalalarni hal etadi (orfografiyani o‘rganish metodikasi uchun bu amaliy sohada tabaqalashtirish va induvidallashtirish, nazariy sohada esa bu gramatik material va reproduktiv mashqlar hajmlarining nisbatidir); kompyuterda axborotni tayyorlash va o‘quvchiga uzatish vositasi sifatida foydalaniladi.

Shunday qilib, dasturiy mahsulotlardan foydalanib, o‘qitishning rivojlantiruvchi samarasini quyidagidan iborat : o‘quvchi, formallashtirilgan material bilan ishlashiga qaramasdan, o‘zida faol mustaqil tafakkurni shakllantiradi, busiz esa ijodiyot yo‘qdir. Faol va mustaqil tafakkursiz ijodiy tafakkur bo‘lishi mumkin emas(ularni o‘z ichiga oladi), lekin har qanday faol va mustaqil tafakkur har doim ham ijodiy tafakkur bo‘lavermaydi:

Hozirgi vaqtida o‘qitishda kompyuterdan foydalanishda eng ko‘p tarqalgan texnosentrik yondoshuvga gumanitarlashtirishga , ya’ni o‘quv predmetli muhitlarni yaratishda shaxsiyatni rivojlantirishga orientirlanish qarama-qarshi qo‘yilgan. Gumanitarlashtirishning namoyon bo‘lish belgilaridan biri tabaqalashtirilishidir, chunki o‘qitishning frontal (yalpi) shakllari o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olishga imkon bermaydi.

- Tabaqalashtirishga yordam beruvchi zamonaviy vositalar kompyuter dasturlaridir. Kompyuter yordamida tabaqalashtirilgan yondoshuv shu jihat bilan mumkinki, orfografiya bo‘yicha dasturiy-pedagogik vositalar kuch yetadigan qiyinlik va maksimal bilish faolligi tamoillarini hisobga olinib tuzilgan, ya’ni menyuda o‘quv materialini tushuntirish-illyustrativ (reproduktiv) va izlanish (muammoli) metod asosida berish ko‘zda tutilgan;

- Kompyuterdan faqat namoish etuvchi qurilma sifatida emas, balki keng didaktik ta’sir spektriga ega bo‘lgan vosita sifatida foydalanishi mumkin;

- Maktab darsliklari va kompyuter dasturlari paketi yordamida mashinasiz o‘qitishning mashinaviy o‘qitish bilan uzviy o‘zaro bog‘lanishi, agar o‘qitish mazmunini maktab o‘zbek (ona) tili darsligi va DPV (dasturiy pedagogik vositalar) orasida taqsimlanishining optimal nisbati topilsa, o‘qitish sifatiga ijodiy ta’sir etadi. Bu taqsimotda darslik va dasturiy-pedagogik vositalarning konkret funksiyalarini aniqlash kriteriysi asosi bo‘ladi, buning uchun dasrliklardan o‘rin olgan bilimlar bazalarini DPV ni loyihalashda foydalanish maqsadida o‘quvchilarning tipologik guruhlari uchun aniqlangan bilimlarning shaxsiyatli modelini tashkil etuvchi bilimlar bazalari bilan qiyoslash lozim;

- YAT shakllari, metodlari va vositalarining boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining kompyuter savodxonligi darajasi va mazmuniga hamda axborot madaniyatiga qat’iy muvofiqligining ta’minlanishi o‘quv sayharakatlarini amalga oshirishida o‘zini qulay tutish hissini yuzaga keltiradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Axborot-ta’lim portalı <http://www.eduportal.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi <http://uzedu.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi jamoat ta’lim axborot tarmog‘i <http://www.ziyonet.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalı <http://gov.uz>
5. Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi <http://multimedia.uz>

## **ONA TILINI O‘QITISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI**

*S.S.To‘rayeva*

*Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti*

**Annotatsiya:** O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri didaktik o‘yinlardir. Chunki, o‘quvchi bog‘cha yoshida o‘yin faoliyati bilan ko‘p shug‘ullangan, o‘qish faoliyatiga o‘tishda bu usullardan foydalanish o‘quvchining darsda zerikib qolishining oldini oladi. Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan bir qancha didaktik o‘yinlardan namuna keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Didaktika, o‘yin, ijodkorlik, usul, dars, ona tili va o‘qish savoxonligi, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi har tomonlama ijodkor bo‘lishi va o‘quvchilarda ham bu qobiliyatni rivojlantirishi, tarbiyalashi lozim. Chunki, rivojlangan ta’lim sifati o‘quvchida ijodiy qobiliyatning shakllanganligi bilan belgilanadi. O‘quvchini nodatiy fikrlashga o‘rgatish, uni fanni o‘zlashtirishiga bo‘lgan qiziqish (motivatsiya)ni uyg‘otish zamonaviy o‘qituvchi oldidagi dolzarb muammodir.

Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi odatdagi dars uslubidan voz kechishi kerak. Harf o‘rganish jarayonidayoq bolalarning belgilangan chiziqlar bo‘ylab yozishi, topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, pedagogning topshiriqni yaxshi bajargan o‘quvchilarni muntazam rag‘batlantirib borishi natijasida bolalar bir qolipga tushib qoladi. Ayrimlarining fanga bo‘lgan qiziqishi borgan sari susayib boradi. Bunday qoliplardan voz kechish, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, noodatiy xulosalar chiqarishga o‘rgatish zarur. Aynan rivojlangan ta’lim ham shu talab asosida amalga oshirilishi zarur.

Har bir o‘quvchida o‘ziga xos qobiliyat va iqtidor mujassam. Qobiliyat va iqtidor maqsad sari yetaklaydi va yaratuvchanlikka undaydi. Zamonaviy ta’lim esa

o‘quvchidagi mana shu yashirin qobiliyatni yuzaga chiqarishi kerak, o‘quvchi ehtiyojiga asoslangan ta’lim jarayonini joriy etishi kerak.

Ona tili ta’limi bugungi kunda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishganligi bilan ajralib turadi. Ammo ta’limni yangilash, uni takomillashtirish ona tili ta’limini ham chetlab o‘tmaydi. O‘quvchida tilga bo‘lgan sezgirlikni oshirish, ona tilini sevishga, uni kuzatishga o‘rgatishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyos, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim jarayonini didaktik materiallarsiz, vositalarsiz va o‘yinlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

T.A.Ilina “didaktika” – grekcha “didaktikos” so‘zidan olingen bo‘lib, “o‘qitish” ma’nosini anglatishini izohlab bergen pedagoglardandir. Demak, ta’limda qo‘llaniladigan didaktik vositalarni “o‘qitish vositalari” deb ham yuritish mumkin. Chunki, didaktik o‘yinlarda faqat o‘qituvchining faoliyati emas, balki o‘quvchining faoliyati yetakchi hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro ta’siri natijasidir. Agar bu ta’sir yo‘qolsa, ta’lim sifati ham yo‘qoladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari samaradorligini oshirishda didaktik o‘yinlar, noan’anaviy metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir dars jarayonini tashkil etishda didaktik o‘yinlardan foydalanishi zarur. Bu kabi darslarda o‘quvchi diqqati to‘liq jalb qilinadi, xotirasi mustahkamlanadi. Bilimlarni chuqur egallashga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning faolligi, tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatini o‘stirishga alohida ahamiyat beriladi. Didaktik o‘yinlarni tanlashda o‘quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib-qoidalariga e’tibor qaratiladi:

1. Didaktik o‘yinlarni tanlash va ularni qo‘llashda o‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish, bilim saviyasiga e’tibor qaratish;
2. Ta’limning maqsad va vazifasini asos qilib olish, ya’ni berilgan mavzu doirasini qamrab olish;
3. Har bir o‘yin o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, bilimini rivojlantirishga da’vat etuvchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

Didaktik o‘yinlar ta’lim mazmunini aniqlashtirishning muhim omilidir. U o‘quvchilarda o‘qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni shakllantirish ona tili ta’limining asosiy vazifasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘rib turgan narsasi haqida keng fikr yuritishi, gap, matn tuzishi mumkin. Ammo rasm o‘rnida so‘z berilsa, o‘quvchi fikri juda tor bir, ikki gap bilan cheklanib qoladi. Turli ta’limiy o‘yinlardan samarali foydalanish, ularning tasavvurini boyitadi. So‘zlarni xayolan tasavvur qila boshlaydi. Har bir muammoli topshiriqqa bir necha yechim izlaydi. Shu bilan birga didaktik o‘yinlar o‘quvchini zukkolikka, chaqqonlikka, tez fikrlashga o‘rgatadi. Hozirga qadar

ona tili ta'limini takomillashtirishga yo'naltirilgan juda ko'p o'yinlar mavjud. Biz bu kabi o'yinlarning ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz.

### “Topag‘on” o‘yini

O‘qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O‘quvchilar shu belgini o‘zida aks ettirgan narsalar nomini yozadi, eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchi g‘olib sanaladi. Bu o‘yin o‘quvchining so‘z boyligi ortiradi, unda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

1 - savol: *Nima yumshoq?*

Javob: Non, xamir, yostiq, ko‘rpa, paxta, plastlin.

2 - savol: *Nima oq rangda?*

Javob: Qog‘oz, daftar, surp, bulut, parda, buvimning sochlari, qor, kiyim.

3 - savol: *Nigora nima qilayapti?*

Javob: Kitob o‘qiyapti, kir yuvayapti, qoshiq aytayapti.

4-savol: *Nima zararli?*

Javob: Ko‘p gazli ichimlik ichish, kitobni yotib o‘qish, soatlab telefonga termulish, keraksiz narsalarni ko‘chada, yo‘lda tashlash, daraxtlarni kesish, yovvoyi hayvonlarni o‘ldirish, tishlarni yuvmaslik, ko‘p shirinlik tanovul qilish, maktab dahlizida chopish va hokazo.

### “Qo‘shilgan harflar – so‘zli dugonalar” o‘yini

Bu o‘yinnig maqsadi o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, kutilmagan yangi so‘zlar hosil qilishga o‘rgatish. Bunda ikki bo‘g‘inli so‘zlar yozilgan kartochkalar o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchi ikki bo‘g‘inli so‘z o‘rtasiga undosh tovush qo‘sish orqali yangi so‘zni hosil qiladi va hosil qilingan so‘zlar qatorini daftariga ko‘chirib yozadi. Masalan, ko‘mak – ko‘lmak, sara – sayra, ola – olma, biron – biyron, kuli – kulgi va hokazo. Bu o‘yinni turlicha mazmunda tashkil etish mumkin. Masalan, berilgan so‘zga harf qo‘sib yangi so‘z hosil qilish: *o‘q – o‘qi – o‘qish – o‘qishi – o‘qishim* kabi. Berilgan so‘zdagi bir tovushni o‘zgartirish orqali yangi so‘z hosil qilish: *maktab – maqtab, qaymoq – qayroq, paxta – vaxta, daraxt – karaxt, dars – darz, darbon – sarbon, eshik – etik* kabi.

### “2+3” o‘yini

O‘quvchilarga ixtiyoriy 2ta so‘z beriladi. Masalan: *kitob va quyosh*. O‘quvchilar shu so‘zning bir-biriga o‘xhash va farqli bo‘lgan 3ta o‘ziga xos jihatini topishi kerak bo‘ladi. O‘quvchi noodatiy tarzda fikrlay boshlaydi. Quyosh va kitob so‘zining umumiy va farqli tomonlari borligini tasavvur qiladi.

Umumiyligi: *kitob va quyosh insonga xizmat qiladi, ikkalasi ham bizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi, biri yorug‘lik bilan, biri aql bilan, kitobdan cheksiz bilim, quyoshdan cheksiz nur olamiz, ikkalasini ham yaxshi ko‘ramiz.*

Farqi: *quyosh katta, kitob kichik, quyosh koinot jinsi, uni inson yaratada olmaydi, kitobni inson yaratadi, quyoshni ushlab bo‘lmaydi, kitobni qo‘lda ushlab o‘qiymiz,*

*quyoshni ko ‘tarib bo ‘lmaydi, kitobni sumkada olib yuramiz, quyosh juda issiq, kitob issiq emas.*

Gap: *Quyosh nurida qiziqarli kitob o ‘qidim.*

Quyidagi so‘zlar juftligidan ham foydalanish mumkin: telefon va televizor, daraxt va traktor, kit va tovush, yer va odam, kapalak va planshet.

### “Xotira” o‘yini

Ona tili darslarida “So‘z turkumlari” mavzusida 1-guruhan a’zolari kim?, 2-guruhan a’zolari nima? 3-guruhan qanday? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni zanjir usulida aytadi. Ya’ni birinchi o‘quvchi ayrtgan so‘zni ikkinchi o‘uchi aytishidan oldin takrorlaydi, so‘ngra o‘zi topgan sozni aytadi, shu tariqa so‘zlar anjiri hosil bo‘ldi. Savolga javob bo‘ladigan so‘zni topa olmagan yoki so‘zlar zanjirini buzgan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. “Xotira” o‘yini quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

1-guruhan: Kim?	2-guruhan: Nima?	3-guruhan: Qanday?
1. O‘qituvchi	1. Kitob	1. Shirin
2. O‘qituvchi, ona	2. Kitob, ruchka	2. Shirin, qattiq
3. O‘qituvchi, o‘quvchi	3. Kitob, ruchka, quyosh	3. Shirin, qattiq, baland
4. O‘qituvchi, o‘quvchi, shifokor	4. Kitob, ruchka, quyosh, tarvuz	4. Shirin, qattiq, baland, yumshoq

Bu usulni qo‘llashda topshiriqni differensiyal berish mumkin. Iqtidorli o‘quvchilarga topshiriq oxirida bajartiriladi. Chunki oxiridagi o‘quvchi 10 tadan ortiq so‘zni o‘rnini, nomini almashtirmasdan aytishi kerak bo‘ladi.

### “Anogramma” o‘yini

Anogramma tuzish – kombinatorlik mashqlarning qadimiy turi bo‘lib, unga 2000 yildan oshdi. Bu mashq o‘quvchilarni mantiqan fikrlashga, mulohaza yuritishga chorlaydi, aqlni charxlaydi. Bu esa o‘quvchining aqliy faoliyatiga kata foyda beradi. Xattaxtada quyidagi so‘zlar beriladi. Tushunarsiz berilgan so‘zlardan ma’lum ma’noga ega so‘zlar hosil qilinishi kerak. So‘ng begona so‘zni aniqlashlari kerak bo‘ladi.

*Taqnu – nuqta*

*Fatsi – sifat*

*Vodun – undov*

*Oqso ‘r – so ‘roq*

O‘quvchilar so‘zlarni yasab bo‘lganidan so‘ng, ortiqcha so‘z “sifat” ekanligini aniqlanadi. Chunki, boshqa so‘zlarni umumiyl nom bilan “tinish belgilari” deb atash mumkin.

### “Bitta harf” o‘yini

O‘quvchilarning yoshiga qarab ixtiyoriy 1ta harf bilan boshlanadigan so‘zlardan foydalanib gap yoki matn tuzish. Bunda tuziladigan gap tarkibidagi so‘zlarning barchasi faqat talab etilayotgan harf bilan boshlanishi shart.

Masalan: *1. Biz bepoyon borliqning bolalarimiz.*

*2. Go ‘zal gullar gulzorda gulladi.*

*3. O‘qituvchi o‘z o‘quvchisiga o‘qishini o‘rgatdi.*

*4. Bola bankka baland-baland binolar bo‘ylab bordi.*

### “O‘yin-topishmoq” o‘yini

Bu o‘yindan darsning ma’lum bir qismida kichik yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda katta hajmda foydalanish mumkin. Bu o‘yin topishmoqda bitta topilmish 3 ta ta’rifda aytildi. Agarda birinchi ta’rifdayoq javobini topgan o‘quvchiga 3 ball, ikkinchi ta’rifda to‘g‘ri javobni topgan o‘quvchiga 2 ball, uchinchi ta’rifda topgan to‘g‘ri javobni topgan o‘quvchiga esa 1 ball beriladi.

*1-ta’rif:* U kichkina,

*2-ta’rif:* U har birimizda bor.

Hayotimiz mazmuni.

Usiz biz ta’lim ola olmaymiz.

*3-ta’rif:* Usti arra, osti arra.

O‘rtasida go‘shti barra.

(Javob: “Til”)

*1-ta’rif:* Kichkina dono,

*2-ta’rif:* U har birimizda bor.

Ichi to‘la ma’no.

Usiz biz maktabga kelmaymiz.

*3-ta’rif:* Qat-qat qatlama, Aqling bo‘lsa tashlama.

(Javob: “Kitob”)

### “U nima qilayapti?” (pantamimo) o‘yini

O‘yinni o‘tkazishdan oldin o‘qituvchi biror asar voqeligidagi so‘zlarni, yoki o‘quvchi hayotiga bog‘liq bo‘lgan so‘zlar qatorini tuzib qo‘yadi va uni harakat orqali tushuntiradigan ishirokchilarni navbat bilan sahnaga chiqaradi. Masalan: “Qo‘rqaq bug‘u” ertagidagi so‘zlar, “Shippak” hikoyasidagi so‘zlar, “Antarktida” matni, “8-martda onajonlarimizga qilinadigan sovg‘alar”, “Matematika darslarida qo‘llaniladigan jihozlar” va hokazo. Tanlangan ishtirokchi bolalar oldiga chiqib ovozsiz harakatlar qiladi. O‘quvchilar jamoasi birgalikda uning har bir harakatini izohlashi lozim. Bunday o‘yin ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish va zeriktirmaslik uchun o‘tkaziladi.

Didaktik usullar o‘quvchini darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘quvchida ijodiy fikrlashga o‘rgatish, barcha o‘quvchini qamrab olish, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish va baholashga o‘rgatish jihatni bilan ajralib turadi. Biz juda ko‘p didaktik usullarni tavsiya etishimiz mumkin, ammo bu usullarning samaradorligini ulardan dars jarayonida muntazam va to‘g‘ri foydalanilganidagina kuzatishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

5. Roziqov O. R., Mahmudov M. H., Hamroyev A. R., «Ona tili didaktikasi», Toshkent, «Yangi asr avlodii», 2005-yil. 382 b.

6. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lif talabalari uchun darslik): – T.: «NOSHIR», – 2009, 352 b.

7. K. Mavlonova [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism: darslik 2-sinf uchun /– Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 120 b.

8. K. Mavlonova [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism: 3-sinfi uchun darslik /– Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. – 144 b.

## **DARSLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*S.Tirkasheva*

*Oqdaryo tumani 5-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullaridan namuna keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** “Yozma bahslar”, «Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi metodi.

Bugun zamon o'zgardi, insonlar o'zgardi, fikrlar xilma-xilligi o'zgardi. Taraqqiyot jadallahishi natijasida har soniyada yangi imkoniyatlar va yangi ixtiolar paydo bo'lmoqda. Bu esa biz o'qituvchilarga yuksak mas'uliyat yuklab, yanada shijoatni talab qiladi. Sababi oddiy, agar o'qituvchi kuniga yangilikka intilmasa, dunyo taraqqiyotidan ortda qolsa, tayyorlayotgan kadrlari eski ma'lumotlar bilan ozuqa olib voyaga yetadi.

Prezidentlar, olimlar va yetuk shaxslar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ularning dastlabki poydevorini biz boshlang'ich sinf o'qituvchilar qo'yamiz.

Biz o'qituvchilar bugungi kunda jamiyatdan 2 qadam oldinda yurmog'imiz zarur. Har bir darsimizda bir yangilik olib kirishimiz kerak. Quyida shunday interfaol metodlarni sizga tavsiya etmoqdamman.

### **“YOZMA BAHSLAR” METODI**

#### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

1. O'quvchilar bahs mavzusi bilan oldin o'tkazilgan mashg'ulotda tanishadilar. Bahs arafasida o'qituvchi bo'lajak mavzu to'g'risida o'quvchilarga axborot berar ekan, bahslar qay yo'sinda o'tishini qisqacha tushuntiradi.

2. O'qituvchi guruh o'quvchilarini ikkiga ajratadi va ularni o'quv xonasining ikki tomoniga qator qo'yilgan stollar atrofiga yuzma-yuz holatda o'tkazadi va har bir guruh qatnashcnilari qaysi nuqtai nazarni himoya qilishlarini belgilaydi. (Masalan: 1-guruh – ijobjiy holat joriy qilinishi tarafdarlari, 2-guruh – bunga qarshilar ).

3. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarni juftliklarga ajratadi, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo‘lishi kerak.O‘qituvchi 1-guruh o‘quvchilariga (keltirilgan misolda-ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari) har bir juftning raqami (harfi yoki ramzi ) bilan belgilangan katak qog‘ozlarini tarqatadi.

4. O‘quvchilar o‘quv xonasining ikki tomonida o‘tirib, juftma-juft yozma muloqotni boshlaydilar.1-guruh o‘quvchilariga o‘zлari ma’qullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.Ular bu dalilni qog‘oz varag‘iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtida 2-guruh o‘quvchilari o‘zлari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin bo‘lgan nuqtai nazarlarini isbotlashlari mumkin.

5. Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagi sheriklarga (ijobiy holatning joriy qilinishiga qarshi chiquvchilarga) beriladi. Ularga juftlik bo‘yicha sheriklarning dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o‘z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi.

6. Dalillar almashishning bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi bunda har bir o‘quvchi sheringining dalil isbotiga javob qaytarishi va o‘zining aks dalilini keltirishi shart.

7. Bahslarni samarali yakunlashni eng qulay shakli-ikkala tomonga qaratilgan savoldir: “Qarshi tomonning eng yaxshi dalil isbotlari qaysilar bo‘ldi?


8. Kuchlar tahlili» grafigi – noqulaylik, qiyinchiliklar va usullar ajratilgan holdagi «SWOT - tahlil»ning soddalashtirilgan va grafik ko‘rinishi o‘zgartirilgan variant.

9. Tizimli mushohada qilish, taqqoslash, solishtirish, tahlil va sintezni amalga oshirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

### **«KUCHLAR TAHLILI» GRAFIGINI TUZISH QOIDASI**

«Kuchlar tahlili» grafigi T- jadvalga o‘xshagan ko‘rinishda bo‘lib, qog‘oz varag‘i o‘rtasidan tik holda chiziq – koordinata o‘qi chiziladi, uning chap tomoniga strelka (kuchlar) bilan «**Integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirish**»ga xalaqit beruvchi to‘silalar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatidan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo‘ladi.

So‘ngra qarama-qarshi tomonaga ushbu kuchlarni yengib o‘tish vositalari strelka ko‘rinishida aks ettiriladi. Ularning soni va kattaligi grafikning chap tomonidagi strelkalarga nisbatan muvozanatni yoki ortiqlikni ko‘rsatganda ijobiy natija chiqara oladigan darajada bo‘ladi.



Ushbu interfaol metodlarni malaka oshirish jarayonida mustaqil o'rgandim. Bu metod o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Toshkent- Iste'dod, 2010.
2. Avlaev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.R. Ta'lif metodlari. Toshkent . "Navro'z" nashriyoti, 2017-yil.

### **HAMKORLIKDAGI TA'LIM TRENING MASHG'ULOTLARINI O'TISHDA O'QITUVCHINING O'NTA QOIDASI**

***D.O'Himmatova***  
***Samarqand shahar 55-maktab o'qituvchisi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hamkorlikdagi ta'lif trening mashg'ulotlarini o'tishda o'qituvchi amal qilishi kerak bo'lgan o'nta qoidasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** moderator, fasilitator, ekspert, trenerlik, kompetensiyalar.

Bugungi kunga kelib zamonaviy texnika vositalarining ta'lif jarayoniga keng kirib borayotganligi jarayonlarni tashkil etishda o'qituvchi bir vaqtning o'zida moderator (lot. moderor – me'yorashtiraman, tekshiraman. O'quvchilarning qobiliyatlarini ochilishiga, bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beradi), fasilitator (guruuhlar faoliyatini tashkil etishda yordam beradi), ekspert kabi trenerlik kompetensiyalarini egallashlari ayni zaruratga aylanmoqda. Har bir o'qituvchi darslarni o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilishi jarayonni boshqarish, ko'zlangan maqsadga erishishda, o'quvchilarning bilimlari sifat samaradorligini oshirishda yaqindan yordam beradi:

#### ***Mukammal tayyorgarlik ko'ring!***

Mukammal tayyorgarlik deganda o'qituvchi mashg'ulot boshlangunga qadar ko'radigan tayyorgarliklari tushuniladi. Mukammal tayyorgarlik ko'rish davomida bir

narsaga amin bo‘lishimiz kerakki, ya’ni sizni o‘quvchilar guruhi moderator sifatida tan oladimi yoki yo‘qmi. Birinchi navbatda, o‘quvchilar ishonchini oqlash uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solishimiz yoki bu mashg‘ulotni umuman o‘tmasligimiz kerak bo‘ladi. Agarda biz o‘zimizni moderator sifatida tan olsak, u xolda juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rishimiz kerak, uslub jihatdan ishtirokchilarni maqsadga olib borishda qanday metoddan foydalanish zarur, tashkiliy jihatdan nimalarni tayyorlab qo‘yish kerak va shaxs sifatida nimalarga asosiy e’tiborni qaratishimiz zarur, o‘quv xonasini tayyorlash kabilar nazarda tutiladi.

### **1. *Yaxshi boshlang!***

Buning uchun sinfda yaxshi muhit yarating. Suhbatni obi–havo to‘g‘risida, dunyo yangiliklari, kayfiyatni ko‘taruvchi so‘zlardan, qiziqarli yangiliklar, hikmatli iboralar keltirishdan boshlagan ma’qul, negaki bu masalalar har bir shaxs uchun qiziqarli va sizning tabassumlarcha yondashimiz ular uchun azizdir. Siz tomonidan bildirilayotgan fikrlar, g‘oyalar yangi mavzuni o‘tishdan avval shu mavzuga barchani qiziqtiradigan, jalb qiladigan ko‘prik vazifasini bajarsin. Interfaol ta’limda bunday yondashish “ko‘prik” (mostik) usuli ham deb nomlanadi.

### **2. *Maqsadni aniq belgilang!***

Hamkorlikdagi ta’limda maqsadning aniq qo‘yilishi muhim rol o‘ynaydi. Har bir ishni bajarishdan avval, o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan maqsadni oydinlashtirmay turib, muhokamani boshlash noto‘g‘ri natijaga olib kelishi muqarrar.

### **3. *Ko‘z bilan qabul qilish xususiyatini esda tuting!***

Hamkorlik texnologiyalari qo‘llangan darslarda har bir mavzuni boshlashdan avval ishtirokchilar oldiga qo‘yiladigan maqsad vatman qog‘oziga (yoki flipchartga) flomaster bilan yozib, hammaga ko‘rinadagan joyga osib qo‘yiladi. Mashg‘ulot davomida asosiy hisoblangan axborot va muhokama xulosalari, o‘rinli qo‘shimchalar ham yozib borilishi tavsiya qilinadi.

### **4. *O‘zingiz qiladigan harakatlarni tushuntiring!***

Trening mashg‘ulotlarda moderatorning asosiy vazifasi kelishilgan mavzu va maqsadga erishish va muhokama qilish qoidalariga amal qilgan holda ishni to‘g‘ri tashkil qilishdir. Hamkorlikdagi ta’limda moderator tomonidan berilgan vazifalar hammaga tushunarli bo‘ldi, deb o‘ylash kerak emas. Biror bir ishtirokchidan eshitganlarini qayta so‘rashga harakat qilish lozim.

### **5. *Hech kimga aloqador bo‘lmang! (Betaraf bo‘ling!)***

O‘qituvchi–moderator sifat uchun emas, balki natija uchun javobgardir. Hamkorlikdagi ta’limda o‘qituvchi zarur vaqtida ishtirokchiga yoki nazoratchiga aylanib turishi ayni zaruratdir. Ba’zi hollarda faol o‘quvchilar bilan ko‘proq ishlashlik sinfda “ustunli” boshqaruvni yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. O‘qituvchi ishtirokchilarga maqsadga erishish yo‘lida turli yo‘nalishlar berish uchun juda ustamonlik bilan qo‘yilgan savollar yordamida harakat qilishi va iloji boricha

betaraf bo‘lishga intilishi kerak. Interfaol ta’limda sanoqli (faol) tinglovchilarning fikrlari bilan xulosa qilishi yoki ularni doimiy qo‘llab quvvatlashi boshqa o‘quvchilar tomonidan fikrlarning bildirilishiga to‘siqlik qiladi.

### **6. Savollar berish orqali maqsadga olib boring!**

O‘quvchilar bilan birgalikda qarorlar qabul qilish, qachonki ishtirokchi o‘zlarini boshqalar orasida ishtiroklarini ko‘rsalargina amalga oshishini unutmasligimiz kerak. Bu narsaga siz faqat savollar berish orqaligina erishishingiz mumkin. Shuning uchun treninglarda moderator o‘z maqsadiga faqatgina yaxshi biladigan inson pozitsiyasidan chiqib “savol beruvchining pozitsiyasini” egallagan holdagina erishishi muqarrar. Treninglarda moderator guruhni boshqaradi, lekin u mazmun jahatidan hal qiluvchi inson emas. Faqat ikki tomon (o‘qituvchi va o‘quvchi) rolini bajargan holdagina mazmunga ham aralashish mumkin. Guruh va har bir ishtirokchi alohida nimani xohlashini bilish uchun trener iloji boricha faqat “ochiq savollar” bilan murajaat qilishi maqsadga muvofiqdir.

### **7. Mavzu chegarasidan chiqmang!**

Interfaol ta’limda faollik, fikr va savollarning erkin berilishi, ba’zan mavzu doirasidan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda “Moychechak gul” usulidan foydalanish mumkin. Bunda siz qat’iy chora ko‘rishga shoshilmang. Mavzu doirasidan uzoqlashmasdan ishtirokchilarni yana mavzuga qaytarishga harakat qiling.

### **8. Aniq kelishuv va bitimlarga amal qiling!**

Ko‘pgina o‘quv xonalarimizda “Oltin qoidalar”, “Bizning qoidalar” kabi yozuvlarga ko‘zimiz tushadi. Unda “faol bo‘ling, o‘zaro hurmat, o‘zgalar fikrini tinglash,” kabi jumlalarga ko‘zimiz tushadi. Bunday kelishuvlar o‘qituvchiga ham tegishli ekanligini unutmang.

### **9. Ijobiy yakunla!**

Ishtirokchilar muhokamadan ko‘tarinki ruhda, belgilangan vazifalarni albatta amalga oshirish niyati bilan ketsinlar. Mashg‘ulot davridagi ijobjiy yutuqlarni eslashni yoddan chiqarmang. Mashg‘ulot davrida bo‘lgan salbiy holatlar, erishilmagan jihatlarni tilga olmang. Bu vaziyatda sizning trening yakunida guruhga bildirgan minnatdorchililingiz va har tomonlama ishlarida omad tilashingiz juda yaxshi natija beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

3. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Toshkent- Iste’dod, 2010.
4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent . “Nihol” nashriyoti, 2013-yil.

## INTERFAOL TA'LIM METODLARI

*Sh.Yakubova  
Samarqand tumani 31-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lism jarayonida interfaol metodlarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan kunga ortib borayotganligi, umumiy o'rta ta'lism mакtablarining asosini tashkil qiluvchi boshlang'ich ta'limga har bir fanni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarining fanlarni chuqur o'zlashtirishlariga zamin yaratish usullari haqida uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** muammo, mantiqiy fikr, aqliy hujumm zamonaviy metod, interfaol, erkin fikr

Hozirgi vaqtida ta'lism jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. SHu sababli quyidagi ta'lism amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlarning mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritiladi.

Zamonaviy ta'limga tashkil etishga quyiladigan muhim talablardan biri o'qtuvchilarda ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik maxorat hamda ta'lism jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

"Fikriy hujum" metodi o'quvchilarini mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishiga rag'balantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharoiti mashg'ulot (baxs)ning har bir ishtiroychisi tomonidan o'rta ga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad o'quvchilarining mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtiroychini ta'minlashdan iboratdir. Ta'lism jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laming kengligiga bog'liq

bo‘ladi. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 15-nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan dars mashg‘uloti 1-soat davomida tashkil etilishi shart.

“Yalpi fikriy hujum” metodi J.Donald Filips tamonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20-60) nafar o‘quvchilardan iborat bo‘lgan sinflarda qo‘llash mumkin. Bu metodning asosiy maqsadi o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtacha tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy xal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi: Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach bu haqda guruh a’zolaridan bira axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulotning yakunida o‘qituvchi belgilangan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlarini ularning ishtirokchlari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

“Aqliy hujum” metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod hisoblanib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tamonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlari va g‘oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarini hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod bilan tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original echimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratiladi.

“Aqliy hujum” metodidan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanishga bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. “Aqliy xujum” metodidan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi.

1. Mashg‘ulot ishirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishiga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishiladi.

2. Har bir o‘quvchi tamonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbollarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi-yangi fikr yoki g‘oyalarining to‘g‘ilishiga sabab bo‘ladi.

3. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikr yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g‘oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g‘oya)larning shakllanishiga zamin yaratadi.

4. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tamonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Agarda ularning fikr (g‘oya)lari baholanib boriladigan bo‘lsa, o‘quvchilar o‘z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgariga surmaydilar. Bu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligi e’tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Bu metodni qo‘llash jarayonida quydagi holatlar yuzaga keladi.

1. O‘quvchilar tamonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishiladi.
2. Vaqt iqtisod qilinadi.
3. Har bir o‘quvchini faollikkunda undaydi.
4. O‘quvchilarda erkin fikrlash layoqati shakllantiriladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1.Tolipov O‘. Ta’lim:O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati “cog‘lom avlod uchun” jurnal.2000.7-8 betlar.

2. Saidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. Toshkent: PTM.2000

## **ФОРМИРОВАНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

***Ш.Ф.Аззамова***

***Учитель начальных классов школы №48. г. Самарканда***

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются основные факторы развития у школьников начальных классов функциональной грамотности.

**Ключевые слова:** предмет, знания, умения, грамотность, исследования.

Предмет «Окружающий мир» в начальной школе является одним из сложных, так как дети должны приобрести большой объем знаний, умений и навыков на каждом возрастном этапе, но одновременно с этим очень интересный и познавательный. Для того чтобы интерес к этому предмету не угас необходимо его сделать уроком занимательным, творческим.

Современные требования стандарта таковы, что наряду с традиционным понятием «грамотность», появилось понятие «функциональная грамотность».

Что же такое «функциональная грамотность»? Функциональная грамотность - способность человека вступать в отношения с внешней средой и максимально быстро адаптироваться и функционировать в этой среде.

Также существуют и другие, более научные определения понятия «функциональная грамотность».

По определению А.А.Леонтьева: «Функционально грамотный человек - это человек, который способен использовать все постоянно приобретаемые в течение жизни знания, умения и навыки для решения максимально широкого диапазона жизненных задач в различных сферах человеческой деятельности, общения и социальных отношений». Именно эти качества сегодня мы должен воспитывать в детях, начиная с 1 класса и заканчивая выпускным.

Важной составной частью функциональной грамотности является естественно-научная грамотность. Это способность школьника осваивать и использовать естественно-научные знания для постановки вопросов, освоения новых знаний, для объяснения естественнонаучных явлений, основанных на научных доказательствах. Естественно-научная грамотность включает понимание основных закономерностей и особенностей естествознания, осведомлённости в том, что естественные науки и технологии оказывают влияние на материальную, интеллектуальную, культурную сферы общества. Она также проявляется в активной гражданской позиции при рассмотрении проблем, связанных с естествознанием.

При определении уровня сформированности естественно-научной грамотности у узбекских школьников (международные исследования PISA, TIMSS), учащиеся демонстрировали, что имеют достаточный уровень овладения предметными знаниями и умениями, но испытывают затруднения в применении этих знаний в ситуациях, близких к повседневной жизни. Дети могут хорошо запоминать и описывать информацию, однако затрудняются с её обобщением и прогнозированием. Хорошо понимают сплошные классические тексты, но имеют проблемы с пониманием прерывистых текстов с использованием графиков и таблиц.

Одна из задач повышения уровня естественно-научной грамотности - использовать учебные задания с учётом реальных жизненных ситуаций, задачи, моделирующие конкретные практические ситуации, задачи на применение знаний в нестандартных ситуациях, задания на преобразование и интерпретацию данных.

Функциональная грамотность младшего школьника характеризуется следующими показателями:

- готовность успешно взаимодействовать с изменяющимся окружающим миром, используя свои способности для его совершенствования;

- возможность решать различные (в т.ч. нестандартные) учебные и жизненные задачи, обладать сформированными умениями строить алгоритмы основных видов деятельности;
- способность строить социальные отношения в соответствии с нравственно-этическими ценностями социума, правилами партнерства и сотрудничества;
- совокупность рефлексивных умений, обеспечивающих оценку своей грамотности, стремление к дальнейшему образованию, самообразованию и духовному развитию; умением прогнозировать свое будущее.

Перед учителем в начальной школе стоит колossalная задача: развить ребёнка.

- Развить мышление - из наглядно-действенного перевести его в абстрактно-логическое
- Развить речь, аналитико-синтетические способности, развить память и внимание, фантазию и воображение
- Пространственное восприятие
- Развить моторную функцию, способность контролировать свои движения, а также мелкую моторику
- Развить коммуникативные способности, способность общаться, контролировать эмоции, управлять своим поведением.

Решая эти задачи, педагог получает в результате функционально развитую личность.

Для достижения поставленных целей учителя используют следующие педагогические технологии:

- Технология проектной деятельности
- Информационно-коммуникативные технологии
- Технология оценивания учебных достижений
- Технология продуктивного чтения
- Технология проблемного обучения

Формы и методы, которые способствуют развитию функциональной грамотности:

- Групповая форма работы
- Игровая форма работы
- Творческие задания
- Тестовые задания
- Практическая работа
- Ролевые и деловые игры
- Исследовательская деятельность

## **Виды заданий на уроках окружающего мира**

- Задания, формирующие знаниевый компонент естественнонаучной грамотности.
- Задания, направленные на применение знаний в опыте деятельности.
- Задания, позволяющие сформировать опыт рассуждения при решении нестандартных задач - жизненных ситуаций.

Эти группы можно подвести под условные рубрики, названия которых, если их формулировать на доступном школьникам языке, содержат побудительный, мотивирующий смысл для ученика.

Функциональная грамотность рассматривается как совокупность двух групп компонентов: интегративных и предметных. Предметные соответствуют предметам учебного плана начальной школы. К интегративным относятся коммуникативная, читательская, информационная, социальная грамотность, формирующиеся на любом предметном содержании.

### **Используемая литература**

1. Семенова, И. В. Адаптивно-инновационные педагогические технологии в формировании функциональной грамотности школьников / И. В. Семенова, О. А. Казарова ; научный редактор Н. О. Берая // Избранные вопросы науки XXI века : сборник научных статей. - Москва, 2019. - С. 42-46.
2. Корнилова, А. Ю. Особенности формирования функциональной грамотности младших школьников по предметам гуманитарного цикла / А. Ю. Корнилова, О. Ю. Кравцова, И. М. Саматаева // Наука и образование: отечественный и зарубежный опыт: сборник трудов ХXI Международной научно-практической конференции. - 2019. - С. 59- 62.
3. Акушева, Н. Г. Развитие функциональной грамотности чтения / Н. Г. Акушева, М. Б. Лойк, Л. А. Скороделова // Наука, образование, общество: тенденции и перспективы развития : сборник материалов XVII Международной научно-практической конференции. - 2020. - С. 49-51.

## **ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

*Д. В. Асанова  
г. Самарканда. Школа №34*

**Аннотация:** Изменения, происходящие в мире, вызвали необходимость разработки новых подходов в системе обучения и воспитания, внедрения государственных стандартов второго поколения. Перед учителем поставлены

новые цели: формирование универсальных учебных действий и мотивации к обучению. В данной статье рассматриваются важность использования интерактивных образовательных технологий в начальных классах.

**Ключевые слова:** *процесс обучения, умение принимать, сохранять, реализовывать учебные цели, планировать, контролировать, оценивать, результат.*

Содержание образования не сильно меняется, существенно изменяется роль учителя, которому необходимо будет выстраивать процесс обучения не только как систему усвоения знаний, умений и навыков, но и как процесс развития личности. Учитель должен не только понимать, чему и как учить, но и организовывать процесс таким образом, чтобы дети задавались вопросами «Чему мне нужно научиться?», «Как мне этому научиться?». Обучение должно быть построено как процесс «открытия» каждым школьником конкретного знания. Из пассивного слушателя ученик должен превратиться в самостоятельную, критически мыслящую личность. Сегодня важно обеспечить общекультурное, личностное и познавательное развитие ребенка. Содержание образования обогащается новыми процессуальными умениями, развитием способностей, оперированием информацией, творческим решением проблем науки и рыночной практики с акцентом на индивидуализацию образовательных программ.

Главная задача каждого преподавателя – не только дать учащимся определённую сумму знаний, но и развить у них интерес к учению, научить учиться. Без хорошо продуманных методов обучения трудно организовать усвоение программного материала. Учителю необходимо не только доступно все рассказать и показать, но и научить ученика мыслить, привить ему навыки практических действий. По моему мнению, этому могут способствовать интерактивные формы и методы обучения, которые способствуют активизации познавательной деятельности учащихся и применение их технологий очень актуально в современной начальной школе.

Образование в начальной школе является базой, фундаментом всего последующего обучения. В первую очередь это касается сформированности универсальных учебных действий, обеспечивающих умение учиться. Начальное образование закладывает основу формирования учебной деятельности ребёнка - систему учебных и познавательных мотивов, умение принимать, сохранять, реализовывать учебные цели, планировать, контролировать и оценивать учебные действия и их результат. Именно начальная ступень школьного обучения должна обеспечить познавательную мотивацию и интересы учащихся, готовность и способность к сотрудничеству и совместной деятельности учения с учителем и одноклассниками, сформировать

основы нравственного поведения, определяющего отношения личности с обществом и окружающими людьми.

**А основная задача начальной школы** заключается не столько в том, чтобы обогатить школьников знаниями, сколько научить их самостоятельно добывать знания, уметь слушать и вступать в диалог, участвовать в коллективном обсуждении проблем, интегрироваться в группу сверстников и строить продуктивное взаимодействие и сотрудничество со сверстниками и взрослыми. Всё вышесказанное можно назвать **умением учиться**. Для того чтобы овладеть этими умениями, необходима активная позиция ученика на уроке.

Проблема активности личности в обучении – одна из актуальных как в психологической и педагогической науках, так и в образовательной практике. Известно, до 70% личностных качеств закладывается в начальной школе. И не только базовые навыки, такие как умение читать, писать, решать, слушать и говорить, нужны ребенку в жизни. Для активизации обучения необходимо создание дидактических и психологических условий осмыслинности учения, включения в него учащегося на уровне не только интеллектуальной, но личностной и социальной активности.

Различия между «дать знания» и «достичь их понимания» огромны. Установка на механическое запоминание знаний приводит к скорому забыванию этих сведений учащимися. Наш ум не расстается с теми истинами, которые для себя считает доказанными, поэтому только осмыслиенные и всесторонне проверенные на практике знания становятся подлинным достоянием человека.

Приведённые данные наглядно демонстрируют зависимость усвоения учебного материала от степени вовлечения учащихся в процесс познания

При использовании пассивных методов педагог на уроке играет центральную роль. Здесь преобладает монологовый режим общения. Педагог сам распределяет работу и необходимую информацию, предлагает на уроке заранее составленный план. Любая попытка ученика проявить самостоятельность, инициативу и творчество рассматривается как отход от заранее намеченного и единственно верного плана работы. Дети на таких уроках являются только объектом воздействия взрослых.

Современному образовательному процессу требуются новые педагогические технологии, эффективные формы его организации, активные методы обучения.

В качестве одного из таких методов я хочу рассмотреть технологию интерактивного обучения, использование которой позволяет достичь не только

предметных результатов, но и метапредметных и личностных в соответствии с ГосОСО.

Что такое интерактивное обучение?

Интерактивное обучение – это, прежде всего, диалоговое обучение, в ходе которого осуществляется взаимодействие учителя и ученика.

Каковы же основные характеристики «интерактива»? Следует признать, что интерактивное обучение – это специальная форма организации познавательной деятельности. Она имеет в виду вполне конкретные и прогнозируемые цели. Одна из таких целей состоит в создании комфортных условий обучения, таких, при которых ученик чувствует свою успешность, свою интеллектуальную состоятельность, что делает продуктивным сам процесс обучения.

Суть интерактивного обучения состоит в том, что учебный процесс организован таким образом, что практически все учащиеся оказываются вовлечеными в процесс познания, они имеют возможность понимать и рефлектировать по поводу того, что они знают и думают. Совместная деятельность учащихся в процессе познания, освоения учебного материала означает, что каждый вносит свой особый индивидуальный вклад, идет обмен знаниями, идеями, способами деятельности. Причем, происходит это в атмосфере доброжелательности и взаимной поддержки, что позволяет не только получать новое знание, но и развивает саму познавательную деятельность, переводит ее на более высокие формы кооперации и сотрудничества.

Организация и развитие диалогового общения, ведет к взаимопониманию, взаимодействию, к совместному решению общих, но значимых для каждого участника задач. Интерактивное обучение исключает доминирование как одного выступающего, так и одного мнения над другим. В ходе диалогового обучения учащиеся учатся критически мыслить, решать сложные проблемы на основе анализа обстоятельств и соответствующей информации, взвешивать альтернативные мнения, принимать продуманные решения, участвовать в дискуссиях, общаться с другими людьми. Для этого на уроках организуются индивидуальная, парная и групповая работа, применяются исследовательские проекты, ролевые игры, идет работа с документами и различными источниками информации, используются творческие работы. Место учителя в интерактивных уроках сводится к направлению деятельности учащихся на достижение целей урока.

Таким образом, задачи интерактивных методов обучения:

- Научить самостоятельному поиску, анализу информации и выработке правильного решения ситуации.

- Научить работе в команде: уважать чужое мнение, проявлять толерантность к другой точке зрения.

- Научить формировать собственное мнение, опирающееся на определенные факты.

Данный вид обучения обладает следующими чертами:

- это взаимодействие обучающихся между собой и преподавателем (непосредственно или опосредованно);

- это процесс общения «на равных», где все участники такого общения заинтересованы в нем и готовы обмениваться информацией, высказывать свои идеи и решения, обсуждать проблемы и отстаивать свою точку зрения;

- это обучение «реальности», т.е. обучение, основанное на реальных проблемах и ситуациях окружающей нас действительности.

Т.е. такое обучение, которое соответствует требованиям ФГОС НОО второго поколения.

Как уже было сказано выше, интерактивное обучение - это такая организация процесса обучения, при которой невозможно неучастие ученика в коллективном, взаимодополняющем, основанном на взаимодействии всех его участников процессе обучающего познания.

Формами интерактивного обучения являются:

- Работа в статичных парах или парах смешного состава;
- Работа в малых группах;
- Игровое сотрудничество.

Термин «интерактивные технологии» связан, как правило, с двумя группами взаимосвязанных технологий: первая группа - обучение, построенное на общении с компьютером и посредством компьютера и вторая группа – бескомпьютерное - специально организованное учебное взаимодействие между обучающимися.

Основными методами и приемами интерактивного обучения являются:

- ✓ Мозговой штурм — поток вопросов и ответов, или предложений и идей по заданной теме, при котором анализ правильности/неправильности производится после проведения штурма.

- ✓ Кластеры, сравнительные диаграммы, паззлы — поиск ключевых слов и проблем по определенной мини-теме.

- ✓ Интерактивный урок с применением аудио- и видеоматериалов, ИКТ. Например, тесты в режиме онлайн, работа с электронными учебниками, обучающими программами, учебными сайтами.

- ✓ Круглый стол (дискуссия, дебаты) — групповой вид метода, которые предполагает коллективное обсуждение учащимися проблемы, предложений, идей, мнений и совместный поиск решения.

## **Список литературы.**

1. Е. В. Зарукина, Н. А. Логинова, М. М. Новик. Активные методы обучения: рекомендации по разработке и применению. СПб СПбГИЭУ, 2010. учеб.-метод. пособие.
2. Н. А. Шкуричева. Зачем первоклассникам нужна парная работа на уроке в адаптационный период // Начальная школа, 2006 г., №8.
3. И. В. Никишина. Интерактивные формы методического обучения. 2007 г.
4. М. П. Лакоценина. Необычные уроки в начальной школе, 2008 г.

## **BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING O‘RNI**

*L.A. Abdurasulova*

*Qo‘shabot tumani 82-umumtalim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya darslarida o‘quvchilarda didaktik o‘yinlar orqali milliy tarbiya madaniyatini mazmun mohiyati, shakl va metodlari bayon qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida didaktik o‘yinlarning ahamiyati va shartlari tahlil qilingan.O‘quvchilarida tarbiya darslarida didaktik o‘yinlarni rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktika, individual, kuzatish, ishtirokchi, monolog, interfaol, tajriba, xushmuomilalak, muvaffaqiyat, tarbiya, diolog.

Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich ta’limda eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali avvalo bolalardagi shaxsiy faollik, mustaqillik, ijodkorlik tarkib toptiriladi va shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Didaktik o‘yin bolalarga oldilariga qo‘yan aniq vazifani qo‘lga kiritishda yaqindan yordam beradi. Bunday o‘yinlar bolaning masalaga ongli tushunib yondashish malakasini oshiradi. O‘quvchilar bilan individual ishashda buning samarasi yaqqol ko‘rinadi.

Ayniqsa, maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘yan jajji o‘quvchi undan qat’iy tartib-intizomni talab etuvch muhitga tezgina moslashib, kirishib keta olmaydi, o‘zini ushbu muhitda yolg‘iz his etadi. Shuning uchun kichik yoshdagi o‘quvchining faoliyat turdagи o‘zgarishlarga moslashuvchanlikligini samarali hal etish uchun, unung o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga o‘tish davrini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishni talab etadi. Ta’limning o‘yinli faol texnologiyalari zamirida o‘quvchining maktab ta’lim-tarbiyasiga hadiksirab qarashdan, uni ta’lim jarayonining faol sub’ektiga aylantirish g‘oyasi yotadi.

Didaktik o‘yinlarga “Aql charxi”, “Bilimlar ko‘chasi”, “Galeriya”, “Sinkveyn”, “Mohir suhandon” kabi metodlarni misol keltirish mumkin.

Ushbu metodlarni barcha fanlar kabi “Tarbiya” fanida ham qo’llash mumkin. Masalan, 2-sinfda “Ota-onas – aziz va mo’tabardir” bo‘limi yuzasidan tashkil etilayotgan umumlashtiruvchi darsda “Mohir suhandon” metodi quyidagicha qo’llaniladi.

Tashkillashtirish.


1. O‘quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo‘linadilar.
2. Mavzular nomi yozilgan varaqalar (oldindan tayyorlangan) guruhlarga topshiriladi.
3. Guruhlarga mavzu yuzasidan ma’noli va ko‘proq so‘zlar topish topshiriladi.
4. Ishtirokchilar topgan so‘zlar ishtirokida monolog yoki diolog tuzishadi.
5. Tayyorlangan monolog yoki diolog guruh ishtirokchilari tomonidan ifodali qilib o‘qitiladi.
6. Ishtirokchilarning o‘qish talaffuzi va suhandonlik mahoratiga qarab baholanadi.
7. O‘yin oxirida baholar umulashtirilib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Namunaviy javoblar.

1. O‘quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo‘linadilar.
2. Mavzular: “Ota –onaga hurmat”, “Kechiring, oyijon!”, “Ayasini ayasin”.
3. “Ota –onaga hurmat” matnidan so‘zlar topish. Masalan: Mo‘tabar, ota, ona, farzand, komil, vazifa, ko‘ngil, burch, duo, boylik.
4. Monolog tuziladi. Masalan: Ota-onas aziz va mo’tabardir. Komil farzand uchun ota-onas duosidan ortiqroq boylik yo‘qdir.
5. Ushbu monolog guruh ishtirokchilari tomonidan ifodali qilib o‘qitiladi.
6. Ishtirokchilarning o‘qish talaffuziga qarab, suhandonlik mahorati aniqlanadi.
7. O‘yin oxirida baholar umulashtirilib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

“Mohir suhandon” metodining afzalliklari shundaki, o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga, mustaqil ishlashga, o‘zgalar fikrini hurmat qilishga, jamoa bo‘lib ishlashga, suhandonlik kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga xizmat qiladi.

Interfaol usul afzalliklariga boshlovchi faolligi o‘rnini, o‘rganuvchi faolligi egallaydi. Masalan: Yaxshi va yomon odatlар. O‘quvchilar “Venn diagrammasi” usulini qo’llash orqali yaxshi va yomon odatlarni ajrata boshlaydi. Interfaol o‘yinlardan har bir o‘qituvchi samarali va ijodiy foydalanishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchilarning ta’lim sohasida erishadigan yutuq va muvaffaqiyatlari uchun omil bo‘ladi



O‘yin məktəb yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifati shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagı o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shaklanib borishini belgilaydi.

Ba’zi holarda esa o‘yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. masalan, ovchi tyulenni ovlash uchun uning oldiga hayvonga o‘xshab sudralib, sirpanib boradi. Ayrim holarda esa bola o‘z o‘yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalash, ularni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat, samimiyl, sadoqatli, mehnati va fidoyiligi bilan o‘zgalarga foyda keltira oladigan haqiqiy insonlar qilib tarbiyalash har bir pedagogning eng ezgu maqsadi bo‘lmog‘i kerak.

O‘quvchilar to‘g‘ri nazorat qilinganda, ta’lim-tarbiya jarayoni to‘g‘ri tashkil etilgandagina har tamonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashimiz mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda turli ko‘rinishda va usulda ishlash talab etiladi. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya darslarini noan’naviy usullardan sayohat, kichik guruhlarda ishlash, o‘yin shaklida o‘tkazish, yangi texnologiyalar yordamida guruhlar bilan ishlash, yuqorida berilgan ta’limiy – didaktik o‘yin elementlaridan foydalangan holda tashkil etish dars samaradorligini yanada oshirib, o‘quvchilarning faolligi va qiziqishlarini, umuman badiiy, turli janrdagi asarlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni o‘sishiga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yangi tahrirdagi «Davlat ta`lim standartlari». Toshkent. 2017-yil
2. M.Ahmedov va boshqalar metodik qo'llanma. Toshkent. 2019-yil
3. Boshlang‘ich ta`lim jurnali 2019-yil 5-soni, 2019-yil
4. Boshlang‘ich ta`lim jurnali 2020-yil 1-soni, 2020-yil
5. Boshlang‘ich ta`lim jurnali 2021-yil 7-soni, 2021-yil
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) sayti

## **МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ «ЕСТЕСТВОЗНАНИЕ» В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

***М. И. Нуридинова***

***Ф.Худойбердиева***

***СамГУ имени Шарофа Рашидова,***

***Факультет: Дошкольного и начального образования.***

**Аннотация:** Данная статья посвящена актуальной проблеме, т.е. методические особенности организации и проведение дидактических игр на уроках «Естествознание» в начальных классах. Прилагаются материалы по разработке методических приемов по использовании дидактических игр.

**Ключевые слова:** Естествознание, игры, дидактические игры, обучение, начальная школа, методика, методические рекомендации.

Известно, что игра является важнейшей составляющей мотивационной потребностью ребенка. Деятельность ребенка с раннего детства тесно связана с предметом и способами действия игры, а также ее функциональным значением. Ребенок действует в направлении своего желания, ставит себя в образ взрослого, именно здесь интеллект следует за эмоционально-действенными переживаниями.

Значение игры в жизни ребенка не ограничивается тем, что у него появляются новые по своему содержанию мотивы деятельности, связанные с этими мотивами задачи. Значимым является то, что именно в игре появляется новая психологическая форма мотивов. Игра является неотъемлемой частью для формирования дружного коллектива, для самостоятельности детей, для положительного отношения к трудовой деятельности, для интеллектуального развития детей, а также для корректировки и исправления некоторых отклонений в поведении отдельных детей и много другого. Все эти

воспитательные эффекты опираются во многом на становление личности ребенка.

Основными аспектами развития личности ребенка в связи с этим можно назвать следующие:

1. В игре развивается мотивационно-потребностная сфера;

2. Развитие произвольности поведения (разыгрывая роль, ребенок стремится приблизить данную роль к эталону, воспроизводя характерные для взаимоотношения людей ситуации в социальном мире, ребенок подчиняет свои желания, внутренние импульсы и действует в соответствии с социальными образцами, это помогает ему учитывать и познавать правила и нормы поведения);

3. Развитие умственных действий (формирование плана представлений, развитие способностей и творческих возможностей ребенка).

Таким образом, игра направлена на развитие обще-учебных умений и навыков а также психического развития и самореализации состояния.

Дидактические игры способствуют созданию хорошего психологического климата в коллективе, преодолению личностных комплексов, нерешительности, застенчивости. Не менее важным является то, что игра является упражнением по формированию самостоятельности, инициативности, коммуникативного общения, она создает равные условия в деятельности, речевом партнерстве, разрушает барьер между педагогом и воспитанником.

Особенно начальная школа - это значительный этап в жизни ребенка, который связан с существенной перестройкой всей логики психологического развития, с формированием новой ведущей деятельности (от игры к учению), с обретением первой социально значимой роли- статусом ученика со своим кругом прав и обязанностей перед обществом. Следует отметить, что с первых дней обучения происходит совершенствование знаний в процессе учебной работы, так как увеличивается объем представлений, понятий и сведений, которыми овладевает ученик, знания становятся более дифференцированными и точными, знания становятся более глубокими, в связи с этим знания приобретают все более обобщенный и осмысленный характер, а следовательно, становятся прочными и доказательными, знания объединяются в категории и системы, знания приобретают подвижность и гибкость, т.е. они становятся управляемыми самим субъектом.

Разработаны методические рекомендации по организации дидактических игр, которых можно предоставить следующим образом:

1. Определить цель игры: что освоят учащиеся, каждому моменту игры уделить особое внимание, какие воспитательные цели преследует игра.

2. Количество играющих.

3. Дидактические материалы и пособия, используемые в игре.
4. Как с наименьшей затратой времени познакомить учащихся с правилами игр, они должны быть простыми, точно сформулированными.
5. На какое время рассчитана игра?
6. Как обеспечить участие всех учащихся в игре? Каждый ученик должен быть активным участником.
7. Как наблюдать за детьми, чтобы выяснить степень их участия в игре?
8. Какие изменения внести в игру, чтобы повысить интерес и активность детей?
9. Игру закончить на данном уроке.
10. Выводы в конце игры обсудить (с учащимися) и оценки отдельным учащимся за: активное участие в игре, грамотность рассуждений, правильную, четкую, краткую речь.
11. Учет результатов соревнований команд должен быть открытым, ясным и справедливым.

В качестве примера можно привести *игра «Пары слов», которое такие уроки можно провести на уроках «Естествознание»*.

Цель: развитие мышления, умения подбирать видовые и родовые понятия.

Описание игры: Педагог бросает мяч одному из детей и говорит, например, «Рыба». Ребенок ловит мяч и отвечает: «Щука». (Зима-снег, дождь- зонт, животное – корова).

Таким образом, включение в урок игр и игровых моментов делает процесс обучения интересным и занимательным, создает у детей бодрое рабочее настроение, облегчает преодоление трудностей в освоении учебного материала. Разнообразные игровые действия, при помощи которых решается та или иная умственная задача, усиливает интерес детей к предмету, к познанию ими окружающего мира. Приемы слуховой, зрительной, двигательной наглядности, занимательные вопросы, задачи-шутки, моменты неожиданности способствуют активизации мыслительной деятельности.

Поэтому дидактические игры вполне оправданно может являться инструментом преподавания, который активизирует мыслительные процессы памяти, что позволяет сделать учебный процесс привлекательнее и интереснее, заставляет волноваться и переживать, что формирует мощный стимул к овладению знаний по изучаемым дисциплинам.

#### **Литература:**

1. Пулатова Р. Дидактик уйинларнинг аҳамияти . “Бошланғич таълим” журнали, 1-сон, 2015 йил.

2. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi: uslub va shakllari (uslubiy qo‘llanma). – Samarqand, 2019.

## **TEXNOLOGIYA MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNING XALQ HUNARMANDCHILIGI BO‘YICHA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

*L.E.Bobomurodova*

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU o‘qituvchisi,(PhD)*

*F.J.Berdimurodova*

*SamDU talabasi*

**Annotatsiya.** Texnologiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning xalq hunarmandchiligi bo‘yicha kompetensiylarini rivojlantirishdagi samaradorligini oshirish uchun qilinishi lozim bo‘lgan tashkiliy va uslubiy ishlar bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** texnologiya, xalq hunarmandchiligi, soha, ishlab chiqarish, faoliyat, kompetensiya.

Har bir o‘zbek farzandi tug‘ilganidan boshlab atrof-muhitda o‘zbek milliy amaliy san’at na’munalarini ko‘rib o‘sadi. O‘quvchi mакtabda o‘qib boshlaganidan boshlab turli fanlar asosida milliy an‘analar hamda xalq hunarmandchiligi asoslari o‘rgatib boriladi. Xalq hunarmandchiligining asosiy negizlari mакtabda texnologiya fanlari orqali beriladi va shu asosda sekin asta hunarmandchilik komptensiyalari shakllantiriladi.

Xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an‘analarini to‘liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqyosda qo‘llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlari, ayollar va kam ta‘minlangan oilalarni jalg qilishni rag‘batlantirish maqsadida 2017-yilning 17-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hunar-mandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida «Hunarmand uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilingan. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki bugungi kunda yosh avlod ongida erta mакtab yoshidan xalq hunarmandchiligi komptensiylarini rivojlantirish muhim masala ekanligini bilishimiz mumkin.

Maktablarda o‘qitiladigan texnologiya fanining xalq hunarmandchiligin o‘qitish bo‘limi o‘quvchilarda xalq hunarmandchiligining o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyati

uning shaxs kompitensiyalarini rivojlantirishdagi, har bir bosqich uchun muhim ekanligini belgilab olishda namoyon bo‘ladi. Xalq hunarmandchiligining maktablarda texnologiya o‘quv predmeti tarkibiga o‘qitilishi texnologiya mashg‘ulotlarini o‘qitishning ko‘lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishloq maktablarida texnologiya ta’limi mashg‘ulotlarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. Chunki, ushbu ta’limning an’anaviy ko‘rinishda shahar va qishloq maktablarida mashg‘ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘qitish taraqqiyoti, ta’lim muassasani o‘rab turgan ishlab chiqarish sohalarini hisobga olib, ular o‘quvchida xalq hunarmandchiligiga qiziqish va ushbu sohani bilishga doir kompitensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi muhim.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan mashg‘ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta’milanishini yo‘lga qo‘yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlardan kelib chiqib tashkil etiladi. Mahalliy xom ashyo ta’minotini o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligining texnologiya va kasb-hunar ta’limida muntazam o‘rganilishi o‘g‘il va qiz bolalar texnologiyaini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg‘ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o‘quvchilarning ta’lim muassasasini bitirganlaridan so‘ng doimiy ish o‘rinlari bilan ta’milanishlarini hamda shu orqali o‘quvchilarda ularni ishlab chiqarish jarayoniga bevosita yo‘naltirishni ma’lum tartibga soladi. Umumiy ta’lim maktablarida texnologiya ta’limi mashg‘ulotlari negizida xalq xo‘jaligi soxalari xususiyatlarini, ishlab chiqarish bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlarni, ma’naviy, milliy, madaniy, moddiy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligining turli yo‘nalishlarini o‘rganish va yoshlarga o‘rgatish ishlarining yo‘lga qo‘yilishi ushbu sohalarning didaktik, tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa o‘quvchi yoshlarga xalq hunarmandchilig namunalarini turl xil darslar davomida aynan ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya yoki bevosita ishlab chiqarish jarayonida qatnashib tashkil etish orqali o‘tilgan mashg‘ulotlar ularda katta taasurot va qiziqish uyg‘otadi, bu esa bevosita o‘quvchi yoshlarda shu sohaga qiziqish uyg‘otib qolmay, uni puxta o‘rganish uchun dastlabki kompitensiyalarini rivojlanishiga turki bo‘ladi. Qachonki o‘quvchi yoshlar xalq hunarmandchiligi sohasidagi ishlarni og‘zaki eshtib emas balki ko‘rib birgalikda nazariy va amaliy bilimlar jamlanib amalga oshirilsa ularda ushbu sohani o‘rganish va o‘zi uchun hunar sifatida o‘rganish istagi paydo bo‘ladi, buning natijasida o‘zbek milliy xalq hunarmandchilig asrlar davomida insonlarga xizmat qiladi.

Shu bilan birga ta’lim vositalarini ham modernizatsiya qilish ham zarur. Chunki, o‘quvchilarni xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari, ularda zarur bo‘ladigan kompitensiyalarini egallashlari uchun muxim jixatlar bilan tanishtirish imkoniyatlari ana shu vositalarga bilan chambarchas bog‘liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abduquodusov O. Kasb-hunar pedagogikasi. Mashg‘ulotlik. – T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2014.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. M.X. To‘xtaxo‘jaeva tahriri ostida. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2008.
3. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.

**7-YO‘NALISH**  
**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA**  
**ULARNING YECHIMLARI**

**O‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARINI  
SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN  
FOYDALANISH**

*M.Mamadaminova  
Tayloq tuman 15-IDUM, boshlang‘ich sinfo‘qituvchisi*

Vazirlar Mahkamasining 187-sonli qarori bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartining tasdiqlanganiga ikki yil to‘lgan bo‘lishiga qaramasdan, hanuzgacha ayrim pedagoglar tayanch va fanga oid kompetensiya elementlarini shakllantirishga qiynalishmoqda.

Nima sababdan ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish kerak? So‘zimizni avvalo mana shu savolga javob topish bilan boshlasak.

O‘quvchilarda o‘quv predmetlari bo‘yicha faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Ta’lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirgan ayrim o‘quvchilar, hayotda ko‘p muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi, oliy ta’lim muassasini bitirib, yangi ishga borgan yosh mutaxassis universitet yoki institutda kasbiga oid bilim va ko‘nikmalarni yetarli darajada olgan bo‘lsada, ish joyiga ko‘nikishi uzoq vaqt davom etadi, muammoli holatlarda ma’lum bo‘ladiki, maktab yoki litseyda olingan bilim va ko‘nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo‘lgan hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri kelmaydi.

Shunga ko‘ra ta’lim jarayoniga o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarni yaratish va ta’lim jarayoniga qo‘llash zaruriyati yuzaga keldi.

Kompetensiyaviy yondashuv deganda nimani tushunamiz?

Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekan, ushbu maqolamizda o‘quvchilarda kompetensiyalarini shakllantirishda o‘qituvchiga yaqindan yordam beradigan zamonaviy usullardan namunlar keltiramiz.

Tayanch kompetensiyalardan biri bo‘lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

### “Hech kim bilmaydi” usuli

Ishtirokchilar davra bo‘lib turadilar. Boshlovchi (trener) koptokni biror ishtirokchiga otadi va boshqalar bilmaydigan bir sirni ochadi, masalan shunday deydi: “Mening qizim 9 – sinfda o‘qishini hech kim bilmaydi”. Koptokni ilib olgan ishtirokchi ham yana o‘zi haqida biror xabar aytadi. Masalan shunday deydi: “Bugun mening tug‘ilgan kunimligini hech kim bilmaydi” va davradan chiqadi. Shu tariqa har bir ishtirokchiga koptok bir marta tegadi.

### “Ishchan bolalar” usuli

1. Qatnashchilar guruhlarga bo‘linadilar.
2. Har bir guruhdan bittadan “*ishchan bolari*” tanlanadi.
3. Guruhlarga topshiriq beriladi.
4. Guruhlar ishlayotganda “*ishchan bolari*” boshqa guruhlarga borib “*bol*” ya’ni boshqa guruh topshiriqlari javobini eshitib, o‘rganib keladi va o‘z guruhiga ma’lumot ya’ni “*bol*” larini etkazadi.
5. O‘qituvchi barcha guruh mavzulari bo‘yicha savol tashlaydi.
6. Guruh javobiga qarab (ishchan bolari) baholanadi va guruh rag‘bat kartochkasi bilan rag‘batlantiriladi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

### “Juvtliklarda intervyyu” usuli

Har bir juftlikda ishtirokchilar bir-birlaridan besh daqiqa davomida intervyyu oladilar. Suhbat chog‘ida o‘zlariga kerakli axborotni yozib oladilar. Keyin hamma davra bo‘lib o‘tiradi va juftliklar ketma-ket bir-birini tanishtiradi.

### “Shaxsiy varaqqa” usuli

Har bir ishtirokchi yonida o‘tirgan sheriidan oldindan tuzilgan tayanch so‘zlar ro‘yxati yoki so‘rovnama savollariga asoslanib, intervyyu oladi. Intervyyu davomida olingan axborot yozma qayd etiladi. Javob varaqalari yoki so‘rovnama blankalari so‘ralayotganlarning ko‘rinishi yoki familiyasini anglatuvchi ramz bilan to‘ldirilishi mumkin.

Bunday “Shaxsiy varaqqa” yordamida har bir ishtirokchi boshqalarga o‘z sheriini tanishtiradi. Keyin “Shaxsiy varaqalar” ko‘rinadigan joyga ilib qo‘yiladi.

### “Atomlar” usuli

“Atomlar” o‘yinida ishtirokchilar musiqa ohangi ostida xonada sayr qiladilar. Tashkilotchi ishtirokchilar soniga qarab 2 dan 10 gacha bo‘lgan xohlagan sonlarni aytishi mumkin. Tashkilotchining “2 ta atomlar birlashing” buyrug‘idan so‘ng ishtirokchilar o‘zlariga juftlik topib olib birlashadi, tashkilotchining “4 ta atomlar birlashing” buyrug‘idan so‘ng ishtirokchilar 4 kishi bo‘lib birlashadilar, o‘yin shu tarzda boshqa sonlarni aytish bilan davom etadi. O‘yin ishtirokchilar diqqatini

jamlashga yordam beradi. Bu o‘yindan ishtirokchilarni guruhlarga bo‘lib olishda, charchoqni tarqatishda foydalanish mumkin.

#### “Bo‘ron” usuli

Ishtirokchilar davra bo‘lib o‘tiradilar, boshlovchi davra o‘rtasiga turadi va “Bo‘ron bo‘layapti, bo‘ron bo‘layapti, qora tuqli kiyganlarni uchirib ketayapti”, (masalan) deydi. Bunda ikkitadan ko‘p ishtirokchida mavjud belgi aytiladi. (Kim alohida belgiga ega bo‘lsa – oq ko‘ylak, ertalab tozalangan tish, qora ko‘zlar va h.k.). agar, ishtirokchi aytilgan belgiga ega bo‘lsa, joyini almashtirishi yoki boshlovchi bo‘lishi kerak.

Ishtirokchilar joylarini almashtirganda, boshlovchi kimningdir joyiga o‘tirishi mumkin. Joy yetmagan ishtirokchi boshlovchi bo‘ladi. Agar ishtirokchi davrada uzoq vaqt o‘tira olmasa, u “bo‘ron” deb aytishi mumkin, o‘sanda davrada o‘tirganlarning barchasi joylarini almashtiradilar.

#### “Sotuvchi” usuli

O‘yin ochiq joyda o‘tkaziladi. Ishtirokchilar aylana shaklida o‘tiradilar va olma – nok – behi – o‘rik mevalarini nomini bittadan tanlaydilar. “Sotuvchi” xonaga kiradi va “Men bugun bozorda bo‘ldim va olma – nok sotib oldim”. Ushbu meva nomlarini eshitgan ishtirokchilar joylarini almashtiradilar. Bu vaqt “sotuvchi” o‘ziga stul topib, o‘tirib olishi kerak. Stulsiz qolgan ishtirokchi “sotuvchi” bo‘ladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

#### “Bo‘yma – bo‘y turing” usuli

Ishtirokchilarga zinch holda davra qurib, ko‘zlarini yumish taklif etiladi. Ularning vazifasi ko‘zlarini yumgan holda bir – birlarini paypaslab, bo‘yma – bo‘y turib olishdir. Hamma ishtirokchilar joylarini topganlaridan keyin, ko‘zlarini oolib, nima hosil bo‘lganini ko‘rish taklif etiladi. Mashqdan keyin bu vazifani bajarish qanday kechganligi haqida so‘raladi (ishtirokchilar o‘zlarini qanday his qildilar).

Izoh: Bu o‘yin bir nechta variantlarga ega (ko‘z ochiq holda, soch ranglariga, qo‘llarning issiqligiga va h.k. qarab saflanib turish mumkin).

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

#### “Matematika va til” usuli

Guruhlarga bo‘lingach:

1 – bosqich.

Har bir guruhgaga harflarning alifboda tutgan o‘rni asosida sonlar bilan misol tuzib tayyorlangan kartochkalar beriladi Masalan: 21+1+19+1+13. Alifbo tartibi bo‘yicha ushbu raqamlarda quyidagi harflar joylashgan: v+a+t+a+n= vatan.

2 – bosqich.

Kartochkadagi sonlar ishtirokida har bir o‘quvchi yoki guruh birgalikda qo‘sish, ayirish, ko‘paytirish amallarini qo‘llab misollar tuzadilar. Shart bajarilishiga qarab baholanadi.

3 – bosqich.

Guruhlar kartochkalarni almashadilar. Tuzilgan misollarni guruh a’zolari yechadilar, misollar ishtirokida tayyorlangan so‘zlarni o‘qib beradilar. Shart tez va to‘g‘ri bajarilganiga ko‘ra har bir o‘quvchi va guruh baholanadi.

4 – bosqich.

Guruhlar misollar tartibida tuzilgan so‘zlarni qatnashtirib va savol qo‘yadilar, shu so‘zlearning ma’nolarini izohlaydilar. Shart bajarilishiga qarab odatdagidek baholanadi. O‘yin yakunida har bir faol ishtirok etgan o‘quvchi va guruh baholari umumlashtirilib yakunlanadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi 187-sodan qarori.
2. Norpo‘latova X. “O‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi” T.: “Kasb hunar” jurnali, 2010 yil №3.

## MATEMATIKADA DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA FUNKSIYA TUSHUNCHASI HAQIDA MA'LUMOTLAR BERISH

*H.R.Norboyeva  
SVPYMO‘MM matematika yo‘nalishi tinglovchisi*

**Annotatsiya.** ushbu maqolada funksiyani grafigini chizish, grafikning xossalari matematik ifoda etishdan hamda teorema va aksionomalarni isbotlashdan biroz chetga chiqqan holda funksiya tushunchasiga hayotiy misollar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** funksiya, argument, ordinata, absissa, aniqlanish sohasi, qiymatlar sohasi, funksiyaning o‘suvchi va kamayuvchiligi, juftligi va toqligi, koordinata nuqtalari bilan kesishish nuqtalari, funksiyaning turlari, kvadrat funksiya, parametrli funksiya, chiziqli funksiya, funksiyani grafigi

Biz kundalik hayotimizda funksiyaga ko‘p duch kelamiz. Masalan uy bekalari uy ishlarini bajarganda, u idish tovoqlarni yuvish bo‘ladimi, uyni tozalash bo‘ladidimi, ovqat qilish bo‘ladimi bularni barchasi funksiya. Biz matematikada funksiya deganda avvalo murakkab elementlar va formulalardan iborat qo‘sish ayirish ko‘paytirish va bo‘lish amallarini, murakkab algebraik formulalar qatnashgan egri va to‘g‘ri chiziqlarni kesishmasidan iborat tushunarsiz bo‘lgan chizmalarni tushunamiz. Aslida esa fannning mohiyatini chuqrarroq bilish uchun funksiyaga oddiyroq ko‘z bilan qarashimiz kifoya. Yani shuni aytmoqchimanki har qanday murakkab elementlarni asl mohiyati oddiy tavsiflanadi.

Funksiya tushunchasi hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Funksiya so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, bajarish, amal degan manoni anglatadi.

Demak biz bajarayotgan barcha amallarimiz tiriklikning ahamiyati harakatlari jamlanmasi funksiya ekan. Bunda nafaqat hayvonlar, odamlar, jonli haraklanadigan mavjudodlar, materiyaning tirik biotik qismi, tirik mavjudodlar qushlar hayvonlar, o‘simpliklar, mikroorganizmlar ham funksional mexanizmlar asosida muayyan qonuniyatlarga asosan harakatlanadi. Iqtisodiy jarayonlar, ob-havo ma'lumoti ham funksiyaga misol bo‘ladi. Men asosan bu maqolamda matematika aniq fan bo‘lganligi sababli ko‘pgina matematiklar ushbu bobga kelganda biroz cho‘chiydar tushunolmasam kerak juda ham murakkab va qiyin bo‘lsa kerak deb o‘ylaydiganlar ham bo‘ladi. Shuning uchun ham men bu ushbu maqolada funksiyani grafigini chizish, grafikning xossalarni matematik ifoda etishdan hamda teorema va aksionomalarini isbotlashdan biroz chetga chiqqan holda funksiya tushunchasiga hayotiy misollar keltirish orqali ham kengroq to‘xtalib o‘tmoqdaman.

Maktab darsliklaridan ham ma'lumki tabiat, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va boshqa sohalarda qaraladigan miqdorlar orasidagi bog‘lanishlarni o‘rganishda funksiya deb ataluvchi tushunchaning ahamiyati nihoyatda kattadir.  $x$  va  $y$  sonli to‘plamlar bo‘lsa bu  $x$  va  $y$  ni moslovchi qonuniyatlarga aytildi.

Natematik funksiyada 2 ta qiymat nihoyatda muhim rol o‘ynaydi. Bu qiymatlar  $x$  va  $y$  qiymatlar deb ataladi. Bular har biri o‘ziga hos vazifalarni bajaradi.

$X$  - erkli o‘zgaruvchi, absissa va argument.

$Y$  - erksiz o‘zgaruvchi, ordinata va funksiya.

Argument - bu son o‘qi yoki son nuridagi  $x$  ning barcha qiymatlari.

Funksiyaning xossalari:

1 Aniqlanish sohasi.

Aniqlanish sohasi bu-  $x$  qabul qiladigan barcha qiymatlar.

2. Qiymatlar sohasi.

Funksiyada qiymatlar sohasi  $y$  qabul qiladigan qiymatlarga aytildi.

3. O‘suvchi va kamayuvchiligi.

4. Juftligi va toqligi

5. Funksiya grafigini xossalari.

6. Koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalari.

Funksiyalar quyidagi usullarda berilishi mumkin.

1. Funksiyaning analitik usulda berilishi. *Analitik deganda bu-* funksiya bu bitta yoki bir nechta formula tenglamalar bilan berilgan bo‘lsa u holda funksiya analitik usulda berilgan deyiladi.

2. *Funksiyaning jadval usulida berilishi* odatda amaliy tajribalarda o‘zgaruvchilar orasida o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatadi. Masalan, haroratning kunlik

o‘zgarishi jadval usulida berilishi mumkin. Bu yerda kun soatlari – erkli o‘zgaruvchi yani *argument x*, erksiz o‘zgaruvchi y yani funksiya deyiladi.

3. *Funksiyaning grafik usulda berilishi* ayrim amaliy ishlarda o‘zgaruvchilarning bog‘liqligi grafik usulda beriladi. Masalan so‘mning dollarga nisbatan qiymatining oylik, yillik o‘zgarishlarini grafik usulda ifodalash mumkin. Bu yerda sanalar *argument*, so‘mning dollarga nisbatan qiymati esa *funksiya* bo‘ladi.

4. Funksiya matn usulida ham berilishi mumkin. Masalan. 4 nagar a’zosi bor oila osh damlash uchun 1 kg guruch sarflaydi . Uyda 2 nafar mehmon kelganda esa qozonga necha kg guruch solish darkor. Bunday masalada pishirilgan oshdagi guruch miqdori uydagi kishilar sonining funksiyasi bo‘ladi. Ravshanki kishilar soni *argument* , guruch miqdori *funksiya* deyiladi.

5. Funksiyaning turlari:

1. Chiziqli funksiya- bu funksiyani grafigi to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘lganligi sababli chiziqli funksiya deb ataladi.  $Y = kx + b$  bu chiziqli funksiya deyiladi.

2. Kvadrat funksiya- bu funksiyaning grafigi parabola va u 2 shoxdan tarmoqdan iborat hisoblanadi.

3. Parametrli funksiya- bazi funksiyalar borki ularga nom bera olmaymiz grafigini ko‘rganda tasavvur va his qila olamiz. *Giperbola* Odatda funksiyalarning grafiklari *Dekart* kordinatalar sistemasida chiziladi. Dekart koordinatalar sistemasi 2 ta to‘g‘ri chiziq kesishganda hosil bo‘ladi. 4 ta chorakdan iborat hisoblanadi.

*Ox* – absissa, to‘g‘ri chiziq gorizontal.

*OY*- ordinata, to‘g‘ri chiziq vertical.

Nuqtalarning xossasi quyidagicha ifodalanadi.

1. 1- chorak  $x y$  – musbat

2- chorak  $x$  maxfiy,  $y$  musbat.

3- chorak  $x y$  maxfiy

4- chorak  $x$  musbat,  $y$  maxfiy

2- xossasi : Agar nuqta absissalar o‘qida yotsa u holda uning ordinatasi 0 ga teng. Bu hollarda choraklarni aniqlay olmaymiz.  $M_1(x; 0)$   $M_2(-x; 0)$

3- xossasi: Agar nuqta ordinatar o‘qida yotsa uning *absissasi* 0 ga teng.

4- xossasi: Dekart kordinatalar sistemasining markazi 0 nuqta hisoblanadi.

*Absissa va ordinata* har doim  $90^\circ$  ostida kesishadi.

Funksiyaning aniqlanish sohasi

Funksiyaning aniqlanish sohasi  $x$  ga

bog‘liq sonlar.  $Y = kx + b$   $x$  ning istalgan qiymatlarini qabul qiladi.

Agar biror sonlar to‘plamidan olingan  $x$  ning

Biror qiymatlari bo‘yicha y son mos qilib qo‘yilgan bo‘lsa shu to‘plamda funksiya aniqlangan deyiladi.

## Chiziqli funksiya:

Chiziqli funksiya deb  $y = kx + b$  ko‘rinishidagi funksiyaga aytildi. K va b Berilgan sonlar.

Masalan:  $y = 3x - 4$      $k > 0$  o‘suvchi.

$K < 0$  kamayuvchi,  $k = 0$  o‘zgarmas,

Har doimo Ox o‘qini kesib o‘tadigan va kesib o‘tganda alfa burchak hosil qiladi.

Funksiyani grafigini yasashdan oldin x ga 0 beramiz. Maqsad grafik markazdan o‘tdimi yo‘qmi aniqlash.

Chiziqli funksiya nuqtalardan qaysi biri tegishli bo‘lsa quyidagicha bo‘ladi.

To‘g‘ri chiziqlar uchun quyidagilar o‘rinli  $k_1$  teng emas  
 $k_2$  funksiya grafiklari kesishadi.

$K_1$  teng       $K_2$  grafiklar parallel bo‘ladi.

## Kvadrat funksiya

Kvadrat funksiya deb-  $y = ax^2 + bx + c$  ( $a$  tengmas 0) ko‘rinishidagi funksiyaga aytildi. Bu yerda a,b,c lar sonlar x haqiqiy o‘zgaruvchi

Kvadrat funksiyaning grafigi *parabola* dan iborat.

Parabola 2 ta shox tarmoqdan iborat.

Agar a noldan katta bo‘lsa Ox o‘qdan yuqoriga qarab intiladi yani  $a < 0$  bo‘lsa u holda parabola tarmoqlari ox o‘qdan pastga yo‘nalgan funksiya kamayuvchi deyiladi

Agar  $a = 0$  bo‘lsa u holda kvadrat funksiya chiziqli funksiyaga aylanadi.

Agar kvadrat funksiyada  $D > 0$  bo‘lsa Ox o‘qini 2 ta qandaydir nuqtada kesib o‘tadi.

Agar kvadrat funksiyada  $D = 0$  bo‘lsa Ox o‘qini bitta umumiy nuqtada kesib o‘tadi.

Agar kvadrat funksiyada  $D < 0$  bo‘lsa u holda Ox o‘qi bilan umumiy nuqtaga ega emas. Bu yerda grafik nazarda tutilyabdi.

Umuman olganda yo‘nalishlar va uzunlik birligi tanlangan ikkita o‘zaro perpendikulyar to‘g‘ri chiziq tekislikda to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasini hosil qiladi.

Kordinatalar sistemasi tanlangan tekislik *kordinatalar tekisligi* deyiladi.

Kordinatalar o‘qlari tashkil etgan to‘g‘ri burchaklar *kordinata burchaklari* kvadrantlar deyiladi.

17 asrning taniqli matematigi *Rene Dekart* tekislikda to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemidan foydalanish uning nomi bilan bog‘liq.

Biz hozirgi kunda 21- asr fan va texnologiyalar axborot asrida yashamoqdamiz.

Texnologiya deganda inson qo‘li bilan yaratilgan odamlar hayotini osonlashtirish uchun xizmat qiladigan asbob uskunalar majmuiga aytildi

Texnologiyalarni ishslash mexanizmi funksiyaviy ketma ketlikka asoslanadi. Funksiyaviy ketma ketlik deganda bir amalni bajarilish shartlari elementlari navbatlari ko'rsatilib o'tiladi. Funksiyaviy ketma- ketlik deganda bir amal bajarilgandan so'ng ikkinchisi bajarilishi ko'zda tutiladi. Masalan raketalarning reaktiv harakatlari, samalyotlarni parvozi, mashinaning harakatlanishi, g'ildirakli aravani harakati, soatning ishlashi, go'sht maydalagichni ishslash mexanizmi bularning ishlashi ham funksiya deb ataladi.

Tabiat misolida oladigan bo'lsak sportchining yugurishi, oshpazning harakatlari, o't o'chiruvchining ishi, jarrohning operatsiya stolidagi harakatlari , o'simliklar fotosintezi o'sishi rivojlanishi, ko'payishi, odam tanasidagi oshqozon ichak sestemasini ish mexanizmi, tanamizdag'i har bir a'zomizni ish mexanizmi ham funksiyaviy amallarga asoslangandir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak funksiyalar turli usullarda ko'rinishishlarda bizga malum. Matematika fani mohiyati faqatgina nazariya misol masalar yechishda, qiyin formulalarni yodlashda emas balki ularni mohiyatini tushunishda va amaliyotda tadbiq qila bilishdadir. Endi siz matematika algebrada qiyin mavzularga duch kelib qolsangiz uning mohiyatini bizga hayotda nima uchun kerak bo'lishiga etibor berib ko'ring. Shunda ular bilan ishslashda qiyinchilik bo'lmaydi.

## **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARНИ KREATIV FIKRLASHGA O'RGAТИSHDA MANTIQIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH**

*N.Safarova  
Payariq tumani 6-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayonlarida turli noan'anaviy metodlar orqali foydalanib kreativ fikrlashga o'rgatish, darsda har bir o'quvchini faol ishtirok etishga undash haqida . Sinfdag'i bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham turli rolli o'yinlar orqali jamoada o'z o'rnini topa olishi uchin turli metodlar tavsiya qilingan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, PIRLS, kompetensiya, kreativ fikrlash, erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, rolli o'yin, texnologiya.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli

yo‘nalishlardagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqod muassasalari bilanyaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta`lim tizimi rivojlanib borgani sari, yetakchi hamda kreativ o‘qituvchilarga bo‘lgan talab ham oshib boradi. Sifatli ta`limb or joyda kreativ o‘qituvchilar bor. Zamonaviy va kreativ metodlar darsni yanada qiziqarli qiladi va barcha va barcha o‘quvchilar darsda faol qatnashadilar. Bu kabi darslarda zerikish muammosi bo‘lmaydi. O‘qituvchilik og‘ir kasb ekanligi hech kimga sir emas. Shu sababli darsda charchoq o‘rniga zavq va energiya olish bu o‘qituvchining qanchalik mahoratlari ekanligiga bog‘liq. Buning uchun ham o‘qituvchi kreativ pedagog bo‘lishi kerak. Kreativ o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak ?

Kreativ o‘qituvchi:

- Liderlik qobiliyati;
- Doimiy rivojlanish;
- Faniga tegishli chuqur malaka va ko‘nikmalar rivojlanganligi;
- Notiqlik san`ati;
- Darsda tushunarli tarzda tushuntirish mahorati;
- Psixologik mahorat;
- Ishni oxirigacha yetkazish odati;
- Tizimli va tartibli gdars bera olish ko‘nikmalari rivojlangan bo‘ladi.

Ko‘pchilikda esa ushbu ko‘nikmalarning faqtgina ayrimlari bor. Kimdadir bilim juda kuchli, lekin dars berish mahorati past, boshqa o‘qituvchilar dars bera olishadi, lekin o‘quvchilar xarakteriga tushuna olishmaydi. nega ayrim o‘qituvchilar kreativ dars o‘tishadi, boshqalar esa yo‘q ?

Ushbu qoidani yodda tutish kerak. “ Sizning dars o‘tish mahoratingiz eng yaxshi metodlarni o‘rganish va zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishingizga proporsional bo‘ladi “. Buni tushunish uchun kreativ o‘qituvchilar qanday yo‘l tutishini ko‘rib chiqamiz.

1. Zamonaviy ta`lim texnikalarini o‘rganishga tayyor bo‘lish;
2. O‘z imkoniyatlarini , vaqt va mablag‘ini bilm olishga sarflash;
3. Turli kurslar, treninglarda o‘qish va eng sara foydali kitoblar mutolaa qilish

Muvaffaqiyatli o‘qituvchilar har doim o‘zlarining professional va shaxsiy hayotlarida nimani xohlashlarini aniq bilishadi. Ular hech qachon imkonsiz maqsadlarini qo‘ymaydilar. Ularning maqsadlari doimo real va o‘lchovlidir. Muvaffaqiyatli o‘qituvchilar hech qachon o‘z ustida ishlashdan va o‘zini rivojlantirishdan to‘xtamaydilar.

Quyida dars jarayonida qo‘llaniladiga turli metodlarni ko‘rib chiqamiz.

## **“Maktub” metodi**

Ushbu metodni 1-4-sinflarda dars jarayonining yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlash qismida qo'llash tavsiya qilinadi. 1- sinfda yangi mavzuga doir bir nechta so‘zlar qog‘ozga yoziladi va xatjildga solinadi. O‘quvchilar nechta guruhga bo‘linsa, xatjild shuncha bo‘ladi. Har bir guruh xatjild ichidagi so‘zlarni o‘qib yangi o‘tilgan mavzu bo‘yicha gap tuzadilar. Shu tariqa o‘quvchilar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirgani aniqlanadi.

“Maktub” metodi 2-sinfda qo'llanilgandahar bir guruhga yangi mavzuga doir rasmlar beriladi. O‘quvchilar ma`lum vaqt mobaynida rasm asosida kicgik matn tuzadilar. Bundan tashqari texnologiya faniga bog‘lagan holda mavzuga doir narsalarning shaklini slaym yordamida yasashlari mumkin. Bu o‘quvchilarning qo‘l motorikasini rivojlantiradi, amaliy mehnat ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Masalan 2-sinf darsligidagi “Foydali nonushta” mavzusi yuzasidan o‘quvchilar nonushta paytida foydali bo‘lgan mahsulotlarni o‘z qollari bilan yasaydilar.

“Maktub” metodi 3-4-sinflarda qo'llanilganda topshiriqlar biroz murakkablashtiriladi. O‘quvchilar guruhi mustaqil ravishda matn tuzadilar. Tuzgan matnlarini tahlil qilib beradilar. Tuzilgan matnning mazmuniga qarab o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatları, dunyoqarashlarining kengligi aniqlanadi.



## **“Kungaboqar”metodi**

“Kungaboqar” metodi dars jarayonining o‘tilgan yangi mavzuni mustahkamlash qismida qo'llanilsa yaxshi samara beradi. Kungaboqarning barglari yopilgan holda turadi.

Kungaboqarning pistalariga mavzu yuzasidam savollar va topshiriqlar yoziladi. Savollarga to‘liq berilgandan keyin kungaboqar yaproqlari ochiladi. “Kungaboqar” metodini ona tili va o‘qish savobxonligi, matematika, tabiiy fanlarda qo’llash mumkin.



va javob

## **“Sayohat” metodi**

“Sayohat” metodi darslarni noan`anaviy o‘tkazishda samarali metod hisoblanadi. Bu metod orqali butun sinf o‘quvchilarini dars jarayonida faol ishtirok etishi ta‘minlanadi. Masalan tabiiy fanlar darsida “Yulduzlar va sayyoralar” mavzusini

o‘zlashtirishda koinotga sayohat tashkil qilinadi. Bu metodda rolli o‘yinlardan foydalaniladi. O‘qituvchi va o‘quvchilar bu sayohatda birgalikda qatnashadi. Sayyoralar rolini bajarayotga o‘quvchilar har bir sayyora haqida ma`lumot beradilar. Yulduzchalar rolini bajarayotgan qolgan barcha o‘quvchilar ular bergen ma`lumotlarni savol-javob tarzida takrorlab, mustahkamlaydilar. Bu metod sinfdagi barcha o‘quvchilarning darsda faol qatnashishini ta`minlaydi.

“Sayohat” metodi matematika darslarida qo‘llanganda “Raqamlar sultanatiga sayohat” deb nomlash mumkin. Ona tili darslarida esa qanday mavzu o‘tilishiga qarab “Maktab bo‘ylab sayohat” deb nomlab, maktabdagi har bir joyga o‘quvchilarni hayolan sayohatga borishi tushuntiriladi. Masalan: Maktab kutubxonasiga, oshxonaga, sport zaliga, maktab bog‘iga sayohat uyshtirish mumkin.

Har bir o‘qituvchi darsining qiziqarli va mazmunli o‘tishi uchun tinimsiz izlanishi, yangiliklar ,innovatsion metodlar bilan darsini boyitib borsagina erkin fikrlovchi, bilimdon, kreativ o‘quvchini tarbiyalaydi. Vatanimiz kelajagi yosh avlodlar qo‘lida. O‘qituvchilar esa ana shu bilimdon yoshlarni tarbiyalab berishi uchun tinimsiz mehnat qilmog‘I kerak.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish pedagoglarga bog‘liq albatta. Shu maqsadda yosh avlodning bilim oishiga katta e`tibor berish lozim. Yurtboshimiz ta`kidlagandek yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo‘naltirishimiz kerak. Bu borada STEAM texnoligiyasi qo‘l keladi. STEAM-tabiyy fanlar, texnoligiya, muhandislik,san`at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubidir. Yuqorida keltirilgan metodlar bunga misol bo‘la oladi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh.M “Ta‘lim- tarbiya tizimi : taraqqiyotning yangi bosqich”. 30.10.2020
2. Kuznetsova M.I “PIRLS 2021 solishtirma tadqiqoti doirasida o‘qish savodxonligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1 qism darslik 2-sinf uchun . K. Mavlonova va boshqalar.- Toshkent: Respublika ta‘lim markazi 2021.
5. Abjalova M.A. “Ta‘limda STEAM yondoshuv va kreativlik”. 2020
6. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz)

## **O'QUVCHILARNI IFODALI O'QISHGA O'RGATISHNING NAZARIY HAMDA AMALIY AHAMIYATI**

*Z.A.Safarova*

*Nurobod tuman 10-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanishi, o'qish malakasini egallash murakkab jarayon bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqt ni talab etishi xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ko'nikma, malakala, analistik, sintetik, avtomatlashgan, bosqich, ifodali o'qish.

Jahon miqyosidagi shiddatli taraqqiyot ta'lim-tarbiya tizimini ham tubdan isloh qilish masalasini kun tartibiga qo'yganligini Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayta-qayta ta'kidlagani holda misli ko'rilmagan ishlohotlarni amalga oshirmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2017- yil 7- fevraldagagi PF-4947- sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida uzlucksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, mehnat bozorining zamонавиу етийојларига muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsyon yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish ta'lim tizimi sohasidagi ustivor yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti talablari asosida boshlang'ich sinf o'quv dasturlari va darsliklari takomillashtirilmoqda.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklariga o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishga doir savol-topshiriqlar kiritilgan. Ular o'quvchilarining to'g'ri, ongli, tez va ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilarning o'qish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va takomillashtirishda asar matnining tahlili muhim ekanligini hisobga olgan holda tahlilga doir topshiriqlar izchillik bilan berib borilgan.

Dastur talablarini to'liq bajarish uchun o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish va takomillashtirib borish zarur. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida takomillashtiriladi, ya'ni o'quvchilar to'g'ri, ongli o'qishdan tashqari, tez va ifodali o'qishga ham o'rgatib boriladi.

To'g'ri, ongli, tez va ifodali o'qish o'qish malakasining sifatlari deb yuritiladi.

O'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning asosiy

turi bo‘lib, o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o‘qish malakalarini o‘stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni taqozo etadi.

O‘qish malakasini egallash murakkab jarayon bo‘lib, uni shakllantirish uzoq vaqt ni talab etadi. Ruhshunos olim T. G. Yegorov o‘zining «Ocherki psixologii obucheniya detey chteniyu» nomli asarida o‘qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich. Analitik bosqich savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi, bunda so‘zni bo‘g‘in-harf tomonidan tahlil qilish va bo‘g‘inlab o‘qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so‘zni sidirg‘a o‘qish xarakterli. Bunda so‘zni ko‘rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so‘z ma’nosini anglash bilan asosan mos keladi. O‘qish so‘z ma’nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O‘quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o‘tadilar. Bundan keyingi yillarda o‘qish avtomatlasha boradi.

O‘qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o‘qish malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lsin.

To‘g‘ri o‘qish xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qish bo‘lib, so‘zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so‘zdagi tovush yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo‘shtirish, harflarning o‘rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so‘zga urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib o‘qish hisoblanadi. M. Odilova va T. Ashrapovalar «Adabiy talaffuz me’yorlariga qo‘yilgan barcha talablar to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmasiga ham taalluqlidir», - deb ta’kidlaydilar. To‘g‘ri o‘qishga yana quyidagicha ta’rif berilgan: «To‘g‘ri o‘qish - bu materialni tovush tomondan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko‘chirishdir». Demak, to‘g‘ri o‘qish so‘zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me’yorlar asosida o‘qishdir.

To‘g‘ri o‘qish so‘zning uzun-qisqaligiga, o‘quvchining so‘z boyligiga, ya’ni so‘zning leksik ma’nosini qanchalik bilishiga hamda so‘zning bo‘g‘in va morfemik tarkibiga bog‘liq. O‘quvchilar ko‘pincha quyidagi sabablarga ko‘ra xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1. So‘zni talaffuz qilish bilan uning ma’nosini tushunish o‘rtasida puxta sintez bo‘limgani uchun bola so‘zning oldin tovush tomonini ko‘radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So‘zning ma’nosini esa e’tibordan chetda qoldiradi.
2. So‘z ko‘p bo‘g‘inli bo‘lib, bola uni oldin eshitmagan bo‘lsa, xatoga yo‘l qo‘yadi.
3. So‘zning ma’nosini bilmaslik tufayli xatoga yo‘l qo‘yadi.
4. Tez o‘qiymen deb xatoga yo‘l qo‘yadi.
5. To‘g‘ri o‘qish yorug‘likka va yorug‘likning tushishiga ham bog‘liq.

6. Undosh tovush so‘zning o‘rtasida va oxirida kelgan yopiq bo‘g‘inli so‘zлarni o‘qishda qiynaladilar.

Ifodali o‘qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo‘linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g‘oyasini belgilash, ya’ni asarning g‘oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to‘xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg‘uning o‘rnini, o‘qish tempini belgilab olish.

3. O‘qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqeа-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o‘qish.

Asarning mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishini tahlil qilish ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan bog‘lab olib boriladi. Ifodali o‘qishga o‘rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o‘z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarda ifodali o‘qish malakasini shakllantirish uchun asarni o‘qituvchining ifodali o‘qishi muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T.: O‘qituvchi, 2010.
2. A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish printsiplari va metodlari. - T.: O‘qituvchi, 2012.
3. Matchonov S. va b.q O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. –T.: Yangiyo‘l poligraf. 2019.

## **BOSHLANG‘ICH SINFDA MANTIQIY TOPSHIRIQLAR, ULARNING O‘ZIGA XOSLIGI**

*D.B.Shavxiyeva  
Narpay tuman 58-maktab o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy topshiriqlar orqali fikrlash qobiliyatini oshirish, matiqiy topshiriqlarni o‘rni haqida fikr yuritilgan

**Kalit so‘zlar:** mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq, maniqiy topshiriq, taqqoslash, tahlil, sintez, masala

Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymaydigan, ijodiy fikrlash, mustaqil ishlashga yo‘naltirigan har xil masalalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qobiliyatning rivojlanishida

arifmetik masalalar alohida o‘rin tutadi. Masalalar yechish jarayonida har doim taqqoslash, tahlil va sintez, abstraktlash, aniqlashtirish, umumlashtirish induktiv va deduktiv xarakterdagi xulosa chiqarish va shu kabi mantiqiy tafakkur usullaridan foydalaniladi. Har doim tafakkurning mazkur mantiqiy usullari arifmetik masalani yechish yo‘llarini topish vositasi sifatida ishlataladi, o‘quvchilar ularni amalda o‘zlarini tushunadigan shaklda o‘zlashtiradilar, ularni qo‘llashni o‘rganadilar.

Biz mantiqiy fikrlash, mantiq kabi so‘zlarni ko‘p gapiramiz va tez-tez eshitib qolamiz. Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. Mantiqiy masalar ustida ishslash asosida o‘quvchilarning mantiqiy firlash qobiliyatlari shakllanib boradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlanishi asosida bolada mustaqil fikr, mulohazalar paydo bo‘ladi. Fikrlash yangi g‘oyalari va ular ustida ishslash imkoniyatlarini yaratadi. Matematika fanidan o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun qo‘sishimcha mashg‘ulotlarning o‘rni katta. Qo‘sishimcha mashg‘ulotlarda odatdagি misol va masalardan tashqari qiziqarli va mantiqiy masalalardan foydalanilsa, o‘quvchining fikrlash doirasi yanada kengayib, matematik bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil bo‘lar edi. Mantiqqa asoslangan xulosalar chiqarish, matematikaning qiziqarli yo‘nalishini belgilaydi.

O‘quvchining tafakkur doirasi kengayib boradi. Mantiqiy masalalar ustida ishslash imkoniyatlarini egallash borasida bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Berilgan mantiqiy masala bolaning bilim va qabul qilish darajasida bo‘lishi muhimdir. Bolalarga songa oid, miqdorga oid, o‘lchov birliklariga oid, geometrik shakllarga doir mantiqiy masalar berilishi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ularning mustaqil ishslash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan to‘ldirish va bog‘liqlikni ta’minlaydi

O‘quvchi qanday masala yechishidan qat’iy nazar, albatta, fikrlaydi. Odamning aktiv faoliyati, uning mehnati hamma vaqt masalalarni yechish kaliti bo‘ladi. Bola aqliy kuchlarini ishlatib, predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga intilib, muayyan ish qiladi. Tevarak olamda minglab masalalar bor. Ularni xalq o‘ylab topgan, ular topishmoq- hikoyalar tarzida xalq ijodida yashab keladi. Masalan:

Uch masxaraboz: Bim, Bom va Bam qizil, yashil va ko‘k ko‘ylaklarda sahnaga chiqishdi. Ularning poyafzallari ham o‘sha uch rangda edi. Bimning ko‘ylagi va tuflisining rangi xato aytildi. Bomning tuflisi ham, ko‘ylagi ham qizil rangda emas edi. Bam yashil rangli tuflida, ko‘ylagi esa boshqa rangda edi. Masxarabozlar qanday kiyinishgan edi? Ismlari Tuqli Ko‘ylak

<b>Ismlari</b>	<b>Tuflি</b>	<b>Ko‘ylak</b>
Bahrom	Qizil	Qizil
Botir	Ko‘k	Yashil
Bahodir	Yashil	Ko‘k

Mulohaza: Bom faqat ko‘k tuflida bo‘lishi mumkin. Unda Bim qizil tuflи va qizil ko‘ylakda bo‘lishi mumkin. Endi Bam faqat ko‘k Bom esa yashil ko‘ylakda bo‘lishi mumkin. Har bir mavzu asosidagi berilgan mantiqiy masalada o‘quvchilarni o‘ylashga, o‘z ustida ishlashga yo‘naltirilgan.

Men har bir darslarimni oxirida o‘quvchilar bilan mantiqiy savol va topshiriqlardan foydalanishga harakat qilaman. Bu o‘quvchilar fikrlash doirasini kengaytirib darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam berdi. Bundan qiziqqan o‘quvchilarim o‘zlari ham shunday masalar bilan darsda qatnashishga harakat qilishadi. Misol uchun: Tejamli kesim Qanday qilib 5 ta olmaning birortasini ham 6ta bo‘lakka bo‘lmasdan turib, 6 kishiga teng qilib bo‘lib berish mumkin ? Mushuklar nechta ? To‘rtburchak shakldagi xonaning har bir burchagida bittadan mushuk o‘tiribdi. Har bir mushukning qarshisida uchtadan mushuk o‘tiribdi. Xonada hammasi bo‘lib nechta mushuk o‘tiribdi ? Tenglama Ikkita sonning yig‘indisi 10 ga teng, ularning ko‘paytmasi ham 10 ga teng. Bular qaysi sonlar ? Hovuzni to‘ldirish Hovuzni 2 ta quvur orqali suv bilan to‘ldirish kerak, Agar Birinchi quvurning o‘zi 5 minutda to‘ldirsa , ikkinchi quvurning o‘zi 10 minutda to‘ldirsa, ikkala quvur birgalikda necha minutda to‘ldiradi ?

Bugungi kunda mantiqiy topshiriqlardan foydalanish xalqaro baholash dasturlariga ham mos keladi. Mantiqiy topshiriqlar bilan ishslash jarayonida biz o‘quvchilarni ushbu tadqiqotga ham tayyorlab boramiz. Mantiqiy topshiriqlarni ko‘rgazmali tarzda ham amalga oshirsak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi zamon boshlang‘ich matematika kursi, unga kiruvchi mantiq elementlari va tegishli metodik ishlanmalarning maxsus alohida ta’kidlari natijasida o‘quvchilarda mantiqiy mahoratlarni o‘stirishga xizmat qiluvchi nostandard masalalarni yechishni to‘laqonli va maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘tkazish imkonini beradi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Djurakulova A.X. O‘quvchilarning qobiliyatini shakllantirishda nostandard masalalarning ahamiyati. Toshkent
2. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta‘lim portal

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA GEOMETRIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI**

*Sh.Z.Soibnazarova*

*Samarqand shahar 48-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan geometrik materiallar ustida ishlashning samarali usullari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, bu borada amalga oshiriladigan bir qancha amaliy ishlar ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** geometrik figura, uchburchak, to‘rtburchak, kvadrat, fikrlash, matematik ta’lim.

Boshlang‘ich sinflarda geometrik figuralar haqidagi tushunchalar tizimi va uni o‘rganish metodlariga doir masalalarni yechish uchun izlanishga to‘g‘ri keladi. Maktablarda matematik ta’lim darajasini ko‘tarish, o‘qitishni hayot bilan bog‘lash hozirgi kun talablaridan biridir. Ana shu talablarga ko‘ra geometriyaning boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning hozirgi holati ko‘proq izlanishga olib keladi.

“Boshlang‘ich sinflarda geometrik material ustida ishlashdan asosiy maqsad bolalarda to‘g‘ri chiziq, kesma, burchaklar, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat, kub, parallelepipedning esda qoladigan aniq obrazlarini hosil qilish, ba’zi bir figuralarning xossalarni ko‘rib chiqib, bu bilimlardan uzunliklar, yuzalar va hajmlarni o‘lchash sohasida o‘quvchilarni amaliy malakalar bilan qurollantirish kerak”.

Matematika o‘qitishning umumiyligi maqsadlari ifodalashda ham, o‘quvchilarda fazoviy tasavvurini hosil qilish ham, metodika asoslarini ko‘rib chiqishda geometrik material ustida ishlashning amaliy yo‘nalganligi uqtirib o‘tiladi.

Demak, maktab boshlang‘ich sinflarida geometrik materialni o‘rganishda hozirgi vatqda asosan amaliy maqsadlar ko‘zda tutiladi, chunki figuralarning xossalarni o‘rganish, kerakli tasavvurlarni barpo etish, o‘quvchilarni yuzalar yoki hajmlarni hisoblashga doir amaliy masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan amaliy o‘quv va malakalar bilan qurollantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shuning uchun, geometriya bo‘yicha materialning tanlanishi ko‘pchilik hollarda tasodifiy xarakterga ega bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinflarda geometrik figuralar bilan tanishtirishning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni hosil qilish deb bilsak, bu o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini tasavvurini va dunyoqarashini o‘siradi. O‘quvchilar uchburchak va to‘rtburchaklar bilan tanishar ekan, ularni sun’iy ravishda boshqa ko‘pburchaklar bilan tanishtirishdan saqlab qolinadi, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. O‘quvchilarga o‘rganilayotgan figuraning nima uchun uchburchak

(uchta burchagi bor), boshqasi to‘rtburchak (to‘rtta burchak) ekanligini aytib, 5, 6, 7 burchakni ko‘rsatib, ularning nomini so‘rasak dasturni kengaytirgan bo‘lmaymiz. Bu yerda gap yangi figuralarni o‘rganish ustida bormay, faqat ularning nomini o‘rganish ustida boradi. Shuning bilan birga bu mashq ko‘rilgan figuralar qandaydir figuralarning xususiy holi ekanligini, bulardan boshqa yanada ko‘p ko‘pburchaklarning borligiga tushunish imkoniyatini beradi. Bu hol bolalarning fazoviy tasavvurlarini va ularning matematik bilim darajasini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

1-sinfda “Sodda yassi va fazoviy figuralar” mavzusida o‘qituvchi mavzuni bir biriga bog‘liq holda tushuntiradi. Geometrik jismlarda yassi shakllarni topadilar va tasavvur qiladilar.

Masalan: Doirani qaysi geometrik jismda ko‘rdingiz, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchaknichi?

Bu yerda gap yangi figuralarni o‘rganish ustida bormay, faqat ularning nomini o‘rganish ustida boradi. Shuning bilan birga bu mashq ko‘rilgan figuralar qandaydir figuralarning xususiy holi ekanligini, bulardan boshqa yanada juda ko‘p ko‘pburchaklarning borligiga tushunish imkoniyatini beradi. Bu hol bolalarning fazoviy tasavvurlarini va ularning matematik bilim darajasini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Birinchi sinf darsligida berilgan figuralarga qo‘sishimcha sifatida turli o‘lchov va rangli kartondan qirqilgan kvadratlar va doiralarga ega bo‘lish lozim. Bunda o‘qituvchi figuralarning bir-biridan alomatlari, rangi, o‘lchovlari va hokazo bilan farq qilishlariga o‘quvchilarning diqqatini ko‘p marta jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Quyidagi berilgan geometrik jismlarni hayotiy tasvir bilan moslashtiradilar. Bolalarda predmetlarning shakli, fazoviy holati, o‘lchovi haqida aniq tasavvurlarning shakllanishi va taraqqiy etilishini ta`minlashga yo‘naltirilgan tizimli mashqlar, birinchi geometrik tushunchalar va xulosalarining shakllanishi uchun zarur bo‘lgan mashqlarni qo‘yilishi bobida tajribalarning to‘planishi boshlang‘ich matematika o‘qitish metodikasini bundan so‘ng taraqqiy etishi xususida shubhasiz katta yordam ko‘rsata olishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fazoviy tasavvurlarini shakllantirishning nazariy metodik asoslari bilan tanishtiriladi. Boshlang‘ich sinflarda geometrik material bilan tanishtirishning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni taraqqiy ettirish deb hisoblasak, nima uchun kichik yoshdagil o‘quvchilar bilan ishlashda ulardan tanish shakllarni ajratilgan hollardagina tanishni emas, balki ancha murakkab hollarda ham ajrata olish imkonini beruvchi mashqlarni (aytaylik, tanish figura murakkabroq konfiguratsiyaning elementi) kiritish mumkin emas. Bu narsa har holda olingan bilimlarni amaliy masalar yechish uchun qo‘llashda

ham va o‘quvchilarni geometriyani yuqori sinflarda o‘rganish ishiga tayyorlashda ham juda muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fazoviy tasavvurlarini shakllantirish boshlang‘ich matematika o‘qitish metodikasi oldida turgan dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, fazoviy tasavvurni bilmagan o‘quvchi kelajak hayotda o‘z o‘rnini egallashda ancha qiyin ahvolda qoladi. Buni bartaraF etish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fazoviy tasavvurlarini shakllantirishni tarkib toptirish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish har bir boshlang‘ich o‘qituvchilaridan yuksak mahorat va izlanish talab qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva.Q.A., Ochilova M.O. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi. Boshlang‘ich ta’lim. –T. “Sharq”. 1998. 6-son. 12-22 b.
2. Abdullajonova M, Qobilova J. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar aqliy faoliyati. Xalq ta’limi. 3-son. 2003. 52-53 b.

## **BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**

*D.X.Tuksanova*

*Samarqand shahar 13-maktab boshang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshang‘ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularning dars jarayoniga ta’siri xususida so‘z yuritilgan. Hozirgi zamon o‘quvchisining darsga bo‘lgan qiziqishini orttirishda media vositalarning ta’siri haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy texnologiyalar, shaxs, kompyuter, telefon, fikrlash, yangi texnikalar, AKT, savodxonlik.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda hech kimga sir emaski o‘sib kelayotgan yosh avlod siz va bizga qaraganda zamonaviy texnologiyalar komputer, telefon va boshqa zamonaviy qurumalarda yaxshi xabardor va ba’zida o‘qituvchidan ham yaxshiroq komputer va boshqa yangi texnikalarga ega va shu sababdan bo‘lsa kerak yangi avlod o‘quvchilarini bizga qaraganda yangi texnologiyalarga ko‘proq tushunadi va qiziqadi. Yangi avlodni zamonaviy texnologiyalarni oldingi yoshlarga qaraganda ancha yaxshi tushinishini ba’zi bir olimlar quyidagicha izohlashadi- 2000-yilgacha bo‘lgan bolalarda miya yarim sharining faqat bir pallasi ishlasa, 2000-yildan keying avlod bolalarida miya yarim sharining har ikki pallasi ham ishlaysdi, deb izoh berishadi. Buning isboti sifatida oldingi birinchi sinf o‘quvchisi bilan hozirgi birinchi sinf o‘quvchisini solishtirishning o‘zi kifoya. Shuning uchun hozirgi zamon

ta’limining asosiy vazifalardan biri bu o‘quvchilarning axborot savodxonigini shakllantirish olingan ma’lumotlarni topish va ulardan foydalanish qobiliyati uni tanqidiy baholash qobiliyatlarini yanada rivojlantirishimiz lozim.

Shuning uchun biz boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarimizga zamonaviy texnologiyalar yordamida darslarni tashkillashtirimiz darkor. Bu bilan o‘tayotgan darslarimiz yanada qiziqarli bo‘ladi va samaradorligi ham ancha ortadi deb o‘ylaymiz. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlar nutq, aql va umuman o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda AKTdan foydalanish imkoniyati va maqsadga muvofiqligini ishonchli isbotlaydi, E.I.Vishtynetskiy, A.O.Krivosheyev, E.S.Polatlar o‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanishning psixologik jihatlarini ko‘rib chiqqanlar, B.S.Gershunskiy, I.G.Zaxarova gumanitar ta’lim tizimida AKTning o‘rni va o‘rni ko‘rib chiqib undan foydalanish samarali ekani tasdiqlashganlar.

Yangi ta’lim standartlari doirasidagi o‘qish kompetensiyasi umuminsoniy ta’lim harakatlarini anglatadi va uni shakllantirish vositalaridan biri AKT texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Rivojlangan o‘qish qobiliyatiga ega o‘quvchi nimani o‘qishni biladi, qanday qilib o‘qishni biladi, badiiy texnika haqidagi g‘oyalarga, uning didi va hissiyotlariga qarab o‘quvchining kompetensiyasi, adabiyotni idrok etish madaniyati, badiiy matnning obrazli mohiyatini tushunishga asoslanadi va og‘zaki obrazlar tilini egallashni, asosiy adabiy tushunchalar tizimidagi yo‘nalishni o‘z ichiga oladi.

K.D.Ushinskiy quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: «Bolaga beshta noma’lum so‘zni o‘rgating, u uzoq vaqt va behuda behuda azob chekadi; ammo yigirma shunday so‘zni rasmlar bilan bog‘lab qo‘ying - va bola ularni tezda bilib oladi,». Ushbu vazifani amalga oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari keng imkoniyatlarga ega, faqat o‘qituvchilar ma’lum yoshdagи o‘quvchilar tomonidan materialni qabul qilishning psixologik xususiyatlarini hisobga olishlari kerak.

Mashhur pedagog K.D.Ushinskiyning fikrlariga qo‘srimcha qilgan holda shuni aytish mumkinki, bolalarga rasmlar va illusturatsiyalarni elektron doskalar yordamida ko‘rsatsak, birinchidan bolalarni diqqatini tortishga, ikkinchidan o‘qituvchi uchun dars o‘tishni qulay shaklda bo‘lishini taminlaydi. Shu o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joyizki, bolalarga faqat zamonaviy texnologiyalar haqida emas, unga qo‘sib kitob o‘qish savodxonligini ham shakllantirishimiz maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Shu o‘rinda ushbu olimning fikrlarini misol tariqasida aytib o‘tsam: L.V.Zankov fikriga ko‘ra, boshlang‘ich umumiyligi ta’im dasturida maktab o‘quvchilarining umumiyligi rivojlanishida adabiyotning o‘rni beqiyos. Adabiyotga oshno bo‘lish ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni rivojlantirishga, estetik tushunchalarni shakllantirishga, bolaning shaxsini shakllantirishga yordam beradi. Badiiy o‘qish jarayonida olib borilgan ishlarning natijasi aqli shaxsni tarbiyalash bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, biz o‘qituvchilar zamon bilan hamnafas bo‘lishimiz, barcha o‘zgarishlarni kuzatib borishimiz, o‘quvchilarimizga yaqin bo‘lishimiz va ular bilan hamnafas bo‘lishimiz kerak va shu bilan birgalikda bolalarga boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarga kompyuter savodxonligi yaxshi shakllantirib undan to‘g‘ri maqsadlarda foydalanishlarini uqtirgan holda darslarimizda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishimiz, o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi, deb o‘ylaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Boshlang‘ich umumiylar ta’lim dasturlari. L.V.Zankov tizimi: dasturlar to‘plami "Fedorov" nashriyoti, 2012
2. Internet ma’lumotlari va saytlari

## **РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

*O.C.Старцева*

*Учитель начальных классов школы №48 г. Самарканда*

**Аннотация:** в статье рассматривается необходимость создание условий при которых развиваются коммуникативные способности школьника, а также роль учителя для создания этих условий.

**Ключевые слова:** коммуникация, активность, групповая работа, школьник, компетенция.

Развитие коммуникативных умений младших школьников – актуальная проблема, решение которой важно, как для каждого человека, так и для общества в целом. Общество немыслимо вне общения. Именно в сфере коммуникации человек осуществляет и свои профессиональные, и личные планы. Здесь он получает поддержку и сочувствие, помошь в реализации жизненных планов.

А ведь младший школьный возраст чрезвычайно благоприятен для овладения коммуникативными навыками в силу своей чуткости к языковым явлениям, интереса к осмыслению речевого опыта, общению.

Каково же значение коммуникативной компетенции для младшего школьника?

**Во-первых**, она влияет на учебную успешность. Простой пример, если ученик стесняется отвечать у доски или испытывает при этом чрезмерную тревогу, его реальный ответ (как воплощение коммуникативной компетенции) будет хуже имеющих знаний, а его оценка, соответственно, ниже. Полученный

негативный опыт отрицательно повлияет на последующую учебную деятельность.

**Во-вторых**, от коммуникативной компетенции во многом зависит процесс адаптации ребёнка в школе, его эмоциональное благополучие в классном коллективе. Если он легко находит общий язык с одноклассниками, то испытывает психологический комфорт. И наоборот, неумение контактировать с окружающими сужает круг друзей, вызывает ощущение дискомфорта, а в дальнейшем может спровоцировать асоциальные формы поведения и даже агрессию.

**В-третьих**, коммуникативная компетенция может рассматриваться в образовательном процессе не только как условие сегодняшней эффективности, но и благополучия его будущей жизни.

Главные условия, способствующие развитию коммуникативных умений: компетентность учителя.

В традиционной школе 60-70% учебного времени занимает речь учителя. Это убивает активность детей, приводит к пассивной и незаинтересованной работе учащихся.

Детям начальных классов свойственна определенная собственническая позиция, они не любят, когда сосед по парте заглядывает в их тетрадь, а уж порисовать или раскрасить картинку в своей тетради они не позволят никому. Дети закрывают ладошками выполненные работы.

Учебники нацеливают детей на работу в паре, в группе, предлагают посмотреть у соседа, сравнить свою работу с работой одноклассника, обменяться тетрадями, оценить работу соседа. В учебниках существуют условные значки, с помощью которых, ребёнок сам ориентируется. Парная и групповая работа способствует формированию нравственных основ личности. Она учит налаживать контакт, доверять соседу по парте, планировать общую работу, распределять обязанности, обсуждать предложенную учителем проблему, осваивать умения устного общения – доказательно излагать свою точку зрения, уважительно выслушивать чужую точку зрения, принимать общее решение, осуществлять взаимопроверку, таким образом, формируется так называемая корпоративная и коммуникативная компетенции.

Одно из главных условий организации диалога – это создание атмосферы доверия и доброжелательности. Выстраивая отношения, можно выделить некоторые правила ведения диалога:

- любое мнение ценно;
- ты имеешь право на любую реакцию, кроме невнимания;
- повернись так, чтобы видеть лицо говорящего,
- хочешь говорить – подними руку;

- дай возможность другому высказать своё мнение, а себе – понять его;
- обращение начинается с имени;
- критика должна быть тактичной;
- отсутствие результата – тоже результат;
- голос – твой божественный дар, умей им владеть

Развивая коммуникативные умения нужно помнить, что только хорошо продуманная система может дать положительные результаты.

На первом этапе учащиеся под руководством учителя отрабатывают в себе следующие умения:

- готовность учащихся участвовать в урочном общении;
- отвечать на вопросы, давая полный ответ;
- задавать вопросы, следя за темой;
- делать сообщения.

На втором этапе учащиеся приобретают следующие умения:

- простота и чёткость речевого высказывания;
- отработка умения сделать своё высказывание понятным каждому;
- умение подбирать примеры, подтверждающие высказывание;
- вступать в контакт с другими людьми.

На третьем этапе уже отрабатываются умения коммуникативного сотрудничества:

- умение вести беседу в паре, группе;
- умение вести конструктивный диалог, дебаты;
- умение участвовать в дискуссии;
- участвовать в конференциях, играх.

Развитие коммуникативных умений – непрерывный педагогический процесс, требующий усилий совместной деятельности ученика и учителя. Ценность и значимость коммуникативных умений в том, что они выходят за рамки чисто учебных умений. За четыре года ученик встречается с сотнями учебных задач, решения которых, не помогают ему справиться с элементарной жизненной ситуацией. Коммуникативные задачи – это те ситуации, с которыми ребёнок постоянно встречается в жизни. Сформированные коммуникативные умения это уже новообразования личности, которые присваиваются личностью и становятся её достоянием. Коммуникативный ребёнок умеет слушать и слышать, и не только делиться переживаниями, но и сопереживать.

#### *Список используемой литературы*

1. Букатов В.М. Я иду на урок: хрестоматия игровых приемов обучения: книга для учителя / В.М. Букатов, А.П. Ершова. – М.: Первое сентября, 2011

2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. / Л.С. Выготский; под ред. В.В. Давыдова. – М.: Педагогика – Пресс, 2009
3. Петровский В.А. Учимся общаться с ребенком / В.А. Петровский, А.М. Виноградова, Л.М. Кларина. – М.: Просвещение, 2008

## ВНЕУРОЧНАЯ РАБОТА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***К.Шамсиева***

***Учитель начальных классов школы №48 г. Самарканда***

**Аннотация:** в статье рассматривается роль внеурочной работы с младшими школьниками, создание условий для творческой работы на внеурочных занятиях.

**Ключевые слова:** профессиональное мышление, особенности, процесс, образовательный процесс, дополнительное образование

Школе будущего педагоги должны быть с изменённым профессиональным мышлением, новой личностно-профессиональной позицией. Как отмечено в образовательных стандартах, педагог должен принимать ценностные ориентации и нравственные нормы, определяющие атмосферу в образовательном учреждении, обладать высокими моральными качествами.

Каждому педагогу важно изменить угол зрения и свою позицию, увидеть в ученике саморазвивающуюся личность. Стать садовником нового побега, и разыгрывать сценарии педагогических событий в соответствии с личностными особенностями учеников, для развития конкретных свойств конкретного ученика в нужное именно для него время и в уместных именно для него обстоятельствах. Только так педагог способен помочь ребёнку в решении его естественно-культурных, социально-культурных, социально-психологических задач.

Внеурочная работа - составная часть учебно-воспитательного процесса школы, одна из форм организации свободного времени учащихся. Направления, формы, методы внеурочной (внеклассной) работы, а также приемы использования информационных и коммуникационных технологий в этом виде деятельности школьников практически совпадают с направлениями, формами и методами дополнительного образования детей, а также с методами его информатизации. Внеурочная работа ориентирована на создание условий для неформального общения школьников одного класса или учебной параллели, имеет выраженную воспитательную и социально-педагогическую направленность (дискуссионные клубы, вечера встреч с интересными людьми,

экскурсии, посещение театров и музеев с последующим обсуждением, социально значимая деятельность, трудовые акции). Внеурочная работа - это хорошая возможность для организации межличностных отношений в классе, между школьниками и классным руководителем с целью создания ученического коллектива и органов ученического самоуправления. В процессе многоплановой внеурочной работы можно обеспечить развитие общекультурных интересов школьников, способствовать решению задач нравственного воспитания. Внеурочная работа тесно связана с дополнительным образованием детей, когда дело касается создания условий для развития творческих интересов детей и включения их в художественную, техническую, эколого-биологическую, спортивную и другую деятельность. Дополнительное образование школьников - составная часть системы образования и воспитания детей и подростков, ориентированная на свободный выбор и освоение учащимися дополнительных образовательных программ. Само дополнительное образование школьников органически связано с учебно-воспитательным процессом в школе, внеурочной работой. Цель дополнительного образования школьников, а значит и внеурочной деятельности - развитие мотивации детей к познанию и творчеству, содействие личностному и профессиональному самоопределению учащихся, их адаптации к жизни в обществе, приобщение к здоровому образу жизни. Связующим звеном между внеурочной работой и дополнительным образованием детей выступают различные факультативы, школьные научные общества, учебные курсы по выбору. В зависимости от целей и задач, решаемых ими, содержания и методов работы их можно отнести и к той и к другой сфере образовательного процесса. Однако следует помнить о том, что дополнительное образование школьников предполагает, прежде всего, реализацию образовательной дополнительной программы по конкретному направлению деятельности или области знаний. В системе общего среднего образования предпочтение отдается учебному направлению внеурочной работы - учебной деятельности школьников. Учебная деятельность - один из основных видов деятельности школьников, направленный на усвоение теоретических знаний и способов деятельности в процессе решения учебных задач. В свою очередь, внеучебная деятельность - это один из видов деятельности школьников, направленный на социализацию обучаемых, развитие творческих способностей школьников во внеучебное время. Все перечисленные выше виды деятельности школьников, несмотря на наличие индивидуальных специфических характеристик, тесно связаны между собой, что должно быть отражено в развитии процессов информатизации соответствующих направлений образовательной деятельности и объединении информационных

средств и ресурсов, используемых при информатизации разных видов деятельности школьников.

Основными целями информатизации внеучебной и внеурочной деятельности школьников являются:

□ вовлечение школы в построение единого информационного пространства (создание сайта);

□ формирование у школьников мировоззрения открытого информационного общества, подготовка членов информационного общества;

□ формирование отношения к компьютеру как к инструменту для общения, обучения, самовыражения, творчества (сайты класса);

□ развитие творческого, самостоятельного мышления школьников, формирование умений и навыков самостоятельного поиска, анализа и оценки информации, овладение навыками использования информационных технологий (школьная газета, классные газеты, классные уголки, информационные стенды, тематические открытки к знаменательным датам, информационные листовки, буклеты)

### **Использованная литература:**

1.Андиади, И.П. Основы педагогического мастерства: учебное пособие для студентов средних педагогических учебных заведений / И.П. Андиади. – М.: Академия, 1999. – 160с.

2. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогической технологии / В.П. Беспалько. – М.: Педагогика, 1989. – 198 с.

3. Гессен, С.И. Основы педагогики. Введение в прикладную философию / С.И. Гессен; отв. ред. и сост. П.В. Алексеев. – М.: Школа-Пресс, 1995. – 448 с.

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*M.A.Abdurasulova*

*Samarqand davlat universiteti talabasi*

**Annotasiya:** Didaktik o‘yinlardan alohida foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo‘lgan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Turli o‘quv fanlariga oid didaktik o‘yinlar mavjud bo‘lib, ular shu fanlarni sifatli o‘rgatish maqsadlariga xizmat qiladi

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yin, ishchanlik o‘yini, krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar, rebuslar, kriptogrammalar intellektual o‘yinlar.

Didaktik o‘yin o‘rganilayotgan voqeа va hodisalarning immitatsion modeli yaratilishi sohasidagi aktiv faoliyatdir. O‘yining boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o‘yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o‘quv faoliyatidir. Didaktik o‘yinda o‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olgan ta‘limiy vazifalarning bo‘lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o‘yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to‘playdigan turlariga e‘tibor qaratishlari lozim. Didaktik o‘yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat‘iyligidir. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o‘yin mantiqi, o‘yining harakati, o‘yin qoidasi. O‘yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O‘yin harakati jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilishiga, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi. O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqini ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlarda ma‘lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi.

O‘yinda ma‘lum bir didaktik maqsad qo‘yiladi va bu maqsadga erishilishi o‘quvchilarda ma‘naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinlar hamma vaqt ham o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishi yoki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash ko‘rsatgichi hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlarning hamma tarkibiy komponentlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birortasining bo‘lmasligi mumkin emas<sup>1</sup>. Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda didaktik o‘yinlardan keng foydalanish an‘analari o‘qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlantirildi. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta‘kidlab, aynan o‘yin bolaning tabiatи va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o‘yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o‘stirishini ta‘kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birligida o‘yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi. Bolalar tarbiyasida didaktik o‘yinlardan ikki yo‘nalshda foydalaniлади: Barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda. O‘yin o‘quvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O‘yin – muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutqi boyligi oshadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchining turlituman qobiliyatları, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega

bo‘lgan o‘yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma‘lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o‘yinlarda aniq qoidalar berilgan bo‘ladi.

Tayyor qoida va mazmunga ega bo‘lgan o‘yinlarga quyidagi xususiyatlar xos bo‘ladi: o‘yin g‘oyasi va vazifasi o‘yin ta‘sirida amalga oshiriladi.

O‘yin g‘oyasi (yoki vazifasi) va o‘yin ta‘siri o‘yin mazmunini tashkil etadi; o‘yin ta‘siri va o‘ynayotganlar munosabatlari o‘yin qoidasi asosida boshqariladi. Qoidalar va tayyor o‘yin mazmuni o‘quvchilarni o‘yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi. Didaktik o‘yinlarni uch turga ajratish mumkin: og‘zaki, so‘zlar yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar, o‘yin mashg‘ulotlari, mashq (harakatli) o‘yinlari.

Didaktik o‘yinlar uchun o‘yin g‘oyasi va o‘yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yining eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmuni amalga oshadi. Qoidaning mavjudligi o‘yin ta‘sirini amalga oshirish va o‘yin vazifasini qo‘llashga yordam beradi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmunini amalga oshirish dunyoqarashi shakllanib boradi. Didaktik o‘yinda o‘quvchi qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o‘yin muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.

O‘yinda qatnashish jarayonida ijobiy xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi. Foydalanilgan material turlariga qarab ham didaktik o‘yinlarni uch turga ajratish mumkin: predmetli o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, so‘zlar vositasida o‘ynaladigan og‘zaki o‘yinlar.

Predmetli o‘yinlar – xalq didaktik o‘yinchoqlari, turli tabiiy mozaika materiallari yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar. Bular yordamida o‘qituvchi o‘yin turlarini belgilaydi. Masalan, tabiiy materiallар bo‘laklaridan butun manzarani hosil qilish; stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning kengayishiga, o‘quvchilarni bilimga qiziqtirishga, tafakkur jarayonlarini(analiz, sintez, umumlashtirish, tasniflash va b.) rivojlantirishga xizmat qiladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlarning bir necha turlari mavjud: o‘xhash suratlar, loto, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.

So‘zlar vositasida o‘ynaladigan og‘zaki o‘yinlar. Bu o‘yinlar guruhiga juda katta xalq o‘yinlari, ya‘ni “Zanjir”, “Noto‘g‘ri jumla”, “Bo‘lishi mumkin emas” va b. Bunday o‘yinlar diqqatni, xotirani rivojlantiradi, o‘quvchilarni fikrlarini to‘plashga, tez fikrlashga, bog‘lanishli nutqqa, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Har bir bosqichda bolaning ma‘lum bir imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining bu bosqichlar xarakterini bilishi didaktik o‘yinlarning samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Birinchi stadiyada bolada o‘ynash ishtiyoqi paydo bo‘ladi va o‘yinda faollik ko‘rsata boshlaydi. Ana shu bosqichda bolani o‘yinga qiziqtirish maqsadida topishmoqlar, she‘r aytishlar, aytishuvlar yoki suhbatlar tashkil qilish mumkin. Ikkinci bosqichda bola o‘yin

topshiriqlarini bajarish, qoidaga rioya qilishga o'rganadi va o'yinga qatnashishga kirishadi. Bu bosqichda bolalarda to'g'riso'zlik, maqsadga erishishga astoydil kirishish, irodaviylik, o'yinda yutqizish alamini ham yenga bilish, o'z muvaffaqiyatidangina emas, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan ham quvona bilish kabi ijobjiy sifatlar shakllanadi. O'yining uchinchi bosqichida bola o'yin qoidalarini yaxshi biladi. U endi o'yinga ijodiy yondoshadi, o'zi yangiliklar kiritadi, mustaqil ijodiy izlanadi. O'yinda qatnashish jarayonida u tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, tasvirlash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi. O'yining har bir etapi ma'lum bir pedagogik vazifalarni o'z ichiga oladi. O'yining birinchi bosqichida pedagog bolalarni o'yinga qiziqtiradi, ularda xush kayfiyat, yangi o'ylarni kutishga ishtyoq uyog'otadi. ikkinchi etapida esa u o'yinni kuzatuvchi emas, balki qatnashchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, o'yin davomida bolalarga tez yordamga keladi, bolalarning faoliyatiga to'g'ri baho beradi. O'yining uchinchi etapida o'qituvchi bolalarni o'yin davomidagi ijodkorligi va faolligiga baho beradi. Didaktik o'ylar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to'g'ri va samarali metodidir. U ma'lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o'qituvchidan o'yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. O'yining ma'lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. O'yin mashg'ulotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadi va shundagina o'quvchilar o'yining samarali yechimlarini topa biladilar, o'zları va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar. O'yindan ta'lim shakli sifatida foydalanish o'qituvchidan o'ziga ishonch va o'yinni qo'llashda mohirlik talab etiladi.

Eng yaxshi didaktik o'ylar mustaqil ta'lim olish prinsipida tuzilgan, ya'ni, shunday tuzilganki, ularning o'zi o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga qarab yo'naltiradi. Ma'lumki, ta'lim olish ikkita komponentni o'zida jamlaydi: kerakli ma'lumotni to'plash va to'g'ri yechimni qabul qilish. Bu komponentlar o'quvchilarda didaktik tajribani ta'minlaydi. Lekin, tajribaga ega bo'lish ko'p vaqtini talab qiladi. O'quvchilarda "bunday tajribaga ega bo'lish"ni ko'paytirish, ularni mustaqil ravishda bu ko'nikmalarga ega bo'lish mashqlariga o'rgatishdan iboratdir. Bunga psixologik tavsifdagi rivojlantiruvchi o'ylarni kiritish mumkin: krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar, rebuslar, kriptogrammalar va boshqalar.

Didaktik o'ylar o'quvchilarda predmetga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, har bir o'quvchini individual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bilish faolligini tarbiyalaydi. Didaktik o'yining muhimligi, u bolalar tomonidan qanday reaksiya qilinishi bilan emas, balki u yoki bu masalani yechish har bir o'quvchi

uchun tadbiq qilinishining samaraliligi bilan aniqlanadi<sup>2</sup>.

Didaktik o‘yinlarning natijaviyligi, birinchidan, ulardan tizimli ravishda foydalanishga, ikkinchidan, o‘yinlar dasturining oddiy didaktik mashqlar bilan birgalikda maqsad sari yo‘naltirilganligiga bog‘liq.

Masalan, bilish faolligini rivojlantirish muammosini hal etishda, bolalarning mustaqil tafakkurini rivojlantirish asosiy masala deb hisoblanishi zarur.

Demak, kichik maktab yoshida, o‘yinlardan bolalarning o‘quv va mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi va tashkil etuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Ta’lim jarayonida o‘yin elemenlari o‘quvchilarda ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirib, ularning faolligini oshiradi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, o‘yin tavsifiga ega, mehnatga taaluqli topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradilar. O‘yin faoliyati bolalarni ruhiy hayotining barcha tomonlarini shakllanishida, masalani qo‘yilishida va harakatlanish usullarini tanlashda yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlataladigan har bir material bilan ishslash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta’minlashtexnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko‘zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan turli foydalanish mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizzxo‘jayeva.N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.– T.:2003.-174 b.
2. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. B. 31-61.
3. Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘zbekiston. 2000. - 245 b.
4. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: 1968. 106-107 b.
5. Bespalko V.P. Slagaeme pedagogicheskoy texnologii. –Moskva: Pedagogika, 1989. - 190 b.

Internet saytlari . google.com, arxiv.uz

# 8-YO‘NALISH

## YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KITOB VA MUTOLAANING AHAMIYATI

### O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH VA KASB TANLASHGA O‘RGATISH

*I.D.Abduraxmonova  
Oqdaryo tumani 20-IDUM o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda ularni kasbga yo‘naltirishda, Vatanparvar, insonparvar qilib tarbiyalash jarayonida o‘qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko‘mikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs xislatlari, o‘quvchi psexalogiyasi hamda o‘quvchilarni tanlagan kasbi bilan Vataniga sadoqat bilan xizmat qilish to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Vatanparvarlik, insonparvarlik, komillik, kashfiyot, real, mehr, sadoqat, pedagog, kasb-hunar, innavatsion, tafakkur, intelektual

Mamlakatimiz Prezidenti har gal gaplarida va ma’ruzalarida “Farzandlarimizni Vatanparvar va insonparvar qilib tarbiyalashimiz kerak. Ularning ongiga Vatan muqaddas ekanligini uqtirishimiz kerak” degan gaplarini juda ko‘p ta’kidlaydilar. Shu o‘rinda Vatan, nima degani, Uning ma’nosni nima? Degan savol tug‘iladi.

Vatan so‘zi-arabcha so‘z bo‘lib “Ona yurt” degan ma’noni anglatadi. Kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati, har-bir xalqning o‘ziga tegishli bo‘lgan xududi hamda tabiat, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odat, an’analari va madaniy me’roslari majmuidir.

Tarixdan bizga ma’limki, ota-bobolarimiz mana shunday tinch, farovon, ozod va obod vatanni qurish yo‘lida jon fido qilib o‘tishgan. Negaki, vatanga bo‘lgan muhabbatularni shu yo‘lda o‘z jonlarini fido qilishga chorlagan. Hech kim hech qachon o‘z vatanini dushmanqa ravo ko‘rmaydi. Hattoki bir qarich yeri uchun ham o‘z jonini fido qiladi. Vatanga bo‘lgan muhabbat shunday hissiyotki uni tushuntirib berishga so‘z ojiz.

Darhaqiqat, Vatan muqaddasdir, Vatan sajdahohdir. Vatanni qancha ta’riflasak shuncha oz. Kindik qoning to‘kilgan muqaddas zaminni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, uning dahlsizligi va osoyishtaligi hamda taraqqiy etishida o‘z hissamizni qo‘sish bu biz uchun ham farz, ham qarzdir. Shunday ekan, Vatanimizni yanada rivojlanishi va gullab yashnashi uchun biz, birlashib hamjihatlikda, do‘stona va mardona ma’rifat bilan kurashishimiz kerak. Birlashib biz katta kuchmiz.

O‘quvchilarga Vatanparvarlik, vatanga xizmat qilish tushunchalarini ayrim o‘qituvchilar, faqat Vatan himoyachilarigina vatanga xizmat qiladi deb o‘rgatishadi va 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” bayramida Vatan, Vatanparvarlik, vatanga xizmat qilish haqida tushuncha berib o‘tishadi. Yo‘q, also unaqa emas! Vatan haqida o‘quvchilarga har kuni tushuncha berish lozim. Shunda o‘quvchilarni vatanga bo‘lgan mehr-muhabbati hamda vatan oldidagi burchi va ma’suliyati kundan kunga o‘sib boraveradi.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi bu- insonning turli sohalarda maqsadli, mustaqil faoliyati asosida uning intelekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda.

Dunyoda 1000 dan ortiq kasblar va hunarlar bor. Hamma o‘zi sevgan kasb yoki hunar egasi bo‘lishadi. Ana shu egallagan kasbi yoki hunari bilan Vatanga xizmat qiladi. Inson kasb-hunar o‘rganganda mehr bilan, muhabbat bilan o‘rgansa, o‘sha kasb-hunarining mohir ustasi bo‘lib yetishadi. Ishi sifatli va mustahkam bo‘ladi. Kasbiga bo‘lgan muhabbatidan unda turli xil real g‘oyalar, go‘zallik, nafosat, haqiqiy ijod paydo bo‘ladi, kashfiyotlar, ajoyib san’at asarlari yaratadi. Masalan: O‘qituvchilar o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berib Vatanga xizmat qilsa, shifokorlar esa insonlarni davolab vatanga xizmat qiladilar. Shoirlar go‘zal she’rlar yozsa, yozuvchilar esa insonlarni Vatanparvarlikka, insonparvarlikka, mehnatsevarlikka, komillikka yetaklovchi asarlar yaratib vatanga xizmat qiladilar. Tikuvchilar odamlarga chirolyi liboslar, kiyimlar tikib, quruvchilar esa odamlarga chirolyi va hashamatli binolarni qurib vatanga xizmat qiladilar. Haydovchilar shafyorlik qilib odamlarni uzog‘ini yaqin qilsa, avtomobil ishlab chiqaruvchilar esa odamlarni mushkulini oson qilish uchun turli xil rusumdagи mashinalar ishlab chiqarib vatanga xizmat qiladilar. Dehqonbobolarimiz yerga mehr berib biz, mazali ovqatlar, salatlar tayyorlashimiz uchun turli xil sabzavotlar, poliz ekinlarini yetishtirib bersa, bog‘bon bobolarimiz esa shirindan shakar mevalarni van oz-u ne’matlarni yetishtirib berib vatanga xizmat qiladilar. Temirchi, mebilchi, kulol usta-duradgor, hunarmand bobolarimiz kundalik turmushimizda ishlatiladigan asbob-uskunalarni yasab vatanga xizmat qiladilar. Insonning kasbiga bo‘lgan mehri qanchalik kuchli bo‘lsa, uning qalbi shunchalik ezgulikka limmo-lim bo‘ladi. Chunki yangi g‘oya, tafakkur, ijod, insonning qalbidagi qaynoq mehrdan qaynab chiqadi. Inson esa uni real hayotda innavatsion g‘oyalar bilan namoyon etadi.

Kasb tanlash-inson hayotidagi eng muhihim qadamdir. Har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uchun fuqarolarning aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intelektual merosi hamda

umuminsoniy qadriyatlari asosida madaniyat, ma'rifat, fan-taxnalogiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. O'quvchilar kasblarni tahlil qila olishi, o'zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to'g'ri baholay oishlari, kasblarning insonga qo'yadigan talablari bilan o'zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay oishlari, shaxsiy, kasbiy rejalarini tuza oishlari zarur.

Oquvchilarning kasb tanlashda faqat o'qituvchilarning emas, balki ota-onalarning o'rni ham katta ahamiyatga ega. Chunki farzandi biron bir kasbni tanlaganda, o'qituvchi unga o'sha kasbning sir-asrорлари, ma'suliyati, mashaqqati va yutuqlari haqida tushunchalar berib, o'sha tanlagen kasbi bilan faxrlanishni, vataniga munosib farzand bo'la olishini o'rgatsa, ota-onsa esa farzandining tanlagen kasbi bilan, erishgan yutuqlari bilan ota-onaning ham orzularini ro'yobga chiqara oladigan haqiqiy farzand bo'lishini uqtirsa, farzandda tanlagen kasbiga bo'lган mehr-muhabbati yana ham ortadi. Aksincha, farzandining orzulariga, tanlagen kasbiga qarshi chiqsa, sen o'zing tanlagen kasb egasi emas, biz tanlagen kasb egasi bo'lsan deb uning ruhiyatini sindirsa, farzand na o'zi tanlagen kasb egasi bo'ladi na ota-onasi tanlagen kasb egasi bo'ladi. Chunki o'zi xoxlamagan kasb egasi bo'lish u uchun ancha qiyinchiliklarni tug'dirish mumkin. Shuning uchun ota-onas farzandini har tomonlama, ham ma'naviy, ham moddiy tomonidan qo'llab quvvatlashlari lozim. Ana o'shanda farzandi o'zları orzu qilgan farzand bo'lib voyaga yetadilar.

Xulosa qilib aytganda har-bir fuqaro tug'ilib o'sgan yurtiga, vataniga o'zining kasbi bilan, sadoqat bilan xizmat qiladi. Pedagoglar o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda ularni kasb tanlashga, tanlagen kasbi bilan vataniga sidqidildan xizmat qila oishlarini tushuntira oishlari kerak. Ota-onalar farzandining kelajakda Vatanparvar, insonparvar bo'lib voyaga yetishlarida o'qituvchi bilan birgalikda, hamkorlikda ish olib borsalar ota-onas ham, o'qituvchi ham shak shubhasiz ko'zlagan maqsadiga albatta erishadilar. Ota-onaning farzandiga bergen to'g'ri tarbiyasi esa farzandini yuksaklikka, komillikka yetaklaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tarbiya ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti. T-2010-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni II O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 6-soni.
3. Ermatova G.N. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar.

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ODOB MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

*H.Ibragimova*

*Samarqand shahar 14-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bashlang‘ich sinf o‘quvchilarida odob madaniyatini shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari bayon qilingan.

**Kalitso‘zlar:** ko‘nikma, konsepsiya, poydevor, mashoyixlar, mutaxassis, madaniyat, donishmand, oqilona.

Boshlang‘ich ta’lim umumiyligi o‘rta ta’limning asosidir. “Ta’lim tog‘risida”gi Qonunda “Bashlang‘ich ta’lim ta’im oluvchilarda umumiyligi o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan”ligi alohida ta’kidlangan. Binoning mustahkamligi ko‘p jihatdan poydevoriga bog‘liq bo‘lgani kabi umumiyligi o‘rta ta’limning asosi ham boshlang‘ich ta’limiga bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasida sohani rivojlantirishning maqsadi va vazifalari o‘z aksini topgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekistonni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PFJ-588/21-sonli Farmoni loyihasida ham “Yangi O‘zbekiston-ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish”ga alohida e’tibor qaratilgan. Bu bejiz emas. Chunki O‘zbekistondek kelajagi buyuk davlatni ilmli, ma’rifatli, ma’naviyatli bir so‘z bilan aytganda jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrga ega bo‘lgan barkamol avlodgina barpo eta oladi.

Shu bois, kichik yoshdagi o‘quvchilarda odob madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Sababi, farzandlarimizda yoshligidanoq mehnatsevarlik, kitob o‘qishga muhabbat, ota-onani, yoshi kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda bo‘lish, ma’naviy uyg‘oq, or-nomusli, milliy g‘ururi baland, iymon-e’tiqodli, vatanga sadoqatli, insofli halol, sabr-qanoat, uyat-andisha, sharm-hayo kabi odob qoidalarini shakllantirish mustaqilligimizni mustahkamlaydigan, el-yurt osoyishtaligi, xalqimizning tinchligi va farovonligini ta’minlashga vijdonan xizmat qiladigan barkamol avlod voyaga yetishga xizmat qiladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun uzluksiz ta’lim tizimining ushbu bo‘g‘inida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, boshlang‘ich ta’limning o‘quv reja va dasturlari yangilandi, darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Ularning mazmun-mundarijasi shaxsni shakllantirishga qaratilgandi. O‘quv xonalari bugungi kun talablari darajasida jihozlandi, sohani oliy ma’lumotli kadrlar bilan ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Bizning boshlang‘ich ta’limdagisi asosiy vazifalarimizdan biri

ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda kichuk yoshdag'i o‘quvchilarda milliy odob madaniyatini shakllantirishdan iborat. Xalqimiz “Bola aziz, odobi undan aziz” deb bejizga aytmagan. Ushbu naql asrlar sinovidan o‘tgan. Pedagogika fanining izohli lug‘atida-odob bolaligidan boshlanadi, yosh ulg‘ayishi bilan insonning odab darajasi kengayib boradi. Odob inson faoliyatini belgilovchi jarayon bo‘lib, uni xatolardan saqlaydi. Natijada kishining xulqiy go‘zalligi ortadi, deb ta’kidlangan. Pedagog olima Zuhra Ismoilova odob-axloq shaxsning o‘ziga va dunyoga munosbatlariga olib boruvchi hatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan, usuli bo‘lib, sababiyat, tasavvurlar va qarashlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni shaxsni shakkalanadigan manbai hisoblanadi deb ta’kidlagan.

Xalqimizning qalbidan joy olgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” kitobida odobning ta’rifi, ahamiyati, manbai va farzandlar tarbiyasiga oid ibratli fikrlar yuritgan. Masalan, “Odob bo‘lmaquncha, Haq va xalq bilan sayri suluk bo‘lmasa” deyilgan. Shuning uchun ham mashoyixlar “Kim nimaga erishsa, faqat odobi bilan erishadi. Kim nima bilan qulasa, faqat beodobligi bilan qulaydi” deganlar. Shunigdek, kishi odobli bo‘lsa piyolani avaylab ishlatadi, toza tutadi. Natijada piyola uzoq vaqt unga ko‘ngildagidek xizmat qiladi. Agar o‘sha odam piyolaga nisbatan beodoblik qilsa, uning labi uchadi, kir bo‘ladi, darz ketadi va oxiri sinadi.

Qator yillardan buyon boshlang‘ich sinflarda dars berib kelaman. Muayyan tajriba to‘pladim. Bilmaganlarimni kasbdoshlariamdan, tajribali mutaxassislardan so‘rab o‘rgandim. O‘tgan yillar davomida kichik yoshdag'i o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga harakat qildim. Muhimi ularni shaxs sifatida shakllantirishga intildim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida odob madaniyatini shakllantirishda “Tarbiya” darsining imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga intilyapman. Bundan tashqari boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan fanlararo integratsiyani, ya’ni aloqadorlikning imkoniyatlaridan ham yetarlicha foydalanishga intilyapman.

Sinfda va maktabdan tashqari o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar, urush va mehnat faxriylari bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar, muhim sanalarni nishonlashga bag‘ishlangan tadbirlar orqali, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali ham ularda odob madaniyatini shakllantiryapman. Bundan tashqari xalq donishmandligining durdonalaridan foydalanish, mutafakkirlarning bolalarda odob madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq fikrlari asosida rolli o‘yinlar tashkil etish, “aqliy sayohat”lar uyuştirish kabi tadbirlarni ham amalga oshiryapman.

O‘quvchilarda odob madaniyatini shakllantirish bu mavsumiy ish emas. Avvalo oilada, so‘ngra uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida uzviylik asosida davom etadigan jarayondir. Shu bois ulardan oqilona foydalanish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Zero odob madaniyati shakllangan farzandlar millatimizning ko‘rkidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekistonni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyoti strategiyasi” tog‘risida. PFI-588/21 formoni loyihasi.
2. J.Xasanboyev va boshqalar. Pedagogika fanlari izohli lug‘at ”Fan va texnologiyalar”, 2009. 399 b.
3. Shayx Muhammad Solih Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. “Hilol nashr” T:2015 yil.

## **BOLALAR TARBIYASIDA ERTAKLARNING MA’NAVIY AHAMIYATI**

***I.D.Abduraxmonova***  
***Oqdaryo tumani 20-IDUM o‘qituvchisi***

**Annotatsiya.** Maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini va bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Axloqiy tuyg‘u, ko‘nikma, xulq, tafakkur, innovatsiya, mimika, pantomimika, analiz, sentez, mehnatsevarlik, Vatanparvarlik, insonparvarlik.

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrda milliy tarbiyashunoslik maqsad va vazifalari sog‘lom ruhiyatli shaxsni shakllantirish, unga ma’naviy sifatlarni singdirish, aqliy va ruhiy kamolotiga erishuviga ta’sir ko‘rsatish, ijodiy hamda mustaqil fikrli insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan uzviy tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag‘bat, mehr va muhabbat uyg‘otish, ularning boy ma’naviy dunyosini shakillantirish hamda og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirishni ko‘zda tutadi. Xalq og‘zaki ijodi turli davrlardagi xalq hayotini, inson ruhiyatining o‘ziga xos qirralarini kashf etuvchi san’atdir.

Har qanday davlat taraqqiyoti ta’lim tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar, uning jahon andozalariga mosligi va amaliy hayotda o‘rin tutishlariga bog‘liq. Sifat o‘zgarishlari esa mazkur sohada ijobjiy yangiliklar krita olishi bilan belgilanadi. O‘z navbatida bunday yangiliklarni kiritish innavatsion jarayon bo‘lib bu ta’limda samaradorlikka erishish bo‘ladi. Bu borada boshlang‘ich ta’lim sohasida o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish jarayonida olib boriladigan o‘zgarishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘z san’atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo‘lishi bilan yuzaga kela boshlagan. Ertak termini Mahmud Qoshg‘ariyning ”Devoni lug‘otit turk”

asarida “etuk” shaklida uchraydi va “biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish” ma’nosini bildiradi. Ertaklar yana xalq orasida matal, ushuk, varsaqi, cho‘pchak deb ham ataladi.

Ertak- xalq og‘zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta kichiklar uchun baravar qiziqarli bo‘lgan janrdir. Ular juda uzoq o‘tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifalogik dunyoqarashi, qadimiy urf odatlari, marosimlari asosida paydo bo‘lgan. Ertaklarda odatda, xalqning maishiy turmushi va eng oljanob insoniy fazilatlari haqidagi orzu o‘ylari xayoliy va xayotiy uydurmalar vositasida bayon etiladi.

O‘zbek ertaklari sehrli fantastik ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy hayotiy ertaklar kabi ichki turlarga bo‘linadi. Deyarli barcha ertaklarning g‘oyaviy yo‘nalishi yagona maqsadga-mehnat ahlining buyuk va yorqin kelajak uchun olib borilgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. Shuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murodga erishishdan iborat umidbaxsh g‘oya bilan yakun topadi.

Ertaklarda voqealar asosan mo‘jizali tarzda ifodalanadi. Binobarin mo‘jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarini hayat bilan bog‘lab, haqiqat, ozodlik, to‘g‘rilik, odamiylik kabi didaktik g‘oyalarni tashviq etadi, suyujet rivojiga kuch bag‘ishlaydi, tinglovchi e’tiborini o‘ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg‘ular dunyosiga g‘arq etadi.

O‘zbek xalqi ham Yevropa xalqi ham farzandlarimizni ertak aytib uxlatamiz va tarbiyalaymiz. Ertaklar insonlarni vatanparvarlikka, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka, halollikka, to‘g‘ri so‘zlikka va mehr muhabbatli bo‘lishga, ulug‘likka undaydi.

O‘qish, odobnama, sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qituvchi ertakni o‘qib, mazmunini bolalarga tushuntirib beradi. O‘qituvchi ertakni o‘qiyotganda rollarga kirishib o‘qishi kerak. Masalan; mard, jasur, to‘g‘ri so‘z ertak qahramonlari baland ovozda qo‘rmasdan bemalol gapiradi. Ularni xalqi ham hurmat qiladi, ular boshlarini baland tutib g‘urur bilan yashaydilar. Aksincha, qo‘rroq, yolg‘onchi, g‘arazgo‘y, chaqimchi ertak qahramonlari past, titroq ovozda qo‘rqib, ko‘zlarini olazarak bo‘lib, xalqqa aralashmay o‘zlarini pana joylarga olib, qilmishlaridan uyalib qisinib-qimtinib yurishadi.

O‘qituvchi ertak qahramonlarining gapirishlarini, yurish turishlarini, hatti-harakatlarini mimika va pantomimikalar orqali bolalarga namoyish etib, ko‘rsatib bersa, ertakda bo‘ladigan voqealar, ertakning mazmun mohiyati bola ongiga tez yetib boradi. U o‘qituvchining hatti-harakatlaridan ertakning mazmun mohiyatini anglab oladi. Ertak tugagach o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ertakni salbiy va ijobiy tomonlarini anliz va sintez qiladi.

Ertakning ijobiylar tomonlari: ertakning qiziqarli ekanligi, ertakdagisi maqollar, topishmoqlar, iboralarning mazmundorligi, yaxshilikning yovuzlikning ustidan g‘olib kelishi.

Ertakning salbiy tomonlari: bevafolik, tarqoqlik, do‘stiga va vataniga xiyonat, razillik va chaqimchilik qilgan ertak qahramonlarini Vatandan yiroqqa badarg‘a qilinishi yoki ularning og‘ir jazolarga hukm qilinishi.

Har-bir ertakda yaxshi va yomon xislatlarga ega bo‘lgan ertak qahramonlari uchraydi. Ana shu xislatlarni o‘quvchilarga “klaster”, “zanjur”, “yilpig‘ich”, “binafsha” usullari, metodlari orqali ko‘rsatib berilsa o‘quvchilar ertak qahramonlarining “yaxshi” va “yomon” xislatlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar.

### **III. Yangi mavzuni tushuntirish: “U kim mashqi”. 2-topshiriq**

Har bir guruh o‘ziga nom va sardor tayinlaydi. Guruhlar o‘zlarini tanishtiradilar.

**Dam olish daqiqasi:** Bunda o‘quvchilar “Hunar” haqidagi ertakni sahna ko‘rinishi orqali namoyish etadilar. Bitta o‘quvchi(ertakchi) ertakni aytib turadi. Ertak qahramonlari: podshoh, vazirlar va podshohning uchta o‘g‘li rol ijro etadilar.

Bir bor ekan bir yo‘q ekan. Qadim-qadim zamonda bir podshoh bo‘lgan ekan. Podshoh, odilona hukm chiqaradigan, oqilona ish yuritadigan, vijdonli, diyonatli, podshoh ekan. Podshohning uchta o‘g‘li bo‘lib, uchta o‘g‘lidan birini podshoh etib tayinlashi kerak ekan. Podshoh o‘g‘illarining qay birini podshoh etib tayinlasam ekan deb boshi qotibdi. Katta o‘g‘lini taxt vorisi etib tayinlay desa, katta o‘g‘li dangasaroq ekan, ko‘p mehnat qlishni yoqtirmas ekan. O‘rtancha o‘g‘lini taxt vorisi etib tayinlay desa, o‘rtancha o‘g‘il mol-u dunyoni xush ko‘rar ekan. U faqat oltin-u kumush yig‘ib kayf-u safo qilib yurar ekan. Kenja o‘g‘lini taxt vorisi etib tayinlay desa, ikkita katta o‘g‘lini xafa bo‘lishini o‘ylab boshi qotibdi. Podshoh nima qilishini bilmay bosh vazirini maslahatga chaqiribdi va bosh vazirga hamma gapni aytibdi. Vazir o‘ylab turib podshohga: o‘g‘illaringizni uch yilga uchta mamkakatga yuboring va uchallasiga ham davlatni boshqarish uchun biron bir yaxshi hunar o‘rganib kelishini aytинг debdi vazir. Podshoh uchala o‘g‘lini ham huzuriga chorlabdi va shunday debdi: rasmlar

- O‘g‘illarim, men endi qarib qoldim. Mening o‘rnimga shoh bolishga loyig‘ingizni topib, sizni taxtga o‘tqazishim kerak. Yurtni oqilona boshqaradigan, odilona hukm chiqaradigan, insofli, diyonatli, vijdonli, zehnli, halol va albatta hunarli bo‘lishingiz kerak debdi.

- Men sizlarga uch yil muhlat beraman. Shu uch yil ichida qay biringiz davlatni boshqara oladigan yaxshi hunar o‘rganib kelsangiz, o‘shaningizni taxtga o‘tqazib podshoh etib tayinlayman debdi podshoh.

Podshohning o‘g‘illari uch yilga uchta mamlakatga safarga jo‘nab ketibdi. Oradan uch yil o‘tib podshohning o‘g‘illari hunar o‘rganib qaytib kelibdi. Podshoh o‘g‘illarini huzuriga chorlabdi: rasmlar

-Xo'sh o'g'illarim, qayirlarda bo'ldingiz, nimalarni ko'rdingiz, qanday hunar o'rgandingiz so'ylangiz debdi podshoh. Shunda katta o'g'il so'yabdi.

- Otajon! Men sehrli mamlakatda bo'ldim va sehrgarlik sir asrorlarini o'rganib keldim. Kimning mushkuli bo'lsa men uni sehr bilan oson qilaman debdi.

Podshoh:yo'q o'g'lim, sehrgarlik hunar emas, u hammaga ham meros bo'lib qolmaydi-debdi. Navbat o'tancha o'g'ilga kelibdi. O'rtancha o'g'il:otajon! Men juda boy mamlakatlarda bo'ldim va bir dunyo oltin-u kumush olib keldim. Xalqim qiynalib qolganda men ularga oltin-u kumushlaridan ularshan debdi. Podshoh xo'rsinib:boylik hech qachon hunar bo'la olmaydi. Boylikning kelajagi yo'q, u bir kun kelib tez fursatda tugab qoladi. Sen ham bu oltining bilan xalqning ishonchini qozona olmaysan debdi. Navbat kenja o'g'ilga kelibdi.

-Xosh o'g'lim, qayirlarda bo'ldingiz, nimalarni ko'rdingiz, qanday hunar o'rgandingiz so'ylangiz, bor umidim sizdan debdi mehr bilan.

-Otajon! Men ko'p mamlakatlarda bo'ldim, oqil-u dono insonlar bilan suhbatda bo'ldim. Ularning nasihatlarini oldim. Xalol va vijdonli insonlar bilan do'st tutundim, ularning sadoqatli mehrlaridan bahramand bo'ldim. Hunarli kishilarning hunarlarini sir asrorlarini qunt bilan o'rgandim. Hunarim tufayli ulardan ko'p rahmatlar eshitdim. Sizning haqqizinga ham ko'p duolar aytishdi, tarbiya bergen ota-onanga ming rahmat deyishdi. Podshoh xursand bo'lib:borokollo o'g'lim, borokollo, ofarin. Sen podshoh bo'lib mamlakatni boshqarsang mamlakat albatta barqaror bo'lgay, u yanada gullab yashnagay.

Shunday qilib kenja o'g'il mamlakatga podshoh bo'libdi. Mamalakat yanada gullab yashnabdi. Xalqi farovon, tinch, totuv va baxtli-saodatli xayot kechiribdi.

O'quvchilar tomonidan ijro etilgan "Hunar" ertagi muallif tomonidan yaratilgan.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.** O'quvchilarni guruhlarga bo'lib darsni musobaqa tarzda tashkillashtiraman.

Xulosa qilib aytganda hozirgi davr talabiga javob beruvchi daraslarga juda ko'plab talablar qo'yilmoqda. Eng avvalo, texnika informatsiyasi kuchaygan davrda o'quvchining ongini har tomonlama rivojlantirish uchun, o'qitishni hayot bilan mustahkam bog'lab borish, dars jarayonida hozirgi zamon texnika vositalaridan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish, o'quvchilarning darsda va darsdan so'ng olgan bilimlari asosida mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirib borish o'qituvchining eng samarali usullaridan mahorat bilan foydalanishi lozim.

O'qitish, dars o'tish jarayonida va sinfdan tashqari darslarda oquvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, ongini rivojlantirish maqsadida ertaklar, topishmoqlar va tez aytishlar hamda hikoya va masallardan foydalanilsa o'qitish samaradorligi yanada yuqori bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. Toshkent-1976-yil
2. O‘zbek xalq prozasi. Toshkent-1981-yil
3. Munavvarov A. Pedagogika. T; O‘qituvchi. 1997-yil.

## KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA KITOB MAHSULOTLARINI CHOP ETISH TENDENSIYALARI

*F.B.Kattayeva*

*Samarqand shahar 14-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mazmun mohiyati, shakl va metodlari bayon qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shartlari tahlil qilingan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kuzatish, tajriba, ma’rifat, munosabat, ajdod, muvofiq, madaniyat, adabiyot, kitobxonlik.

Inson borki, u yoshligidan olam, borliq va ijtimoiy jarayonlarni muntazam o‘rganish, tushunish orqali o‘zlashtirib boradi. Aniqroq aytganda olam, borliq va ijtimoiy jarayonlarning mazmun-mohiyati borasida bilimlarni egallab boradi. Bu jarayonda u nafaqat kuzatish, tajriba ortirish orqali balki borliqda mavjud voqeajarayonlar xususida bilimga ega bo‘ladi, balki mohiyatni tushunib anglab yetishda kitob eng muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi davlatimiz siyosatida yoshlar qatlamini kitobga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularni kitobni seviga o‘rgatish maqsadida kitobxonlik madaniyatini yuksalirishga qaratilgan faoliyat yo‘nalishlarini davr talablari asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi hech kimga sir emas.

Kitob – 1) bilm, ma’naviyat va ma’rifat manbai; 2) insonni ulug‘laydigan, unda ma’naviyat va ma’rifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil qilib tarbiyalaydigan kuch, u dunyo va bu dunyoni tanitish manbai. Biz o‘zligimizni, dunyoni, olam va odam munosabatini kitob orqali bilib olamiz.

Kitobning aholi, ayniqsa, yosh avlodning savodli qilib tarbiyalash va ularning intelektual salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarishdagi, dunyoni teran anglashdagi ahamiyatini chuqur anglab yetgan ajdodlarimiz, alloma bobokalonlarimiz unga yuqori baho berib kelganlar.

Darhaqiqat, kitobxonlikni inson kamolotida tutgan o‘rning yuksak ekanligi sababdan ham yurtimizda kitobxonlikni yanada yuksaltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, “Axborot-

kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va Hukumat qarorlari hamda boshqa qonun hujjatlari, shuningdek xalqaro huquqning umume’trof etilgan normalariga muvofiq dasturlar ishlab chiqilib amaliyatga joriy qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son qarorining qabul qilinishi ham aynan yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

“Dasturda kitobxonlik sohasidagi milliy va ilg‘or xorijiy tajriba tahlili asosida O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, kitob mahsulotini yaratish, chop etish, yetkazib berish, kitobxonlikni ommalashtirish, ilmiy-metodik ta’minalash, kadrlar tayyorlash, kitobxonlik infratuzilmasini boshqarish bilan bog‘liq masalalar qamrab olingan. Dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, aholi, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, dunyoqarashi, kitobxonlik madaniyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida xizmat qiladi”, -deb ta’kidlanganligidan faqat kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalalari bilan bir qatorda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, tarjima qilish va mualliflarni rag‘batlantirish, noshirlik, matbaa, axborot-kutubxona va kitob savdosi tashkilotlarining samarali faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va kitob mahsulotlarini chop etish masalasiga nega keying yillarda katta e’ibor qaratilamoqda. Buning o‘ziga yarasha quyidagi sabablari:

Birinchidan, bugungi global-axborot asrida rivojlangan axborot texnologiyalari va innavatsiyalar asrida yoshlar orasida kitobga, kitobga o‘qishga bo‘lgan qiziqishning kamayib borayotganligi va kitob mutoalasi o‘rniga axborot texnologiyalari hamda uyali aloqa vositalariga bo‘lgan ishtiyoqning kuchayishi;

Ikkinchidan, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning inson hayotidagi ijtimoiy ahamiyatining kundan-kun ortib borayotganligi;

Uchinchidan, aholi, ayniqsa, yoshlarni, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talab chuqur tahlillar asosida o‘rganilmaganligi va kitoblarni chop etish hamda aholiga yetkazib berish, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga va o‘zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligidir. Mazkur xolatlarning mavjudligi sohada keng qamrovli isloholar amalga oshirishni taqoza etmoqda.

Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda

targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishida ham kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni va rolini qay darajada yuqori ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Aynan yurtboshimiz tomonidan imzolangan ushbu Farmoyish va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son Qarorlari doirasida amalga oshirilayotgan amaliy ishlarning negizida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish asnosida yosh avlodni ma’rifatga undash, ma’naviyatli qilib tarbiyalash va ularning ilmiy-baadiy saviyasini oshirish maqsadi yotadi. Shuning uchun, “Ma’rifat karvoni” tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitobning yoshlarga yetkazib berilishi, “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida 59 nomdagi 590000 ta badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga yetkazib bergenligi va an’naviy tarzda “Yosh kitobxon” tanlovining o‘tkazib kelinayotganligi ham kitobxonlik madaniyatini jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitda o‘rni va rolini naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kitobxonlik madaniyatini yuksalirishga qaratilgan faoliyatni yanada takomillashtirish, birinchida, zamonaviy talablarga javob beradigan yangi tipdagi kitoblarning yangi avlod yaratildai, ikkinchidan, bunday yangi tipda yaratilgan kitoblar yoshlarni kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi va uchinchidan, bu yoshlarda kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish orqali ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz.T.: “O‘zbekiston”, 2016,56 b.
2. Fayziyeva U.Yu., Abdurazakova D. Do‘stona munosabat muhitidagi maktab. O‘XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisyef. XBJ. T., 2005.
3. Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L). –Toshkent:O‘qituvchi, 1992.160 b.
4. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi - T.: Fan, 1999. - 151 b.

# **MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARING MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH**

***SamDU talabasi: M.Z.Ostonov***

***Ilmiy rahbar: N.S. Kiyamov***

**Annotasiya.** Ushbu maqolada milliy qadriyatlar asosida talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib unda milliy qadriyatlar azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak orzularini o‘zida mujassam etgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy, qadriyatlar, mafkura, immunitet, urf-odat, an’ana, marosim.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan so‘ng, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan ananalarini keng ommalashtirish va ularni chuqur o‘rganish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Zero, O‘zbekiston xalqining qadimgi urf-odat, anana va marosimlarga alohida e’tibor berishi ma’naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunning mahim dolzarb muammolardan biridir. Chunki, talabalarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g‘oyalarni chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlarni mohiyatini keng targ‘ib qilishda, anana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni, ayniqsa talabalarga chuqurroq tushuntirish, milliy istiqlol mafkurasini yoshlar orasiga yoyishning ta’sirchan vositalaridan biri xisoblanadi.

Ma’lumki, milliy qadriyatlar azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallarini o‘zida mujassam etgan. «Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida halqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, dinimizni, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas qadriyatlarni qudratli omil bo‘lib kelganligini alohida ta’kidlash joiz». Milliy va milliy qadriyatlarni tiklash asosida talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularni o‘rganish va targ‘ib qilish, yoshlar ma’naviy madaniyati rivojiga qanday yo‘llar bilan ta’sir etishni tadqiq etish bugungi kunning muhim vazifalardan biridir.

Yoshlar ma’naviyati masalasi jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridan boshlab, insoniyat oldida turgan muhim yo‘nalishlardan bo‘lgan. Zero, qadimgi dunyo faylasuflaridan tortib, hozirgi davr tadqiqotchilarigacha umuman insoniyat tarbiyasi, xususan, yoshlarkamoloti haqida tadqiqotlar o‘tkazib, bu masalaga salmoqli hissa qo‘sib kelmoqdalar. Qadimgi xitoy mutafakkuri Konfusiy, yunon faylasuflari Demokrit, Platon, Gerodot, Aristotel va boshqalar shaxs kamoloti jamiyat taraqqiyoti uchun muhim masala deb qaraganlar. Jumladan, Aristotel nuqtai nazariga ko‘ra jamiyat taraqqiyoti uchun ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar qanchalik ahamiyatli bo‘lsa,

fuqarolarning tarbiyasi ham undan kam emas . Markaziy Osiyolik allomalarIbn Sino, A.R.Beruniy, A.N.Forobiy, Marg‘inoniy, Imom Buxoriy, Abu Abdurahmon Nasoiy, Hakim Termiziy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Mahmud, A.Navoiy, XX asr boshlarida Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy, S.Ayniy va boshqa ma’naviyat va ma’rifat sohiblari yoshlari ongiga ma’rifat, madaniyat, milliy urf-odat, milliylik xususiyatlarni singdirishga harakat qilganlar.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq Yurtboshimiz xalqimiz ongiga mustaqillik g‘oyalarini singdirish, fuqarolarda yangicha tafakkur va dunyoqarashni singdirishga alohida e’tibor bera boshladi. 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X-sessiyasida I.Karimov shunday degan edi: “Bugungi kunda xalqni yakdil qiladigan ishlar va g‘oyalar oz emas. Ularning ichida eng ulug‘i, eng oljanobi- O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta’minalash. Ana shu maqsad, ana shu g‘oya atrofida birlashsak, aslo xor bo‘lmaymiz”.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining yuzaga kelishi mustaqillikning eng katta yutuqlaridan bo‘ldi. Hozirgi globallashuv jarayonida ma’naviy ta’sirning kuchi toboro sezilmoqda. Ma’naviy ta’sir bir tomondan millatlararo madaniyatlarning rivojlanishiga imkon bersa, boshqa tomondan, milliy madaniyatlarga salbiy oqimlar, turli “izm” larning kirib kelishiga imkon beradi. O‘zbekiston hukumati bu masalada juda to‘g‘ri yo‘lni tanlagan: turli salbiy “ma’naviy” oqimlarning kirib kelishining oldini olishda eng avvalo xalqimiz ma’naviy olamini shakllantirish, ma’naviy immunitetini yaratish, yoshlarda yurtimizga katta oqimda kirib kelayotgan salbiy qarashlar, nazariyalar, “izm” larni ijtimoiy ekspertizadan o‘tkazish ko‘nikmasini hosil qilishdir.

Bularning bari, shubhasiz, mamlakatdan ma’naviy tiklanish va yuksalishga zamin yaratadi. Mustaqillik ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy, g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan himoya qilingandagina ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish mumkin.

Milliy qadriyatlarimiz Hammamizga malumki, bizga yaqin bo‘lgan kishilar asta-sekin bizning qarindoshimizga aylanadi. Xuddi shu kabi xaqning ham o‘z hayotining mano-mazmunini tashkil etadigan urf-odat, anana, bayramlar hamda til, din, adabiyot va madaniyat namunalarini, turli marosimlarini qadriyat deymiz.

Aslida qadriyat qadr so‘zidan olingen bo‘lib, inson uchun qadrli bo‘lib qolgan narsalarni bildiradi. Milliy qadriyatlar esa, millat uchun qadrli bo‘lgan, uning taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan narsa va tushunchalarni bildiradi va xaqning milliy o‘zligiga xos xususiyatlarni ifoda etadi.

Navro‘z bayrami xalqimizning o‘troq hayoti boshlagan davrlardan buyon yashab kelmoqda. Avvalo bu bayram avvalo yerga, suvga, quyoshga, tabiatga butuni mavjudodga mehr uyg‘otadi.

Xalqning taqdiridi shunday qadriyatlar bo‘ladiki, ular millatning o‘zi bilan birga shakllanadi va uning asosiy belgilaridan biriga aylanadi.

Arab va mo‘g‘ul istelosidan keyin o‘zbek (turkiy) tilining mavqyei pasayib ketgan. Temuriylar davlatchiligi davrida xalqimiz tani, qadr-qimmati bilan birga tilimizning obro‘-etibori qayta tiklandi. Alisher Navoiy bobomiz sayharakatlari bilan tilimiz yuksak darajaga ko‘tarildi.

Umumbashariy qadriyatlar Butun bashariyat hayoti uchun qadrli, ahamiyatli mano- mazmunga ega bo‘lgan g‘oya va tushunchalardir.

Milliy qadriyatlarimiz qadim zamonlardan buyon boshqa xalqlar bilan bo‘lgan doimiy maloqotlar natijasida boyib, takomillashgan. Milliy istiqlol g‘oyasi “Milliy” so‘zi bilan atalishi bejiz emas. Bu avvalo Vatanimizning muborak zaminida yashayorgan insonlarni, millati, tili, dinidan qat’iy nazar, yagona yurt farzandlari, yagona jamiyat fuqarolari sifatida birlashishi, ularning ezgu orzu intilishi va manfaatlarini ifoda etishi istiqlol mafkurasining asosiy mano va mohiyatini belgilab berishini ko‘rsatadi. Chunki “milliy” sifatlashi faqat bir millatga emas, balki bir hudud bir mamlakatga mansublikni bildiradi. Shuning uchun shu yagona xalqning milliy qadriyatlari, umubashariy qadriyatlari bilan uyg‘unlashgan xolda, bu g‘oyani yanada boyitib boradi. Milliy istiqlol g‘oyasi milliy qadriyatlarmizni o‘zida aks etdiradi va o‘z navbatida, rivojlanib, takomillashib boruvchi tizim sifatida rivojlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2016. -B.14.
2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. -102 b.
3. Abduqodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.-180 bet.
4. Dilova H.F. Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan ukituvchi bilan ukuvchilar xdmkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim. T.: Zamonaviy ta’lim jurnali №3, 63-68 b.

## **SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNING MAZMUNINI MODERNIZASIYALASH**

*SamDU talabasi: Pirnazarova G.A  
Ilmiy rahbar: Kiyamov N.S*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ta’lim tarbiya jarayoni va asosiy natijalar hamda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, asosiy qoidalari to‘la to‘kis isbotini topgan.

**Kalit so‘zlar:** Sinf, maktab, ta’lim, tarbiya, maqsad, vazifa, modul, modernizasiya

Jadal sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, dunyoning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib ildiz otib borayotgan ma’naviy inqiroz xavfi xalqimiz ma’naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan himoya qilishni talab qilmoqda. Qolaversa, jahonnning qaysidir burchagida bo‘lmasin, ma’naviyatga qarshi qandaydir tahdidning paydo bo‘lishi o‘zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o‘ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga soladi. Albatta, bunday ma’naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishi, ulardan ayniqsa, farzandlarimiz ko‘proq aziyat chekishi mumkinligi yoshlarda mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlik ruhini yanada kuchaytirish lozimligini taqozo etmoqda.

Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirlingimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zbo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin»ligi xavfining oldini olish choralarani aniq ko‘rsatib berildi. SHuningdek, asarda yangi jamiyat qurish yo‘lida xalqimizning ma’naviy yuksalishini o‘z oldimizga qo‘ygan oljanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelgani, bugun ham e’tiborimiz markazida turganining alohida ta’kidlangani e’tiborlidir.

Tarbiya jarayoni – shaxsni shakllantirishga maksadli yo‘naltirilgan, o‘qituvchi va talabalar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshkariladigan va nazorat kilinadigan, o‘zining pirovard maksadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi – har tomonlama va uyg‘un kamol topgan yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

Tarbiya jarayoni – tarbiyaviy ishlar, tadbirdarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat. Tarbiyaviy tadbirdar – turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarnipg yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir. Ta’lim jarayoni alohida mashg‘ulotlardan tashkil topGANI kabi tarbiyaviy tadbirdaridan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirdar, tarbiyaviy ishlar – tarbiya jarayonining bir bo‘lagidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda talabalarning tayyorgarlik darajasiga tayanish, ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini imkon darajasida kengroq qamrash lozim. chunki, ishning favqulodda murakkabligi o'qituvchi niyatining o'kuvchilar tomonidan anglab etilmasligiga, ishning nega va nima uchun bajarilishi haqidagi noaniq tasavvur esa, tarbiyaviy ishni quruq rasmiyatchilikka aylantiradi. Keyingi ishga kiziqtirish engil kechmaydi.

2. Tarbiyaviy ish – jamoatchilik ishi. Talabalarga reja tuzishning nihoyatda mas'uliyatli mashg'ulot ekanligini, talaba ishlayotgan har bir bo'limning boshqa bo'limlar bilan albatta bog'liqligini va bir-birini takozo etishini his qilishiga imkoniyat bering. Rejalahtirish, albatga, jamoaviy xarakter kasb etishi zarur.

3. Rejalahtirishning tarmoqli uslubiyoti, ko'rgazmali, oson o'qiladigan va tushunarli chizma rejalar tuzish uslubiyotlari bilan tanishing. Talabalar bilan ularni o'rganing, ularni mehnatning boshqa turlarini rejalahtirishda tarmoqli chizmani qo'llashga o'rgating.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy qoidalari:

- bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning maqsadini anik belgilagan harakatni boshidan oxirigacha yaxlit tasavvur kilish (nimaga erishish kerak?);

- qo'l ostidagi har bir kishi uchun anik vazifalarni bslgilash (qanday harakatlar vositasida erishish mumkin?);

- kutilayotgan ish uchun barcha zaruriy narsalarni tayyorlash (nimalar yordamida erishish mumkin?);

- natijalarni aniqlash uchun muayyan mezonlarni belgilash (erishilgan mikdor kancha?);

- javobgarlik, uning egasi va hisobot vaktini taqsimlash (maksadga erishilganlikni nima bilan rag'batlantirish mumkin?);

- tashkiliy tizimni uyushtirish vositasi sifatida ijrochilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish (qanday kilib erishish mumkin?).

Tarbiyaviy ishlarni uyushtirishda ishtirok etish shaxsning muhim xislatlarini tarbiyalaydi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda boshqaruv muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish boskichida o'qituvchining mas'uliyati muhimdir. Birinchidan, dasturda ko'zda tutilgan ishlarni tayyorlangan ssenariy asosida borishiga erishiladi, unga tuzatishlar kiritadi, dispatcherlik vazifasini amalga oshiradi va jarayonni kuzatib boradi. Ikkinchidan, o'qituvchi butun jamoa va ayrim talabalarni kuzatib borgan holda, ularda muayyan fazilatlarni rivojlantiradi, bu fazilatlarning shakllanganli apajasini aniqlashga imkon beradi va tarbiya soxasida kilinadigan glarning strategiyasini belgilaydi. Uchinchidan, o'qituvchi tashkiliy masalalarning anik xal etilishini kuzatib boradi.

Umuman, tarbiyaning bu bosqichdagi boshqaruv faoliyati oddiy dars mobaynidagi ayni shunday faoliyatdan murakkabroqligi bilan farq qiladi. Bu murakkablik tarbiyaviy ishni boshqarishda qisobga olish, nazorat kilish va ko‘plab omillarga tuzatishlar kiritish lozimligida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko‘ngillilik asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o‘zlarini qiziqtiradigan mashg‘ulotlarni tanlab olishadi a ulard mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Maktab va maktabdan tashqari muassasalarining tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobjiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo‘lishi lozim:

– pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro xurmat munosabatlarini shakllanganlikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish;

– ulg‘ayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigitning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e’tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xilda bo‘lishi mumkin:

- a) fan to‘garaklari;
- b) mohir qo‘llar to‘garaklari;
- v) duradgorlik to‘garaklari;
- g) sport to‘garagi;
- d) badiiy xavaskorlik to‘garagi.

O‘rta umumta’lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to‘garak rahbarlarig yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo‘lgan o‘z o‘quvchilarini biror to‘garakka a’zo bo‘lishga chorlaydi.

Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta’siri ko‘p darajada o‘quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o‘quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo‘lga qo‘yishga bog‘liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o‘quvchilarini ihtiyyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2016. -B.14.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: "O'qituvchi", 2004. -102 b.
3. Abduqodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta'limdi innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.-180 bet.
4. Dilova H.F. Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan ukituvchi bilan ukuvchilar xdmkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. T.: Zamonaviy ta'lim jurnali №3, 63-68 b.

## XALQ PEDAGOGIKASIDA OILA TARBIYASINING IFODALANISHIGA OID INNOVATSIYALAR

*SamDU talabasi: Vaisova M.R*

*Ilmiy rahbar: Kiyamov N.S*

**Annotation.** Maqolada bola, farzand ota-onalarning oldidagi burchi, ota-onalarning farzand oldida o'zining aql-zakovati, muomila madaniyati, kiyinish odobi, shirin so'zligi, mehnatsevarligi, oilaparvatligi,adolatliligi, ilmparvarligi kabi ustuvor masalalar ko'tarilgan va o'z yechimiga erishish uchun harakat qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** Xalq, oila, pedagogika, innovasiya, burch, farzand, aql, zakovat, muomala, madaniyat, kiyinish odobi.

Oilada balalarni axloqiy tarbiyalash usullarini xalq pedagogikasi manbalarida o'rganishimiz lozimligini yuqorida qayd etdik. Jumladan, tushuntirish, namuna ko'rsatish, iltimos qilish, odatlantirish, istak-tilak bildirish, undash, ma'qullah, rahmat aytish, duo qilish, olqish aytish, nasihat qilish kabi tarbiya metodlari ham shular jumlasidandir. Bularning ichida eng kuchli tarbiya vositasi sifatida o'gits-nasihat, ibrat ko'rsatish, maqtash va ma'qullah, mukofotlash kabilardan foydalanish samarali natijalar berishi tajribadan ma'lum. Xalq pedagogikasi manbalari asosida oila ma'naviyatini yuksaltirishga oid qator metod, innovation texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bunda xalq pedagogikasi manbalari asosida yoshlarni oila tarbiyasiga oid ma'lumotlar bilan tanishtirish, mavzuga oid mustaqil ishlarni tashkil etish kabi vazifalarning hal qilinishi nazarda tutilgan. Oilada har bir bolaning xatti-harakatiga nisbatan rag'batlantirish yoki qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lish, tanbeh, jazordan qo'rqlaydigan, yolg'on so'zlovchi, ona-onalarning har ikkalasini ham

hurmat qilmaydigan, obro'siz qilib qo'yadi:

Oilada bola tarbiyasida oilaning har bir a'zosi, ya'ni, bobo, buvi, ota-on, opa, aka, amma, hola, tog'a, qo'yingki, qo'ni-qo'shni, mahalla, mактаб, jamoatchilik birdek mas'uldir. Xalqimizda "Bir bolaga yetti qo'shni ota-on", "Bir tog'a yetti ota o'rnida", "Mahallang – otang-onang" kabi maqollar bejiz aytilmagan shuning uchun bola tarbiyasida barchaning talabi, munosabati bir xil bo'lmog'i zarur. Tarbiyachilar o'rtasidagi tarbiya usullarining, talab va fikrlarning har xilligi bolani tarbiyasizlikka olib keladi.

Oilada farzand tarbiyasida sinalgan tarbiya metodlaridan biri – namunadir. Bobo, buvi, ota-on, atrofidagi katta yoshdagи kishilarning xatti-harakatlari, yurish-turishlari, muomalasi, o'zlarini tutishlari, jamiyatga, tabiatga munosabatlari namuna sifatida juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bolaga aqliy, ahloqiy, estetik, diniy, mehnat tarbiyasi asoslari ota-on namunasi asosida sindirib boriladi. Ota-on farzand oldida o'z aql-zakovati, muomalasi, kiyinishi shirin so'zligi, qatiyatligi, yolg'on gapirmasligi, mehnat sevarligi, oila yuritishdaadolatparvarligi, ilmparvarligi bilan namuna bo'lmog'i zarur. Bola xarakteriga ota-onaning o'zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, yolg'on so'zlashi, qat'iyatsizligi, kiyinishda, ro'zg'or yuritishdagi pala-partishligi, mehnatni sevmasligi tezda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ota-onaning bir-biriga nisbatan yuksak axloqiy munosabatini ko'rgan, bilgan bola kelgusida oila qurganda ham o'z turmush o'rtog'i bilan shunday yashashga tayyor bo'lib boradi. Hayot ilmida ona qiz bola uchun, ota esa o'g'il bola uchun ustoz, murabbiydir. "Onasini ko'rib qizini ol, raxini ko'rib bo'zini ol", deb bejiz aytilmaydi.

Ota-onaning avlod-ajdodlarining nojo'ya xatti-harakatlaridan, nopl ishlaridan farzand ham aziyat chekadi, shunday odamlarning farzandi bo'lganidan ruhan afsuslanadi. Ba'zi ota-onalar farzandining kelajagini faqatgina moddiy ta'minlashdan iborat deb biladi. Shuning uchun ham turli yo'llar bilan uzoq avlod-ajdotlariga yetadigan mol-dunyo to'plashga harakat qiladi, ochko'zlik kasaliga mubtalo bo'ladi. Inson jismi-jonidagi kasalliklarni davolash mumkin, lekin bu kasallikni davolash juda murakkab. U insonni insoniylikdan mahrum etadi, turli jinoyatlarga, noahloqiy xatti-harakatlar sodir etishga yetaklaydi, el-yurt ichida obro'sizlantiradi. Bunday boylik farzandga baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Ota-onadan behisob molu dunyo emas, ilmu ma'rifatga intilish, insofu diyonatga sadoqat, mehr-shafqat, hayotga muhabbat, xalq, millat, Vatan uchun jon fidolik sifatlari meros bo'lib qolmog'i zarur.

Bola uchun o'z millati, madaniyati, san'ati, dini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlari, oila an'analari, urf-odatlarini chuqr bilish va ulardan ma'naviy ozuqa olish, g'ururlanish tarbiyaviy xarakter kasb etadi.

O'tmish allomalar, avlod-ajdodlardan fahrlanish, ular merosini mukammal

o‘rganish, olg‘a surilgan hayotiy g‘oyalardan jamiyatimiz gullab-yashnashi yo‘lida foydalanish, davlat ramzları (Konstitusiya, madhiya, gerb, bayroq, milliy valyuta)ning mohiyatini anglash aynan oilada amalga oshirila boshlanadi. Bu o‘rinda ota-onaning bilim saviyasi, mafkuraviy yetuklik darajasi, dunyoqarashi, jamiyatda tutgan o‘rni muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, oila tarbiya maskani bo‘lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish ota-onaning o‘z burch va vazifalariga qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liqdir. Oiladagi har bir kishining o‘z burch va vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishi oila mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishishning omilidir.

Xullas, barkamol insonni, ya’ni avvalo oila uchun, qolaversa o‘zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi shaxsni tarbiyalash oiladan boshlanadi. Shuning uchun maktab o‘qituvchi-tarbiyachilari, mahalla, jamoa, davlat xo‘jaligi hamda tuman rahbarlari oila ravnaqiga va ayni chog‘da oila tarbiyasiga diqqat-e’tiborni qaratishlari zarur.

Zotan, har bir kishi oila va jamiyat dialektik birlik ekanini hyech qachon unutmasligi va ularning doimiy jipsligi uchun qayg‘urishi, g‘amxo‘rlik qilishi lozim. Bu tushunchani barcha ziyolilar yoshlar ongi va tafakkuriga singdirishlari muhim vazifadir. Xalq pedagogikasida oila tarbiyasining ifodalanishiga oidquyidagi metod va texnologiyalardan foydalanish mumkin:

1. Pedagogik adabiyotlar, lug‘atlar, ma’lumotnomalarni o‘qib-o‘rganish orqali «oila ma’nnaviyati», «xalq pedagogikasi», «oila pedagogikasi» tushunchalarining mohiyatini ochib berish.
2. Pedagogik fanlar ro‘yxatini tuzish va har biridan oila tarbiyasiga oid fikrlarni qiyosiy tahlil qilish.
3. «Oila tarbiyasi xalq pedagogikasi manbalarida» mavzusida o‘h minutlik esse yozish.
4. “Oila pedagogikasi” va “Xalq pedagogikasi” fanlarning mazmunini yorituvchi me’yoriy hujjatlarni o‘rganish va tahlil etish.
5. “Xalq pedagogikasi” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashga uchun oila tarbiyasiga oid vaziyatlar yaratish va vaziyatlarga shaxsiy baho berish.

Shunday qilib bugungi kunda oila ma’nnaviyati, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari nafaqat bizning respublikamizda, balki butun jahonda dolzarb mavzu sifatida qaralmoqda. Chunonchi, keyingi paytlarda yoshlar o‘rtasida qonunbuzarlik, axloq-odob doirasiga zid harakatlar va shunga o‘xshash noxush holatlar tobora o‘savotganligi jamiyatning barcha a’zolarini tashvishlantirmay qolmaydi. Shu sababli bunday qusurlarning oldini olish, oila va oilada bola tarbiyasiga munosabatni tubdan o‘zgartirish talab etiladi. Buning uchun, avvalo asrlar

davomida katta sinov yo‘lini bosib o‘tgan sharqona tarbiya usulini joriy etish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi manbalarini kundalik turmush tarziga singdirish lozim.

Shunday ekan yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlashda quydagi tavsiyalarni berishni lozim deb topdik.

1. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda aynan oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish mazmuni, shakl, metodlari bilan tanishtirib borish.

2. Yoshlar bilan barcha oilaviy muammolar bo‘yicha davra suhbatlari, seminarlar tashkil etish.

3. Xalq pedagogikasi manbalari bilan muntazam tanishtirib borish.

4. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila ma’naviyatiga oid mavzularni yoritishda ta’lim muassasalarida uzviylikka e’tibor berish.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev D.I., Ishmuxamedov R.J. Bolalar dam olish oromgohlari xodimlariga yordam tariqasida uslubiy maslahat va tavsiyalar to‘plami. –T.: UDAP, 2002. – 178 b.

2. Abduquodusov O. “O‘quv muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari”. – T.: “O‘qituvchi”, 2002

3. Azizzo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: Nizomiy nomli TDPU, 2000. - 52 b.

## XALQ PEDAGOGIKASIDA OILA TARBIYASI MASALARINING USTUVOR YO‘NALUSHLARI

*SamDU talabasi: Yunusova Sh.B*

*Ilmiy rahbar: Kiyamov N.S*

**Annotasiya.** Ushbu maqola farzandlar tarbiyasi, oilaviy an'analar, urf-odatlar, marosimlar insonning ma’naviy axloqiy shakllanishi ustuvor masala sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Axloqiy, vatan, mafkura, ma’naviy meros, sharq mutafakkirlari, davlat, jamiat, odobli, bilimdon, aqli, mehnatsevar, Ota-on, imon-e’tiqod.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, farzandlar tarbiyasi jamiyatda muhim muammo sifatida qarab kelinadi. Chunki jamiyat mavjud ekan, insonga xos bo‘lgan barcha sifatlar, mafkuraviy qarashlar uning xarakteriga, ongiga, tafakkuriga singdirib boriladi. Jamiyatning o‘zgarishi, davr o‘tishi va zamon rivojlanishi bilan tarbiyaning maqsadi, mavzuga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib boraveradi. Aynan shu farzandlar tarbiyasi, eng avvalo, oiladan boshlanadi, chunki oilada oilaviy an'analar,

urf-odatlar, marosimlar insonning ma’naviy-axloqiy shakllanishini ta’minlaydigan asosiy zamin sifatida xizmat qiladi.

Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g‘amxo‘rligi oilalarning mustahkamligiga asos bo‘lgan. Zero, inson hayoti oiladan boshlanadi, hayotiy qarashlarimiz ham oila bahrida o‘sib chiqadi.

Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi. Oila tufayli davlat mustahkamlanadi va rivojlanadi, xalqning esa farovonligi oshadi. Yurtimizda oilalar manfaati, uning rivojlanishi uchun muhim hujjatlar qabul qilingan, vazifalar belgilangan. Jamiyat tayanchi bo‘lgan oilalarni asrash, ma’naviy hayotimizda oilalarning o‘rnini muhim ekanligini ko‘rsatib berish, oilalarni har tomonlama himoya qilish maqsadida muhim davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “Oila qurish faqat ikki yoshning o‘rtasida bo‘ladigan kelishuv emas, balki bu jamiyat hayotiga aloqador masaladir”.

Jamiyatda mustahkam oilalarning mavqyeini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir paytda xalq pedagogikasining oila ma’naviyatini yuksaltirishda o‘rni va ahamiyatini o‘rganish muhim masala bo‘lib hisoblanadi. Shu bois ham xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanib, yoshlarga oila ma’naviyati va tarbiyasini tushuntirish, ularni oilaviy hayotga tayyorlashni dolzarb masala deb hisobladik

Mumtoz pedagogika tarixini ko‘zdan kechirsak, oila va uning muhim masalalari, uni pokiza saqlash, burch va vazifalari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va salmoqli ishlari haqida qimmatli fikrlar aytilgan. Demak, o‘zbek oilasi tarixi va pedagogika tarixi, xalq pedagogikasi juda qadimiyyidir.

Darhaqiqat, oila ma’naviyati asosida yoshlarni tarbiyalashda, birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma’naviy meroslari muhim dasturil amal sifatida ahamiyatga ega bo‘ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Axmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Axmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z o‘tmish madaniy merosini chuqur o‘rganmagan va e’zozlamagan, ajdod-avlodlari bosib o‘tgan tarixiy yo‘lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo‘lida jon fido qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan habardor bo‘lmagan inson o‘zligini, milliy g‘ururini hyech qachon anglab yetolmaydi. O‘tmish madaniy merosini o‘rganish murakkab jarayon sanaladi. Madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

Bu o‘rinda ilgari surilayotgan pedagogik g‘oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish bilan bog‘liqdir. Xalq pedagogikasida yoshlarni oila ma’naviyati asosida tarbiyalash deganda ota-ona,

oiladagi katta kishilar, buvi va buvalar, aka-opalar va shu kabilar tomonidan bolalarning to‘g‘ri, milliy ahloq-odob normalari asosida tarbiyalanishini tushunish lozim. Zotan, bolalarning kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishi ota-onasiga, aka-opsiga va boshqalarning o‘zaro muomala-munosabatlari, xulq-atvoriga, tartib-intizomiga bevosita bog‘liqdir. Xalqimiz: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deb bejiz aytmagan.

Oila ma’naviyati asosida farzand tarbiyasi kabi katta mas’uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o‘rinda bir narsani alohida uqtirish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta’sirchan kuch-qudrat, bu – Onadir. Darhaqiqat ota ko‘pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta’minalash, qolaversa oilaning xo‘jalik ishlari bilan band bo‘ladi. Bu o‘zbek oilalari tarixidan ma’lum bo‘lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan an’anadir. Shunga ko‘ra bola bilan ko‘proq ona birga bo‘ladi. Axir, xalqimiz: “Sut bilan kirgan – jon bilan chiqadi” deydi-ku! Oila ma’naviyati asosidagi tarbiya, ya’ni yuksak axloq-odob aqidalari bola joniga (ruhiga) ko‘proq ona suti (tarbiyasi) bilan kiradi.

Oila ma’naviyati asosida qurilgan tarbiyada hikmat (falsafiy-pedagogik yo‘nalishlar) ko‘p. Yangi o‘tkazilgan niholning to‘g‘ri yoxud egri o‘sishi bog‘bon mehnati va mahoratiga bog‘liqdir. Egri o‘sayotgan niholning qaddini rostlab qo‘yilmasa u noto‘g‘ri rivojlanadi. Yangi tug‘ilgan go‘dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o‘rtasida qandaydir tabiiy o‘xhashlik mavjud.

Bundan ko‘rinib turibdiki, mehnat tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axloq-odob normalari, Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma’naviy-estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, milliy g‘urur va iftixon tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya va shu kabilar oiladan boshlanadi. Shu zikr qilingan pedagogik-falsafiy tushunchalar oila rahbarlarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to‘kinligi va so‘ngra xalq farovonligini ta’minalashda ko‘rinadi. Uning barcha faoliyati shu oljanob tuyg‘u bilan uyg‘unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Hayot va turmushning hamma nuqta va qirralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan, mehnatkash inson har sohada o‘z yo‘lini topa oladi.

Xalq mehnatkash, yuksak axloq-odobi yigitchani ko‘rsa, “otangga rahmat”, xush qiliqli, go‘zal xulq-atvorli, shirinsuxan, muloyim, chevar, pazanda qizni ko‘rsa “onangga rahmat” deydi. Bu oila tarbiyasining shirin mevasi tufaylidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umuman olganda, oila ma’naviyati va uning mohiyati, oilaning har tomonlama ravnaqi va jipsligini ta’minalash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi – milliy iftixon, uning jamiyat negizi ekani, oila ichidagi oila kamolotini ta’minalash singari muammolarni tadqiq etish hamda ularni xalqqa sodda va tushunarli tarzda yetkazish shu kunning dolzarb vazifasidir.

Yuqoridagilarni muxtasar qilib aytganda, xalq pedagogikasining barcha manbalarida oila tarbiyasi, unda ota-onasiga, farzandlarning o‘rni, oilada tarbiya turlari,

usullari va vositalari, oila ma’naviyatiga xalqona

qarashlar juda keng va atroflicha yoritilgan bo‘lib, hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Demak, biz bu bebaho qadriyatimiz – xalq pedagogikasi manbalaridan farzandlarimiz tarbiyasida foydalanishimiz zarurdir.

Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Odobli, bilimdon va aqlii, mehnatsevar, iymon- e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir”.

Ayolning oilani oila qilish uchun sharoit yaratish bu uy egasi hamda uy bekasi bo‘lgan ikki juftlikning ittifoqida, dalat va jamoatchilikning e’tiborida amalgamoshiriladi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e’tibor bergenlar. Muhammad in Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o‘rtaga qo‘yilgan va ularni hal etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Bugungi kunda oila ma’naviyati, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari nafaqat bizning respublikamizda, balki butun jahonda dolzarb mavzu sifatida qaralmoqda. Chunonchi, keyingi paytlarda yoshlar o‘rtasida qonunbuzarlik, axloq-odob doirasiga zid harakatlar va shunga o‘xhash noxush holatlar tobora o‘savotganligi jamiyatning barcha a’zolarini tashvishlanirmay qolmaydi. Shu sababli bunday qusurlarning oldini olish, oila va oilada bola tarbiyasiga munosabatni tubdan o‘zgartirish talab etiladi. Buning uchun, avvalo asrlar davomida katta sinov yo‘lini bosib o‘tgan sharqona tarbiya usulini joriy etish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi manbalarini kundalik turmush tarziga singdirish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. -102 b.
2. Abduqodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.-180 bet.
3. Dilova H.F. Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan ukituvchi bilan ukuvchilar xdmkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamnaviy ta’lim. T.: Zamnaviy ta’lim jurnali №3, 63-68 b.

# **РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ**

**Ф.М.Гулямова**  
**магистрант СамГУ**

**Аннотация:** в статье рассматриваются проблемы формирования грамотного чтения где система заданий способствует формированию читательской грамотности школьников, что является базой функциональной грамотности.

**Ключевые слова:** читательская грамотность, культура чтения, младший школьный возраст, исследования PISA.

Читательская грамотность сегодня рассматривается как один из самых важных параметров готовности к жизни в современном обществе. Успешное обучение в начальной и основной школе невозможно без сформированности у обучающихся читательской грамотности. Несмотря на то, что вопросам обучения чтению в образовании всегда придавалось большое значение, задача развития читательской грамотности является новой областью для современной школы.

Формирование грамотного читателя, умеющего читать и анализировать большой объем информации, является мировой проблемой. Проведенные исследования PISA (международное сравнительное исследование образовательных достижений) подтвердили это экспериментально.

Чтение - это база для развития таких коммуникативных умений, как говорение и письмо, так как основным способом их формирования является анализ текста-образца. Умение читать необходимо для того, чтобы проанализировать текст. Все виды речевой деятельности (т. е. говорение, чтение, аудирование и письмо) должны развиваться одновременно, так как они взаимосвязаны. Развитие у человека способности самому создавать сообщение зависит от его умения понимать сообщаемое.

Чтение является и целью, и средством обучения. "В качестве цели чтение формирует, развивает и совершенствует умения извлекать информацию из текста любого стиля и жанра. В качестве средства - это выполнение разнообразных упражнений.[1. Щукин А.Н., 2003, с. 202 ]. Таким образом, обучение чтению - это понимание речевого произведения, представленного в письменном виде.

Основы функциональной грамотности закладываются в начальной школе, где идет интенсивное обучение различным видам речевой деятельности - письму и чтению, говорению и слушанию. Одним из главных путей формирования функционально-грамотной личности, является введение детей

через литературу в мир человеческих отношений, нравственных ценностей. В этом возрасте основной является коммуникативная сфера развития личности ребенка. Ему жизненно необходимо позитивное общение со стороны окружающих.

В связи с этим становится актуальным коммуникативно-деятельностный подход, предполагающий такую организацию учебного процесса, в которой на первый план выдвигается деятельностное общение учащихся с учителем и между собой, учебное сотрудничество всех участников урока.

Научить пользоваться чтением как средством обучения — важная задача, ибо работа с учебными материалами требует не только владения технической стороной навыка чтения, но и содержательной, т.е. понимания разных по форме, структуре и логике текстов.

Усилия учителей должны быть направлены не только на формирование навыка чтения как необходимого условия полноценной читательской деятельности, но и на формирование и развитие читательских умений школьника. Именно читательские умения обеспечат школьнику возможность самостоятельно приобретать новые знания, а в дальнейшем создадут основу для самообучения и самообразования на последующих ступенях обучения.

Культура чтения, умение извлекать максимум информации из прочитанного - главные факторы, определяющие успешность развития личности в целом и являются составляющей развития читательской грамотности.

На разнообразных ступенях обучения дублируются умения и навыки, без которых на сегодняшний день невозможно справиться с решением жизненно важных задач:

- осознанно читать и воспринимать на слух, а также продуцировать тексты разнообразных типов (информационного и прикладного характера, литературные тексты), уметь извлекать информацию из разнообразных источников;

- учиться находить и критически оценивать информацию из СМИ и Интернета, уметь пользоваться источниками и ссылаться на них;

- осуществлять разнообразные стратегии чтения при деятельности с текстом.

Если систематически и целенаправленно применять методические приемы в работе над развитием чтения, то это будет содействовать развитию читательской самостоятельности школьников. Еще совсем недавно ценность книги и чтения была неопровергнута. Таким образом, для формирования читательской грамотности и воспитания гармонично-нравственной личности необходимо использовать самые передовые технологии, опираясь на

литературный источник, с применением различных форм урочной и внеурочной деятельности.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Щукин А.Н. Практическая методика обучения русскому языку как иностранному. - М., 2003.
2. Иванова-Лукьянова Г. Н. Чтение вслух с опорой на пунктуацию. - М., 1988.
3. Акишина А. А., Каган О.Е. Учимся учить: для преподавателя русского языка как иностранного. 2-е изд., испр. и доп. — М.: Рус.яз. Курсы, 2002. — 256 с.
4. Савенков, А.И. Методика исследовательского обучения школьников/ А.И. Савенков. - Самара: Издательство «Учебная литература», 2007. - 208 с.

**10-YO‘NALISH**  
**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI INTEGRATSIYANI**  
**TA’MINLASHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR**

**BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA BAG‘RIKENGLIK**  
**TAMOILLARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI**

***SamDU talabasi: Rahmatova Q.H***  
***Ilmiy rahbar: Kiyamov N.S***

**Annotasiya.** Tadqiqotchilar maqolada barkamol shaxs tarbiyasida bag‘rikenglik tamoillaridan foydalanish yo‘llari, shu bilan birga bugungi kunda pedagogik qadrlarning kasbiy bilim va kompetentligiga davr nuqtai nazaridan ijobiy tahlil qilingan. Shu nuqtai nazaridan maqola so‘zining dolzarbliji bilan qimmatlidir.

**Kalit so‘zlar:** Shaxs, barkamollik, ta’lim, tarbiya, bag‘rikenglik, tamoil, anglash, ta’lim.

Bugungi kunda pedagogik kadrlarning kasbiy bilim va kompetentligiga davr nuqtayi nazaridan yangi talablar qo‘yilmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan fan, ta’lim va texnologiyalar davrida biz pedagoglar ham shu davr nafasi bilan yashamog‘imiz lozim.

Jahonda masofaviy ta’lim (d-learning, e-learning, online Learning (onlayn ta’lim), audio video konferensiyalar, Internet-konferensiyalar, Internet-translyatsiyalar) shakllari, raqamli ta’lim texnologiyalari, zamonaviy dasturlashni rivojlantirish texnologiyalari ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. Masofaviy o‘qitishda sirtqi, kunduzgi va kechki ta’lim olayotgan talabalar uchun joriy etish, motivatsiyani va kelajakdagi mutaxassisning kasbiy malakasini oshirish, virtual shaklda taqdim etilgan tabaqalashtirilgan mazmunni amaliyatga tadbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida masofaviy ta’lim orqali undan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, pedagog kadrlarning zamonaviy texnologik bilimlarini rivojlantirish hamda talabalarning kasbiy kompetentligini tabaqalashtirilgan yoshdashuv bo‘yicha axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan keng ko‘lamda va ommaviy foydalanish masalalari asosida takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ta’lim mazmunining elementlarini masofaviy ta’lim o‘qitish kurslariga o‘tqazish informatika va axborot texnologiya fanlarini o‘rganish, ilm oluvchilarning mustaqil ijodiy va izlanishli o‘quv faoliyatini to‘liq amalga oshirish, o‘quv jarayonini yanada jadallashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga keng e’tibor berilmoqda.

Globallashuv jarayonida pedagogika sohasiga yangiliklar bilish, o‘rganish. Davlat ta’lim standartlari, namunaviy o‘quv dasturlar va ishchi o‘quv dasturlari orasidagi mutanosibliklar vq ularning takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish. O‘qituvchining axborot maydoni, portfoliyosi tuzish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini egallah. Talabalarining mustaqil ta’lim ishlarini tashkil etish va boshqarishga innovatsion yondoshuvlarni o‘rganish. Professor-o‘qituvchining vaqt byudjeti masalalari, uning ijtimoiy himoyasi, kasbiy presstiji va obro‘sni haqidagi ma’lumotlarni boyitish. Darsliklarga qo‘yiladigan so‘nggi talablar va ularni nashr ettirish masalalarini takomillashtirish. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish maummo va echimlari bo‘yicha yangiliklarni o‘zlashtirish. Ingliz tilini o‘qitishda yangi innovatsion texnologiyalarini egallah. Shu ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, maqolaning mazmunini “Barkamol shaxs tarbiyasida bag‘rikenglik tamoyillaridan foydalanish yo‘llari” deb tanladik.

O‘zbekiston Oliy ta’lim vazirligi va oliy ta`lim muassasalari rahbariyatlari o‘z navbatlarida dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Finlandiya davlatlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalaridan andoza olib, Oliy ta`lim islohatlarini izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqdalar. Davlat ta`lim standartlarining va o‘quv rejalarining yangi avlodni yaratilmoqda.

Ta’limni fundamentalallashtirish maqsadida qayta ko‘rib chiqildi, yuqori texnika-texnologiyalarni qamrab olgan fan dasturlari yaratildi, ko‘p yo‘nalishlar va fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlarining zamon talablariga, etuk raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash maqsadlariga qaratilgan yangi avlodlari chop etildi.

Mamlakatimizda o‘zligimizni tanish jarayoniga qaratilgan ma`naviy, ma`rifiy, tarixiy, falsafiy va psixologik tushunchalarimizning yangilanishi, dunyo ilm-fan, ma`rifat taraqqiyotiga, davlatchiligiga ulkan xissa qo‘shgan ulug‘ iste`dodli avlod-ajdodlarimizning tarix sahifalariga chiqishi, xozirgi xalq xo‘jaligidagi eng yuqori axborot texnologiyalari hamda avtomatlashtirilgan texnika-texnologiyalarning joriy etilganligi va bu jarayonning yanada tez sur`atlar bilan rivoj topayotganligi oliy va o‘rta maxsus ta`lim tizimida, fanlarni fundamentlashtirish, o‘quv rejalarining yangi avlodini yaratish, ularni yanada takomillashtirib borishni taqoza etadi. Fan-texnika va ma`naviyatimizning ildamlanayotgan bunday davrida oliy o‘quv maktabi kelajakka o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishi lozim. Bunga oliy maktabning rivojlanishiga an`anaviy yondoshish asosida erishib bo‘lmaydi, demakki, ta`limning asosiy maqsadi faqat bilim olishdan iborat, deb qaramaslik kerak.

“O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz”.

Bu fikr kasbga, bakalavr va magistrlarga, binobarin, ularni tayyorlashga talabni o‘zgartiradi. Ikkinchı savolga, ya`ni o‘qitish, mutaxassislar tayyorlash tizimini mukam-mallashtirish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risidagi masalaga javobni bilish-bilim orttirish jarayonini o‘rganuvchi falsafa, psixologiya kabi fanlarni rivojlantirish, Milliy istiqlol va Vatanni sevish g‘oyalari asosida topish mumkin. Bu fanlarning yangitdan tuzilgan, tubdan o‘zgacha o‘qish dasturi oliy o‘quv jarayonining mohiyatini to‘g‘ri tushunishda katta imkoniyatlar yaratadi. Albatta, bu fanlar o‘quv yurtlarida o‘qitishning oqilonan metodlarini qurish to‘g‘risida bevosita ko‘rsatma bermaydi. Bu masalani oliy o‘quv yurtlarimizning professor-o‘qituvchilari jamoasi bajara oladi va bajarishi ham lozim.

Erksevar xalqimiz mustaqillik tufayli o‘z yeri, o‘z tili, o‘z diniga ega bo‘ldi; milliy g‘ururi, izzat obro‘sni tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma`naviy merosimizdan bahramand bo‘lmoqdamiz. Mustaqillik va ma`naviyat bir-biriga g‘oyat bog‘liq tushunchalardir. Ma`naviyati buyuk xalqni qul qilish, abadiy istibdod zulmi ostida saqlash mumkin emas. Bunday ma`naviyatning kamol topishi, qalblarga singishi uchun Mustaqillikni mustahkamlash ham lozim bo‘ladi. Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qudratli ma`naviyat zamirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma`naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi. Davlatimiz rahbari shu bois ham ma`naviyat va ma`rifatga doimo katta e`tibor berib kelmoqda. SHu oqilonan siyosat tufayli xalqimiz o‘zligini tanib, o‘z shajarasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Inson ma`naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohatlarning birinchi bosqichida milliy ma`naviyatni yuksaltirish yo‘lida ko‘zlangan maqsad to‘la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma`naviy, mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma`naviyatimiz yuksala bordi. Yurtboshimiz Islom Karimov «o‘zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo‘lida» asarida ta‘kidlaganidek: «Xalqning ma`naviyati va madaniyati, uning xaqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo‘lidan muvaffaqiyatli olg‘a siljishida hal qiluvchi, ta’bir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir...» Haqiqatan faqat ma`naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin. Boshqacha aytganda, faqat ma`naviy sog‘lom, kuchli jamiyatgina islohatlarga tayyor bo‘lishi mumkin.

Necha ming yillik tariximiz shundan guvoqlik bermoqdaki, oljanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan qisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan – avlodga avaylab o‘tkazib kelinmoqda.

Shunday qilib mustaqillik yillarida millatalalararo totuvlik g‘oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O‘zbekiston rivojida qo‘lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biridir. Mamlakatimiz raxbaryati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo‘l bilan echish, millatalalararo munosabatlarni uyqunlashtirish chora – tadbirlarini ko‘rdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning ko‘pmillatli xalqi ongida “O‘zbekiston – yagona Vatan” degan g‘oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyqusini shakllantirish bu boradagi ishlarning muqim yo‘nalishiga aylandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism / Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiyl tahriri ostida. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2007.
2. Pedagogika. M.H.Tohtahodjayeva, S.Nishanova, J.Hasanboev v.b. (M.H.Tohtahodjayevaning umumiyl tahriri ostida.). –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.-400 b.
3. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboev v.b, O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Noshir, 2011.- 456 b.

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI AQLIY TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

***R.U.Xasanova***  
***Nurobod tuman 1-son DMTT tarbiyachisi***

**Annotasiya.** Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni aqliy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish vning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan

**Kalit so‘zlar:** Zamonaviy texnologiyalar, o‘quv-tarbiyaviy jarayoni, zamonaviy o‘qitish uslublari, interfaol uslublar, mantiqiy fikrlash, diqqat.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalaniib, ta’limning samaradorligni ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib

chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lrim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Shuning uchun ham ta'lrim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamонавиy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limga qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o'quvchilarning bilimli va etuk malakaga egaligini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innavation) - yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba yoki o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilanildi.

Interfaol («inter»- bu o'zaro, «akt»- harakat qilmoq)- o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari-bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil qila bilishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalg qilinadilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda pedagogning o'rni qisman tinglovchilarning faoliyatini dars maqsadlariga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va tinglovchilar birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- pedagoglarning jarayonga bo'lgan qiziqishlarining doimiyligini ta'minlashi;
- mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Milliy ta’lim ravnaqini ta’lim-tarbiya amaliyotiga samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo’llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko‘zlovchi pedagogik texnologiyalar ta’minlaydi. Maktabgacha ta’limda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta’limga bog‘lash, har ikkisini tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishga, mustaqil fikrlashga yo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida – o‘yin, mashg‘ulot, sayr davomida qo‘llash yaxshi samara beradi.

Bugungi kunda tarbiyachi mashg‘ulotlarda nafaqat bolalarga ma’lum bilimlarni berishi, balki mashg‘ulot jarayonida bolalarning ayrim tomonlarini shakllantira yoki rivojlantira olishlari darkor. SHuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalardagi mashg‘ulotlarni interfaol usullar yordamida o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta’limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi.

Ushbu tizimda:

Tarbiyalanuvchining yoshi, ruxiyati, dunyoqarashi, bilimi, faollik darajasi va boshqalar e’tiborga olinadi.

Ta’lim-tarbiyaning maqsadi, yo‘nalishi, mazmuni, shakllari, usullari.

Ta’lim-tarbiya jarayoni.

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, rahbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va maxoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta’sir ko‘rsatish, bolani eng ko‘p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qullab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida – o‘yin, mashg‘ulot, sayr davomida qo‘llash yaxshi samara beradi.

Ma’lumki o‘yin faoliyati bolalar hayotining mazmunini tashkil etish bilan birga, ularni atrofni, qolaversa, barcha yaqinlarini tanishga yordam beradi, kelgusi o‘quv faoliyatiga ruhan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o‘yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini hamda dunyoqarashini shakllantirishga, o‘tsirishga xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan buyongi xayotida muhim o‘rin tutadi.


Bola bilan uynar ekanmiz, biz xam o‘z oldimizga maqsad ko‘yib borishimiz kerak. O‘yin davomida albatta biz ularning xoxishi, istagi bo‘yicha xarakat qilishimiz, bizning shu paytdagi asosiy ishimiz bolaning aytganlarini bajarib, uni xushnud qilish, vaqtini chog‘lash va shu asosda muayyan ko‘zlagan niyatimizni amalga oshirib, bolani ma’lum maqsadga yo‘naltirishdir. Masalan, biz bola idrokini

rivojlantirishni o‘z oldimizga vazifa qilib quyishimiz mumkin. Idrokni o‘sirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Maktabga tayyorlov davriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy geomtrik shakllar (doira, turtburchak, to‘g‘ri turtburchak, uchburchaqlarni bilishlari lozim. Namunaga ko‘ra, yoki nomi aytilgan ma’lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Shundan kelib chikib, sizlarga bir necha o‘yin mashg‘ulotlarini tavsiya etamiz.

### **Mantiqiy juftlikni top**

Rasmida turli predmetlar tasvirlangan. Ularning nomlarini ayta olasanmi? Ularning juftini top va birlashtir.



### **To‘rtinchisi ortiqcha**

Bu-mantiqiy o‘yin bola oldiga 4 ta surat quying 3 tasi bitta umumiyl tushunchaga doyr, 1 tasi boshka tushunchaga. Masalan. stol, stal, javon, olma. Bola shu surat to‘plamidan ortiqchasini topib, nega aynan shu suratni ajratganini sharxlashi lozim. Bolaga o‘yin qoidasi, tushunchalarning mohiyati, qaysi surat ortiqcha bulishi mumkinligini tushuntirib bering. Narsalarni umumlashtirish, farqlash malakasini hosil qilish, mustahkamlash uchun bir necha ko‘rinishda mashq qilish mumkin.



Xulosa qilib aytish mumkinki, bu o‘yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni, diqqatni jamlashni, sezgini, bir narsani tezda idrok etishni, umumlashtirishni, chaqqonlikni rivojlantirish mumkin. Ta’lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat talablari asosida o‘qituvchilar, tarbiyachilar shaxsini har tomonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Yangilanayotgan maktabgacha ta’limga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talab ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la taminlanishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Maktabgacha ta’lim jurnali. T-2016 yil. №7
2. Венгерская Л. А. Диагностика учебной деятельности и социального развития детей. - Ну и что?- Академия, 2019 г.
3. Горвиц Ю.М. Новые информационные технологии в дошкольном образовании. – М.: ЛИНКА-ПРЕСС, 1998. – 328 с.

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

***K.I.Bashirova***

***Kattaqo‘rg‘on shahar 19-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi***

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy yondashuv tushunchasi, ilg‘or xorijiy tajribalar bo‘yicha ilmiy g‘oyalari, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda STEAM texnologiyasi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** zamonaviy yondashuv, maktabgacha ta’lim, bilim, kunikma va malaka, fan, texnologiya, muxandislik ,matematika.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198 son farmonida ta’kidlaganidek, Maktabgacha ta’lim sohasi uzlusiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘in hisoblanib, u har tomonlama sog‘om va barkamol bola shaxsini tayyorlash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb yetadi. Ushbu farmonga muvofiq maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnologiyalarni tatbiq yetish, bolalarni xar tomonlama intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratishdan iborat. Dasturning asosiy vazifalari sifatida ilg‘or xorijiy tajribalarni xisobga olgan xolda bolalarni intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Bolaning maktabga tayyorgarligi

undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- o‘zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni eta olish;
- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.

Bugungi dunyo kechagi kabi emas ertangi kun ham bugungi kabi bo‘lmaydi!

Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda.

**STEAM**-farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlod, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o‘yin orqali yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda STEAM-ta’lim dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan.

Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunda ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga quyidagilar Legotexnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

**STEAM** (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A – can’at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

**STEAM**-bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

**STEAM**-yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyonи muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

**O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish.** Bu yondashuvda bolalar o‘z qo‘llari bilan yaratgan ko‘prik va yo‘llar, samolyotlar va avtomobillarni “ishga tushirib”, suv osti va havo tuzilmalarini “rivojlantirib”, sinovdan o‘tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayt sinovdan o‘tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o‘zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g‘alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g‘alaba, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch uyg‘otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish.

**STEAM** dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo‘rqmaslikka o‘rganadilar. Ko‘pincha, stol atrofida o‘tirmaydi, o‘zlarining dizaynlari asosidagi mahsulot”larni sinovdan o‘tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do‘słari bilan muloqot qilish bilan band bo‘lishadi.

Texnik fanlar bo‘yicha qiziqishlarni rivojlantirish.

Maktabgacha va boshlang‘ich mifik yoshidagi STEAM ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo‘yicha, qilgan ishni yaxshi ko‘rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM –bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo‘lib, bolalarning zerikishlariga to‘sinqinlik qiladi. Ular vaqt o‘tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar. Raketalar, avtoulovlar, ko‘priklar, osmono‘par binolarni qurish, elektron o‘yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va texnologiyaga qiziqishi ortib borada.

Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar.

**STEAM**-ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn,qurilish, test va takomillashtirish. Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O‘z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlik asosi hisoblanadi.

Shunday qilib, bir vaqtida bolalarda fan va texnologiyalarni qo‘llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin.

Buyuk Britaniyada odatda ta’lim berish o‘rganilayotgan predmet yoki o‘qituvchiga emas balki bolaga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta’limi tarixiga asoslanib uning rivojlanishiga Russo, Frebel, Montessori ta’sir ko‘rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak deb hisoblaydilar.

Xulosa tariqasida aytish joizki, xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta’lim tizimlarini o‘rganish ularning ilg‘or tajribasini tahlil yetish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo‘yicha aniq chora tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirib, zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-son farmoni [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil 11 - son
3. Maktabgacha ta’lim jurnali. 2016 yil 7 – son
4. Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuv moduli bo‘yicha.O‘quv– uslubiy majmua Toshkent-2018
- 5.“Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim” dasturi. T.: 2011
- 6.F.Umarova. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. T.: 2012

## **OILALAR VA MAHALLIY JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIK**

*F.Qudratova  
Pastdarg‘om tuman MTT -26 MTT direktori*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagি bolani to‘liq tarbiyalash oila, mahalliy jamoatchilik va MTT o‘rtasida yaqin hamkorlik sharoitida amalga oshirilishi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** oila, “Ilk qadam”, “Oila va jamoatchilik ishtiroki”, seminarlar, foto ko‘rgazma, kognitiv, ijtimoiy, hissiy, hamkorlik, jamoatchilik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Olib borilgan ilmiy izlanish va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachilar, oilalar va jamoat a’zolari o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta’lim olishiga ijobiy hissa qo‘sadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ushbu

hamkorlikni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida berilayotgan ta’limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo‘layotgan qiziqish va ta’limni rivojlantirish uchun zarur degan ishonchga asoslanadi.

Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berishda ularning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga e’tibor beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi, shuning uchun ularga ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamkorlik deganda, ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlar mavjud bo‘lib, bir-birlarini layoqatli deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifatida qadrlashlari nazarda tutiladi. Hamkorlik tarbiyachi bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlari, turmush tarzi, o‘ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o‘qishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ko‘plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o‘rganayotganiga tayanib, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oila farzandlarning birinchi va eng muhim tarbiyachisidir. Bolaning birinchi o‘qituvchisi sifatida oilaning asosiy rolini tan olish va qadrlash juda muhim.

Ota-onalar va boshqa yaqin oila a’zolari kichkina bolaning hayotidagi eng muhim insonlar bo‘lib, ularning birinchi va eng uzoq o‘qituvchilari bo‘ladi. Oila muhitida bolalarda quyidagi hislar shakllanadi:

- ular yashayotgan jamoaga tegishli bo‘lish va ular bilan aloqa hissi;
- jismoniy farovonlik, jumladan oziq-ovqat, bospana, kiyim-kechak va tibbiy xizmat;
- gullab-yashnagan rivojlanish, shu jumladan, ularning hissiy, ijtimoiy, ma’naviy, til va jismoniy rivojlanishi, oila, madaniyat va jamiyat a’zosi sifatida o‘ziga xoslik hissi.

“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat o‘quv dasturining majburiy qismi oilani ta’lim va tarbiyaga jalg qilishdir. Ba’zida pedagoglar, shunchaki ota-onalarni yig‘ilishlarga, tadbirlarga va tantanalarga taklif qilish bilan oilalar ishtiroki ta’milangan deb o‘ylashadi. Biroq oila va jamoatchilik ishtiroki shunchaki maktabgacha faoliyatda qatnashishdan ko‘proq narsani anglatadi. Bu hissiy va jismoniy faollikning yuqori darajasini va maktabgacha yoshdagi tashkilotda ishtirok etish uchun keng imkoniyatlarni tanlashni nazarda tutadi. Oila jamiyatning kichik bo‘g‘inidir. Shuning uchun ham “Oila va jamoatchilik ishtiroki” atamasi ota-onalar ishtirokidan ham kengroqdir, chunki u boshqa oila a’zolari va jamoatchilik a’zolarining ahamiyatini tan oladi.

Ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi kamdan-kam hollarda darhol yuzaga keladi. Bu sabr-toqatni, tanlangan maqsadga qat’iy rioya qilishni va ota-onalar bilan hamkorlik qilishning yangi usullarini doimiy ravishda izlashni talab qiladigan uzoq jarayon, uzoq davom etadigan mashaqqatli mehnatdir.

Ota-onalar va tarbiyachilarining o‘zaro hamkorligi va bir-biri bilan ma'lumot almashish uchun imkoniyat yaratadigan faoliyatning turli shakllari va usullari mavjud:

- umumiyl va guruh ota-onalar yig‘ilishlari;
- ota-onalar ishtirokidagi mashg‘ulotlar;
- tashrif kunlari;
- ota-onalar qo‘mitasi bilan ishslash;
- mavzularni rivojlantirish muhitini birgalikda yaratish;
- foto ko‘rgazmalarni birgalikda yaratish;
- ochiq eshik kunlari;
- seminarlar;
- amaliy mashg‘ulotlar;
- birgalikdagi ekskursiyalar;
- ta‘tilga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda ota-onalarning ishtiroki;
- mashg‘ulotlar;
- ota-onalar bilan o‘tkazilgan bolalar asarlarining ko‘rgazmalari;
- konferentsiyalar;
- davra suhbatlari va boshqalar.

Oila bilan ishslashning turli shakllaridan foydalanish ota-onalarning maktabgacha tarbiya tashkilotiga joylashishi va ishonchini uyg‘otishga imkon beradi. MTT mutaxassislari oila bilan an’anaviy o‘zaro munosabatlarning pedagogik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga harakat qilmoqdalar va ota-onalar va umuman mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlikning yangi shakllarini izlamoqdalar.

Pedagog bu yoki boshqa ish turini rejlashtirayotganda har doim zamonaviy ota-onalar, shuningdek, doimiy izlanish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va hamkorlikka tayyor bo‘lgan zamonaviy odamlar haqidagi fikrlardan kelib chiqishi kerak.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2018.
3. “Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” metodik qo‘llanmasi. T.: 2020

4. Djurayev R.X, Inoyatova M.E. Iste'dodli farzand tarbiyasi. Ota-onalar kitobi. Toshkent, 2016.

## **BARKAMOL AVLODNI TARBIYALSHDA OILA, BOLALAR BOG‘CHASI VA MAKTAB HAMKORLIGI**

*N.S.Gulyamova*

*Samarqand shahar 14-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyalshda oila, bolalar bog‘chasi va maktab hamkorligida tashkil etiladigan masalalar va ushbu masalalarni hal qilishda uchraydigan muammolar haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy, oila, bolalar bog‘chasi, barkamol avlod. maktab.

Yurtimizning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy jihatdan rivojlanishi har tomonlama kamol topgan shaxsning shakllanishiga, uning siyosiy, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetukligiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Barkamol avlod, barkamol shaxs birinchi navbatda, o‘z Vatanini, milliy tili, urf-odati, tarixi, an'analarini sevadigan, avlod-ajdodlari yaratgan ilmu hunar javohirlarini to‘la to‘kis egallagan va umuminsoniy qadriyatlarni ezozlaydigan kishilar bo‘lganliklari bois ham milliy – ma’naviyatimiz gurkirab yashnayveradi.

Vatanimiz ravnaqi o‘sib kelayotgan barkamol avlodning intellektual ongini shakllanishiga bog‘liq ekan bolaning ongiga kichik yoshidan boshlab, Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, azaliy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va o‘zlikni anglashni singdirib borish lozim. Bola o‘z ona tilining jozibasini eng avvalo oilada, bolalar bog‘chalarida, maktablarda eshitgan va o‘qigan, ertak-u dostonlarida, tez aytishlar-u topishmoqlarida, qo‘shiqlarida sezib, anglab boradi. Shu tariqa o‘z xalqining milliy urf-odatlarini, bayramlarini, qadriyatlarini o‘rganib ulardan bahra oladi. Bola qalbi go‘yo yozilmagan oq qog‘oz kabitidir. Unga nimalarni yozish, qanday to‘ldirish biz kattalarga bog‘liqdir. Kattalar, o‘qituvchilar ushbu ma’suliyatni his qilishlari bilan bir qatorda, yosh bolaga ta‘lim-tarbiya berishda bolaning oq qog‘oz kabi pok qalbini yaralab qoymaslikka ma’suldirlar.

Bola ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirishda, bizning hozirgi tinch va osoyishta zamonda yashab, ilm olishimiz uchun kurashib, hatto jonidan ham kechgan bobolarimiz haqida kengroq tushunchalar berib borish o‘rinlidir.

Boshlang‘ich sinflardan boshlab, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin Manguberdi, Z.M.Bobur, Al-Xorazmiy kabi allomalarining

jahon ilmi taraqqiyotidagi o‘rni, milliy ma’naviy meroslari haqida o‘rgatib borish joizdir.

Shuningdek ota-bobolarimiz kurashib, qo‘lga kiritgan mustaqillikni e’zozlashga, qadriga yetishga, davlat ramzlarini hurmat qilishga o‘rgatib borish ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi ijro etilayotganda, o‘rnimizdan turib, qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yishni, millat bayrog‘iga ta’zim qilishni va gerbimizda tasvirlangan milliy boyliklarimiz bilan faxrlanish hissini singdirib borish lozim. Bularning barchasi farzandlarimizning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi.

Barkamol avlod eng avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda bola qanday oilada va qanday sharoitda yoki muhitda voyaga yetib kelmoqda, shunisiga e’tibor qaratish lozim. Xalqimizda onasini ko‘rib, qizini ol, degan ibora bor. Tarbiya jarayonida ona qizi bilan ko‘proq muloqotda bo‘ladi, ota uchun o‘g‘lining xulqi muhimdir. Azaldan o‘zbek oilalarida har bir shaxsning o‘z o‘rni va hurmati hamda mavqeい nihoyatda qadrlanganligi ma’lum bo‘lib, o‘zbekona milliy odatlarga asoslangan sharqona go‘zal tarbiyani vujudga keltirganligi ma’lum. Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o‘z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsidagi dunyoqarash shakllanib boradi. Oilada ota-onaning tutgan xatti-harakati bola uchun misoli bir ko‘zgu. Xalq pedagogikasida aytilganidek, qush uyasida ko‘rganini qiladi. Ota-onalar o‘rtasidagi munosabatda mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, bir-biriga g‘amxo‘rlik kabi sifatlar bolaning tarbiyasida yaxshi ibrat hisoblanadi.

Oila vatan ichidagi kichik bir vatan hisoblanadi. Oilaning farzandga bo‘lgan ta’siri shu darajada kuchli bo‘ladiki, vaqt o‘tgan sari u o‘zining isbotini topib boradi.

Bola tarbiyasida oilaning o‘rni beqiyos ekan, har bir ota-onalarning tarbiyasi, sog‘lomligi uchun ma’suldirlar. Bolaning barkamol avlod bo‘lib shakllanishi uchun yoshligidanoq barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Jumladan, bolaning maktabdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli va to‘g‘ri tashkil etish uchun mahallalarda tashkil etilgan sport to‘garaklariga, yoshlar uylaridagi turli to‘garaklarga o‘zlarini qiziqishlarini inobatga olgan holda jalb qilishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bob 64-moddasida „Oila“ to‘g‘risida shinday deyilgan: ota-onalar farzandlari voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Oiladan keyin, bolalar bog‘chalarida ta’lim-tarbiya jarayoni davom etadi. Bolalar bog‘chalarida berilgan bilimlar undan bir pog‘ona baland bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga zamin yaratish ekan, ilm poydevorini mustahkam qurmoq uchun, bu ta’lim bosqichida bolaning tafakkuriga, dunyoqarashiga, ma’nani va jismonan sog‘lomligiga alohida e’tibor berish har bir tarbiyachi va murabbiyining dasturulamali bo‘lmog‘i kerak.

Bolalar bog‘chalarida turli xildagi sport mashg‘ulotlari, ma’naviy tadbirlar tez-tez tashkil etilishi bolaning sog‘lom shaxs bo‘lib yetishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limni ta’limning poydevoriga qiyoslashadi. Bu juda to‘g‘ri, chunki ta’lim taraqqiyoti va kamolotida ana shu bosqichda tamal toshi qo‘yiladi. Boshlang‘ich ta’limda bola mакtab, bilim haqidagi ilk tushunchalarni oladi. Shunday ekan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga o‘quvchining har tamonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashdek ma’suliyatli vazifa tutadi. Ana shu mas’uliyatni his etgan har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning darsda va darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish uchun, maktabda va maktabdan tashqari tashkil etilgan turli fan, sport, ijodiyot, hunar-texnika to‘garaklariga jalb etishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, bolaning asosiy vaqt oilada, maktabda, do‘sstar davrasida o‘tadi. Ota-onalar, o‘qituvchilar, murabbiylar ana shu muhitda bolaning qanday ish bilan band ekanligini doimo nazorat qilib turishlari lozim. To‘g‘ri nazorat qilinganda, ta’lim-tarbiya jarayoni to‘g‘ri tashkil etilgandagina har tamonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi 187-sон qarori.
2. Norpo‘latova X. “O‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi” T.: “Kasb hunar” jurnali, 2010 yil №3.
3. Yo‘ldoshev A.A. Makatb va oila hamkorligi – T.: “O‘qituvchi”, 2010.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MAKTABGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH**

*F.I.Qudratova*

*Samarqand shahar 18- Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagи bolalarni maktabga psixologik tayyorlarlik, ijtimoiy-psixologik tayyorlov metodlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** Maktabgacha ta’lim, ijtimoiy, hissiy, kognitiv , psixologik, «Jonli sotsiometriya», sensor jarayon.

Barchaga ma’lumki, bolani maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi maktabgacha tarbiya yoshidagi tayyorlarlik darajasiga bog‘liq. Bolani maktabda o‘qishga-hayotning yangi bosqichiga tayyorlash uning shaxsi rivojlanishining barcha tomonlarini o‘z ichiga oladi va maktabgacha tarbiya davrida amalga oshiriladi. Maktab dasturlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda maktabga kelayotgan bolalarning rivojlanishi darajasiga talablar ortib bormoqda. Bu rivojlanish darajasi maktabda o‘qishga tayyorlarlik bilan belgilanadi.

Maktabga psixologik tayyorgarlik ilk o‘quv motivlarining shakllanganligi, bolaning bilish ruhiy jarayonlarining yetarli darajada rivojlanganligi, yangi ijtimoiy muhitga moslashish va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarining mavjudligi, ma’naviy-axloqiy jihatlari, shuningdek, aqliy imkoniyatlarining ta’lim talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi. Psixologiyada faol ijtimoiy-psixologik tayyorlov metodlari deganda, avvalo bola shaxsi yoki bolalar jamoasini samarali faoliyat malakalariga o‘rgatish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish usullari tushuniladi.

Demak, bola o‘z hayotida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni orttirib borishi jarayonida hosil bo‘ladigan stixiyali, bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ savodxonlikdan farqli o‘laroq, fanda ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish uchun qo‘llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ba’zi psixologik adabiyotlarda ularni qisqacha qilib, ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb atashadi.

Treningning tabiiy hamda maxsus tarzda uyuşhtirilgan turlari haqida mulohaza yuritish mumkin. Birinchi holatni biz hattoki, kichik yoshli bolalarda ham kuzata olamiz. Masalan, yosh bolalarning turli ijtimoiy rollar doirasida o‘zaro har xil rolli va syujetli o‘yinlari bilan mashg‘ul bo‘lishlari, unda turli rollar (o‘qituvchi, tarbiyachi, haydovchi, boshliq va hokazo)ni improvizatsiya qilishlari, tabiiyki, ulardagি nafaqat dunyoqarashni, balki bo‘lg‘usi ijtimoiy faoliyatlarga tayyor bo‘lishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Maxsus tarzda uyuşhtirilgan treningda esa alohida vaziyatlar va har bir o‘yin ishtirokchisining shaxsiy ehtiyojlari, ularda individual shakllanishi zarur bo‘lgan sifatlar katta rol o‘ynaydi va shaxs ataylab u yoki bu ijtimoiy psixologik vaziyatga o‘zgalar tomonidan qo‘yiladi.

Maktabgacha ta’limda mashg‘ulotni amalga oshirishning asosiy turlaridan biri bu o‘yindir. O‘yin bog‘cha yoshidagi bolalariing asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagи o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. Maktabgacha ta’limda ijtimoiy psixologik treninglarni qo‘llashda didaktik o‘yinlar maboynidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘yinga oid psixologik trening - bu bolani muloqotga o‘rgatish uchun bajariladigan o‘yin mashqlari va xatti-harakatlar tizimidir. Treningning asosiy maqsadi bolani psixologik (ruhiy) zo‘riqish, asabiy tanglikdan ozod qilish, unda tabiiy erkinlikni his etish hamda o‘z guruhida va undan tashqarida o‘zaro munosabat, aloqa o‘rnata olishini shakllantirishdir. Masalan, bolani boshqa bolalarni yoki o‘zini o‘zi tushinishga o‘rgatish, o‘zgalarni va o‘zini o‘rganish, o‘ziga-o‘zi baho berishni taşminlash, boshqalarni tushunish va ularni idrok qila bilish kabilardir. Treningni muvaffaqiyatli o‘tkazishning va uning sermahsulligi ko‘p jihatdan, treningni olib

boruvchi (murabbiy) bilan ishtirokchilar (bolalar) o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini tushunish darajasiga bog‘liqdir.

**1 mashq.** «Tanishish». Boshlovchi (Murabbiy) guruh a’zolarini doira qilib o‘tqazib, so‘ng ulardan o‘ng yoki chap tomonda turgan ishtirokchilardan bittasi o‘z ismini aytadi, 2-ishtirokchi esa birinchisining va o‘z ismini aytadi, uchinchi ishtirokchi birinchi, ikkinchi va o‘zining ismini aytadi va shu tarzda tanishuv oxirigacha davom etadi. Trening oxiri ishtirokchisi birinchidan boshlab, to guruh a’zolarining hammasining va o‘zining ismini aytadi. Guruh a’zolarining bir-biri bilan tanishishi mana shunday ro‘y beradi. Bu mashq bolalarda o‘zoro anglanganlik, quvonch hissi, psixologik moslik, hamkorlik istagi paydo bo‘lishiga imkon bermog‘i kerak. Trening olib boruvchi guruh a’zolarining xulq-atvori va xatti-harakatini kuzatib borgan holda, tortinchoqlarini o‘zi uchun ajratib olishi, ular bilan keyingi olib boriladigan ishlar strategiyasini belgilashi kerak.

**II mashq.** «Jonli sotsiometriya». Bu mashq ham oldingisiga o‘xshaydi, faqat bunda ishtirokchilar juft-juft bo‘lib bajaradilar, ya’ni biri ko‘zini yumadi, ikkinchisi uni yetaklab yuradi. Sheriklar vaqtı-vaqtı bilan rollarini almashtirib turadilar. «Etaklab yuruvchisiga» juda ishongan bo‘lsa, ko‘zini yumgan bola dadil his etadi, u bir tekis osoyishta qadam tashlaydi. Bunga aks ko‘rinishda esa «ko‘zi yumuq» ishonch hissiga ega bo‘lmaganida qat’iyatsiz, tez-tez qadam tashlaydi, oyoqlarini tarang tutadi.

Psixologik treninglar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi. Shuning uchun ham psixologik treninglar bolalarning bilish faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Shuningdek, psixologik treninglar bolalarni tevarak-atrof to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilishga o‘rgatadi, ulardagи fikrlash qobiliyatları, ijodiy kuchlar, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.Nishonova Z.T.,Alimova G.K..Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017
- 2.Do‘stmuhamedova Sh.A.,Nishonova Z.T va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013
- 3.G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. T.: O‘qituvchi, 2010
- 4.Yo‘ldoshev U.A., Po‘latov M. Amaliy psixologning ish kitobi.Navoiy, 2000 y.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*I. Xolmurodova  
Payariq tumani 48-sonli MTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha tarbiyada yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalar, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zлari:** metodlar, texnik vositalar, pedagogik texnologiya, ma’naviy-axloqiy , intellektual ivojlantirish,

Maktabgacha ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o’sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual ivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko’tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, huningdek o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo’llashga ko’maklashadi.

Maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun bular ko‘prik vazifasini o‘tashini, oila yoki bog‘chadagi ta’lim va tarbiya sharoitlaridan maktab ta’limiga nuqsonlarsiz o‘tkazishni ta’minlash zarurligi va bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi bir qator omillar, mutaxassis psixologlar tomonidan isbotlangan.

Milliy ta’lim ravnaqini ta’lim-tarbiya amaliyotiga samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo’llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko‘zlovchi pedagogik texnologiyalar ta’minlaydi. Maktabgacha tarbiya yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta’limga bog‘lash, har ikkisini tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishga, mustaqil fikrlashga yo’llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Demak, pedagogik innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalar, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakillari va vositalarini tayyorlash, tarbiyalanuvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Shuning uchun ta’lim jarayonida bolaning tutgan o‘rni, ya’ni bolaga kattalar tomonidan ko‘rsatilgan munosabat pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatidir. Mashg‘ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo’llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta’limga tizimli


yondashuv asosida tatbiq etiladi. Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida – o‘yin, mashg‘ulot, sayr davomida qo‘llash yaxshi samara beradi.

Ma’lumki o‘yin faoliyat bolalar hayotining mazmunini tashkil etish bilan birga, ularni atrofni, qolaversa, barcha yaqinlarini tanishga yordam beradi, kelgusi o‘quv faoliyatiga ruhan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o‘yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini hamda dunyoqarashini shakllantirishga, o‘tsirishga xizmat qiladigan vositadir. Bu jixatlar bolaning bundan buyongi xayotida muhim o‘rin tutadi.

Bola bilan o‘ynar ekanmiz, biz xam o‘z oldimizga maqsad qo‘yib borishimiz kerak. O‘yin davomida albatta biz ularning xoxishi, istagi bo‘yicha xarakat qilishimiz, bizning shu paytdagi asosiylar ishimiz bolaning aytganlarini bajarib, uni xushnud qilish, vaqtini chog‘lash va shu asosda muayyan ko‘zlagan niyatimizni amalga oshirib, bolani ma’lum maqsadga yo‘naltirishdir. Masalan, biz bola idrokini rivojlantirishni o‘z oldimizga vazifa qilib quyishimiz mumkin. Idrokni o‘sirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra taxlil qilish malakasini shakllantiradi. Shundan kelib chiqib, sizlarga bir necha o‘yin mashg‘ulotlarini tavsiya etamiz.

### To‘rtinchisi ortiqcha

Bu-mantiqiy o‘yin bola oldiga 4 ta surat quying[-3 tasi bitta umumiy tushunchaga doir, 1 tasi boshqa tushunchaga. Masalan. stol, stul, javon, olma. Bola shu surat tuplamidan ortiqchasini topib, nega aynan shu suratni ajratganini sharxlashi lozim. Bolaga o‘yin qoidasi, tushunchalarning mohiyati, qaysi surat ortiqcha bulishi mumkinligini tushuntirib bering. Narsalarni umumlashtirish, farqlash malakasini hosil qilish, mustaxkamlash uchun bir necha ko‘rinishda mashq qilish mumkin.



## **Xatosini top**

Bu o‘yin diqqatni o‘sirishga qaratilgan. Avvaldan 5-6 ta xatosi bo‘lgan rasm chizing (usta rassom bo‘lishingiz shart emas). Masalan, qish kuni hovlida o‘ynab yurgan o‘g‘il bolalar engil oyoq kiyimida, qiz bolalar savatchaga qo‘ziqorin terib yurgan holda tasvirlangan bo‘lishi mumkin. Albatta, surat mazmuni va xatolar tushunarli bo‘lishi lozim. O‘yinni murakkablashtirish uchun xatolar sonini ko‘paytirish, ularni bola uchun sezilmaydigan qilish lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki bu o‘yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni, diqqatni jamlashni, sezgini, bir narsani tezda idrok etishni, umumlashtirishni, chaqqonlikni rivojlantirish mumkin. Ta’lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat talablari asosida o‘qituvchilar, tarbiyachilar shaxsini har tomonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Yangilanayotgan maktabgacha ta’limga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talab ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la taminlanishi lozim. Shu jihatdan maktabgacha ta’lim davlat talablarini belgilashda shuni hisobga olish kerakki, ta’lim jarayonning tarkibini, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini ham modernezatsiyalash, yangi zamонави pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

## **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2018.
3. Ishmuxamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar .T.: Iste’dod, 2010.-140 b.
4. Ishmuxamedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog‘lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya T.,UDAP, 2004.

## **STEAM TEXNOLOGIYASIDAN MAK TABGACHA TA’LIM TIZIMIDA FOYDALANISH**

**A.M.Karimova**

*SamDU “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi,*

**M.E.Ma’rufova**

*SamDU “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada STEAM ta’limning rivojlanishi, nazariy asoslari, imkoniyatlari, yutuqlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** STEAM, fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika, dual ta’lim, enkuliziv ta’lim, eksternat ta’lim, masofaviy ta’lim.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, bu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu tizimda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi Davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishda STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish muhim hisoblanadi.

STEAM ta’lim texnologiyasi ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Ushbu ta’lim texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEAM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu tushunchalarga Art qo‘shilib, STEAM bir butun bo‘lib shakllandi.

STEAM ta’lim texnologiyasi ta’limni yangicha o‘qitish metodikasi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida to‘rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san’at (Art), matematika (Math) bo‘yicha o‘qitish amalga oshiriladi. STEAM fan bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir. STEAM ta’limi amaliy mashg‘ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Mazkur ta’lim texnologiyasidan Kanada va Buyuk Britaniya davlatlari ta’lim tizimida keng foydalanmoqda.

STEAM ta’lim texnologiyasi quydagicha ma’no kasb etadi. S - Science (Fan) T - Technology (Texnologiya) E - Engineering (Muhandislik) A - Art (San’at) M - Mathematics (Matematika) Science (Fan)-bo‘lg‘usi mutaxassislarga texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli tayyorgarlik darajasini mujassamlashtiradi.

Technology (Texnologiya)-STEAM bizning farzandlarimiz – bo‘lajak ixtirochilar, novatorlar va yetakchilarni olimlar kabi tadqiqotlar olib borish, texnologlar kabi modellashtirish, muhandislar kabi loyihalash, rassomlar kabi yaratish, matematiklar kabi tahliliy fikrlash va bolalar kabi o‘ylashga yo‘naltiradi.

Engineering (Muhandislik)-STEAM yondashuvi tufayli bolalar sodir bo‘ladigan hodisalarning mantig‘ini anglash, ularning o‘zaro munosabatlarini tushunish, dunyonи tizimli ravishda o‘rganish va shu bilan birga qiziquvchanlikni va tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

Art (San'at)-STEAM asosini loyihalashtirishning muhandislik yondashuvi tashkil etlib, bunda avvalo mahsulot yoki jarayonning prototipi yaratiladi.

Mathematics (Matematika)- Tadqiq etish, prototipni yaratish yoki takomillashtirish jarayonida bola bir nechta fandan bilimlarini qo'llashiga to'g'ri keladi, bu esa unda olamning yaxlit tabiiy-ilmiy suratini shakllantirishga yordam beradi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu ta'lim oluvchilarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

STEAM ta'lim texnologiyasidan maktabgacha ta'lim tarbiya sohasida foydalanilganda bolalar STEAM ta'lim muhitida bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar

«STEAM fikrlash» bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog'liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag'batlantirilishi lozim. Sifatli kitob bolani STEAM tizimiga olib kirishda kuchli vosita bo'la oladi. STEAM ta'lim texnologiyasi maktabgacha ta'limning asosiy ta'lim shaklli mashg'ulotlar jarayonidagi integratsiyalashuvni yuzaga olib chiqadi. STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'lim-tarbiya sohasiga olib kirish nafaqat maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayogan mutaxxasislar va shu sohada tahsil olayotgan oliy o'quv yurti talabalariga tanlov fan sifatida o'qitish ishlari yo'lga qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishlari ta'limga bo'lgan qarashlarini o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va atrofdagilar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlashni istardikki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga va uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarini oson zabit etishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z.Ashurova. Maktabgacha ta'linda steam texnologiyasidan foydalanish. Metodik qo'llanma. Buxoro. Durdona nashriyoti, 2022
2. Rasulova Z.D. (2021). Texnologiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 470-480 betlar.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA RANGLARNI O'RGATISHNING AHAMIYATI**

**A. M.Karimova**

*SamDU Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi,*

**M.O.Mamayusopova**

*SamDU Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** maqola katta va tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallanib, bolalar rivojlanishida ranglarning ahamiyati, sensor sistemasining rivojlanishi, ranglarni o'rgatishda didaktik va harakatli o'yinlardan foydalanish lozimligi ochib berilgan.

**Kalit so'z:** Tajriba , diqqat , sensor sistema , sezgi .

Bolalar rivojlanishida ranglar muhim ahmiyatga egadir. Ranglar orqali bolalar atrof muhit bilan tanishadi. Kichik guruhda rasm chizishga o'rgatishda (3 yoshli bolalar) psixik jixatdan rivojlanadi, turmush tajribalari o'sadi. Bunda yosh bolalarning rang tanlash malakasi shakllanadi. Bolaning diqqatini ularga yoqqan ranglar tortadi. Dastlab bolalarga qizil, sariq, ko'k, yashil, qora, oq ranglarni bilishga o'rgatiladi. Shuningdek, rang aralash tirishlarni (pushti rang, havo rang va zarg'aldoq rang, jigarrang) o'rganishadi. Bu guruhlarda bolalarini ranglarni to'g'ri atash va tasvir aniqligi talab etilmaydi, ammo tarbiyachi asta-sekin predmetlarni rang tusini real tasviriga o'rgatib borishi kerak. Masalan: Ko'm-ko'k o'tlar o'smoqda, o'tlarda sap-sariq jo'jalar o'tlab yurishibdi va hokazo. Maktabgacha yoshdagi bolalar ranglarning bir-biriga mos kelib, uyg'unlashishini albatta, barchasini o'zlashtira olmaydilar. Lekin, rang hissi ularda bog'chagacha bo'lgan yoshdan boshlab rivojlna boshlaydi. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bunda yosh bolalarning rang tanlash malakasi shakllanadi. Bolaning diqqatini ularga yoqqan ranglar tortadi. Sensor tarbiya ilk bolalik yoshida alohida ahmiyatga ega bo'ladi chunki voqelikning narsa va hodisalarning shakli katta-kichikligi rangi va boshqa xossalarni idrok qilish qobilyatini ilk va maktabgacha tarbiya yoshi davrida tez rivojlanadi . Bolalarda sensor sifatlarini rivojlantirishda bolalar o'zları bilgan ko'rgan predmetlardan foydalanib o'rgatish mumkun. Bu jarayonda buyumlarning sifatiga

qarab guruhlarga ajratish masalan, barcha qizil sharchalarni qizil qutiga to‘plash, har xil shakildagi turli xil rangdagi kubiklarni ranglari bo‘yicha bir guruhga ajratish va hokozolar asos hisoblanadi. Bolalar buyumlarni tahlil qilishda buyumlar sifati bilan taqqoslashga, o‘xshagan va farq qiladigan tomonlarini sezishga o‘rganishadi. Biz bolalarga ranglarni o‘rgatishda bolalarga tanish bolgan predmetlardan ularning ranglari doimiyligidan foydalanishimiz mumkun. Bizga tanish bo‘lgan kamalakning 7 ranglari, quyoshning sariq ekanligi, bahorgi barglarning yashilligini, kuzda barglar oltin rangga kirishini, ko‘mirning qora ekanligi, qorning oqligi orqali biz bolalarga ranglarni tanishtirishimiz mumkun. Svetafor ranglari orqali qizil, sariq, yashil rang bilan birgalikda tanishamiz.

Men svetafor bolaman,  
Uch xil rangda yonaman  
Qizil, sariq, yashilman  
Sizga doim hozirman.  
Vaqt bilan yonaman  
Tartibga men solaman.  
Yo‘lovchi bolalarni,  
Men himoya qilaman.  
Qizilda to‘xtab turing  
Sariqda tayyor turing .  
Yashil yonganida siz  
Ehtiyyot bolib yuring!


Yorqin ranglar bolalar rivojlanishiga ko‘z nuriga psixalogiyasiga ijobiy tasir qiladi. Ranglarni bir biridan ajratishda didaktik o‘yinlardan foydalanish bolalar uchun qiziqarli bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar bolaning aqliy qobiliyatlarini o‘sishiga yordam beradi.

#### **“Stolchamning rangini top“ o‘yini .**

**O‘yining maqsadi:** Bu o‘yin katta va tayyolov guruh tarbiyalanuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib bolalarning xotirasini mustahkamlashga asosiy ranglar bilan tanishishga bolalarda tezkorlik, chaqqonlik sifatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

**O‘yinga kerakli jihozlar:** ranglari qizil, sariq, yashil ranglarda bo‘lgan 2 tadan stolchalar.

**O‘yining qoidalari:** Qanday rangdagi stolcha aytilsa o‘sha stolchadagi ishtirokchilar joylarini almashishi kerak bo‘ladi.



**O'yining borishi :** Rangli stolchalar doira shaklida ranglari bir biriga qarama qarshi holatda qo'yiladi. Bu o'yinda 7 ta ishtirokchi qatnashadi. Rangli stolchalar bilan bolalarni tanishtiramiz va 6 ta ishtirokchi stolchalarga joylashadi, 1ta ishtitokchi esa doira o'rtasida turadi. O'yinni olib boradigan kishi shu ranglardan birini aytadi shu rangda stolchada o'tirgan ishtirokchilar joylarini almashishi kerak bo'ladi, o'rtadagi ishtirokchi esa stolchadan turayotgan ishtirokchilardan chaqqonlik qilib 2 stolchadan biriga joylashib olishi kerak bo'ladi. Joy almasha olmagan ishtirokchilardan biri yana o'rtaga turadi.(masalan : qizil deganda 2 ta qizil stolchalardagi ishtirokchilar joy almashishi kerak o'rtadagi ishtirokchi ikki ishtirokchidan chaqqonlik qilib biror stolchani egallashi kerak bo'ladi .Agar o'rtadagi ishtirokchi joy egalay olmasa yana o'yin shu holida davom etaveradi).

Bu o'yinda bolalar chaqqonligi zukkoligi muhim ro'1 o'ynaydi. Faol bolalar rag'batlantiriladi.

#### **"Rangli kapalakchalarlar“.**

**O'yining maqsadi :** Bolalarda sensor sistemasini rivojlantirish. Bolalar predmetlar o'rtasidagi ranglarni farqlashga, ranglarni birlashtirishga o'rgatish.

**O'yinga kerakli jihozlar:** rangli gullar rasmlari (yoki rangli qog'ozdan qirqilgan gullar) , har xil rangda yasalgan yoki rasm bo'lgan kapalakchalar va qistirgichlar (kapalakchalarni qistirgichga yopishtirib qo'yiladi.)

**O'yining qoidalari :** Gullar va kapalaklarning rangini moslash kerak bo'ladi. Rangi mos bo'lmagan gullar va kapalaklar xato hisoblanadi.

**O'yining borishi:** bolalarning oldiga rangli gullar va kapalakchalarni aralashtirgan holda yoyib chiqamiz. Bolalar gullar rangiga mos bo'lgan kapalaklarni gullarga qistirib qo'yishadi. Agar gullar rangiga kapalaklar mos bo'lmasa ular to'g'ri deb hisoblanmaydi. Bu o'yin orqali bolalar ranglarni bir biridan ajrata olishi qobiliyati shakillanadi.

#### **"Rangini top! ”**

**O'yining maqsadi :** Bolalar fikrlash qobiliyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish

**O'yinga kerakli jihozlar:** Rangli sharchalar, ko'zlarini bog'lash uchun tasma.

**O'yining qoidalari:** Tarbiyachi malumotlariga xos bo'lgan rangni aytish .

**O'yining borishi:** Tarbiyachi rangli sharlarni savatchaga aralashtirib qo'yadi, ishtitokchi bolani taklif qiladi va ko'zlarini tasmacha bilan ko'rinnmaydigan qilib bog'laydi. Ishtirokchi bolaga sharlardan birini tanlash aytildi, tanlagan sharga ko'ra tarbiyachi malumotlar aytishi kerak bo'ladi. Har bir bolaga 3 tadan malumot aytadi ishtirokchi esa malumotlar qanday rangga tegishli ekanligini topadi.

Demak maktabgacha yoshdagি bolalarga ranglarni farqlashga o'rgatishda turli she'rlardan, ertak va hikoyalardan, didaktik o'yinlardan samarali foydalansa bo'ladi.

Bunday usullardan foydalanish bolalar uchun ham foydali, ham qiziqarli jarayon hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari. T., 2018 yil
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T., 2018 yil
3. "Ilk yoshdagи bolalarning sensor tarbiyasi". Sh.Abdullayeva Toshkent. O'qituvchi 1993y

## **TAYYORLOV GURUHLARI BOLALARIDA AXLOQIY SIFATLARNI DIAGNOSTIKA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI**

*M.F. O'rinoyleva*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti*

*Maktabgacha ta'llim yo'nalishi 3-bosich talabasi*

**Annotatsiya:** maqola tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, bolalarning kamol topishida axloqning tutgan o'rni, bolalarga axloqiy tarbiyani singdirish usullarini o'rgatish va bu jarayonning oson bajarilishida badiiy adabiyotning roli, uning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** Axloq, tarbiya, tayyorlov guruhlar, ertaklar;

Axloq - bu so'z o'z zamirida olam – olam ma'noni qamrab oladi. Axloqni o'rgatish va o'rganishning aniq bir davri, yoshi ma'lum mezonlar bilan belgilab qo'yilmaydi. Biz axloqiy qoidalarni majoziy ma'noda "Oltin qoidalar" deb atashga haqlimiz. Ayniqsa, axloq, tarbiyani oiladan boshlash ayni muddao. Bejizga donishmandlarimiz farzandga tarbiyani ona qornidayoq berish kerak deyishmagan. Shaxsning shakllanishi murakkab, uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, ota-onadan, ta'llim muassasalaridan, shuningdek, butun jamiyatdan e'tibor va sabr-toqatni talab qiladi. Axloqiy fazilatlarni singdirishda shaxsning yoshini, uning axborotni qabul qilish, tushunish va to'g'ri qayta ishlash qobiliyatini (tayyorligini) hisobga olish kerak. Axloqiy tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Axloqiy tuyg‘uni shakllantirish;
- Shaxs madaniyati va xulq-atvor madaniyati;
- Jamiyat bilan ongli aloqa;
- Axloqiy tushunchalarni (tamoyillarni) yaratish;
- Xulq-atvor normalarini shakllantirish;

Axloq tushunchasi xalq madaniyatiga, dinga va ma’lum bir davrga boliq . Axloqiy tarbiya shaxsni rivojlantirishning asosidir. Axloq normalari sivilizatsiyaning, jamiyatning asosi bo‘lgan va bo‘ladi. Bu insondagi aqliy va ma’naviyatning birligi, uning jamiyatdagi xatti-harakatlarini, dunyo bilan munosabatlarini ta’minlaydi. Birinchi marta "axloq" tushunchasi 1789-yilda kiritilgan va Rossiya akademiyasining lug‘atida nashr etilgan. L.A. Grigorovich "axloq" ga quyidagi ta’rifni berdi - bu mehribonlik, odoblilik, intizom, kollektivizm kabi fazilatlar va xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan shaxsiy xususiyatdir. I.S. Marenko axloqni shaxsning ajralmas qismi, uning mavjud normalar, qoidalar va xulq-atvor tamoyillariga ixtiyoriy rioya qilishini ta’minlaydigan deb ta’riflagan. Ular Vatanga, jamiyatga, jamoaga, shaxslarga, o‘ziga, mehnatga nisbatan o‘z ifodasini topadi.

6-7yoshdagi maktabgacha bo‘lgan bolaning umumiylasosiy kompetensiyalaridan biri bu – “Ijtimoiy kompetensiya” hisoblanib unda hayotiy vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahoratini o‘rgatish nazarda tutilgan.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek axloqiy sifatlarni bolalikdan singdirish juda zarur. Bu jarayonda esa bizga asosan badiiy adabiyotning roli beqiyosdir. Maktabgacha yoshdagibolalar o‘zlarini sevgan qahramonlarning sifatlaridan, ularning xatti-harakatlaridan o‘zlariga namuna olishadi. Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarida axborotni qabul qilish darajasi anchayin rivojlangan bo‘ladi. Ular o‘zlarini eshitgan voqeasi – hodisalardan hulosa chiqarishadi, hukum qilishadi.

Maktabgacha yoshdagibolalarga axloqiy sifatlarni singdirishda ertaklarning tutgan o‘rni katta. Ertak - bu imkonsiz narsa haqidagi hikoya. Bu erda har doim hayoliy, mumkin bo‘lmagan narsa bor: hayvonlar gaplashadi, bir qarashda oddiy narsalar sehrli bo‘lib chiqadi. Axloqiy tushunchalar (halollik,mehribonlik) qahramonlar obrazlarida aniq ifodalanadi, real hayotda va yaqin odamlarning munosabatlarida mustahkamlanadi, bolaning istaklari va harakatlarini tartibga soluvchi me’yorlarga aylanadi. Ertakning kompozitsiyasi yaxshilik va yomonlik, fantastik va axloqiy jihatdan aniqlangan tasvirlarning yorqin qarama-qarshiligi, bola tushunishi mumkin bo‘lgan maxsus sabab-oqibat munosabatlari va hodisalar - bularning barchasi ertakni bolalar uchun qiziqarli va hayajonli qiladi. Bu axloqiy jihatdan sog‘lom shaxsni shakllantirishning ajralmas vositasidir.

Ertaklarning ahamiyati ularning bolaning har tomonlama rivojlanishiga, xususan, axloqiy tarbiyasiga ta’siridadir. Ertaklar haqiqat g‘alabasiga, ezgulikning

yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishiga ishonch uyg‘otadi. Qoidaga ko‘ra, ijobiy qahramon va uning do‘sclarining azoblari o‘tkinchi, vaqtinchalik, quvonch odatda ulardan keyin keladi va bu quvonch kurash natijasi, birgalikdagi sa'y-harakatlar natijasidir. Bolaning yaxshi inson bo‘lib voyaga yetishi uchun bolalikdan boshlab u bilan birga ishslash kerak. Ertaklar odamlarda ma’naviyat, mehr-oqibat, insoniylikni tiklashga yordam beradi.

Bularning barchasidan shunday xulosa kelib chiqadi: axloqiy tarbiyani singdirish go‘daklikdan boshlanishi zarur. Zero, axloqiy jihatddan rivojlangan shaxsning ongida ma’naviy bo‘shliqlar, g‘oyaviy buzulishlar bo‘lmaydi. Axloqni o‘rganish esa barcha yosh davrlarida saqlanib qoladi va yanada sayqallanib boradi.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar :**

1. “Ilm yo‘li” variativ dasturi . Toshkent-2019
- 2.F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova , M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika”. Toshkent-“ Ma’naviyat” 2013
- 3.I.Zimina “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim tizimida xalq ertaklari”. Toshkent-2015

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING OILA VA JAMOAT BIRLASHMALARI BILAN O’ZARO ALOQASI**

*S.R.Muxtarova*

*Samarqand shahar 84- Maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolani to‘liq tarbiyalash oila, mahalliy jamoatchilik va MTT o‘rtasida yaqin hamkorlik sharoitida amalga oshirilishi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** kontseptsiya nizom Maktabgacha ta’lim oila, mahalliy jamoatchilik ijtimoiy, hissiy, kognitiv Hamkorlik

Jamiyat va oilaviy ta’lim o‘rtasidagi munosabatlar g‘oyasi bir qator me’yoriy hujjatlarda, shu jumladan “O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi” va “Umumiyl tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi Nizom”da o‘z aksini topgan. Maktabgacha ta’lim vazirligi oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlikka alohida e’tibor qaratmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolani to‘liq tarbiyalash oila, mahalliy jamoatchilik va MTT o‘rtasida yaqin hamkorlik sharoitida amalga oshiriladi.

Ma’lumki, oila bolalarni ijtimoiylashishi uchun birinchi va eng muhim institutdir. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini amalga oshirishda MTTlariga oila

va mahalliy jamoatchiliklar bilan yaqindan hamkorlik qilish vazifalarni qo‘ydi. MTTlarining asosiy vazifalaridan biri – bolalar tarbiyasida oilalarga professional pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, shu bilan birgalikda uning o‘rnini to‘liq egallamasdan uning ta’lim funktsiyalarini to‘ldirish va to‘liq amalgalashdan iborat. Bolalarni oilaviy tarbiyalashda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi boshlang‘ich ta’limga bolalarni sifatli tayyorlashning umumiy qoidalaridan ishlab chiqishdan iborat.

Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berishda ularning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga e’tibor beriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalgalashdan iborat. Shuning uchun ularning ularga ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo‘llabquvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatalish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy izlanish va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachilar, oilalar va jamoat a’zolari o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta’lim olishiga ijobiy hissa qo‘shadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ushbu hamkorlikni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida berilayotgan ta’limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo‘layotgan qiziqish va ta’limni rivojlanishda ishlab chiqishdan ishchonchga asoslanadi.

Hamkorlik deganda, ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlar mavjud bo‘lib, bir-birlarini layoqatli deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifatida qadrlashlari nazarda tutiladi. Hamkorlik tarbiyachi bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlari, turmush tarzi, o‘ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o‘qishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ko‘plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o‘rganayotganiga tayanib, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

“Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minalash uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarining quyidagi shakllaridan foydalanishlari mumkin:

- maktabgacha ta’lim tashkiloti ota-onalarning umidlarini hisobga olish;
- ota-onalarga erta rivojlanish masalalari bo‘yicha ma’lumot berish;
- ota-onalarni o‘quv-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish;
- ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish tashabbusini qo‘llab-quvvatlash.

Hamkorlik boshqa tomonni hurmat qilishni, ularning ehtiyojlariga javob berishni va nima ishlayotganini va nima ishlamayotganligiga o‘z munosabatini

bildirishni talab qiladi. Bunday munosabatlarni boshlash uchun pedagoglar o‘zлari tarbiyalaydigan bolalarning oilasi to‘g‘risida ma’lumotlarni bilishlari kerak.

Oila farzandlarning birinchi va eng muhim tarbiyachisidir

Bolaning birinchi o‘qituvchisi sifatida oilaning asosiy rolini tan olish va qadrlash juda muhim. Ota-onalar va boshqa yaqin oila a’zolari kichkina bolaning hayotidagi eng muhim insonlar bo‘lib, ularning birinchi va eng uzoq o‘qituvchilari bo‘ladi.

### **Oila muhitida bolalarda quyidagi hislar shakllanadi:**

- ular yashayotgan jamoaga tegishli bo‘lish va ular bilan aloqa hissi;
- jismoniy farovonlik, jumladan oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechak va tibbiy xizmat;
- gullab-yashnagan rivojlanish, shu jumladan, ularning hissiy, ijtimoiy, ma’naviy, til va jismoniy rivojlanishi, oila, madaniyat va jamiyat a’zosi sifatida o‘ziga xoslik hissi.

Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-onalari va jamoatchilikning ta’lim jarayonida faol ishtirokisiz erishib bo‘lmaydi, ota-onalarning MTT ning oila bilan hamkorligi borasidagi qarashlari turlicha bo‘lganligi bois MTT sharoitlaridan ota-onalarning qoniqish jihatlari o‘zgarib bormoqda.

V.A.Suxomlinskiy, tarbiya va rivojlanish vazifalari bolalar bog‘chasi oila bilan aloqani saqlab, uni o‘z ishiga jalg qilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Xulosa tariqasida aytish joizki, oila va yosh bolalarni parvarishlashning maktabgacha yoshdagи bolalar shaxsi rivojlanishiga ta’siri printsipial ravishda pedagoglar, jamoat tashkilotlari va oilalarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshirilishi , bunda tarbiya bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslar, tashkilotlar, jamoat tashkilotlari birgalikda harakat qilishlari, kelishilgan talablarni bir-birlariga ko‘rsatishi, bir-birlariga yordam berishi, pedagogik ta’sirni to‘ldirish va kuchaytirishi kerak. Agar bunday birdamlik va

sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishga erishilmasa, unda muvaffaqiyatga erishish qiyin.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sон qarori O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanтиrish Kontseptsiyasi.

- 2.Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil 11 - son
- 3.Maktabgacha ta’lim jurnali. 2016 yil 7 – son
- 4.“Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim” dasturi. T.: 2011
- 5.“Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” metodik qo‘llanmaT.: 2020

# **ERTAKLAR VOSITASIDA NAMUNAVIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH**

*M.A.Sindarova*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti  
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosich talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada ertaklar orqali bolalar nutqini o‘stirish, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish usullari va bu usullarni mashg‘ulotlar jarayonoda qo‘llash haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** ertak, tayyorlov guruhlar, nutq o‘stirish, namunaviy o‘quv mashg‘ulot, erkin fikrlash metodikasi;

Ertaklarni tinglash barcha yoshdagi bolajonlar uchun sevimli mashg‘ulot sanaladi. Bunday mashg‘ulotlar orqali bolalarning dunyoqarashi, og‘zaki nutqi, tasavvur olami kengayadi. Ertaklar aqlga ham, yurakka ham faol ta’sir ko‘rsatadi. Aqlni to‘ldiradi, yurakni hissiyotchan qiladi. Barchamiz bolalarimizni jasur va intiluvchan, diyonatli, e’tiqodli, aqli bo‘lib voyaga yetishini istaymiz. Buning uchun esa, uning tarbiyasiga ijobiy ta’sir qiladigan, aqliy salohiyatni o‘stiradigan ertaklardan foydalansak bo‘ladi. Ertaklar va boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalari yordamida bolalarga mashg‘ulotlar o‘tish yillar davomida katta samara berib kelmoqda.

Tayyorlov guruhlarida ertaklar asosida mashg‘ulotlarni tashkil qilish tarbiyachidan bir qancha mahorat va malakani talab qiladi. Tarbiyachi mashg‘ulotda shunday ertak mavzusini topishi kerakki, bu orqali barcha bolalarning diqqatini o‘ziga qarata olishi va ertak mavzusiga xos pisixologik iqlim yaratishi lozim. Mashg‘ulotni tashkil qilishdan oldin tarbiyalanuvchilarining xohish, istaklari hisobga olinsa, mashg‘ulot qiziqarli o‘tadi. Ularda nutq va muloqot qilish ko‘nikmasi takomillashadi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining bir qator kompetensiyalarida ham bolalarda nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarini o‘stirish orqali bolalarni badiiy adabiyotga qiziqtirish vazifasi bejizga qo‘yilmagan. Xususan, “Komunikativ kompetensiya” da nutq - bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyonibilishi uchun zarur vosita ekanligi, mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitida bolalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi aytib o‘tilgan.

Ushbu ko‘nikmalarni singdirgan holda, quyida tayyorlov guruhi bolalari uchun ertaklar yordamida nutq ustirish mashg‘ulot ishlanmasidan namuna keltirib o‘tamiz:

## **Mashg‘ulot ishlanmasi:**

Mashg‘ulotning mavzusi: “Egrivoy va To‘g‘rivoy” ertagini o‘rgatish (Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilar uchun);

Mashg‘ulotning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: bola o‘qigan ertagini xulosalay olishi, qahramonlarni eslab qolishi kerak;

b) Tarbiyaviy maqsad: bolalarda do‘stlik tuyg‘usini mustahkamlash, tog‘ri so‘zlashga o‘rgatish, og‘irlik qilishning yomon oqibatlarini o‘rgatish;

c) Rivojlantiruvchi maqsad: tarbiyalanuvchilarda ertak yuzasidan dastlabki tasavvur uyg‘otish;

Mashg‘ulotning shiori: “O‘g‘ri bo‘lma to‘g‘ri bo‘l !”

Kerakli jihozlar: ko‘rgazmali qurollar, ertak asosida chizilgan rasmlar, sahna, kiyimlar;

Mashg‘ulotning turi: Noan’anaviy;

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi bolalardan o‘tgan mavzuni so‘rab, ularni rag‘batlantiradi, so‘ngra yangi mavzu boshlanadi;

Tarbiyachi: Azizi bolajonlar, bugun sizlar bilan qiziqarli ertak o‘qiymiz, sahnalashtiramiz va ijro etamiz. Bolajonlar ertagimizning nomi “Egrivoy va To‘g‘rivoy”.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonalarda bir kampirning yolg‘iz o‘g‘li bo‘lgan ekan. U o‘z baxtini topish maqsadida yo‘lga chiqibdi. Yo‘lda keta turib dod solib yig‘layotgan Egrivoyni ko‘rib qolibdi...(ertak oxirigacha o‘qiladi).

Mashg‘ulotni mustahkamlash: tarbiyachi “Aqliy hujum” metodidan foydalangan holda, savol-javoblar bilan bolalarga murojaat qiladi;

1-savol: Qani bolajonlar kim aytadi To‘rivoy hayvonlarning hikoyalarini qayerda tingladidi?

*Bolalar:* O‘rnonda, daraxt kovagida;

2-savol: Sichqoncha oltinlarini nimaga almashdi?

*Bolalar:* nonga;

3-savol: Yo‘lbars nimadan qo‘rqardi?

*Bolalar:* qamchi bilan kaltaklanishdan;

(Savol-javoblar shu tartibda davom etadi.)

Mashg‘ulotni xulosalash: tarbiyachi bolalardan qanday xulosaga kelganligini so‘raydi: Qani bolajonlar ertakdan qanday xulosaga kelamiz?

*Bolalar:* Yomonlik albatta jazosiz qolmaydi, yaxshilik har doim g‘alaba qozonadi. Hamma bolalar To‘g‘rivoy kabi ezgu ishlar qilishi kerak.

Mashg‘ulotni yakunlash: mashg‘ulotda faol qatnashgan bolalar rag‘batlantiriladi,

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, xalq og‘zaki ijodining barcha namunalari tarbiyalanuvchilar ong va tafakkurini o‘sirishda muhum ahamyatga ega. Bunday namunalardan foydalangan xolda mashg‘ulotlarni tashkil qilish anchayin qiziqarli va

samarali. Ertaklardan chiqarilgan xulosalar orqali bolalarda erkin fiklash, nutq malakasi va xotira teranligi oshadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent- 2022;
2. “O‘zbek xalq ertaklari”. Toshkent-2018;
3. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Babayeva D. Toshkent-2018;

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONING SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI PSIXOLOGIK MEXANIZIMLAR**

*Z.Karimova*

*Kattaqo‘rg‘on shahar 19- Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha ta’limning bola shaxsi, ta’lim-tarbiyasiga ta’siri xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda maktabgacha yosh davrida bolaga xos psixologik xususiyatlar, uning rivojlanish omillari, kattalarning bu borada e’tibor qilishlari zarur bo‘lgan jihatlari va mas’uliyatlari masalalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, bola, tarbiyachi, ota-on, xulq-atvor, xarakter, xotira, rivojlanish, omillar, sharoit, muhit, ta’lim, tarbiya.

Ta’lim jarayoni avvalo maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqatini y o‘lga solishni talab etadi. Mashg‘ulotlarda ko‘rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish tarbiyanuvchilarda ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi.

Ixtiyorsiz diqqatning taraqqiyoti shundan iboratki, bunda ixtiyorsiz diqqatni tug‘diruvchi narsalar doirasi orta boradi. Ixtiyorsiz diqqat o‘qish materialini o‘zlashtirishni yengillashtiradi va tarbiyanuvchilarni unchalik toliqtirmaydi. Bunday material yengil va ko‘pincha juda puxta o‘zlashtiriladi. Shuning uchun o‘qish jarayonida tarbiyanuvchilarning ixtiyorsiz diqqatlaridan mumkin qadar foydalanish lozim.

Ta’lim jarayonining bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishdir.

Mualliflar N.A.Sog‘inov va U.D.Qodirov sog‘lom bola shakllanishida uning ehtiyojlari muammosiga e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, ilk bolalik davrida kuzatiladigan asosiy ehtiyojlardan biri bolaning bilish ehtiyojidir. Mazkur ehtiyoj asosan bolaning u yoki bu narsa, hodisa haqida atrofidagilarga beradigan savollarida

namoyon bo‘ladi. Ruhiy rivojlanishi me’yor darajasida bo‘lgan 3-5 yoshli bola, imkonini topsa, bir kunda atrofidagilarga 5000 ga yaqin savollar bilan murojaat qiladi. Bu esa shu yoshdagi bolalarda bir kunda besh ming marta atrofida bilish ehtiyoji yuzaga keladi, deganini anglatadi. Albatta, bu holat go‘dak bir kunda ota-onasi va oilasining katta yoshdagi boshqa a’zolariga ming xil savol bilan murojaat qiladi, degani emas. U bir savolni o‘nlab marta takrorlashi mumkin. Shunday holatda bola uchun muhimi uning har bir savoliga ilmiy asoslangan javob berilishi emas, balki savoliga qandaydir javob olishidir. Berilgan savolga javob olingach, navbatdagi savol tayyor turadi.

Psixologiyadan ma’lumki, bolalik davrida yosh xususiyatiga ko‘ra bola shaxsining atrofidagi narsa, hodisa, voqealarga nisbatan qiziqishi nihoyatda ortadi. Shuning uchun ham bolalik davrining dastlabki 3-6 yosh pallasi «nima uchun – pochemuchka» davri ham deb ataladi. Bu davrda ona uy yumushlari, ro‘zg‘or ishlari, aksariyat onalar esa umuman ijtimoiy-jamoat ishlari bilan band bo‘lsalar, bolaning qiziqish, intilish va yuzaga kelgan ko‘plab savollariga javob berishga vaqt topa olmaydilar. Bu davrda bolaning fikri to‘liq shakllanishi uchun uning savollariga javob topib bera oladigan eng yaxshi suhbатdosh kerak. Uning nafaqadagi buvisi, bobosi bu vazifani ado eta oladi. Chunki nafaqadagi bu kishilarning yosh xususiyatida muloqotga ehtiyoj hissi, kim bilan bo‘lsa-da o‘z hayotiy tajribalari, kechinmalarini so‘zlab berish hissi yuqori darajada ifodalangan bo‘ladi va bolaning tug‘ilgan savollariga ular bemalol javob topib bera oladilar. Natijada bola uchun bola bilan bobo, bola bilan buvisining muloqoti uning fikr doirasi keng bo‘lishiga yordam beradi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarda erta shakllangan «bola-buvi», «bola- bobo» tizimi bolaning mustaqil fikrlaydigan, erkin va tarbiyalangan bo‘lishiga yetarli darajada zamin yaratadi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning (E.G‘oziev, M.Rasulova va boshqalar) ta’kidlashlaricha, 6 yoshli bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyati bilan muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallahsga, tevarak-atrofdagi voqelikni o‘zlashtirishga emas, ko‘proq «o‘quvchi bo‘lish» istagini aks ettiradi.

Bu ehtiyojlar zamirida o‘z sumkasi, dars tayyorlash burchagi, kitob qo‘yish javoniga ega bo‘lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg‘usi yotadi, xolos. Umuman olganda, bu yoshda bola hali o‘qishning tub mohiyati va vazifasini to‘liq anglamaydi. Maktabga borgandan so‘ng uning o‘quvchilik safiga qabul qilinishi, kattalarning unga samimiy tilaklari, sinfdoshlari bilan saf tortib yurishlar, tanaffus vaqtidagi o‘yinlar uni o‘ziga «rom» etadi. Ko‘p vaqt o‘tmay bular asta-sekin u uchun o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi.

Xitoy xalq maqolida: «Biz bir yilga rejalashtiranimizda, don sochamiz, o'n yilga rejalashtiranimizda, daraxt ekamiz, agar butun umrga rejalashtirsak, kishilarni o'qitamiz va tarbiyalaymiz»<sup>2</sup>, deyilgan.

Demak, hozirgi davrda ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish uchun maktabgacha ta'limga e'tibor qaratish hayotiy zaruratga aylangan ekan, bola shaxsini rivojlantirishning qulay va ta'sirchan usullarini izlash, topish, qo'llash va ommalashtirish eng muhim masala hisoblanadi.

Shuningdek, bolaning maktabgacha ta'lim davridayoq uning shaxs sifatida shakllanishiga bee'tibor bo'lmashlik zarur. Buning uchun ota-onalar, tarbiyachilar, pedagog- o'qituvchilar, barcha katta yoshdagilar millatimiz, davlatimizning tayanchi va ishonchi bo'lgan farzandlarimizning sog'lom, aqli, baxtli bo'lishlari uchun mas'ul ekanliklarini hamisha yodlarida saqlashlari va shuning uchun o'zlarining qo'llaridan kelgan barcha yaxshi amallarni bajarishlari kerak. Bolalarni o'z vaqtida bolalar bog'chalariga jalb eta olish, ularning har tomonlama rivojlanishlari uchun yetarlicha yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan foydalanish zaruratini hisobga olish, har bir bolaning rivojlanishiga yo'l ochib berish lozim bo'ladi.

Insoniyatning barcha taraqqiyot davrlarida bolani maktabgacha yosh davriga e'tibor berilar ekan, hayotiy va ilmiy kuzatishlar natijasi sifatida ushbu tavsiyalarni berishni ma'qul deb bildik: - agar bolani doimo tanqid qilinsa, u nafratlanishga o'rghanadi;

- agar bola tahlika asosida yashasa, u urishqoqlikka o'rghanadi;
- agar bolani masxaralab turilsa, u pismiq, odamovi bo'lib qoladi;
- agar bola to'g'rilikda o'ssa, u adolatli bo'lishni o'rghanadi;
- agar bola xotirjam yashasa, u kishilarga ishonishga o'rghanadi;
- agar bolaga tan jazosi berilaversa, u surbet, qaysar, o'jar bo'lib qoladi;
- agar bolaning yaxshi harakatlari quvvatlab turilsa, u o'ziga ishonch hosil
- agar bolaning yaxshi harakatlari quvvatlab turilsa, u o'ziga ishonch hosil qilib yashashni o'rghanadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2012. –55-b.
2. Rasulova Z.A. Farzand tarbiyasiga oid psixologik maslahatlar. – T., 2014. –106-b.
3. Sog'inov N.A., Qodirov U.D. Sog'lom bola shakllanishining ayrim ijtimoiy-psixologik jihatlari. (Oila kutubxonasi). – T.: ROIAM, 2014 . –37-b.
4. Haydarov B. Insonnomma: esselar. – T.: «Vektor-Press» nashriyoti, 2011. – 29-b.

5. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiya-ti», 2010. –544-b.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK O'YINLARNING SHAKLLARI VA AMALGA OSHIRISH METODLARI**

**E.B.Chimmirzayeva**

**Samarqand shahar 62- Maktabgacha ta'lism tashkiloti metodisti**

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'limga rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash o'ziga xos xarakterga ega bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lism, syujetli-rolli o'yin, pedagogik o'yin, konstmktor-mexanik, kvadratlar, plastilin.

O'yining bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o'ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlari, syujetli-rolli o'yinlarni o'ynagan ma'qul. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga anqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda Ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi; mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos mifikadir, odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi.

Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda boialar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar.

Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.
  2. Hamkorlikka chorlovchi.
  3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
  4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.
  5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
  6. Bolalar shaxsi strukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
  7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.
  8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.
- Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ijodiy, psixotexnik o'yinlar. O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, sujetli, badiiy rolli, hodissalarni tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o'yinlar. Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar. O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari [koptok, piramida, kub va boshq.] bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar.

Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, sujetliishchan, dramalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi.

Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstmktor-mexanik majmularida turli ornament, rasm va jimmador predmetlar vositasida amalga oshiriladi.

Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ulrni osondan qiyinda tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash darkor. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektdan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit

yaratishdan iborat. Interfaol o‘yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to‘g‘ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o‘rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o‘yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zamin bo‘lgan ijobjiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o‘yinlarni samarali o‘tkazish uchun quyidagi qoidalarga e’tibor berish lozim:

1. Mashg‘ulot oldidan bolalar o‘yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e’tiborga ohsh.
4. O‘yin jarayonida bolalarga qiziq bo‘lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e’tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to‘g‘ri taqsimlash.
7. O‘yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O‘yining asosiy bosqichlari haqida tasawurga ega bo‘lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtayi nazardan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin bolaning axloqiy irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O‘yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir.

O‘yin texnologiyasi an'anaviy tarzdagi o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridaq nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018.
2. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
3. Qo‘chqorova M. Maqsadga erishish yo‘lida: Bolalar o‘yinlari orqali olgan bilimlar // Boshlang‘ich ta’lim, 1999, №3, 30–31 b.
4. Jalolova G. «Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish». –T., 2004.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OILA BILAN  
ISHLASHDAGI HAMKORLIGINING ISH SHAKLLARI VA UNING  
MAZMUNI**

*J.Qayumova*

*Samarqand shahar 121- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Maqolada bola tarbiyasida oila tajribasining imkoniyatlari, bola tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash jarayoni, maktabgacha ta'lism tashkiloti va ota-onalar bilan hamkorlik ishlari tizimli ravishda olib borilgani oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi birlik o'rnatilishi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lism, uzlusiz ta'lism, tarbiya , asosiy prinsip, tamoyil,oila.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lism tizimini yangi bosqichga ko'tarish,tizimga zamonaviy yondashgan holda jahon talablari asosida rivojlantirish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki maktabgacha ta'lism uzlusiz ta'limga eng birinchi bosh bo'g'ini bo'lib bolaning shaxs sifatida shakllanishida kata ahamiyat kasb etadi.O'zbekistonda 160 ortiq millat va ellatlar mavjud. Ba'zida birgina maktabgacha ta'lism tashkilotida 3-4 millat vakillarining farzandlari ta'lism oladi. Ular turli oilalardan turfa xil madaniyat vakillaridan bo'lib, o'z qadriyatlari va tarbiya usullariga ega bo'ladilar. Guruhlarda shunday oila farzandlarini ko'p millatli oila vakillarini tarbiyalashda ota-onalar bilan ishlash jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yosh avlodni komillik sifatlarini tarbiyalashdek ulug' maqsad yo'lida ularning ong ufqlarini kengaytirish, sog'lom dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirish, shuningdek, ma'naviyatga yo'g'rilgan xulq-atvorini tarkib toptirish bugungi ta'limga dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Hozirgi sharoitda bolada har tomonlama rivojlangan barkamol insonga xos sifatlarni shakllantiradigan ta'lism-tarbiya berishning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikka esh bo'lgan ijtimoiy faollikni uyg'unlashtirishdir. "Maktabgacha ta'lism mazmuni va metodlari bola shaxsini shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdag'i barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi". Prezidentimiz Sh.Mirziyiyev tomonidan sohaga oid islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lism tashkilotlari davr talablari va standartlari asosida rivojlantirib borilmoqda. Bu kabi yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, bolalarni yetuk shaxs sifatida kamol topishida nafaqat soha vakillari, ayni paytda keng jamoatchilik – oila va mahallaning ham o'rni beqiyos.

Bejiz xalqimizda “bir bolaga yetti mahalla ota-on” degan O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonunida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari ko‘rsatib o‘tilgan.

Xususan:

—har bir bola uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

—har bir bolaning iste’dod nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

—maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi;

—maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish uyg‘unligi;

—bolaning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv;

—maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning izchilligi hamda uzlucksizligi;

—ta’lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;

—ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

—maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘iga belgilab berilgan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari:

—har bir bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga bo‘lgan huquqi amalga oshirilishini ta’minalash;

—bolalarning maktabgacha ta’lim va tarbiyaga to‘liq qamrab olinishini ta’minalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

—bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta’lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko‘rsatish;

—bolalarning, shu jumladan alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

—ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish;

—maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

—maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;

—mактабгача бо‘лган ўюшдаги бοлаларни хар тοмοнлама рivojlantirish мақсадида замонавиј innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

—xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘sib kelayotgan avlodning jamiyat qoidalarini to‘laqonli qabul qilishi, o‘z davrining yaxshi va kerakli kishisi bo‘lib yetishishi oilaning boshqa rasmiy tarbiya maskanlari bilan o‘rnatadigan to‘g‘ri munosabatlariga bevosita bog‘liq. Ijtimoiy lashuv jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki muassasa xodimlari bolaning ota-onasi bilan bevosita, har kuni muloqotda bo‘ladi. Undan tashqari, tarbiyachining o‘zi ota-onaga nisbatan ikki xil holatda – rasmiy tarbiyachi va samimiyy, e’tiborli suhbatdosh tarzida namoyon bo‘ladi. Lekin oila a’zolari bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining bitta bola tarbiyasidagi ishlarini uyg‘unlashtirish, yaxshi samaraga erishish unchalik oson ish emas. Chunki ikkala tomon bir-biriga ishongan taqdirdagina ular o‘rtasida samimiyy muloqot bo‘lishi va tarbiyada ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunday muvaffaqiyatli munosabatlarning bir qator psixologik amoyillarini ajratish mumkin:

—avvalo, tarbiyachi ota-onaga farzandini faqat yaxshi tomondan ko‘rsata bilishi, bolaning обраzi ota-onan uchun ijobiy bo‘lsagina, ular farzandini xonardonidan yaxshi kayfiyat bilan olib keladi va uyga qaytayotganda ham tarbiyachi bilan iliq xayrlashadi. Bolaning ham uni hurmat qilishi va faoliyatlarda aytganlariga quloq tutishi lozimligiga o‘rgata oladi. Aks holda ota-onan og‘rinib bolasini maktabgacha ta’lim tashkilotiga olib keladi va uni tartiblarini mensimaslikka o‘rgatib qo‘yishi mumkin.

Demak, birinchi tamoyil – ota-onaga maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bola to‘g‘risida ijobiy obraz yarata olish;

—maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachilarini ota-onan bilan kundalik muloqotda bolaning erishgan yutuqlari, qanday bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lganini ko‘rsata olishlari lozim.

Masalan, teng qurlari bilan muloqotda o‘zini qanday tutgani, do‘stlari mavjudligi, she’r yoki boshqa topshiriqni bugun aynan qay tarzda o‘zlashtira olganligi, kimga qanday yordam bera olgani haqida norasmiy tarzda ma’lumot bera olishi kerak. Ikkinci tamoyil – bolaning yutuqlaridan ota-onani xabardor qilib borish.

Bu esa ota-onan bilan tarbiyachining hamkorligini mustahkamlaydi;

—tarbiyachi bolaning uydagi xulqi va yutuqlari yoki kamchiliklarini bilib turishi shart. Bu ota-onan bilan ishonchga asoslangan dialog jarayonida aniqlanadi.

Chunki tarbiyachi bolaning uyda qanday o‘zini tutishi, odat va qiliqlarini bilmasa, unga to‘g‘ri pedagogik yondashuvni tashkil etolmaydi.

Uchinchi tamoyil – bolaning oiladagi, uydagি maqomini bilish.

Tarbiyachi ota-onalar uchun tizimli ravishda targ‘ibot ishlarini amalga oshirishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

1.Pedagogik targ‘ibot ishlari hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog‘lab olib borilishi lozim. Targ‘ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari, ularni amalga oshirish yo‘llari, ilmiy asoslangan usullari haqida tushunchalar berilishi maqsadga muvofiq.

2.Bola tarbiyasida oila tajribasining imkoniyatlari, aksincha,bola tarbiyasida yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar va ularning oldini olish, bartaraf etish borasida targ‘ibot ishlarini olib borish yaxsha samara beradi.

3.Ota-onalarning bilim saviyasi turli darajada ekanliklari hisobga olinib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko‘rgazmali va ularning his-tuyg‘usiga ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkiloti va ota-onalar bilan hamkorlik ishlari tizimli ravishda olib borilgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o‘rtasidagi birlik o‘rnatilishi mumkin.

Bolada ilk bolalik davrining dastlabki yili kattalarga bog‘liqlik (itoat qilish mexanizmi) va ularga qaramlik shakllangan bo‘lsa, bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davrda esa bolaning xatti-harakatida va fikr yuritishida mustaqillikning dastlabki belgilari rivojlanadi. Bu davr boladagi amaliy bilimlarning keyingi yo‘lini belgilaydi. Bolalar har bir sohada o‘zlarini sinab ko‘rishga intiladilar. Ayni shu davrda predmetlarni o‘zlashtirish, amaliy xatti-harakatlarni bajarish, o‘z tanasini boshqarish mexanizmlari shakllanadi. Agar bu davrning imkoniyatlari boy berilsa bolada tegishli qobiliyatlar rivojlanmay qolishi mumkin.

Mazkur davr bolaning biror-bir ishni bajara olish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davrligini ota-onalar doimo yodda tutishlari lozim.

Ota-onalar uchun muhim tavsiyalar:

1.Bolalar bilan so‘zlashganda jumlalarni to‘g‘ri talaffuz eting. Agar bola biror so‘zni noto‘g‘ri talaffuz etsa, unga «bu noto‘g‘ri» demang, uning o‘rniga so‘zning to‘g‘ri talaffuzini takrorlang.

2.Ilk bolalik yoshida bolalar barcha narsaga qiziquvchan bo‘ladilar. Ularni qiziqtirgan savollarga imkon qadar batafsil javob berishga harakat qiling. Yodingizda bo‘lsinki, agar kichkintoyingizni qiziqtirgan savolga javob berishdan qochsangiz, undagi bilishga bo‘lgan qiziqishlarni so‘ndirib qo‘yishingiz mumkin.

Xulosa sifatida aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni qanchalik sifatli va yuqori darajali bo‘lsa, huningdek,oila bilan hamkorlik shakllari tizimli amalga oshirilsa,farzandlarimiz ta’limning keyingi bosqichlarida ham qiynalmasdan bilimlarni o’zlashtiradilar. Shunday ekan, ta’lim jarayoniga hukumatimiz tomonidan sohaga qaratilayotgan e’tiborni e’zozlashimiz va undan to‘g‘ri, samarali foydalanishimiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonuni.2019. yil
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi to‘g‘risida”gi PQ-4312-sон Qarori.
3. D. Toshtemirova. Mtt va oila hamkorligida bolalarni milliylik ruhida tarbiyalash 4. 4. O.Otavaliyeva .Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. T.: O‘qituvchi, 1994.

## MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR FAOLIYATIDA O‘YIN METODINING AHAMIYATI

*I.F. Saypullayeva*

*Samarqand viloyati Paxtachi tumani 9-DMTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining bolalarni o‘yin metodi orqali iqtidorini rivojlantirishda pedagogik asoslari xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, bola, metod, vosita, o‘yin.

Bolaning eng sevimli mashg‘uloti bu, albatta o‘yin. O‘yin orqali uning olamiga kirib borib yangi bilimlarni egallashida yordam berish samarali usuldir. Bugun farzandining ko‘p savol beril holijoniga qo‘ymay, u bilan o‘yinlar o‘ynashi kerakligini, bunda esa o‘sha ota-onaning sira xohishi yo‘qligini aytib, ertaga bolasining betga chopar bo‘lib ketganini, kattalarning odatlarini o‘zlashtirib olayotganidan noliyotganlar ko‘p topiladi. To‘g‘rida, ayrim yosh onalarning telefoniga mukkkasidan ketib termulishga vaqtি boru, farzandi bilan aytaylik qizalog‘ining istagi bilan qo‘g‘irchog‘iga ko‘ylakchalar tikib “mehmon -mehmon” o‘ynashiga sira vaqt topilmaydi. Esimda qo‘sнимиз Nazira hola qizlari bilan doim shu o‘yinni o‘ynashar, tugmachani cho‘pchaga qadab ko‘zini sochini g‘altak ipidan tikib qo‘g‘irchoq yasab berardi.

Bugun esa ona tarbiyasini olgan qizlar, biri katta tikuvchi, biri o'qituvchi boshqasi esa shifokor. Demakki yoshlikda to'g'ri tanlangan o'yinlar ham farzandlarimizning kelajagiga yo'l ochilar ekan. Ko'p hollarda ona -qiz o'rtasidagi salbiy munosabatlarni kuzatar ekanmiz unitilib ketayotgan milliy o'yinlarimizning kechagi kuni, arosat ko'chalarda o'z yo'lini topolmay sarson bo'layotgan onaqizlarimizning ayanchli taqdiri hamisha so'roq ostida qolaveradi. Yoki bo'lmasa otalarimiz akalarimizga yasab bergen lankalar o'rnini qimmatbaho qo'l telefonlari egallayotgani ham barchamizni birdek havotirga soladi. Shunday ekan, bugungi kunda uzlusiz ta`limning bir bug'ini maktabgacha ta'limtarbiyachilari oldida yana bir mas`uliyatli vazifa o'yin metodikasini rivojlantirish, unitilib ketayotgan milliy qadriyatlarimiz o'yinlarni tiklash va ommalashadirish biz pedagoglarning ham maqsadidir.

Ma'lumki o'yin - bolalarning yetakchi faoliyati. O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagogpsixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelgan.

Manbalarda yozilishicha mashhur allomalardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar o'z asarlarida xalqimizga xos bo'lgan farzand tarbiyasi ustida fikr yuritar ekan, xalq pedagogikasini o'rganish davomida tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi — o'yin shaklidan juda keng foydalanilgan. Pedagog olimlaridan P.F. Lesgaft, K.D. Ushinskiy tomonidan o'yin nazariyasi ishlab chiqilgan. O'yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligi va uning yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o'yin mazmunining bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini K.D. Ushinskiy asoslab berdi. Rus olimlari san'atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganlarida bolalar o'yinlariga e'tibor qiladilar. Ularning fikricha, kishilik tarixida o'yinlar san'at kabi, mehnat paydo bo'lgandan so'ng va uning asosida vujudga kelgan. Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o'ynaydilar, xuddi shu o'yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich bo'lib hisoblanadi. P.F. Lesgaft «Bola dastlabki o'yinida tevarak-atrofdagi voqeahodisalarga taqlid qiladi, o'yin ijtimoiy vogelikni aks ettiradi», deb izohlagan edi. Buyuk psixolog D.V. Elkonin o'yinning kelib chiqishiga oid yangi g'oyani ilgari suradi. Jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o'yinchoq — mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O'yinchoq-qurollar paydo bo'lishi natijasida rolli o'yinlar paydo bo'ladi. D.V. Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg'otish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Maktabgacha pedagogikada o'yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning

tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘ ladi. O‘yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o‘zgarib turadi.

O‘yin — maqsadga qaratilgan o‘ylangan jarayondir. O‘yin jarayoni asosida o‘quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko‘p o‘ynasa, bu mакtabda yaxshi o‘qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin nazariyasining asosiy masalalari o‘yining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. O‘yin — buyumli predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo‘naltirilgan jarayondir. U o‘zining kelib chiqish, yo‘nalish va mazmuniga ko‘ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O‘yin, bu — bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari, natijaning mavjudligi uning o‘ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o‘ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O‘yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta’sirchanligi — uning butun shaxsiyati shakllanadi. Bola o‘yinda o‘zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o‘yinlari o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O‘yin o‘z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta’sir ko‘rsatish darajasi, buyumlarning turlari hamda kelib chiqishiga ko‘ra ijodiy va qoidalgi o‘yinlarga bo‘linadi.

O‘yinlarning ichida bolaning iqtidorini gavdalantiradigai bu - Ijodiy o‘yinlardir. Ular bolalarning mustaqil, ijodiy, o‘zlari o‘ylab chiqqan o‘yin hisoblanadi. Bunda bolalar o‘z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo‘lgan o‘z munosabatlarini aks ettiradi.

Ijodiy o‘yinlar quyidagi turkumlarga bo‘linadi:

- sujetli-rolli;
- dramalashtirilgan;
- qurilish;
- tabiat materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlar boshqa tur o‘yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

O‘yin mazmunining o‘ziga xosligi.

Rollarning mavjudligi.

Xayoliy vaziyatning mavjudligi.

O‘yin mazmunining o‘ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ijodiy o‘yinlar sujetlari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Sujet o‘yin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida o‘z ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini oladi. Ijodiy o‘yinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bo‘lishi bolaning tafakkurini o‘stirib, sujet va rollar o‘yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy sujetli-rolli o‘yinlarning o‘ziga xos sabablar mavjuddir. Buning eng asosiy sababi — bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab,

o‘yin mazmuniga qarab o‘zgarib boradi. Kichik yoshdagи bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli harakatlar bo‘Isa, bola katta bo‘lgan sari o‘yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, o‘yinlarni sujeti, mazmuniga ko‘ra uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Maishiy o‘yinlar (oila, bolalar bog‘chasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuyidagi o‘yinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, o‘z-o‘ziga xizmat va boshq.).
3. Ijtimoiy mavzudagi o‘yinlar. Bolalar rollarni tanlab o‘ynaydilar. Sujetli-rolli o‘yinlarda xattiharakatlarni, qoidalarni egallash asosida, rolda mujassamlash tirlgan axloqiy qoidalari ham o‘zlashtiriladi. O‘yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me’yor va qoidalariiga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o‘yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Bola kundalik hayotda kuzatgan buyumlar bilan bajariladigan harakatlarga taqlid qiladi (gazeta o‘qiydi, yer chopadi, kir yuvadi), bularning hammasi sujetli-rolli o‘yin uchun sharoit yaratadi.

Uch yoshga qadam qo‘yan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o‘tkazish, ularga hikoya va ertaklar o‘qib berish, maslahat berish orqali o‘yjnarga qiziqtirish kerak. Manbalarda yozilishich, o‘yinda bolalarni katta ish-harakatning faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay, balki ularni odamlaming, mehnatga boigan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan o‘ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko‘zlangan maqsadga erisha olish, ko‘nikmalarini tarbiyalash, tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o‘yinga qo‘shilishiga yordam berish kerak. Bolalarda xayol tasavvurlarini o‘stirish ularda mustaqil biron yangi o‘yinni ijod etish, bu o‘yinga kerakli narsalarni tanlash, binolar qurish, ba’zi o‘yinchoqlarni o‘z qo‘li bilan yasash, badiiy mashg‘ulotlarda orttirgan malakalarini o‘yinda qo‘llash, qo‘shiqlar aytish, she’r o‘qish, chizgan rasmlaridan va yasagan narsalaridan foydalanish istagini uyg‘otadi.

Sahnalashtirish o‘yinlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Sahnalashtirish o‘yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom va o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi. Sahnalashtirish o‘yinlarida bolalar o‘yin jarayoniga kirib boradilar, voqeа va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo‘lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o‘zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug‘at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi. Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta

yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlami tanlashda quyidagi talablar qo ‘yiladi:

1. Mazmunining g‘oyaviyma’naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko‘p bo‘lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo‘lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko‘p bo‘lishi.
5. Ifodali o‘qishga mos bo‘lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i. Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko‘radilar. Masalan, «Sholg‘om», «Zumrad va Qimmat», «Bo‘g‘irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda qo‘ g‘irchoq, soya, stol teatri orqali sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar. Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta o‘qib berish, sahna ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki o‘yinlarda qadriyatlarimiz ham namoyon bo‘lishi lozim. Zero bolalarda vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, kattalarga hurmat, saxovat tushunchalari ham milliy o‘yinlarimiz orqali singdiriladi.

Masalan, xalqimizga xos ermak va ovutmachoq o‘yinlari bilan, asosan, bolaning ilk yosh davridan boshlab shug‘ullanishiga yordam beradi. Bu o‘yinlar asosan kattalaming bevosita rahbarligida harakat va so‘zlarning uyg‘unlashuvi bilan o‘ynatiladi. Masalan, «Barmoqlar», «Sichqon-sichqon» o‘yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatları hosil qilinib tasavvurlari o‘sib boradi.

Xalqimizda «Bolaning ilonni changallaydigan davri» degan ibora ham uning o‘yindagi holatidan kelib chiqib aytilgan. Bu davrda bola hali qo‘rqish hissini bilmaydigan ya’ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan bo‘ladi. Pedagogning mahorati esa dastro‘moldan sichqoncha yasay olishidir. Bog‘cha opasi qo‘li bilan yasalgan san`at asari uning harakatlanishidan bola zavqqa to‘ladi, yayraydi. «Ermak o‘yinlardan «Oymoma», «Bog‘ga kirsam maylimi», «Alla», «Aji-aji», «Boylandi», «Chapakka-xo-chapakka» orqali bolalarni muloqotga o‘rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarning eshitish, ko‘rish, sezish, his qila olish kabi sensor qobiliyatları faollashadi. Bolalarning nutq faolligini o‘stirish maqsadida aytishma o‘yinlaridan keng foydalaniladi. Bunday o‘yinlarga «Boylandi», «Xolam keldi», «Mundi-mundi», «Bulbulim-bulbulim», «Ko‘z boylog‘ich», «Oq sholi, ko‘k sholi», «Ada hormang»lar kiradi. Yana, xalqimizda azal-azaldan o‘ynab kelinadigan so‘z o‘yinlaridan «Yarashtirgich»lar hali-hanuzgacha bolalar orasida «tinchlik — yarashuv» timsoli sifatida qo‘llaniladi.

Xulosa, o'yinlar orqali yosh avlod qalbiga kirib borar ekanmiz uning nozik qalbiga hozirdan zarar yetkazmay o'z mehrimizni shunday namoyon qilaylikki, keljakda ulardan yetuk shaxslar, olimu fuzalolar yetishib chiqsin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Norbosheva, M. Rivojlantiruvchi erkin faoliyat markazlarini tashkil etish va uning ahamiyati. 2020 yil.
2. "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil. 13, 15-bet.
3. Maktabgacha pedagogika Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent - 2019
4. Berdiyeva M.M. Maktabgacha pedagogika
5. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi Toshkent "O'qituvchi" 1993 yil

## **TAYYORLOV GURUHLAR TARBIYALANUVCHILARINING LUG'AT BOYLIGINI HAYVONLAR HAQIDAGI ERTAKLAR VOSITASIDA OSHIRISH YO'LLARI**

*M. A.Sindarova*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti  
Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 3-bosich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqola tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib bolalarning nutqini o'stirishda ertaklarning o'rni, amaliy ahamiyati va ayniqsa bu jarayonda hayvonlar haqidagi ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari dunyoqarashini boyitishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bizga ma'lumki badiiy adabiyot orqali bolalar nutqini o'stirish va boyitish ta'lifning ajralmas bir qismidir.

**Tayanch so'zlar:** nutq, tayyorlov guruhlar, lug'at boyligi, ertaklar;

Chaqaloq ona qornidayoq ota va onasining ovozini farqlaydi, dunyoga kelishi bilan ularni lisonidan, ya'ni nutqidan ajrata oladi. Bolaning nutqi dastlab atrofdagi predmetlarning tovushlariga taqlid qilishdan boshlanadi. Nutq - bu psixik hodisa, kishilarning shaxslararo o'zaro muayyan hamkorligi sharoitida rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan shaxsiy mulkidir. U tildan farqli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hodisasiadir.

Maktabgacha yoshdagি bolalar nutqini rivojlantirish uchun ayni paytda xalq og'zaki ijodi, bolalar folklori namunalari bilan tanishtirishni ta'minlash ham dolzarb masaladir. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini o'quv jarayoniga joriy etish, nutq o'stirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va

amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'stirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq me'yorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi. 6-7 yoshdagি bola kerakli fikrni bir-biriga bog'lamagan, matnni buzgan holda qayta hikoya qilib bera oladi. Xuddi shu davrda, maktabgacha yoshdagи bolaga kelajakdagi faoliyatini rejalashtirishga yordam beradigan ichki nutq shakllana boshlaydi. Bundan tashqari, bola endi so'zlardagi birinchi tovushni ajratib ko'rsatishi mumkin. Bu esa tovush tahliliga birinchi qadam bo'lib hisoblanadi.

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga o'lkan ta'sir ko'rsatadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar - Bola dunyoqarashining shakllanishida ertaklarning o'rni beqiyos. Kichkintoylar ertaklarning sehrli olamiga sayr qilish orqali murg'ak tafakkurlarida haqiqiy hayot haqida tasavvur hosil qilish bilan birga jajji qalblarida ezgulikka muhabbat va yovuzlikka nafrat hissini tuyadilar.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning yosh xususiyatlarini xisobga olgan xolda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlanishda vazifalarini amalga oshirishi lozim: Turli janr va mavzulardagi adabiy ertaklarni – ertaklar, xikoyalar, she'rlarni, she'riy fol'kloring kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsiyonal munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini ko'zatib borish qobiliyatlarini rivojlanish; Bolalarni ayrim ertaklar va ularning aynan bir xil qaxramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish; Tarbiyachi bilan birgalikda tanish ertaklarni xikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman saxnalashtirishga jalb qilish; Bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variatsiyalari uchun qulay sharoit yaratish; Bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;

Ertak ustida ishslash jarayonida tarbiyalanuvchilarning ertak mazmunini qayta hikoyalashlari, qahramonlar xatti-harakatlarini tavsiflashayotganlarida o'z nutqidagi til vositalaridan o'rinli foydalanishlariga erishishimiz mumkin. Tarbiyalanuvchilarning ertak qahramonlarining xulq-atvorlarini, harakatlarini baholayotganlarida, obrazlar haqida xulosa chiqarganlarida ularning og'zaki nutqi o'sganligini, yangi so'z va iboralar bilan boyib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab, ertaklarning mo'jizakor va qiziqarli muhiti, o'ziga xos muhiti, yovuzlik ustidan ezgulikning, egrilik ustidan to'g'rilikning g'alabasi, qahramonlar xatti-harakatlarining bolalar ongiga sehrli so'z va iboralar orqali yetkazib berilishidadir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek bolalar nutqini o‘stirishda xalq og‘zaki ijodi na’munalari, ayniqsa ertaklardan foydalanish katta samara beradi. Dono xalqimiz “Ertaklar yaxshilikka yetaklar”, deb bejizga aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma’naviy olamini boyitishda muhim ahamyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat e’tibori, tafakkuri, lug‘at boyligi oshadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bolalarning lug‘at boyligini hikoya va ertaklar eshitish, sh’er yodlatish shuningdek so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali oshirish etish mumkin.

Ertak bolada hayot haqida tasavvur uyg‘otadi, yaxshi va yomonni ajratishga ko‘maklashadi, murakkab vaziyatlardan chiqish yollarini o‘rgatadi. Ertak orqali farzandingiz boshqalar bilan o‘zaro munosabat me’yorlarini, bo‘lishi mumkin bolgan muammo va to‘sqliarni anglay boradi. Farzandingizga qiyinchiliklarni yengib o‘tish, muammoni hal qilish, voqealikning yaxshilik,adolat va muhabbat bilan tugashiga umid qilishdan saboq beradi. Siz uchun oddiy tuyulgan ertak kichkintoyingiz ruhiyatiga juda katta tasir qilishini xayolingizga keltiraolmaysiz. Chunki ertakda amalda qo‘llay olmaydigan, lekin tasavvur qilishi mumkin bo‘lgan chek-chegarasiz imkoniyatlar yotadi. Ertak yoningizdagи bu kichkina odamchaning yaratuvchanlik qobiliyati ,fantaziysi, idrok etish tuyg‘ularini shakillantiradi.

Tayyorlov guruh bolalarining nutqini o‘stirishda hayvonlar haqidagi ertaklardan foydalanish mumkin. Bu orqali bolalar o‘zлari yaxshi yoki yomonga ajratgan ertak qahramonlari, ya’ni hayvonlar nutqini tezda o‘rganib olishadi. Ayniqsa bu jarayonda hayvonlar nutqini obrazli ifodalash lozim. Masalan, har doim yaxshi hayvon hisoblangan quyoning tilidan biroz yumshoq va qo‘rroqlik hissini qo‘shgan holda yoki an’anaviy ayyorlik ramzi bo‘lgan tulkining tilida mug‘ombirlik ohangi qo‘shilgan holda talaffuz qilinsa bolalar ko‘plab so‘zlarni yodlab olishadi, nutqlarini boyitishadi. Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari o‘quv rejasida “Laylak bilan tulki”, “Nenachi va cho‘moli” va shu kabi ertaklar kiritilgan bo‘lib, ertaklar ustida ishlashda tanlab o‘qish, ijodiy davom ettirishlari, qahramonlar obraziga taqlid qilishdan foydalanish mumkin. Tarbiyachi tomonida ertak o‘qib bo‘lingach, bolalarmi umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. “Agar sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘lar eding?”, kabi savollar berib, erkin muloqatga chaqirish ularning nutq faolligini yanada oshiradi.

Yuqoridagi fiklardan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: bolalar nutqini o‘stirishda ertaklarning ahamiyati beqiyos. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bolalarning lug‘at boyligini hikoya va ertak eshitish, she’r yodlatish orqali oshirishimiz mumkin. Nutqiy shakllanish davrida oila va maktabgacha ta’lim muassasalarining hamkorlikda ish olib borishi samaradorlikni yanada oshiradi. Bolalarga ko‘proq hikoya qilish orqali ta’sir

ko‘rsatilsa nutq yanada ravon va izchil bo‘ladi. Tayyorlov guruh bolalarida nutq to‘liq shakllantirilsa boshlang‘ich ta’limda bolalar so‘z boyliga o‘z me’yoriga yetadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi . Toshkent-2018
2. “Bolalarning nutqini o‘stirish” o‘quv-uslubiy majmua. Buxoro-2019-yil.
3. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Babayeva D. Toshkent-2018-yil.
4. “Nutq ustirish uslubiyoti”. Shodiyeva Q. Toshkent-2008-yil.

## **MAKTABDAGI YOSHDAGI BOLALARНИ KITOBOXONLIKKA O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

***SamDU talabasi: F.Abdug‘aniyeva***

Annotatsiya. Bugun maktabgacha ta’lim tizimiga boshqa sohalarga qaraganda ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Buning boisi esa, maktabgacha ta’lim muassasalari va bog‘achalarning yetuk kadr yetishib chiqishida, bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini belgilashida o‘rni beqiyosdir.

Ushbu maqolada ayni shu sohadagi tizimli ishlar, maktabgacha yoshdagи bolajonlarda interfaol texnologiya va metodlarni qo‘llab ko‘rish, shuningdek xorij tajribasidagi faktlar-tahlillar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. interfaol, texnologiya, metodlar, suhbat, kitobxonlik.

Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirish ular o‘qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Biz bu yerda alohida kitobxonlarga ta’rif berdik xolos. Bolalar o‘qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tomonlama o‘rganish lozim. Ba’zi bolalar haqiqiy kitobsevar bo‘lsa, boshqalari esa o‘qishni yoqtirmaydilar. Shunga qaramay, barcha bolalarni ham kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin. Pedagoglar tomonidan berilgan quyidagi ko‘rsatmalar bolalarni kitobga mehr qo‘yishiga yordam beradi.(1) Zamonaviy texnologiyadan foydalanish: Ota ona farzandining kitob o‘qishini istaydi, u esa kompyuter o‘yinini xohlaydi. Nima qilish kerak? Kitob mutolaasini ana shu jarayonga yaqinlashtirish, ya’ni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish lozim. Ota-onalar internetda ko‘plab bepul elektron kitoblar topishi va kompyuter yoki planshetdan foydalangan holda elektron kitoblardan o‘qib berishi mumkin. Ularni onlayn o‘qish yoki yuklab olish ham mumkin. Ba’zi elektron kitoblarning qog‘oz nusxasiga nisbatan imkoniyatlari keng. Masalan, audio va video tasvirlar bilan boyitilganligi ularning imkoniyat darjasini yanada oshiradi. Bu esa bolalarni qiziqtirishi aniq. Mutolaa burchagi qilish: Bolalarni chalg‘itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo‘lgan mo‘jazgina “uycha” yoki burchak qilib berish ularrning kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishi mumkin. Ana shunday

mo‘jazgina chodirchalar ham bolalar uchun “uycha” sifatida xizmat qilishi mumkin. Bolalarni tez-tez kutubxonaga olib borish: Ota-onalar farzandida doimiy ravishda kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishni istashsa, haftasiga hech bo‘lmaqamda bir marta kutubxonaga olib borishi lozim. Chunki kutubxonada bola turli xil kitoblarni ko‘radi va uning kitobga bo‘lgan qiziqishi tobora oshadi Kitoblarni tez-tez suhbat mavzusiga aylantirish: Agar ota-onalar bolalarini kitob o‘qishga g‘ayratini oshirmoqchi bo‘lishsa, tez-tez ertaklar, hikoyalar aytib bering, umuman kitoblar va ularning mazmun – mohiyati haqida suhbatlashib turishi kerak. Hayotda sodir bo‘lgan haqiqiy voqealarni bolalar o‘qigan ertak va hikoyalar bilan bog‘lashga harakat qilish lozim. Bu esa bolalarni nafaqat o‘qishga chorlaydi, balki, mushohada qilishga o‘rgatadi, tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bolalarga namuna bo‘lish: Bolalar ota-onasida namuna oladilar. Agar ota-onalar muntazam kitob mutolaa qilsangiz, boshqa oila a’zolaringiz bilan turli kitoblar to‘g‘risida tez-tez suhbatlashsa, kitobdan zavq olgangizni ko‘rsatsa, bu o‘z navbatida bolalar ongiga, psixologiyasiga ta’sir qiladi. Va natijada kitob o‘qish asta-sekin bolalarning ham sevimli mashg‘ulotiga aylanib boradi. Har kuni kitob o‘qib berish: Agar ota-onalar vaqtini ayamasdan, bolalarga har kuni kitob o‘qib bersa, u asta-sekin o‘zi ham muntazam mustaqil tarzda kitob mutolaa qiladigan bo‘ladi. Uning hayotida kitobxonlik an’anaga aylanadi. Bolalarni kitobxonlikka o‘rganish har xil usullarda olib borilsa ham quyidagi tamoyillarga asoslanadi [2]. Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan, kitobxonlarga mustaqil raivshda kitob taxlash malakasini ham singdirib beradi. Bundan tashqari har bir kitobxonning o‘ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqish mavjud bo‘lib, tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olish lozim [3]. Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlami va ularga yordam berish zarur. Bolaning ko‘z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan, uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo‘lib gavdalanish lozim. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbat bog‘liq. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishslash qonun qoidalalarini ham aytib o‘tishi lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berishi lozimligi uqtiriladi. Maktabgacha yoshdagи bolalar kitob tanlashda kutubxonachiga yoki tarbiyachiga muhtojdilar. Shuning uchun ham kutubxonani yoki tarbiyachi kitob tavsiyasining eng yaxshi usuli – suhbatdan foydalaniadi.

Ovozli o‘qish va so‘zlab berish maktabgacha yoshdagи bolalar bilan ishslashda muhim o‘rin egallaydi. Ular ham o‘qish texnikasini yaxshi egallamagan bo‘ladilar. Shuning uchun bu yoshdagи bolalar birinchi – ikkinchi yilda o‘qishga qiynalishlari sababli o‘qishdan ko‘ra eshitishni yaxshi ko‘radilar. Bundan tashqari, bolalar o‘qishgagina emas, diqqat bilan eshitishga ham, eshitganlarini o‘zlashtirishga va aytib berishga ham o‘rganishlari kerak. Ovozli o‘qishga yoki so‘zlab berishga xalq ertaklari juda qiziq manba bo‘lib xizmat qiladi. Har xil fantastik sehrli ertaklarni

so‘zlab berish maqsadga muvofiq. Aniq va yorug‘ obrazli kichik, qiziqarli ma’nodor ertaklar bolalarni atroflarini o‘rab turgan dunyo bilan tanishtiradi. Ularning ko‘pgina savollarga javob beradi. Xalq ertaklariga xos bo‘lgan xususiyat haqiqatni yomonini, rostni yolg‘on ustidan g‘alaba qilish xususiyati bolalarda haqgo‘ylikni tarbiyalaydi. Natijalar ertaklar bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otadi. Ammo hamma xalq ertaklari ham bolalarga to‘g‘ri qilavermaydi. Ertak tanlayotganda bolalarning yosh xususiyatiga, ertakning g‘oyasi va mazmuniga e’tibor berish kerak.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni kitobxonlikka qiziqtirishning yana bir usuli so‘zlab berishdir. So‘zlab berish asar tanlangandan so‘ng bиринчи мarta o‘qib, hamma tomoniga e’tibor berish kerak. Uning mazunini bilan shunday tanishishi va eshituvchilarga ham hikoyaga asardan qanday ta’sirlangan bo‘lsa, shunday ta’sirlanishlari kerak. Shundagina kitobdagi hamma narsalar eshituvchilarning esida qoladi, ular holatlarini hatto so‘zma – so‘z bilib olishadi. So‘zlab berishda ma’noga amal qilish lozim [4].

Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma’lum faoliyat bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Katta odamlar boshqa odamlar uchun kerak bo‘ladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo‘lsalar, bolalar faoliyatining asosiy maqsadi bilib olish, o‘rganishda asoslanadi. Maktabgacha yoshdagи bolalarning faoliyatлари – o‘yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo‘lishi mumkin. Bolalar odatda kishilarning topshiriq va takliflari bilan ma’lum faoliyatga kirishadilar. Ayrim hollardagina bolalarning o‘zлari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. Har ikki holatda ham bolalar faoliyati ma’lum natijaga ega bo‘ladi. Interfaol mashg‘ulotlar faol o‘quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o‘quv o‘zaro ta’siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdgi bolajonlar o‘rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko‘plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o‘rganish usullari har doim o‘zaro ta’sir, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o‘rtasidagi o‘yindir.

Darslarda faol va interfaol o‘rganish usullaridan foydalangan holda o‘qituvchi talabalar tomonidan o‘qilgan materiallar miqdorini 90 foizgacha oshiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi interfaol texnologiyalar va o‘quv usullariga asosan qo‘llaniladi. Maktabgacha tarbiyachi uchun o‘yin – bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo‘lgan hamma narsani o‘rgatishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda bolalarni kitobxonlikka, kitob o‘qishga qiziqtirishda psixologiyaning o‘rni beqiyosdir. Chunki psixologiyaning qator metodlari orqali bolalarning kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllatirishning samaradorligi turli tajriba va tadqiqot ishlari tomonidan aniqlangan. Zero, interfaol texnologiyalar muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi: kattalar va bolalar bilan bepul aloqa o‘rnatish; bolalarning og‘zaki nutqining barcha tarkibiy qismlarini ishlab chiqish;

nutq standartlari o‘quvchilari amaliy mahoratiga hissa qo‘sish. Dunyoning turli institutlari tomonidan o‘qitilgan boshqa turli xil uslublar mavjud. Yondashuv jihatidan har xil bo‘lishiga qaramay, har doim ham ushbu metodlarni o‘qitishning aniq usullariga ajratish mumkin emas [5]. Ko‘p marta turli xil yondashuvlar ma’lum darajada mos kelishi mumkin, shuningdek, turli xil bolalar ehtiyojiga bog‘liq. Biroq, ushbu turli xil usullarni aks ettiradigan narsa – bu bolaning ehtiyojlarini qondirish uchun muassasa tomonidan qilingan harakatdir. Ushbu usullar, shuningdek, bola uchun mактабгача та’лим ташкiloti bilan faol aloqada bo‘lish zarurligini aks ettiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Nishonova, G.Alimova. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi.T., 2006-y. 10 b.t.
2. R.A. Mavlonova va boshqalar ‘‘Pedagogik texnologiya’ ’ Fan 2008-yil
3. Asqarov, I. B Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tadqiqot faoliyati uchun tayyorlashning asosiy bosqichlari. Sharqiy Evropa ilmiy jurnali, 2017 yil
4. N.M.Qayumova “Mактабгача pedagogika”. “TDPU” nashriyoti, T.: 2013-y.